O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY GVARDIYASI
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
MINTAQAVIY O‘QUV MARKAZI

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH JAMIYAT VA DAVLAT RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

TO‘PLAMI

(2023 yil 3 mart)

“BURCH, SADOQAT, JASORAT”



NUKUS-2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MINTAQAVIY O‘QUV MARKAZI

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH JAMIYAT VA DAVLAT RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazining 2023 o‘quv yili birinchi yarim yillik uchun ish rejasiga asosan o‘tkazilgan

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

(2023 yil 03 mart)

NUKUS

«Nur Turan print»

2023

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi O‘quv uslubiy kengashida ma‘qullangan

Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat va davlat rivojining muhim omili sifatida: mahalliy va xorijiy tajriba: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2023 yil 03 mart).-T.:O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi

To‘plamda 2023 yil 03 mart kuni bo‘lib o‘tgan **“Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat va davlat rivojining muhim omili sifatida: mahalliy va xorijiy tajriba”** mavzusida ilmiy-amaliy anjuman materiallari o‘rin olgan. Ushbu to‘plamda so’nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jahon tajribasi ilmiy jihatdan o‘ragnish va shunga asosan mahaliy qonunchilikni takomillashtirish hamda ko‘rib chiqilayotgan mazkur masala doirasida qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Ushbu to‘plamda professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar va tinglovchilar hamda ta’lim muassasalari bilan qiziquvchi barcha axborot resurs markazlari foydalanishi mumkin.

To‘plamdagi kiritilgan maqolalarning mazmuni, tartibi va keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

© O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi, 2023

Bektemirov Ulug‘bek Tileubergenovich — ***O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi boshlig‘i, podpolkovnik***

“Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat va davlat rivojining muhim omili sifatida: mahalliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumandagi nutqi

Assalomu alaykum hurmatli professor-o‘qituvchilar, hamkasblar, mehmonlar va tadbir ishtirokchilari!

Avvalambor, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mintaqaviy o‘quv markazi tomonidan tashkil etilgan mazkur anjumanga - xush kelibsiz.

Hozirgi kunda barcha sohalarda, ayniqsa, oxirgi besh yillikda mamlakat taraqqiyoti, xalq manfaati yo‘lida olib borilgan islohatlar va erishilgan yutuqlar nafaqat xalqimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan ham alohida e'tirof etilmoqda. Albatta, bunday yutuqlarga erishishimizning asosiy sababi, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda barcha islohatlar zamirida xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerakligi, odamlarning ertaga emas, bugun yaxshi yashashi muhimligi bosh shior etib olinganidir. Eng asosiysi, xalqimiz ijobiy o‘zgarishlarni o‘z hayotlarida his qila boshladi va shu sababdan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlarni qo‘llab-quvvatlagan holda yagona maqsad ekanligi o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Bu boroda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor” degan edi.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

Bugungi kunda islohotlarimiz samarasi ko‘p jihatdan to‘rtta muhim omilga – ya’ni, qonun ustuvorligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashish, institutsional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog‘liq. Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi.

So’nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro samarali hamkorligini tashkil etish bilan bog‘liq “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar, Prezidentimizning “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib,

davlat organlari va keng jamoatchilik oldida turgan muhim vazifalar aniq va ravshan belgilab berildi.

Korrupsiya muammosini echmasdan davlat boshqaruvi vazifalarini samarali echish mumkin emas. Hozirgi vaqtda jamiyatimizning ko‘p sonli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy muammolari orasida korrupsiyaga qarshi kurash muammosi ayniqsa muhim o‘rin egallaydi. Bu hol bir necha omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, aholining turli qatlamlari o‘rtasida tengsizlik kuchayib borayotgan sharoitda davlat amaldorlari tomonidan mansab mavqeini suiiste’mol qilish hollari hokimiyat obro‘siga putur etkazadi, amalga oshirilayotgan jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonlarini obro‘sizlantiradi.

Ikkinchidan, iqtisodiy mazmuni resurslarni taqsimlash jarayonining deformatsiyalanishidan iborat bo‘lgan korrupsiya iqtisodiyotning rivojlanishi va mustahkamlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, korrupsiya, boshqa ko‘pgina salbiy ijtimoiy hodisalar singari, o‘zining keng ildiz otishiga zamin yaratadi – u bo‘lg‘usi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartibga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, bunda korrupsiya qancha chuqur ildiz otgan bo‘lsa, unga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf etish, hatto korrupsiyaning ba’zi bir sabablari tugatilgan bo‘lsa ham, shuncha qiyinlashadi.

To‘rtinchidan, mamlakatdagi korrupsiya darajasi siyosiy omilgina bo‘lib qolmasdan, balki qarzlar berish, chet el investitsiyalarini amalga oshirish shartlari va hokazolarga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim iqtisodiy omil hisoblanadi.

Korrupsiya, uning ko‘lami, xususiyati va dinamikasi – mamlakat umumiy siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarining mahsuli. Mamlakatda modernizatsiya jarayonlari yuz berayotgan davrda korrupsiya muntazam ravishda kuchayib borishi mumkin. O‘zbekistonda hozir nafaqat modernizatsiya, balki ijtimoiy, davlat va iqtisodiy negizlarning tubdan o‘zgarish jarayonlari yuz berayotir. SHu bois mamlakatimizda rivojlanishning umumiy, shu jumladan salbiy qonuniyatlari kuzatilayotgani tabiiy bir holdir.

Korrupsiya bugungi kunda deyarli dunyoning barcha davlatlarini bezovta qilayotgan huquqbuzarlik turi hisoblanadi. Shu bois korrupsiya umuminsoniy illat deb e’tirof etilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligi bo’lib, bularning hammasi bizlar uchun hal qiluvich tamoyilardir.

Eng muhimi, mamlakatimiz xalqi islohatlar natijalarini o‘tayotgan har bir kunida his qilib, tinch va osoyishta hayotiga shukrona keltirib yashamoq lozimdir. Prezidentimiz ta'qidlaganidek, “Bosh maqsad odamlarni rozi qilishdir”.

So‘zimning yakunida imkoniyatdan foydalanib, yana bir bor bugungi tashkil etilgan anjumanga o‘zlaringizning qimmatli vaqtingizni ayamasdan kelganingizga rahmat aytamiz. Sizlarga va yaqinlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka, baxt-saodat tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Юсупов Мухтар Бекчанович — ***Қорақалпоғистон Республикаси бўйича Миллий гвардия бошқармаси бошлиғи, полковник***

Жолдасов Айдос Фархадович — ***Қорақалпоғистон Республикаси бўйича Миллий гвардия бошқармаси бўлим бошлиғи, подполковник***

КОРРУПЦИЯ ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ РИВОЖЛАНИШИНИНГ КУШАНДАСИ

Бугунги кунда коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бутун дунёда долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “коррупциянинг олдини олмасак, ҳақиқий ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини яратиб бўлмайди, умуман, жамиятнинг бирорта тармоғи ривожланмайди.

Коррупция мулкий муносабатлар, фуқаролик жамияти ва демократия институтлари, соғлиқни сақлаш, ижтимоий таъминот ва иқтисодиёт ривожланишини нафақат секинлаштириб, балки фуқаролар томонидан таълим соҳасидаги ўз конституциявий ҳуқуқларини рўёбга чиқаришларига ҳам тўсқинлик қилади. Бундан келиб чиқадики, коррупциянинг мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишига салбий таъсири натижасида инвестиция оқимининг камайишига, халқ фаровонлигининг пасайишига ҳамда таълим сифатининг тушиб кетишига олиб келади.

Айрим халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларда коррупция тушунчасига нисбатан қисқача таъриф берилган бўлиб, мазкур таърифлар ўрганилаётган тушунчанинг энг асосий қирраларинигина очиб беради. Жумладан, “Transparency International” ташкилоти мазкур тушунчани “ўзига ишониб топширилган ваколатларни шахсий манфаатлар учун суиистеъмол қилиш” сифатида таърифлайди. Ғарб давлатларида коррупция тушунчасига нисбатан таъриф беришда турлича (иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, ижтимоий) ёндашувларни учратишимиз мумкин. Карен Катзнинг фикрича, “коррупция деганда ўз ваколатларини моддий ёки номоддий наф кўринишидаги шахсий бойлик ортириш мақсадида суиистеъмол қилиш тушунилади”.

Мазкур таъриф ўрганилаётган тушунчанинг барча элементларини қамраб олмаган бўлса-да, унинг энг асосий жиҳатларини ўзида акс эттирган. Стенфорд ҳуқуқ мактаби олимлари Д.Мистрее ва А.Диблейлар мазкур тушунчага нисбатан “шахснинг ўзи аъзоси бўлган ташкилотга нисбатан жамоатчиликнинг ишончини пасайтирган ҳолда фойда олишни кўзлаши натижасида содир бўладиган воқеа-ҳодиса” сифатида таъриф берганлар.

Коррупция тушунчасига нисбатан мазкур таъриф жуда ҳам кенг маънода бўлиб, унинг мазмунига кўра аниқ доирадаги ҳаракатларгина эмас, балки шахснинг руҳий кечинмалари ҳам коррупциянинг бир қисми сифатида

эътироф этилиши лозим бўлади. Роз-Акерман, Сюзан ва Палифкаларнинг таъкидлашича, “коррупция, аксарият ҳолларда, хусусий секторда ишловчи шахсларнинг давлат сектори ходимларига пора бериши ҳамда бунинг натижасида мазкур мансабдор шахснинг бойлик ортиришга нисбатан манфаатлари ва давлат манфаатлари тўқнашуви натижасида юзага келади”

Коррупциявий жиноятлар – бу мансабдор шахс ёки хизматчининг ўзига ишониб топширилган ваколатлар ёҳуд мансаб мавқеидан шахсий ёки бошқа шахсларнинг моддий ва номоддий наф кўриши учун ғаразли мақсадларда фойдаланишидан, шунингдек уларни ушбу мақсадларда ўзига оғдиришдан иборат бўлган жиноятлардир. Ушбу таърифлан келиб чиққан ҳолда, фикримизча, коррупциявий жиноятлар сифатида Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 167-моддаси 2-қисми “г” банди, 168-модда 2-қисми “в” банди, 192[9], 192[10], 210-214-моддалари, шунингдек, шахсий манфаатларни ёки бошқа шахсларнинг манфаатларини кўзлаб тамагирлик ниятида содир этилган Жиноят кодексининг 182-моддаси 2-қисми “г” банди, 192[11], 205-206, 209 ва 301-моддалари ҳамда юқорида кўрсатилган жиноятлардан олинган даромадлар билан боғлиқ ҳолда содир этилган Жиноят кодексининг 243-моддасини[1.] назарда тутиш лозим.

Шунингдек, жиноят қонунчилигимизда коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик назарда тутилган моддалар Жиноят кодексининг ягона бобига жамланмаган бўлсада, коррупциявий жиноятларнинг аксарияти Жиноят кодексининг 15-бобида (“Бошқарув тартибига қарши жиноятлар”) ва айримлари 10-боб (“Ўзгалар мулкини талонторож қилиш”), 17-боб (“Жамоат хавфсизлигига қарши жиноятлар”) ҳамда 24-боб (“Ҳарбий мансабдорлик жиноятлари”)да ўз аксини топган.

Миллий қонунчилигимизда “коррупциявий жиноятлар”тушунчасининг мазмуни бошқа атамалар, жумладан,“коррупция” ва “коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик” тушунчаларига расмий таъриф бериш орқали очиб берилган.

2017 йилнинг 3 январь кунидаги “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги ЎРҚ-419-сонли қонун қабул қилиниб, коррупцияга қарши курашиш фаолияти тартибга солиниб, унинг қонуний асоси яратилган эди

Амалга оширилган ислоҳотлар коррупциявий жиноятларнинг содир этилиш динамикасига муайян даражада таъсир қилди. Жумладан, 2018 йилда турли тоифадаги 3013 нафар мансабдор шахсларга нисбатан жами 2076 та, 2019 йилда 2066 нафар шахсга нисбатан 1469 та жиноят иши қўзғатилган бўлса, 2020 йилда бу кўрсаткич 1520 нафар шахсга нисбатан 994 тани ташкил қилди.

Жиноий ишлар доирасида 2018 йилда 2881 нафар, 2019 йилда 1907 нафар, 2020 йилда эса 1339 нафар шахслар жиноий жавобгарликка тортилган. Мансабдор шахсларнинг жиноятлари оқибатида давлат ва жамият манфаатларига 2018 йилда 142 млрд. 662 млн. сўм, 2019 йилда 559 млрд. 174 млн. сўм, 2020 йилда эса 1 трлн. 853 млрд. сўм миқдорида моддий зарар етказилган.

Шунингдек, мазкур даврда Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинглардаги ўрни муайян даражада яхшиланди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси “Transparency International” коррупцияга қарши ташкилотининг Коррупцияни қабул қилиш индекси (Corruption Perception Index)да 2016 йилда 21 балл билан 176 давлат ичида 151-ўринни, 2017 йилда 22 балл билан 180 давлат ичида 157-ўринни , 2018 йилда 23 балл билан 180 давлат ичида 158-ўринни, 2019 йилда 25 балл билан 180 давлат ичида 153-ўринни, 2021 йилда 28 балл билан 180 давлат ичида 140-ўринни эгаллаган бўлса, 2022 йилда 31 балл билан 180 давлат ичида 129-ўринга лойиқ кўрилган. Ушбу маълумотлардан кўриниб турганидек, Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш йўналишида кўплаб амалга оширилган амалий ишлар, ўзининг натижасини бераётганидан далолат бермоқда. Бу каби жиноятларнинг олдини олиш антикоррупцион режаларни ривожлантириш, коррукция тушунчасининг аниқ чегараларини белгилаб олиш ва қонунчиликка татбиқ этиш, миллий қонунчилигимизнинг БМТнинг Коррупцияга қарши конвенцияси талабларига мослаштириш, Коррупцияга қарши қонунларни қабул қилиш, Давлат хизматлари тизимининг шаффофлигини таъминлаш ва албатта фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ошириши боғлиқ деб ҳисоблаймиз.

Тадқиқотчилар коррупциянинг асосий сабаблари сифатида тўртта омилни кўрсатадилар.

Биринчиси - иқтисодий сабаблар. Бу ҳақда, муҳтарам Президентимиз ўзларининг чиқишларида кўп маротаба сўз юритиб келади. Коррупциянинг бу кўриниши ижтимоий ва иқтисодий ҳаётни бевосита маъмурий йўл билан бошқаришга интилган ҳокимият ва бюрократиянинг мавқеи баланд бўлган давлат шароитида ривож топади. Иқтисодий фаолиятга нисбатан ўрнатилган турли хилдаги чеклашлар, амалдорларнинг кенг, назоратдан холи, чекланмаган ёки рухсат бериш, ёки тақиқлаш ваколати коррупцияга замин яратади. Шу билан боғлиқ ҳолда, йирик маблағларга эга бўлган айрим ишбилармонлар ўз даромадларини кўпайтириш мақсадида ва рақобатда алоҳида имтиёзларга эга бўлиш учун ҳукумат амалдорларини пора эвазига сотиб олиб, уларни ўз ихтиёрларига бўйсундиришга интиладилар.

Иккинчиси - ҳуқуқий сабаблар. Коррупциянинг ривожи қонунларнинг сифатига боғлиқдир. Мукаммал бўлмаган қонунлар ишламайди ва айрим уддабуронлар бундан усталик билан фойдаланадилар.

Учинчиси - институционал сабаблар бўлиб, уларга аввало, давлат бошқаруви тизимидаги нуқсонлар, демократик институтларнинг кучсизлиги, шунинг натижасида, ҳукумат фаолиятининг ёпиқлиги ёки фуқаролик назоратидан холилиги киради.

Тўртинчиси - ижтимоий сабаблар ёки жамиятдаги муҳит, аҳолининг ҳуқуқий билими, маданият даражаси, маънавияти, уюшқоқлиги ва жамоат фаоллиги пастлиги каби омиллардир.

Хулоса шундаки, коррупцияни келтириб чиқарувчи омиллар ана шу ҳодиса яшаб турган жамият яратган тизимнинг носоғлом яшашида намоён бўлади ва бундай жамият ривожланишидан тўхтаб, таназуллга юз тутади.

Фойдаланилган адабиётлар

1.https://lex.uz/docs/111453/ Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 1994 йил 22 сентябрь куни қабул қилинган

Bektemirov Ulug‘bek Tileubergenovich — ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi boshlig‘i, podpolkovnik***

Munnazarov Murat Jumabayevich — ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi boshlig‘ining o‘rinbosari v.v.b, podpolkovnik***

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TUSHUNCHASI VA MAZMUNI

Barchamizga ma’lumki, hozirgi zamon milliy va xalqaro huquqida tobora ko‘p qo‘llanilayotgan atamalardan biri bu korrupsiyadir.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq korrupsiya illatiga qarshi kurashish masalasiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Chunki poraxo‘rlik - hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro‘siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan havfli jinoiy hodisalardan biridir.

Ma’lumki, korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma’muriy munosabatlari ma’no-mohiyatini o‘zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi. Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir.

Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga so‘zning keng ma’nosida yondashadigan bo‘lsak, bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma’naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, o‘ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar.

Hozirda korrupsiya tushunchasini yoritishda bir qancha ta’riflar mavjud. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli ta’rif quyidagicha berilgan: “Korrupsiya – bu shaxsiy naf ko‘rish maqsadida davlat hokimiyatini suiste’mol qilishdir”.

Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu jinoyatga “Jinoyatning yopiq va eng qabih turi bor. Bu korrupsiya va poraxo‘rlik, jinoyatning bu turi boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod etishi mumkin. Korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishidir” deb bejiz ta’rif berilmagan.

Bugungi kunga kelib respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning mustahkam huquqiy bazasi va aniq tizimi shakllandi.

Ushbu illatga qarshi kurashishni jahon talablari asosida tashkil etish maqsadida 2008 yilda mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 13 oktyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi" Konvensiyasini ratifikatsiya qildi, shuningdek, "Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilishi to‘g‘risida"gi Qonun qabul qilindi. Shuningdek, Davlatimiz 2010 yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003 yil 10 sentyabr) qo‘shildi.

Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarini tashkillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining korrupsiyaga qarshi kurash va oldini olish bo‘yicha bir qancha qarorlari qabul qilindi va ularning ijrosini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Bugungi kunda loqaydlik, befarqlik, ikkiyuzlamachilik, tovlamachilik, firibgarlik, urug‘-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, poraxo‘rlik kabi illatlar uchrayotganligiga guvoh bo‘lib turibmiz.

Korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida muntazam ravishda profilaktik suhbatlar va tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Davlat organlari xodimlariga o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini ko‘zlagan muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita o‘zi yoki vositachi orqali pul, qimmatli qog‘ozlar, moddiy boyliklar, sovg‘alar, ssudalar, mulkiy mohiyatga molik bo‘lgan xizmatlar (transport vositasidan foydalanish, davolanish va boshqalar) kabi takliflar bilan murojaat qilingan taqdirda, u noqonuniy xatti-harakatlarni to‘xtatishni talab qilishi va taklif qilgan shaxsni tegishli javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirishi lozimligi, bunda xodim poraga moyillik sifatida baholanishi mumkin bo‘lgan har qanday xatti-harakatlarga va so‘zlarga yo‘l qo‘ymasligi, mazkur holat bo‘yicha zudlik bilan tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlarini yozma tarzda xabardor qilishi, zudlik bilan yozma tarzda xabardor qilishning imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa, telefon orqali xabar berishi yoki tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga darhol murojaat etishi, xodimning ogohlantirishiga qaramasdan pul yoki boshqa moddiy boyliklar qonunga xilof ravishda uning xizmat xonasida qoldirib ketilgan taqdirda, bu haqda binoga kirish-chiqish postida xizmat o‘tayotgan tegishli shaxs (qorovul) va boshqa xodimlar ishtirokida dalolatnoma tuzib, mazkur dalolatnomani rahbariyatga taqdim etishlari shart ekanligi xususida doimiy ravishda ko‘rsatmalar va tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Barcha xodimlar o‘z xizmat vazifalarini halol, vijdonan, yuqori professional darajada va vakolatlaridan chetga chiqmagan holda bajarishi, har qanday vaziyatda o‘z sha’ni va qadr-qimmatini saqlashi, odob-ahloq kasb etika qoidalariga rioya qilishi, kamtar, xushmuomalada bo‘lishi, hech kimga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘lmasligi, fuqarolarni qabul qilishda uning xolisligi va beg‘arazligini shubha ostiga qo‘yadigan, biror-bir afzallik va noxolis munosabat mavjud degan tasavvurni hosil qilishi mumkin bo‘lgan, shuningdek davlat

organlarini obro‘sizlantirish va nufuziga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan o‘zini tiyishi, o‘z xizmat vazifalarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakat yoki harakatsizlik evaziga pul, moddiy boylik va mulkiy ahamiyatga ega xizmatlar yoki boshqa ko‘rinishda haq olmasligi, o‘z xizmat mavqeidan o‘zi, qarindoshlari va boshqa shaxslar uchun biron-bir manfaat, xizmat, tijorat yoki boshqacha tarzda foyda olish maqsadida foydalanmasligi, shaxsiy masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarga murojaat qilganda xizmat mavqeidan foydalanmasligi, bo‘ysinuvidagi xodimlarni noqonuniy qarorlar qabul qilish yoki g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga majbur etmasligi kerakligini har kuni yodda tutmog‘i lozimligi ta’kidlanib kelinmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib qo‘yidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo‘ldi:

- korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan sohalar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni yanada shakllantirish va amalga oshirish;

- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalariga oid axborotlarni tarqatish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish orqali jamiyatda korrupsiyaning barcha salbiy ko‘rinishlariga propaganda ishlarini amalga oshirish;

- mazkur ishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda mamlakatning imidjini mustahkamlash va uning xalqaro reytinglardagi o‘rnini oshirish bo‘yicha ijobiy ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to‘plami, 2008 y., 3-4-son
2. https://gazeta.norma.uz

Yermekbayev Bauırjan Amantayevich — ***Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti Yoshlar bilan ishlashish bo'yicha dekan o'rinbosari. bawka83@gmail.com***

Ametova Aysulu Mnajatdinovna — ***Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti Jinoiy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasi stajer o'qituvchi. aisuluametova@gmail.com***

Urazov Nurmuxammed Salauatovich — ***Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti Jinoiy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasi stajer o'qituvchi. urazovnurik@gmail.com***

KORRUPSIYA TARAQQIYOT KUSHANDASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyasiyaning kelib chiqishi, uning tarixi haqida ham keltirib o'tilgan. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi islohotlar va ularning natijasi haqida amalga oshirilayotgan huquqiy normalarga tayanilib o'rganilgan. Shuningdek chet el korrupsiyasi ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, mansabga sovuqqonlik bilan qarash, pora olish, pora berish, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, xalqaro hamjamiyat qarashlari.

Bugungi davrda rivojlanib borayotgan, butun jahon hamjamiyati vakillarini tobora tashvishga solayotgan "korrupsiya" jamiyat xavfsizligi va barqarorligi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va mamlakatning taraqqiyot rivojiga to'sqinlik qilayotgan illatlardan biridir. Korrupsiya bilan bog'liq muammolarning keng talqin qilinishi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan islohotlarning kuchaytirilishiga qaramay ushbu jinoyatni ildiz otib borishi, uning mohiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish va kelib chiqish sabablarini yanada kengroq o'rga nishga chorlaydi. Korrupsiyaga oid jinoyatlar hukumat vakillarining jamiyat oldidagi obro'siga putur yetkazibgina qolmay, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarning izchil olib borilishida ham anchagina muammolarni tug'dirishi mumkin.

Shu bilan birga korrupsiya so'ziga qisqacha ta'rif berib o'tsak, Korrupsiya (lotincha: corrumpo —buzmoq, aynish, poraga sotilish) — mansabdor shaxsning o'z mansabi bo'yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste'mol qilishidan iborat amaliyot.[1] Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham Korrupsiya deyiladi. Korrupsiya davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi. Saylanadigan lavozimlarga

nomzodlar saylov kampaniyasini o‘tkazish harajatlarini ko‘tarish Korrupsiya ko‘rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar, yordam, xizmatlar ko‘rsatib "o‘z qarzini" qaytaradi).

Aksariyat Korrupsiya lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o‘tkazish bilan shug‘ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog‘langan. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo‘yicha "Lokxid ishi" eg yirik Korrupsiya ko‘rinishlariga misol bo‘ladi. Porani xaspo‘shlash uchun yirik bitishuvlarda ko‘proq "xizmat haqi" to‘lash amaliyotidan foydalaniladi. [3]

Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi. Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda “Sovg‘alarni qabul qilma, chunki sovg‘a ko‘rni ko‘radigan qiladi va haqiqatni o‘zgartiradi” deyilgan bo‘lsa, Qu’roni Karimda “Boshqalarning mulkini nohaq yo‘l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo‘lgan narsalarni olish uchun o‘z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda “haqqoniy hukm chiqarish, pora olmaslik, to’g’ri guvohlik berish va to’g’ri gapirish” ijobiy hislatlar sifatida ulug’lanib kelingan bo’lsa, aksincha, ko’rib turib adolatsizlik, nohaqlik qilga n amaldorlarning aytgan va qilgan yomon fikr, yomon kalom va yomon amallari” qattiq qoralangan.[1] Shuni qayd etish kerakki, zardushtiylikda doimo ezgulik yuksak qadrlangan va baholangan.

Korrupsiya jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi.[5] Korrupsiyaga qarshi kurashish organining samarali faoliyatida mahalliy bo’linmalarning ta’siri ham muhim ahamiyatga ega.

Xususan, Germaniya va Avstriya tajribasi ham korrupsiyaga qarshi kurashishda mahalliy tuzilmalarning muhim rol o’ynashini ko’rsatadi. Germaniyaning davlat apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy bo’g’ini sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha maxsus bo’linmalardir. Avstriyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan maxsus prokuratura shug’ullanadi.[2]

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya’ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo‘lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yili Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Halollik Vaksinasi“ va korrupsiyaga qarshi kurashish organligining tuzilishi kerakligi aytildi. Jamiyat va mamlakat turmushining barcha jabhalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan siyosatning samarasini oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkillashtirildi. Ushbu agentlik Prezidentga bo’ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobot topshiradi.[4]

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali natijaga erishish uchun jamiyatimizning quyi qatlamidan “korrupsiya-yomon illat” ekanligini, shu bilan birga “huquqiy ong va huquqiy madaniyat” tushunchasi to’g’risida yetarlicha ma’lumot berishimiz kerak. Biz bunda ,albatta, hammamiz foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlardan keng ravishda foydalanishimiz mumkin. Ortiqcha qonunlardan voz kechgan holda aholi bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida yagona qonunchilik tizimini yaratishimiz kerak. Xulosani quyidagi Sh.Mirziyoyev aytgan gaplar bilan yakunlamoqchiman. Ya’ni “Jamiyatimizda korrupsiya turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarliklar holatlariga qarshi kurashish , ularga yo’l qo’ymaslik, jonoyatga jazo albatta muqarrar ekani to’g’risida qonun talablarini amalda ta’minlash bo’yicha qat’iy choralar ko’rishimiz kerak”.[5] Qo’shimcha tarzda quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi islohotlarning samaradorligini yanada oshirish, oliy davlat vakillik organlarining bu boradagi xalqaro andozalarga asoslangan holda mentalitetimizga mos bo’lgan qonunlarni yaratish;

2. Pora olish, pora berish jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik miqdorini keskin ko’paytirish kerak;

3. Davlat xaridlarini nazorat qilish, qarz taqsimot masalalarini aniq nazorat va uning ustida amaliy ishlar olib borilishi kerak;

4. Davlat xizmatlarida, aholiga xizmat ko’rsatishda elektron tizimdan keng foydalanish va faol ravishda targ’ib qilish;

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa huquqiy qonunlar yuzasidan fuqarolarga keng tushuntirish ishlarini olib borish va ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirib kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyotlar ;www.lex.uz.

2. Konstitutsiyaviyhuquq; Darslik/ Mas’ulmuharrir; A.X.Saidov –T;TDYI. Nashiryoti, 2005.-280bet

3. O’zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish” to’g’risidagi O’RQ-419-sonli qonuni. (04.01.2017). https://www.lex.uz

4. O’zbekiston Respublikasining “ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga Qarshi Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr) O’zbekiston Respublikasining qo’shilishi to’g’risidagi 07.07.2008 yil, O’RQ-158-son Qonuni //O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-yil, 7-son.

5. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O’zbekiston Strategiyasi.-Toshkent.: “O’zbekiston” nashriyoti. 2021. 464-bet.

Amaniyazova Sveta Bayniyazovna — *Yuridik fanlari falsafa (PhD) doctori, Qoraqalpoq davlat universiteti «Inson huquqlari, davlat huquqi va boshqaruv» kafedrasi docenti v.b.*
sss83.84@mail.ru

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ózbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni Ózbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida takidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupciya illati ózining turli kórinishlari bilan taraqqiyotimizga gov bólmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investiciya muhitini yaratib bólmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmoǵi rivojlanmaydi”[1].

Aytish joizki, yurtimizda korrupciyaga qarshi siyosatni olib borish bóyicha juda katta islohotlar olib borilmoqda.

Ammo, shunga qaramasdan, davlat organlari xodimlari tomonidan korrupciya bilan boǵliq jinoyatlari sodir etish holatlari uchramoqda. Masalan, 2021 yilda Qoraqalpoǵiston Respublikasi bóyicha jami 36 ta korrupciya bilan boǵliq jinoyat sodir etilgan bólsa, shundan 9 tasi yoki har tórttadan bittasi Qoraqalpoǵiston Respublikasi tuman va shahar hokimi órinbosarlari hisobiga tóǵri kelmoqda**.** Mazkur jinoyatlarning 4 tasi er ajratish, 4 tasi byudjet mablaǵlarini ózlashtirish va davlat mulkini talon-toroj qilish hamda 1 tasi kredit mablaǵlarini ózlashtirish bilan boǵliqdir. Natijada davlat va jamiyat manfaatlariga 3 mlrd. 793 mln. sómlik moddiy zarar etkazilgan [2].

Davlatimiz Prezidenti haqli ravishda takidlaganidek, “korrupciyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha azolari, tabir joiz bólsa, “halollik vakcinasi” bilan emlanmas ekan, óz oldimizga qóygan yuksak marralarga erisha olmaymiz” [3].

Ózbekistonda korrupciyaga qarshi kurash siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlanib, mamlakatimizda Konstituciyaga asoslangan holda qabul qilingan normativ-huquqiy baza yaratilgan bólib, u korrupciyaning davlat, xójalik boshqaruvi organlarining bir maromda amal qilishiga salbiy tasiriga qarshi kurash, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida demokratik islohotlarni amalga oshirish, mamlakatda barqarorlik va xavfsizlik saqlanishini taminlash uchun xizmat qilmoqda. Bugungi Ózbekistonning kóplab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy muammolari orasida korrupciyaga qarshi kurash alohida órin tutadi.

Korrupciyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda óz ifodasini topgan bólib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupciyaga qarshi Konvenciyasi;

- 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvenciyasi;
- 1999 yil 27 yanvardagi Evropa Kengashining “Korrupciya uchun jinoiy javobgarlik tóǵrisida” gi Konvenciyasi;
- 1999 yil 4 noyabrdagi “Korrupciyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik tóǵrisida” gi Konvenciyalari va boshqalar.

2008 yil 7 iyulda «Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupciyaga qarshi kurash konvenciyasiga qóshilishi tóǵrisida»gi Qonuni bu boradagi ishlarning asosiysi hisoblanadi

Shuningdek, davlatimiz 2009 yilda Istanbul harakat rejasiga qóshilgan bólib, mamlakatmizda korruciyaning oldini olish va ildizini quritishga dadillik bilan kirishganining yaqqol ifodasidir. Istanbul xarakat rejasi — OESR (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tizimi mintaqaviy tashabbus asosida tashkil etilgan bólib, Sharqiy Evropa va Markaziy Osiyoning Ózbekiston, Qozoǵiston, Qirǵiziston, Tojikiston, shuningdek, Ukraina, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya kabi mamlakatlar uchun móljallangan. Istanbul harakat rejasini amalga oshirishda OESR tizimi doirasiga kiruvchi boshqa davlatlar ham ishtirok etadi. Istanbul xarakat rejasi óz tarkibiga mamlakatlarning korrupciyaga qarshi kurashish sohasida tahlillar ótkazish va qonunchilik monitoringini qamrab olishi bilan ahamiyatli.

Takidlash joizki, mamlakatimizda korrupciyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupciya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Keyingi yillarda korrupciyaga qarshi kurash bóyicha amalga oshirilayotgan ishlarni uch bosqichga bólish mumkin.

Jumladan, birinchi bosqichda, korrupciyaga qarshi kurashishning huquqiy asosi yaratilib, xususan, 2016 yilning 13 dekabrda bólib ótgan Senatning yalpi majlisida “Korrupciyaga qarshi kurashish tóǵrisida”gi Qonuni muhokama qilindi va maqullandi. 2017 yilning 3 yanvarida esa 6 ta bob, 34 ta moddadan iborat mazkur qonun Prezidentimiz tomonidan imzolandi.

Ushbu Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda ahamiyati bóyicha korrupciyaga qarshi kurashda birinchi katta qadam bóldi. Shu kungacha korrupciyaga qarshi kurashda tarqoq qonun xujjatlaridan foydalanib kelingan, yaxlit bir qonunning ózi yóq edi. Qonunga BMTning Korrupciyaga qarshi konvenciyasida óz aksini topgan xalqaro huquqning bu boradagi umumetirof etilgan norma va koidalari kiritildi.

Qonunning etiborli tomoni shundaki, unda korrupciyaga qarshi kurashishning maqsadi, tushunchalar, principlar, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik bilan

birga korrupciyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yónalishlari belgilab berilgan.

Ikkinchi bosqichda, korrupciyaga qarshi kurashishning institucional va tashkiliy asoslari yaratilib, bu borada Prezidentimizning 2019 yil 27 maydagi "Ózbekiston Respublikasida korrupciyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tóǵrisida"gi farmoni bilan belgilab berilgan ustuvor yónalishlar muhim ahamiyatga ega.

Malumki, bugungi kunda iqtisodiyotni yuqori darajada rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish, shuningdek, mamlakatda ishbilarmonlik va investiciya muhitini yaxshilash strategik masala hisoblanadi. Bu boradagi vazifalarni hal etishda ham korrupciyaga qarshi kurashish bóyicha davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi muhim.

Shundan kelib chiqib, farmonda, birinchidan, korrupciyaga qarshi kurash samaradorligini yanada oshirish, ikkinchidan, yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik va investiciya muhitini yaratish va uchinchidan, Ózbekistonning xalqaro maydondagi obró-etibori va reytingini oshirish asosiy ǵoya va maqsad etib belgilandi. Farmon bilan "2019-2020 yillarda korrupciyaga qarshi kurashish davlat dasturi" tasdiqlandi.

Korrupciyaga qarshi kurashish bóyicha idoralararo komissiyaning 48 azodan iborat yangi tarkibi tasdiqlandi. Bundan tashqari, Oliy Majlis palatalarida korrupciyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bóyicha qómitalar tashkil etildi. Korrupciyaga qarshi kurashni respublikaning barcha hududlarida kompleks olib borishning samaradorligini oshirish maqsadida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida qonunchilikni taminlash va korrupciyaga qarshi kurashish bóyicha komissiyalar tashkil etildi.

Hududlardagi komissiyalarga joylarda korrupciyaga qarshi kurashish bóyicha ishlarning holatini kompleks órganish va tahlil qilish, tizimli muammolar tóǵrisida Oliy Majlis palatalarining korrupciyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bóyicha qómitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish va muntazam ravishda axborot berish mexanizmlari yólga qóyildi.

Qayd etish kerak, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarga davlat dasturi bóyicha maqsadlarga erishishda samaradorlik indikatorlarini ishlab chiqish topshirilib, korrupciya xavf-xatarlarini óz vaqtida aniqlash va tóǵri baho berish shaxsan rahbarlar zimmasiga yuklatildi.

Uchinchi bosqichda, korrupciyaga qarshi kurash yólida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilgan holda uning institucional asoslarini yanada takomillashtirishga alohida etibor qaratildi.

Bugungi davr korrupciyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish – korrupciya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning tasirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda [4]. Bu ishlarni samarali amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham jalb qilish zarur.

Ushbu islohotlar davomi sifatida Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli ***"Ózbekiston Respublikasida Korrupciyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bóyicha qóshimcha chora-tadbirlar tóģrisida" gi Farmoni*** qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupciyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupciyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupciyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida *Korrupciyaga qarshi kurash Agentligi* tashkil etildi.

Shuningdek, bugungi kunda Ózbekistonda korrupciyaga qarshi kurashish davlat siyosatining asosiy yónalishlaridan biri sifatida ushbu sohani takomillashtirish bóyicha davlat xokimiyati organlari tomonidan samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Korrupciyaga qarshi kurashish tóģrisida"gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek Korrupciyaga qarshi kurashish bóyicha respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupciyaga qarshi kurashish bóyicha Davlat dasturining tasdiqlanishi mamlakatda korrupciya bilan boģliq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni samarali amalga oshirilishini taminladi. Misol uchun, qisqa vaqt ichida korrupciyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid beshta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni taminlash tóģrisida"gi, "Mamuriy tartib-taomillar tóģrisida"gi, "Jamoatchilik nazorati tóģrisida"gi, "Davlat xaridlari tóģrisida"gi Ózbekiston Respublikasi qonunlari hamda Davlat rahbarining bir qator Farmonlari qabul qilinishi shular jumlasidandir.

Prezidentimizning «Harakatlar Strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili asosida inson huquqlarini taminlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bóyicha tizimli ishlarni yanada davom ettirish maqsadida «2022-2026 yillarga móljallangan Yangi Ózbekiston Taraqqiyot startegiyasi» [5] ning qabul qilinishi miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib ótgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformaciya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini sózsiz taminlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yónalishlari belgilab berildi.

Xususan, Strategiyaning 84-maqsadida:

- korrupciyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash;
- korrupciyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish;
- jamiyatda korrupciyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bóyicha chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Shuningdek, davlat organlarida ochiqlik va shaffoflikni amalga oshirish maqsadida faoliyat yurituvchi davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulklarini deklaraciya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Davlat organlarida manfaatlar tóqnashuvining oldini olish uchun samarali mexanizmning huquqiy asoslari yaratilishi darkor, bu esa óz navbatida davlat organlarining korrupciyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni taminlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirishga imkoniyat yaratishi sózsiz[6].

Strategiya asosida belgilab olingan «Yól xaritasi»da korrupciyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etish orqali sohani takomillashtirishga etibor qaratiladi.

Yuqoridagilarni tahlil qila ótirib, bizningcha korrupciyaga qarshi kurashish sohasida qóyidagicha mexanizmlarini tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Yani:

- korrupciyaga qarshi kurashish jarayoniga zamonaviy axborot kommunikaciya texnologiyalarin, shu jumladan suniy intellekt texnologiyalarini joriy etish va maxsus axborot tizimlarini yaratish;
- fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni keng yólga qóyish orqali, jamoatchilik nazoratini olib borishni qóllab-quvvatlash, aholining davlat organlari faoliyatidan xabardorlik darajasini yanada oshirish mexanizmini joriy etish;
- korrupciyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli preventiv choralarni kuchaytirish, yani bunda nafaqat korrupciya oqibatlari, balki kelib chiqish sabablarini órganish va echim topish yóllarini ishlab chiqish;
- aholining huquqiy savodxonligini va madaniyatini oshirishni muntazam takomillashtirib borish;
- davlat xizmatchilarining korrupciyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish va milliy sertifikaciyalash tartibini tatbiq etish shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar róyxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январ куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисга Мурожаатномаси. https://www.press.uz/. – Ўзбекистон Республикаси Президенти Матбуот хизмати расмий веб-сайти.

2. https://anticorruption.uz/uzc/item/2022/05/24/qoraqalpogiston-respublikasi-hududiy-kengash-yigilishi

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // 24.01.2020. www.president.uz

4. Қобилов Ш.Р . Коррупцияга қарши кураш: иқтисодий, маънавий-маърифий чоралари ва йуллари: Монография. — Т.: Узбекистон Республикаси ИИВ Академияси 2015. — 58 б.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2022 йил 28 январьда ПФ-60 сон билан Фармони билан тасдиқланган «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси». www.lex.uz/

6. Аманиязова, С. Б. (2020). Особенности применения системы цифровизации в государственном управлении. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”, 1(2), 72-76.

Xidirov Xoshim Ibodullaevich — *Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)*
@xoshimxidirov2023

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING BRITANCHA MODELI

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, Buyuk Britaniya, xalqaro standart, ochiq ma’lumot, paradigma, SFO, Serious Fraud Office, “pora berish”, “pora talab qilish” va h.k.

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy paradigmal modellaridan biri hisoblangan Buyuk Britaniyada olib borilayotgan samarali tizim haqida so‘z boradi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining tartib-taomillaridan samarali foydalanishga asoslangan bo‘lib, u xalqaro standartlarga muvofiq ochiq hukumatning asosiy institutlari ma’lumotlarning ochiqligi; davlat xizmatchilarining fuqarolar oldida hisobdorligi va faoliyatning ochiqligi; ularni amaliyotga joriy qilishga mo‘ljallangan huquqiy normalar ishlab chiqilganligi, ya’ni, o‘zining demokratik xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirganligi bilan boshqalardan ajralib turadi. SHuning uchun ham buni korrupsiyaga qarshi kurashning Britancha paradigmal moduli deb atash mumkin.

Buyuk Britaniyada korrupsiyaga qarshi kurashning bosh organi — katta miqdordagi firibgarlik bo‘yicha kurash boshqarmasi (SFO, Serious Fraud Office) hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada korrupsiyaga qarshi qonun ilk bor 1889 yilda qabul qilingan. Unda: “Mansabdor shaxsni biror muammoga “ko‘z yumish”ga yoki muayyan miqdordagi mablag‘ evaziga bevosita bajarishi shart bo‘lgan majburiyatlarini bajarmaslikka undaydigan ayniqsa, ssuda yoki mukofot va hatto hadya ham pora hisoblanadi”, deya aniq-ravshan yozib qo‘yilgan.

Poraxo‘rlar qamoqqa tashlangan hamda jamoatchilik va xalq manfaatiga aloqador lavozimlarni egallash huquqidan mahrum etilgan. Jinoyat qayta sodir etilgan taqdirda poraxo‘r bir umrga xizmat lavozimidan chetlatilgan hamda nafaqa olish huquqidan ham mahrum etilgan. aynan shu qonun bilan “mansab-martabalarni pullash” bilan shug‘ullangan amaldorlar uchun ikki yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi belgilangan, shunisi qiziqki, naafaqat mansab kursisini sotgan balki uni sotib olgan odam ham jazolangan. Mansab-lavozimlarni sotish to‘g‘risidagi qonun britaniya mustamkalasi bo‘lgan boshqa mamlakatlarda ham amal qilgan.

1906 yilda qabul qilingan qonunda yangi tushuncha, ifoda (formulirovka) paydo bo‘ladi – mukofot olish maqsadida pora berish. Mukofot umidida pora bergan shaxsga nisbatan 2 yilgacha ozodlikdan mahrum etish, shuningdek, sud qarori bilan belgilanadigan jarima sifatidagi pul to‘lovi ko‘zda tutilgan. Mazkur

qonun ilk bora “pora berish” va “pora talab qilish” tushunchalarini alohida tasniflagan. Mazkur jinoyatda aybdor deb topilgan amaldorlar 7 yilgacha ozodlikdan mahrum etilgan, shuningdek, saylash huquqi, va albatta, muayyan lavozimlarni egallash huquqidan mosuvo bo‘lishgan.

Angliyada 2010 yilda “Poraxo‘rlikka qarshi harakatlar to‘g‘risida”gi yangi qonun davlat muassasalari va xususiy biznesda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘luvchi korrupsiya holatlarini balki, eng muhimi, qonun naafaqt mamlakat ahliga tegishli, balki qirollik hududida faoliyat yuritayotgan xorijliklarni ham hisobga olgan. Shuning uchun ham yangi qonunni taraqqiyotga xizmat qiluvchi “progressiv” qonun deb atashmoqda. Endilikda sud Buyuk Britaniyada va unga qarashli hududlarda tadbirkorlik (biznes) bilan shug‘ullanayotgan xorijiy kompaniyalarga qarshi sud ishlarini yuritishni boshlashi mumkin. Bu yirik xalqaro offshor zonasi joylashgan Virgin orollariga ham taalluqli, ma’lumki, bu erda dunyoning yirik kompaniyalari o‘zlarining noqonuniy mablag‘larini “qonuniylashtirish” bilan shug‘ullanadilar Virgin, Gibraltar Jersi va boshqa orollarga ham tegishli. Endi istalgan xorijiy kompaniyani siquv ostiga olmoq, oddiy so‘z bilan aytganda, ishni britaniyalik investor foydasiga hal etmoq mumkin. SHunga qaramay, mazkur qonun 9 yildan beri amalda bo‘lib kelmoqda va hech qanday o‘zgarishlarga uchragani yo‘q.

Buyuk Britaniya huquqni muhofaza qilish tizimida korrupsiya bilan bog‘liq mashmashalar bo‘yicha tergov maxsus tashkil etilgan Politsiya xatti harakatlari yuzasidan shikoyatlar Boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Boshqarmada na politsiya xodimlari va na yuristlar ishlashadi, bu erda barcha shikoyatlarni vijdon amriga binoan hal etadigan va hech qanaqasiga “kelishib bo‘lmaydigan” mamlakatdagi eng obro‘li insonlar faoliyat yuritadilar.

Buyuk Britaniyaning 2017-2022 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi strategiyasiga asosan, «Ochiq hukumat bo‘yicha sheriklik dasturiga a’zo bo‘lgan 75 mamlakat hukumatlarining fuqarolar uchun yanada ochiq, hisobdor va mas’uliyatli qilish uchun ko‘maklashadi. Hamkorlikning o‘ziga xosligi hukumat va fuqarolik jamiyatining islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdagi qo‘shma rolidir. Fuqarolik jamiyati hukumatlarni osonlikcha hisobdorlikka ushlab turishi, mustaqil kuzatuvchilarning hukumatlar o‘z majburiyatlarini bajarishda erishgan yutuqlarini kuzatib borishlari, o‘z navbatida bir-birlaridan o‘rganishlari mumkinligini anglatadi».

Buyuk Britaniya Tashqi ishlar vazirligi elchixonalarida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha seminarlar tashkil etadi (shu kabi tadbirlar so‘nggi yillarda Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, Argentina, Tailand, Singapur, Meksika, Ispaniya va Birlashgan Arab Amirliklarining diplomatik missiyalarida o‘tkazildi). Diplomatik lavozimlarga tayinlangan diplomatlar uchun ikki kunlik intensiv kurslar tashkil etiladi, ular doirasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi mutaxassislar TIV xodimlari bilan shaxsiy intervyular

o‘tkazadilar va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha yozma ishlarni tekshiradilar.

Xalqaro taraqqiyot vazirligi va Buyuk Britaniya savdo va investitsiyalar agentligining qo‘shma loyihasi doirasida korrupsiya faktlarini aniqlash bo‘yicha maxsus darsliklar chop etiladi, bu majburiy ravishda xorijiy mamlakatlardagi savdo vakolatxonalari va elchixonalarga yuboriladi. SHu tariqa Buyuk Britaniyada qorrupsiyaga qarshi har taraflama kurash olib boriladi.

REFERENCES:

1. Khidirov, K. I., & Gofurova, S. S. (2021). The United Kingdom has a special textbook for detecting facts of corruption. Scientific progress, 2(1), 121-124.

2. Ibodullaevich, K. K., & Bakhromovna, T. D. THE UNITED KINGDOM HAS A SPECIAL TEXTBOOK FOR DETECTING FACTS OF CORRUPTION.

3. Ismatovich, M. S., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Preventing Corruption Methods and Means. Eurasian Scientific Herald, 8, 66-68.

4. Ibodullaevich, K. K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 1(1), 1-4.

5. Botir, U., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8, 37-40.

6. Ibodullaevich, K. K. (2022, April). IN THE FIGHT AGAINST JUSTICE AND CORRUPTION AS AN EFFECTIVE ROAD. In E Conference Zone (pp. 370-372).

7. Melikuzievich, K. P., & Ibodullaevich, K. K. (2022, March). MORAL PERFECTION-ANTI CORRUPTION THE SPIRITUAL BASIS OF STRUGGLE. In E Conference Zone (pp. 86-88).

8. Ibodullaevich, K. K., & Mahmatkobil, O. (2022, March). A JUST LEADER IS THE BASIS OF SOCIETY. In E Conference Zone (pp. 59-61).

9. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2022). “Philosophical Paradigms in The Fight Against Corruption Today: Problems and Solutions. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 5, 160-164.

10. Ibodullaevich, K. K., & Mahmatkobil, O. (2022). “Electronic System”-Estonia Is Among the Leaders in The Fight Against Corruption. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 5, 152-155.

11. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2020). Corruption: Concept, Genesis, Evolution And Survival Trends. International Journal Of Discourse On Innovation, Integration And Education, 1(5), 409-413.

12. Хидиров, Х., & Обилкошимов, М. (2021). Kambag ‘allik va qashshoqlikka qarshi kurashish: oldini olish yo ‘llari, usullari va mazmun-mohiyati. Общество и инновации, 2(11/S), 97-104.

13. Raximova, D., & Ibodullaevich, K. K. Obedience to the Law is High Culture, Spirituality, IT is a Sign of Enlightenment. JournalNX, 234-236.

Убенов Хамид Утениязович — *Өзбекстан Республикасы Миллий гвардиясы Қарақалпақстан Республикасы аймақлық оқыў орайы “Арнаўлы ҳәм оқ атыў таярлығы” цикл баслығы, подполковник*

ӨЗБЕКСТАН РЕСПУБЛИКАСЫНДА КОРРУПЦИЯҒА ҚАРСЫ ГУРЕСИЎДИН ҲУҚУҚЫЙ АСАСЛАРЫ

Мәмлекетимизде әмелге асырылып атырған кең көлемли реформалар шеңберинде халықтың тыныш ҳәм абадан жасаў турмысын тәмийинлеў ҳәм де жәмийетимизде белгиленип берилген нызамларға әмел етип ҳәм жәмийет қаўипсизлиги мәдениятын қәлиплестириўге айрықша итибар қаратылып атыр.

Ғәрезсизликке ерискенимизден кейинги дәуирде коррупцияға қарсы гуресиў ҳәмде бул иллеттин алдын алыўға қаратылған қатар норматив ҳуқықый ҳүжжетлер қабыл етилген, оған қарсы гүресиўши мәмлекет кеңселери, олардың структуралары исленген болсада, оған қарсы гүресиў кеўилдегидей болғаны жоқ, керсинше коррупция абден түбир байлап, муғдары күн сайын асып барды. Ең ашынарлысы болса пуқараларымыз бундай коррупция деп аталған жынаятшылыққа бийпарқлығы, оған әпиўайы жағдай ретинде мунасәбетте болыўы болып табылады. Тереңрек ойлап қарасақ коррупция ҳәм оған байланыслы болған экономикалық жынаятшылық мәмлекетлердиң бүгинги экономикалық ҳәм сиясий жағдайында раўажланыўна тосқынлық етиўши тийкарғы қәуипли дәреги, мәмлекетимиздин қаўипсизлигине қәўип болып есапланады.

Коррупция сози узақ тарийхға ийе болып. Оның пайда болыўы ҳәр бир мәмлекетке түрли дәрежеде озине тән болып келеди. Бул жағдай коррупцияны, биринши нәубетте, текғана криминологик машқала ретинде, бәлки социаллық унамсыз ҳәдийсе ретинде де көрип шығыў зәрүр болады. Көплеген авторлардың пикирине көре, "коррупция" термини бай мәниске ийе. Бул халық аралық конвенциялар ямаса миллий нызамшылықтағы коррупцияның ҳуқықый тарийплери анық түрде салдамлы сын пикир объектине айланыўының себеплеринен бири болып табылады. Этимологик тәреп тен "korrupsiya" термини латынша " коррупция" деген созден келип шыққан ҳәм коррупция, бузылыў, коррупция деген мәнисти аңлатады. Рим нызамшылығында коррупцияны хызметкерлерге нызамға қарсы бузылыў деп есаплаған. [3]. Лаўазымлы шахслар ҳәм сиясатшылардын нызамсыз турде байып кетиўи, пара алыў, урлаў ҳәм мафия структуралары менен шериклик қылыўдағы руўхый айныўы болып табылады [4]. Улкен энтциклопедик жойбар коррупцияны хызмет корсетиўши адамлардын оз ҳукимет ўәкилликлерин шақсын байытыў ушын пайдаланўынан ибарат жынаятлы (нызамға қарсы) искерлик ретинде белгилейди [5].

Усы даўирге шекем парахорлық, оз ҳәмелинен кери мақсетте пайдаланыў сыяқлы жағдайлар бойынша нызамшылықта түрли жазалар белгиленди ҳәм әмелде болды. Соған қарамастан, бизде тиккелей коррупцияға тийисли нызам жоқ еди.

2016 жыл 24 ноябрде Өзбекстан Республикасы Олий Мажлиси Нызамшылық палатасы тәрепинен “Коррупцияға қарсы гүресиў ҳаққында”ғы нызам қабыл етилип, ол 13 декабрде Олий Мажлиси Сенати тәрепинен мақулланди. Бул нызам мәмлекетимизде коррупцсияға қарсы гүресиўде жудә зәрүрли баслама болады, деп айта аламыз.

Бул жағдайда коррупция ; коррупцияға тийисли ҳуқықбузарлық мәплеринин бир-бири менен карама-қарсы келиўи тийкарғы түсиниклер ретинде берилген. Нызамда «коррупция» түсиниги «шақстын өз ҳәмел ямаса хызмет позициясынан жеке мәплерин я болмаса өзге адамлардың мәплерин гөзлеп материаллық ямаса матераллық емес пайда алыў мақсетинде нызамға қылап түрде пайдаланыўы, тап соның менен бирге, бундай пайданы нызамға қылап түрде усыныў» деп тарийп берилген. «Коррупцияға тийисли ҳуқықбузарлик» дегенде, «коррупция белгилерине ийе болған, әмелге асырылғанлыгы ушын нызам ҳүжжетлеринде жуўапкершилик нәзерде тутылған қылмыс»ты түсиниў керек. «Мәплердин бир-бири менен карама-қарсы болыўы» «жеке (тиккелей ямаса тиккелей болмаған) мәпдарлық шахстың ҳәмел ямаса хызмет миннетлемелеринен керек дәрежеде орынлаўына тәсир көрсетип атырған я болмаса тәсир көрсетиўи мүмкин болған ҳәм де жеке мәпдарлық пенен пуқаралардың, шөлкемлердиң, жәмийеттиң ямаса мәмлекеттиң ҳуқықлары ҳәм нызамлы мәплери арасында қарама-қарсылық жүзеге шығып атырған ямаса жүзеге келиўи мүмкин болған жағдай»болып табылады.

Бул нызам коррупцияға қарсы гүресиўдин тийкарғы принциплерин де белгилеп берген. Олар төмендегилерден ибарат :

нызамлылық ; пуқаралар ҳуқықлары, еркинликлери ҳәм нызамлы мәпленриң үстинлиги; ашықлық ҳәм ашкаралық ; системалылық ; мәмлекет ҳәм пуқаралық жәмийетиниң шериклиги; коррупцияның алдын алыўға тийисли илажлар үстинлиги; жынаят жазасыз қалмаўы. Мәмлекет коррупцияға қарсы гүресиў саласында халықтың ҳуқықый сана-сезимине және ҳуқықый мәдениятын көтериўи, жәмийетте коррупцияға қарсы гуресиўши пуқараларымыздын мунасәбетин қәлиплестириўи; мәмлекет ҳәм жәмийет өмириниң барлық тараўларында коррупцияның алдын алыўға тийисли илажларды әмелге асырыўы ; коррупцияға тийисли ҳуқықбузарлықларды ўақытында анықлаўы, оларға шек қойыўы, олардың ақыбетлерин, оларға мүмкиншилик жаратып бериўши себеплер ҳәм шәрт-шәраятларды сапластырыўы, коррупцияға тийисли ҳуқықбузарлықларды сәдир еткенлиги ушын жуўапкершиликтиң анықлығы принципин тәмийинлеўи керек. Коррупцияға қарсы гүресиў бойынша искерликти әмелге

асырыўшы мәмлекет шөлкемлери ретинде Бас прокуратура, Мәмлекетлик қаўипсизлик хызмети, Ишки ислер министрлиги, Әдиллик министрлиги, Бас прокуратура жанындағы Салық, валютаға қарсы жынаятларға ҳәм жынаятлы дәраматларды легалластырыўға қарсы гүресиў департаменти белгиленген. Усының менен бирге, коррупцияға қарсы гүресиў бойынша искерликти нызам ҳүжжетлерине муўапық басқада мекеме, шөлкемлери де әмелге асырады. Ҳаммемизге белгили жәмийетте коррупцияға қарсы гүресўде натийжели жумыс алып барылыўы ушын кең жәмийетшилик қатнасыўы тәмийинленбесе, оннан кутилган нәтийжелерге ерисип болмайды. Усы нызамның итибарлы тәрепи сонда, бул жағдайда пуқаралар өзин өзи басқарыў шөлкемлериниң, мәмлекетлик емес коммерциялық болмаған шөлкемлериниң ҳәм пуқаралардың ҳәм де ғалаба хабар қуралларының коррупцияға қарсы гүресиўде қатнасыўы ҳаққындағы қағыйда беккемленген. Олар бул нызамға муўапық, коррупцияға қарсы гүресиў саласындағы мәмлекет программаларын ҳәм басқа программаларды ислеп шығыў ҳәм де әмелге асырыўда, халықтың ҳуқықый сана-сезимине және ҳуқықый мәдениятын көтериўде, жәмийетте коррупцияға қарсы гуресиў бойынша мунасәбетти қәлиплестириўде қатнасыўы ; коррупцияға қарсы гүресиў ҳаққындағы нызам ҳүжжетлериниң орынланыўы үстинен жәмийетшилик қадағалаўын әмелге асырады. Нызамға «Коррупцияға қарсы гүресиў саласында ҳуқықый аң ҳәм ҳуқықый мәдениятты көтериў» деп аталған бөлек баптын киритилгени бийкарға емес. Себеби халықтың ҳуқықый сана-сезимине және ҳуқықый мәдениятын өсирместен турып, оған қарсы гүресиў натийжелилигин тәмийинлеп болмайды. Нызамның 16-статясына тийкар мәмлекет шөлкемлери ҳәм басқа шөлкемлер коррупцияға қарсы гүресиў мақсетинде халықтың ҳуқықый сана-сезимине және ҳуқықый мәдениятын көтериў, жәмийетте коррупцияға қарсы гуресиў бойынша мунасәбетти қәлиплестириў бойынша зәрүр илажларды көреди. Соның менен бирге, мәмлекет шөлкемлери ҳәм басқада шөлкемлердин хызметкерлерин ҳуқықый саўатын асырыў ушын мәмлекет шөлкемлери ҳәм басқа шөлкемлер өз лаўазымлы шахсларының ҳәм де тағы басқа хызметкерлериниң коррупцияға қарсы гүресиў саласындағы ҳуқықый саўатын, сондай-ақ, ҳуқықый билимлери дәрежесин асырыўы керек болған зәрүр илажларды да әмелге асырады. Нызамда тәлим бериўши мекемелеринде де коррупцияға қарсы гүресиў саласындағы ҳуқықый тәлим ҳәм тәрбияны апарыўға да айрықша итибар берилген. [1]. Келешекте тәлим мәкемелеринде коррупцияға қарсы гүресиў саласындағы ҳуқықый тәлим ҳәм тәрбия белгиленген мәмлекет тәлим стандартларына муўапық әмелге асырылады. Мәмлекет тәлимди басқарыў шөлкемлери ҳәм тәлим мәкемелери коррупцияға қарсы гүресиў саласындағы мәмлекет сиясатының тийкарғы бағдарларын инабатқа алған ҳалда тәлим мәкемелеринде ҳуқықый тәлим ҳәм тәрбияға, қәнигелерди

кәсиплик таярлаўдың сапасын асырыўға, тәлим программаларын турақлы түрде раўажландырып барыўға қаратылған илажларды ислеп шығады.

Мәмлекетимиз Президенти Шавкат Мирзиёевнинг басламасы менен ислеп шығылған 2017-2021-жылларда Өзбекстан Республикасын раўажландырыўдың бес басқышлы устемеси бағдары бойынша ҳәрекетлер стратегиясы ҳәм де «Халық пенен пикирлесиў ҳәм инсан мәплери жылы»да бул стратегияны әмелге асырыўға тийисли мәмлекет дастуриге муўапық, әмелдеги нызамшылықты «Коррупцияға қарсы гүресиў ҳаққында»ғы нызам нормаларына муўапықластырыўды нәзерде тутатуғын «Өзбекстан Республикасының айырым нызам ҳүжжетлерине өзгертиў ҳәм қосымшалар киргизиў ҳаққында»ғы нызам жойбарын, [2]. соның менен бирге, жаңа нызам нормаларын орынланыўынын нәтийжели механизмлери енгизилиўине, Республика кеңселераро комиссиясы жумысын шөлкемлестириўге ҳәм де бул жөнелисте анық илажларды белгилеп беретуғын системалы программа әмелге асырылыўына мүмкиншилик жаратыўшы Өзбекстан Республикасы Президенти шешими жойбарын ислеп шығыў ҳәм қабыллаў режелестирилип атыр. Әлбетте, бул нызам ҳүжжетлериниң ислеп шығылыўы ҳәм қабыл етилиўи жоқарыда белгиленген нызам орынланыўынын нәтийжели тәмийинлеў имканиятын береди.

Пайдаланған адебиятлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни.03.01.2017-йилги УРҚ-419. Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида «Халқ сўзи» газетасининг 2017 йил 4 январдаги 2 (6696)-сонида эълон қилинган.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 07.02.2017-йилги ПФ-4947-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 11.12.2019 й.,

3.Этимология слова и раздел языкознания. https://ktonanovenkogo.ru/voprosy-i-otvety/ehtimologiya-chto-ehto-takoe.html#ehtimolog-2

4.Однотомный толковый словарь русского языка С.И. Ожегова и Н.Ю. Шведовой содержит 80000 слов и фразеологических выражений. https://gufo.me/dict/ozhegov

5.Коррупция и ее характерные признаки. https://moluch.ru/archive/449/98920/

Nazimov Raxmatilla Normuradovich ***O‘R QK Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi, Qurollanish va otish sikli katta o‘qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi.***

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNIING HUQUQIY ASOSLARI

“Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz”
Shavkat Mirziyoyev.

Anatatsiya: *Maqolada korrupsiya tushunchasi va hozirgi kunda jamiyatimizda uchraydigan korrupsion illatlar haqida va ularni oldini olish bo‘yicha jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *korruptsiya, korrupsiyaviy xavf-xatarlar, nepotizm, manfaatlar to‘qnashuvi, favoritizm, kronizm, klientelizm, proteksionizm,*

KORRUPSIYA TO‘G‘RISIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir nechta asosiy iboralar mavjud.

Korrupsiya (lot. *Soggitrege–buzmoq)* termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar - davlat hokimiyati organlari faoliyat olib borishi, davlat xizmatchilarining faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish vaziyatini yaratadigan hamda ular natijasida noxush oqibatlar keltirib chiqaradigan holatlar, omillar va harakatlardir.

Korrupsiya xavf-xatarlarini idoraviy xaritasi - davlat organi, uning hududiy tuzilmalarida va idoraviy mansub tashkilotlarda korrupsiya xavf-xatarlarini baholash natijasiga ko‘ra tuziladigan hamda davlat xizmatchilarining soha faoliyati, lavozimlari va ularning korrupsiya xavf-xatarlariga ko‘proq moyil bo‘lgan funksiya (vakolat)larining umumiy ro‘yxati, shuningdek ular bo‘yicha minimallashtirish bo‘yicha choralarini o‘z ichiga oladigan hujjat. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarini baholash - davlat organining amalga oshirayotgan funksiyalari (vakolatlari)ni tahlil qilish va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkin bo‘lgan korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash hamda ularni minimallashtirishga qaratilgan samarali va natijali chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha faoliyat.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari - aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning opdini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish; korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqpash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash

Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi.

Afsuski, ba’zi kimsalar bu razil ishning nomini “o‘zbekchilik" deb atab, o‘zining bu bepisand ta’biri bilan butun O‘zbek millati nomiga o‘chmas dog‘ tushiradilar.

Bu illatning boisi o‘z nafsi badini qondirish uchun “samimiy tanish-bilish va aka-ukachilik"ka qo‘l urishdan o‘zga narsa emasligi hammaga ma’lum. Bu narsa har qachon adolat mezoni oyog‘iga bolta urgan, jamiyatda tengsizlik urchishiga asosiy qo‘shtirnoq ichidagi “omil" bo‘lgani sir emas.

Taniqli hanafiy olimi va faqihi Zayn al-obidin (Zayniddin) Ibn Nujaym al-Misriy al-Hanafiy (1519-1563) o‘zining “Ar- Rasoil az-zayniyya fiy fiqh al-Hanafiyya” nomli risolalar to‘plamida “Pora va uning turlari” qismida poraning ikki xil ma’nosi borligini aytadi.

Korrupsiyaning eng keng tarqalgan turlariga poraxo‘rlik, firibgarlik, tovlamachilik, nepotizm kiradi.

Nepotizm — bu lotincha nepos - urug‘, zot, nasl, sulola va ikkinchi nepotis– nabira, jiyan so‘zlaridan kelib chiqgan. Sodda va “o‘zbekcha” qilib tushuntiradigan bo‘lsak, biror inson o‘z oila a’zolarini boshqalarga nisbatan afzal ko‘rishidir, boshqacha aytganda, o‘z yaqinlari noloyiq bo‘lsa hamki, ularga lavozim va ish topshirishidir.

Bunday jinoyatlarning ko‘plab sodir etilishi iqtisodiyotni zaiflashtirib, siyosiy boshqaruvni izdan chiqarishi va fuqarolarni davlat tizimi va siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkin. Mustaqillikga erishganimizdan keyingi davrda ushbu turdagi jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan, unga qarshi kurashuvchi davlat idoralari, ularning tarkibiy tuzilmalari tashkil etilgan bo‘lsada, unga qarshi kurashish ko‘ngildagidek bo‘layotgani yo‘q, tom ma’noda korrupsiyaviy jinoyatchilik ildiz otib, miqdori kun sayin oshib bormoqda. Eng xatarlisi esa odamlarni bunday holga nisbatan befarqligi, unga oddiy holat sifatida munosabatda bo‘lishidir. CHuqurroq o‘ylab qarasak korrupsiya va unga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jinoyatchilik davlatlarning bugungi iqtisodiy va siyosiy vaziyatida taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi asosiy xavf manbai, xavfsizlikka tahdid hisoblanadi.

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘lini o‘zi tanlaydi, aniqrog‘i, qanday yo‘l to‘g‘ri ekanini hayot ko‘rsatadi.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko‘zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas.

Mamlakatimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, uning oldini olishning mustahkam huquqiy bazasi va aniq tizimi yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Davlat xizmatchilari xizmat vazifalarini bajarishda quyidagi majburiyatlari belgilab berilgan:

xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari va talablariga qat’iy rioya etish;

o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;

yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida qabul kilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

o‘z faoliyatini qonun hujjatlarida va ichki hujjatlarida belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;

o‘z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta’siridan mustaqil bo‘lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik;

o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlarga barham berish;

normativ-huquqiy hujjat va idoraviy hujjatlarda belgilangan cheklashlar va taqiqlarga rioya qilish, o‘z xizmat vazifalarini og‘ishmay bajarish;

o‘z xizmat faoliyatiga biror-bir ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga barham berish;

O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo totuvlikka ko‘maklashish;

o‘zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo‘lgan xulq-atvordan o‘zini tiyish, shuningdek o‘z obro‘siga yoki davlat organining nufuziga zarar etkazishga qodir bo‘lgan vaziyatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

xizmat mavqeidan davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanmaslik;

davlat organida xabarlarni va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariga rioya etish.

Rahbar- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o‘z vaqtida chora-tadbirlar ko‘rishi;

korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rishi;

xodimlarni samarali boshqarishi, o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishi shart. Rahbar o‘ziga bo‘ysunuvchi, xizmatdagi xulq-atvori prinsiplari va qoidalarini buzayotgan xodimlarning xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo‘l qo‘yilmasligi choralarini ko‘rmaganligi uchun javob beradi.

Davlat xizmatchilari o‘z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatlari ularning o‘z xizmat vazifalarini xolisona va beg‘araz bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi.

Davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o‘zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo‘ladigan boshqa shaxslar uchun xar qanday naf ko‘rish yoki afzalliklarga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda davlat xizmatchilari o‘z raxbarini darhol xabardor qilishi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘grisidagi ma’lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.

Davlat xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlanadi.

Davlat xizmatchilari o‘zlarining o‘z xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga yoki ularga zarar etkazishi mumkin bo‘lgan faoliyatni amalga oshirmasligi, shuningdek lavozimni egallamasligi kerak.

Davlat xizmatchisi xar qanday holatlarda ham o‘z xizmat mavqeidan mumkin bo‘lmagan shaxsiy foydani olishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida asosiy tushunchalar ta’rifi berilgan:

Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish; korrupsiyaga oid huquqbuzarlik–korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir

ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqpari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Xulosa:

Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil respublikamizning erkin va ozod hayotimizga qora dog‘, illat bo‘lib kelayotgan korrupsiyaga qarshi kurash bugungi kunning eng dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Bu vazifa nafaqat huquq organlari, balki har birimizdan katta mas’uliyat talab qiladi. Ota-ona, idora rahbari, nuroniylar, yoshlar, jamoat tashkilotlari hamkorlikda bu illatga qarshi kurashda faol bo‘lishimiz zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021 yildagi PQ-5177- sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori;
3. https://www.transparency.org/ru/press/2021-corruption-perceptions-index-press-release
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5263-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021 y. , No 07/21/5263/0990.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori UP-60 // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.

Исмоилов Акмал Саъдуллаевич — *Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Кичик мутахассисларни тайёрлаш маркази катта ўқитувчиси ҚК хизматчиси*

КОРРУПЦИОН МУҲИТДАГИ САЛБИЙ ТЕНДЕЦИЯЛАР ВА УЛАРГА ҚАРШИ ТУРИШНИНГ СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Коррупция жаҳоннинг глобал муаммоларидан бири бўлиб, деярли барча мамлакатларда мавжуддир. Бугунги кунда ҳам у қонун устуворлиги, инсон ҳуқуқлари тамойилларига, ижтимоий ва иқтисодий ривожланишга жиддий хавф солаётган таҳдидлардан ҳисобланади. Энг ъътиборлиси, дунё мамлакатлари ораида коррупцияга қарши стандарт кураш усули мавжуд эмас. Бу нима билан боғлиқ?

Коррупциянинг давлатда шаклланиши маҳаллий аҳолининг ментал хусусиятларига боғлиқли билан изоҳлаш мумкин, деб ҳисоблаймиз. Масалан, Ўзбекистон шароитида коррупция қонунларимизда берилган таърифга асосан шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш, балки илдиз отиб кетган маҳаллийчилик, ошна-оғайничилик, таниш-билишчилик каби иллатлар билан қоришиб кетган. Шу сабабли коррупцияга қарши курашиш доирасида барча давлатлар тажрибаларининг ўзига хослигига эътибор қаратиш ўринли бўлади.

Коррупция ҳар қандай жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий, маънавий ҳаётига хавф соладиган, қолаверса, мамлакат тараққиётига тўсиқ бўладиган иллатдир.

Ҳар бир давлат тарихида янги ижтимоий сифат холатига ўтиш, афсуски, коррупция ва жиноятчилик каби жирканч ходиса билан бирга юз берган. Шу билан бирга, жиноятчиликнинг ўсиши нафақат ислохотлар йўлига жиддий тўсиқ, балки ўтиш даврида белгиланган мақсадларга эришишга хам қарши бевосита тахдид туғдиради.

Мамлакатимизнинг келажагини ва обрў-эътиборини қадрлайдиган хар бир виждонли фуқаро бу тахдидни эсда тутмоғи даркор. Ҳалол мехнат қилиш, ўз билими, куч-ғайрати ва ижодий қобилиятини сарфлаш учун барқарор шарт-шароит бўлишини истайдиган, фарзандлари ва яқин кишилари келажакда хам демократик, фуқаролик жамиятида цивилизациялашган бозор муносабатларининг самараларидан тўла-тўкис фойдаланишни орзу қиладиган хар бир фуқаро, жиноятчилик ва коррупция йўлига ўз вақтида зарур тўсиқ қўйилмаса, бу иллатлар қандай аянчли оқибатларга олиб келиши мумкинлигини яхши англаб етмоғи лозим.

Коррупцияга қарши курашишнинг барометри ҳисобланмиш **Transparency International** ҳар йили социологик тадқиқотлар ўтказиб,

коррупцияга қарши курашда дунё мамлакатларини руйтенгини эълон қилиб боради ва шунинингдек, давлатларнинг коррупцияга қарши кураш олиб боришининг тажрибаларини ёритиб боради.

Ривожланиш даражаси юқори бўлган Сингапурда коррупцияга қарши курашишнинг ўзига хос тажрибаси мавжуд. Масалан, Сингапур қонунчилигида маъмурий ва жиноий жавобгарликлар қаторида аҳолининг нафратига дучор қилишни (“общественное порицание”) ҳам тажрибада қўллашни тавсия этадилар. Шунингдек, буннай иллатларнинг олдини олиш тажрибасида жамоатчилик назорати камаяди, деб ҳисоблашади.

Бизнинг фикримизча, ходимларнинг компетентлиги жуда муҳимдир. Кадрлар қўнимсизлиги ҳамда кадрларнинг лавозимлар бўйича тез-тез алмашинуви ҳам маълум маънода коррупциянинг ошишига ўз таъсирини кўрсатади.

Сингапур тажрибасидан келиб чиқиб, ҳар йили давлат хизматчилари мол-мулкларининг диклорациясини тўлдириши шарт. Бизнинг мамлакатимизда ҳам бунинг муҳим аҳамиятга эга эканлиги инобатга олинган бўлса-да, амалиётга киритишга шошилмаяпмиз.

Ўзбекистонда, шубхасиз, жиноятчиликнинг сабабларини аниқлаш чоралари кўрилмоқда, фош этилган коррупциячилар қаттиқ жазоланмоқда. Мамлакат ичидаги жиноятчилик доимо давлат томонидан қаттиқ назорат қилиб борилади. Жиноятчилик кенг авж олиб кетишига ва коррупциячилар домига илинган амалдорларнинг бебошлигига йўл қўймаслик мақсадида бир қатор узоқ муддатли чора-тадбирлар ишга солинган. Улар жиноятчиликка қарши кураш стратегиямизни белгилаб беради.

Жаҳон мамлакатларида коррупцияга қарши курашнинг қуйидаги усуллари мавжуд:

Ички назорат - бу усул бошқарув аппаратининг ўзида назоратни кучайтирувчи тузилмалар яратишни тақазо этади. Бу тузилманинг асосий вазифаси ходимларнинг ички ахлоқ қоидаларига риоя қилишини назорат қилишдир. Ҳозирги кунда бизнинг юртимизда ҳам бир қатор ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларида айнан шу вазифани бажарувчи ички тузилмалар яратилган. Аммо уларнинг самарали иш олиб боришлари борасида ягона тизим шаклланмаганлиги сезилиб қолмоқда.

Ташқи назорат - бу усулда ижро аппаратидан мустақил тузилмаларнинг эркинлигини ошириш назарда тутилиб, айнан ушбу тузилмалар орқали коррупцияга қарши самарали кураш олиб борилади. Яъни, суд ҳокимиятининг максимал даражада мустақиллигига эришиш, оммавий ахборот воситаларига кўпроқ эркинлик бериш ва ҳ.к.

Transparency International ўз тадқиқотларидан келиб чиққан ҳолда дунё давлатларининг коррупцияга қарши курашишларини самарали йўли сифатида қуйидагиларни тавсия этади:

- Давлат институтлари ва хизматлари иш фаолиятидаасосий прицип сифатида ҳалоллик ва “ сотиб олиб бўмайдиган” бўлиши;
- Ҳукумат ўз фаолиятини максимал даражада шаффоф бўлишини таъминлаш;
- Маълумотлар олиш эркинлиги борасидаги қонунчиликни мукаммаллаштириш;
- Давлат харидларининг стандартлари бўйича барча харидларнинг маълумотларини шаффоф бўлишини таъминлаш;
- Давлат хизматчиларининг юриш-туриш ва одоб Кодексини қабул қилиш ва унга амал қилинишини таъминлаш;
- Ҳукумат судларнинг тўлиқ мустақиллигига эришиши ҳамда суд тизимининг дахлсизлигини таъминлаши;
- Коррупцияда айбланаётган мансабдор шахснинг иммунитетидан маҳрум қилиш;
- Қонун чиқарувчи органлар лоббистларнинг мажбурий регистрини юритиш;
- Фуқаролар учун коррупциядан ҳимояланиш амал қилувчи инструментларини тақдим этиш ва ҳ.

Эътибор бериб қарайдиган бўлсак, ушбу тавсияларнинг деярли барчаси мамлакатимизда йўлга қўйилган. Бироқ амалий фаолиятимизда ҳамон тўсиқларга дуч келаётганимиз аянчли ҳолдир.

Ўзбекистон 2008 йил 7 июлда БМТнинг Коррупцияга қарши курашиш конвенциясига, 2010 йил март ойида Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти доирасида қабул қилинган коррупцияга қарши курашнинг Истанбул режасига (2003 йил 10 сентябрь) қўшилган. Шунингдек, Олий Мажлис томонидан Жиноий даромадларни легаллаштиришга ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш бўйича Евроосиё гуруҳи тўғрисидаги битими (Москва, 2011 йил 16 июнь) 2011 йил 13 декабрда ратификация қилинган.

Ўзбекистонда 2017 йилнинг 4 январидан «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонун кучга кирди. Қонунга кўра, республикада **Бош прокуратура, Давлат хавфсизлик хизмати, Ички ишлар вазирлиги, Адлия вазирлиги, Бош прокуратура ҳузуридаги Солиқ, валютага оид жиноятларга ва жиноий даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш департаменти** коррупцияга қарши курашиш бўйича фаолиятни амалга оширади.

Ушбу Қонун билан билан халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар ва миллий қонунчилик асосида, мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш соҳасида ташкилий-ҳуқуқий механизмлар яратилди.

Мазкур қонуннинг 5-моддасида кўра, коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсатининг **асосий йўналишлари сифатида:**

– аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини юксалтириш, жамиятда коррупцияга нисбатан муросасиз муносабатни шакллантириш;

– давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида коррупциянинг олдини олишга доир чора-тадбирларни амалга ошириш;

– коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларни ўз вақтида аниқлаш, уларга чек қўйиш, уларнинг оқибатларини, уларга имкон берувчи сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этиш, жавобгарликнинг муқаррарлиги принципини таъминлаш белгиланди.

Минг афсуски, амалий фаолиятда ҳали Ўзбекистон Республикаси коррупциялашган давлат ва жамият бошқаруви ҳолатлари бўйича халқаро рейтингларда юқори натижаларга эриша олмаяпти.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 майда Ф а р м о н и қабул қилинди. Фармонда коррупцияга қарши курашиш тизими самарадорлигини ошириш, энг юқори даражадаги қулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, мамлакатнинг халқаро майдондаги ижобий обрў-эътиборини ошириш мақсадида вазифалар белгилаб берилган.

Алоҳида мақсадли гуруҳларнинг (давлат хизматчилари, тадбиркорлар, фуқаролик жамияти институтлари вакиллари ва бошқалар) коррупцияга қарши курашиш механизми ва тизими ҳақида ҳуқуқий билими ва хабардорлигини ошириш юзасидан аҳамиятга эга бўлган амалий чора-тадбирларни амалга ошириш, шу жумладан қуйидагилар орқали:

коррупция омилларини аниқлаш, коррупция хавф-хатарларини бошқариш ва уларни минималлаштириш бўйича чора-тадбирлар кўриш борасида вазирлик ва идоралар вакиллари учун даврий таълим бериш тизимини жорий этиш;

давлат органлари фаолиятининг хусусиятларини инобатга олган ҳолда манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш ва ҳал қилиш борасида амалий тавсияларни ишлаб чиқиш;

коррупцияга қарши курашиш ва касбий одоб-ахлоқ қоидаларига риоя этиш масалалари бўйича махсус ўқув-методик ва бошқа адабиётларни яратиш.

Ёшларда коррупцияга қарши курашиш фаол дунёқараш ва мустаҳкам фуқаролик нуқтаи назарини шакллантирадиган чора-тадбирларни амалга ошириш, шу жумладан:

коррупцияга қарши курашиш мавзусида ижтимоий тадбирларга ёшларни кенг жалб қилиш (клублар, тўгараклар, форум ва бошқалар);

олий ўқув юртлари ва ёшларнинг бошқа вакиллари ҳисобидан кўнгиллилар гуруҳларини шакллантириш;

ёшлар ўртасида коррупцияга қарши курашиш мавзусида республика олимпиадалари, танловлар ва мусобақалар ўтказиш.

Таълим муассасаларининг ўқув дастурларига коррупцияга қарши курашиш махсус курсларини киритиш, шу жумладан:

жамиятда коррупциянинг мавжуд бўлган хавф-хатарлари асосида, ўқув материалларини тайёрлаш учун ягона методологик талабларни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;

барча таълим муассасалари, шу қаторда давлат хизматчилари, шунингдек коррупцияга қарши курашиш бўйича таълим беришга масъул шахсларнинг малакасини ва касбий тайёргарлигини ошириш бўйича муассасаларда тааллуқли дастурларни жорий этиш;

Коррупцияга қарши курашиш соҳасида, қуйидагиларни назарда тутадиган тадқиқотларни ташкил қилиш, жумладан:

содир этилаётган коррупцияга оид жиноятларнинг ўзига хос схемасини ўрганиш асосида коррупциянинг типологиясини тузиш;

коррупцияга мойил бўлган соҳаларни аниқлаш асосида тармоқлар кесимида коррупцияга оид хариталарни тузиш;

коррупцияга оид ҳуқуқбузарликлар содир этилишининг шарт-шароитлари ва сабабларини ўрганиш, шунингдек уларни бартараф этиш таклифларини ишлаб чиқиш;

коррупцияга қарши курашиш соҳасида қабул қилинаётган чора-тадбирларнинг самарадорлигини баҳолаш;

коррупцияга қарши курашиш соҳасида таълим ва тадқиқот муассасалари илмий ходимларига, шу жумладан, халқаро ташкилотлардан коррупцияга қарши курашиш соҳасида тадқиқотлар ўтказиш бўйича грантлар жалб қилиш орқали кўмаклашиш;

коррупция даражаси, коррупцияни идрок этиш ва шахсий тажрибаси, шунингдек, давлат ҳокимияти институтларига ишонч ва коррупцияга қарши чораларнинг таъсири даражасини баҳолаш мақсадида жамоатчилик фикрини ўрганиш.

Шундай қилиб, жиноятчилик, коррупция бизнинг ўз хавфсизлигимизга хам, халқаро хавфсизликка хам тахдид солувчи реал манбадир. Бинобарин, мазкур ходисага қарши кураш масалалари биргина бизга тааллуқли эмас. Шунинг учун хам биз жиноятчилик хақида бутун жахон хамжамияти қайғурмоғи лозим, деб хисоблаймиз. Суверен Ўзбекистон халқи ва рахбарияти эса улар билан фаол хамкорлик қилишга тайёр ва буни дунёни поклаш, унинг хавфсизлигини таъминлаш ишига қўшилган хисса, деб билади.

Kalmuratov Maksetbay Tajimuratovich *Toshkent davlat axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali assistent-o‘qituvchi*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya. Hozirgi kunda jinoyiy huquq buzarliklar orasida keng tarqalgani va xavflilik jihatdan eng yuqorisi bu shubhasiz korrupciyadir. Butun dunyoda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida ham korrupciya holatlari tez-tezdan uchrab turibdi.Shu bois, mazkur maqolaning asl vazifasi O'zbekiston Respublikasida korrupsiya holatlari vujudga kelganda ularga qarshi turadigan huquqiy manbalarni tadbiq etishdan iboratdir. Tadqiqot natijasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi korrupciyaga qarshi kurashishda jahon amaliyotiga bo'ysungan holda tashkil qilgan huquqiy hujjatlari samarali natija bermoqda, chunki mazkur huquqiy hujjatlar orqali yuridik va jismoniy shaxslar orasida korrupciya holatlari keskin pasaymoqda.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, O'zbekiston, Konstitutsiya, qonunlar, tamoyillar.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli harbir mamlakatida duch kelish mumkin.Korrupsiya so‘nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.Ta’kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [Bardhan P., 1320]

Eng avvalo, korrupciya so'ziga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish; o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat [Abdurasulova Q.].

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari tuzilgan bo'lib, hozirgi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda mazkur hujjatlarga amal qilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy hujjatlarga quyidagilar kiradi: [www.lex.uz].

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2752-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6013-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-4761-son qarori

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 829-son qarori.

O'zbekiston Respublikasining “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga Qarshi Konventsiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida”giQonuni (Nyu-York, 2003-yil 31-oktabr)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qarori

[https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/laws].

Mazkur huquqiy hujjatlarga asoslanib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Korrupsiya bu mamlakatning rivojlanishiga xavf tug'diradigan illatlardan biri ekanligini yuqorida keltirilgan manbalardan bilib o'lsakbo'ladi. Aynan shu illatga qarshi kurashishda O'zbekistonda qabul qilingan huquqiy hujjatlar bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Chunki, mazkur huquqiy asoslar yuridik va jismoniy shaxslar orasida korrupsiyaviy holatlarning yuzaga kelishiga to'siq bo'lmoqda. Shu bois, mamalakatimizning korrupsiyadan holi mamlakatga aylanishida mazkur huquqiy asoslarning roli ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.lex.uz

2. https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/laws

3.Abdurasulova Q. Korrupciyaga qarshi kurash. Bu borada chet el qonunlarida nimalar belgilangan? // Hayotvaqonun, № 3. 2003 yil.(Abdurasulova K. Fight against corruption. What is defined in foreign laws in this regard?);

4. Bardhan P. Corruption and development // Journal of Economic Literature. — 1997. — Vol. 25. — P. 1320.

Jalalov Ravil Kamiljanovich — ***O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi Kasbiy tayyoragarlik sikli katta o‘qituvchisi***

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH DAVLAT VA JAMIYAT TARAQIYOTNING MUHIM OMILI

Korrupsiya jahonda hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazuvchi omil bo‘lib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Ma’lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo‘llarini topish bo‘yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo‘l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo‘q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o‘zi belgilaydi.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o‘tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan g‘arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo‘la olmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha davom etib kelmoqda.

Ushbu masalani yoritishdan oldin mavjud terminning ma’no-mazmunini ko’rib chiqishimiz kerak. Xususan, **Korrupsiya** (lotincha: *corrumpō* — aynish, poraga sotilish) — mansabdor shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste’mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham Korrupsiya deyiladi[1.].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida ham korrupsiya atamasiga ta’rif berilgan. Unga ko‘ra **korrupsiya** — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi hisoblanishi ta’kidlangan[2.].

Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo‘llar biian iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. U demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi. inson huquqlari buzilishiga olib keladi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlari faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar

xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi va xalqiga murojaatnomasida “Shu o‘rinda biz uchun dolzarb muammo bo‘lgan korrupsiya masalasiga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman. O‘tgan ikki yilda 5 mingga yaqin mansabdor korrupsiyaga doir jinoyatlar bo‘yicha javobgarlikka tortildi. Lekin, ochiq aytish kerak, bu — masalaning sababi bilan emas, oqibati bilan kurashish lozim” deya ta’kidlab o‘tgan[3].

Darhaqiqat So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga xalollik standartlarini joriy etish bo‘yicha ishlar olib borilib, bir qato huquqiy asoslar yaratildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan. O’zbekiston Konvensiyani 2008-yil 29-iyulda qabul qilgan. Huquqda xalqaro hujjatlar, qonunlar, nizomlar kabi turlicha normativ huquqiy hujjatlarning ierarxiyasi mavjud bo‘lib, ierarxiyaning yuqori pog‘onasida turuvchi hujjatning yuridik ahamiyati katta bo‘ladi va agar undan quyida turuvchi hujjatlar yuqordagi hujjatga zid kelsa, quyida turuvchi hujjatlarning zid keluvchi qoidalar o‘z-o‘zidan o‘z kuchini yo‘qotadi.

Korrupsiyaga qarshi Konvensiya bu sohada qabul qilingan eng muhim xalqaro hujjat hisoblanadi va jahonda juda ko‘plab davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan[4]. Konvensiya rasman 8 bobdan iborat bo’lib, mazmun jihatdan asosiy to’rt qismga bo’linadi desa bo’laveradi.Bular:

1. Korrupsiyaning oldini olish choralari
2. Jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati
3. Xalqaro hamkorlik
4. Aktivlarni qaytarish bo’yicha choralar.

Konvensiyaga qo‘shilgan har bir davlat korrupsiyani oldini olishga qaratilgan samarali davlat dasturlari va qonunlarini ishlab chiqishi hamda uning ijrosini ta’minlashi lozim. Mazkur jarayonda jamiyat ishtiroki hamda qonun ustuvorligining prinsiplari amal qilinishi ta’minlanishi lozim. Korrupsiyaning oldini olish bo’yicha siyosat va qonunlarning ijrosini ta’minlash uchun tegishli davlat idoralari tuzilishi hamda ularning faoliyati yetarli mustaqillik bilan ta’minlanishi hamda tashqi ta’sirlardan xoli bo’lishi lozim. Masalan, mazkur davlat organi yoki agentligi qonun ijrosini ta’minlashda gumonlanayotgan yoki ayblanayotganlar vazir, president yoki uning oila a’zosi bo’lishidan qat’iy nazar, hech bir siyosiy bosim yoki tazyiqlarga duch kelmay, ishni mustaqil qonunlarga asosan hal qila olishi lozim.

Mansabdor shaxslarni ishga yollash, xizmatni amalga oshirish, mansabini oshirish yoki iste'foga chiqarish kabi jarayonlar samaradorlik va oshkoralik tamoyillariga hamda benuqson faoliyat, adolat va qobiliyat kabi xolisona mezonlarga asoslanishi lozim.

Shuningdek, korrupsiyani oldini olish siyosati va qonunlar ijrosini ta'minlashda nafaqat davlat organlari, balki butun jamiyati, fuqarolik jamiyati vakillari, mustaqil guruhlar hamda nodavlat tashkilotlarning ishtiroki ta'minishi lozimligi aytiladi. Korrupsiyaning oldini olish borasidagi qaror qabul qilish jarayoni shaffof bo'lishi va fuqarolar va mustaqil guruhlarning hissasiga tayanishi lozim. Korrupsiyaga bog'liq ma'lumotni izlab topish, uni chop etish va tarqatishga keng yo'l ochilib berilishi lozim. Misol uchun, mustaqil jurnalist surishtiruvi, korrupsiya sohasi bilan shug'ullanuvchi nodavlat tashkilotlarning erkin harakat qilishiga yo'l qo'yilishi lozim. [5.].

Shuningdek, 2017 yil 3 yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni asosida 2019 yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida aynan oliy ta'lim sohasida "korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish belgilab qo'yilganligi barcha sohalarda muvafaqiyatli islohotlar ta'lim tizimidan boshlanishidan dalolat beradi[6.].

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz ishlar amalga oshirilmoda davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni hamda 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4761-son Qarorlariga asosan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, qisqa muddat ichida tizimli ishlar amalga oshirilishiga erishildi.

Xususan, Agentlik statistik ma'lumotlariga ko'ra, Sudlar tomonidan 2020-yil davomida korrupsiya bilan bog'liq (Jinoyat kodeksining 205-214,243-moddalari) jami 2270 nafar shaxsga nisbatan 1502 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan[7.].

Siyosotshunos olim professor V.Lopotin tarifiga ko'ra korrupsiyaga qarshi siyosot tarkibida quyidagi elementlar bo'lishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Bular:

a) Korrupsiyaga qarshi siyosat konsepsiyasi, uning maqsadlari va tamoyillarini shakllantirish;

b) inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha davlat va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yo'lga qo'yish;

d) korrupsiyaning oldini olish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni va choralarni belgilash, shuningdek korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish subyektlarini aniqlash;

e) korrupsiyaga qarshi kurashni shakllantirish va amalga oshirishda hokimiyat vakolatlarini aniqlash;

f) qonun ishlab chiqarish va huquqni muhofaza qilish faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurash prinsiplarini aniqlash va amalga oshirish, korrupsiyaga qarshi standartlarga muvofiq jamiyatning huquqiy ongini shakllantirish[8.].

“Korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar qanchalik xalaqit qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo‘lmas ekan, ta’sirchan jamoatchilik nazoratini o ‘rnatmas ekan, bu baloga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz”[9.].

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va ularni oldini olish borasida olib borilyotgan islohotlar o‘z natijasini bermoqda. Islohotlar o‘z samarasini berayotganligini Tranparency International xalqaro tashkilotining statistik ma’lumotlarida O‘zbekiston Respublikasi korrupsiya indeksi bo‘yicha 2007-2020 yillar oralig‘ida 175-o‘rindan 146-o‘ringa ko‘tarilganligidan bilib olishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib butun dunyoda ildiz otgan salbiy illat — korrupsiyaning davlat va jamiyat rivojiga salbiy tasiri ko‘rsatayotganligini va bunga qarshi nafaqat mas’ul davlat organlari, balki fuqarolar ham murasasiz munosabatda bo‘lishi lozim deb hisoblaymiz. Shuningdek jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murasasiz munosabatni shakllantirishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni shakllantirish taklif etamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Prezidentimiz tabiri bilan aytganda “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining keng qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz”.

Foydalanilgan adabiyatlar:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni.

3. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (xabar.uz)

4. 2016-yil 12-dekabridagi ma’lumotga ko’ra, Konvensiyaga 180 ta davlat a’zo hisoblanadi va uni 140 ta davlat imzolagan. Jumladan, Konvensiyaga barcha Markaziy Osiyo davlatlari hamda Sobit Sovet Ittifoqi davlatlari a’zo hisoblanadi. https://www.unodc.org/unodc/en/treaties/CAC/signatories.html

5. http://ngo.uz/, http://nimfogo.uz/uz.

6. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni // https://lex.uz.docs/4355387

7. 2020-yilda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar statistikasi (anticorruption.uz)

8. Лопотин В.Н. О системном подходе в антикоррупционной политике // Государство и право. -2001. -№7.

9.Диний экстремизм ва терроризмга карши курашнинг маънавий-маърифий асослари (масъул мухдррир А.Очилдиев). -Т .: ТИУ. 2008.

Салиева Шахсанем Уснатдиновна — *Самостоятельный соискатель Университета общественной безопасности, shahsitta@gmail.com*

Давлетов Артур Жумабаевич — *Магистрант Высшей школы судей, av.a.davletov@mail.ru*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ ПРОФИЛАКТИКИ И ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ ПРИ ОКАЗАНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ

В условиях построения нового Узбекистана, руководством страны взят курс на цифровую трансформацию экономики и превращение страны свободной от коррупции. Обеспечение гарантии защиты прав человека, неприкосновенности частной собственности и укрепления подлинной независимости судебной системы, в итоге несомненно сформируют позитивный имидж страны на международной арене, а также увеличат прямые иностранные инвестиции в реальный сектор экономики.

Так, в стране создана достаточно солидная институциональная и нормативно-правовая база для достижения поставленных перед страной целей. Решительным шагом к становлению подлинно демократического государства стало принятие 9 декабря 2015 года Закона Республики Узбекистан «Об электронном правительстве» [5], который заложил правовую основу к переходу прозрачным транзакционным услугам, исключающий необходимость личного посещения различных инстанций органов государственного управления для получения государственных услуг гражданами и представителями бизнес-сообщества.

В рамках бескомпромиссной борьбы и предотвращения коррупции самым первым и решительным шагом, несомненно, можно назвать присоединение к Конвенции ООН против коррупции (Нью-Йорк, 31 октября 2003 года) с уведомлениями, заявлениями и оговорками, о чем был принят Закон Республики Узбекистан от 7 июля 2008 года № ЗРУ-158. [6] А 3 января 2017 года был принят Закон Республики Узбекистан «О противодействии коррупции», который законодательно закрепил основные понятия как коррупция, коррупционное правонарушение и конфликт интересов. [7] Однако, в Законе, на наш взгляд, односторонне рассматривается понятие коррупции, под которой понимается получение материальной или нематериальной выгоды. Так, в ст.5 Закона в качестве основных направлений противодействия коррупции регламентированы: повышение правового сознания и правовой культуры населения, формирование в обществе нетерпимого отношения к коррупции; реализация мер по предупреждению коррупции во всех сферах жизнедеятельности государства и общества; своевременное выявление, пресечение коррупционных правонарушений,

устранение их последствий, причин и условий, им способствующих, обеспечение принципа неотвратимости ответственности за совершение коррупционных правонарушений. Думается, данный перечень направлений антикоррупционных направлений просто необходимо дополнить и расширить с учетом негативного воздействия процессов глобализации и цифровизации.

Условно в качестве первого этапа административных реформ нового Узбекистана можно отметить Указ Президента Республики Узбекистан от 8 сентября 2017 года «Концепция административной реформы в Республике Узбекистан» № УП-5185. В рамках подготовки Концепции был осуществлен системный анализ, который выявил недостаточную открытость и прозрачность деятельности органов исполнительной власти, слабые механизмы общественного контроля, которые приводят к чрезмерной бюрократии и различным проявлениям коррупции, в числе прочих уровень оказания государственных услуг, не соответствовавший ожиданиям и требованиям населения и бизнеса. [9] В п.5 настоящей Концепции было предусмотрено дальнейшее совершенствование системы оказания государственных услуг путем: создания на базе центров «одно окно», в том числе ведомственных, единых центров оказания государственных услуг физическим и юридическим лицам, регламентации всех государственных услуг, внесения их в единый реестр, определения и поэтапного расширения перечня документов и сведений, подлежащих получению органами исполнительной власти посредством межведомственного взаимодействия при оказании государственных услуг. Логическим завершением первого этапа явилась реализация идеи *«Не народ должен служить государственным органам, а государственные органы должны служить народу»*.

Как справедливо отмечают А.К.Расулев и Э.Х.Шайдулин, создание Агентства государственных услуг оказало положительное влияние на развитие электронного правительства, кроме того, на Агентство была возложена реализация единой государственной политики в области предоставления государственных услуг физическим и юридическим лицам. [Расулев А.К и Шайдулин Э.Х. 3]

Так, Указом Президента Республики Узбекистан от 17 марта 2022 года «О мерах по дальнейшему повышению эффективности деятельности органов и учреждений юстиции в обеспечении прав и свобод граждан, а также в оказании правовых услуг» №УП-89 Агентство государственных услуг и его территориальные управления были переданы в ведение Министерства юстиции. Соответственно, настоящим документом на Министерство юстиции в сфере оказания государственных услуг населению были возложены дополнительные задачи, такие как: **реализация единой государственной политики в сфере оказания государственных услуг**

физическим и юридическим лицам, обеспечение быстрого, удобного и качественного оказания государственных услуг за счет устранения излишних административных процедур, осуществление контроля и оценки эффективности деятельности государственных органов и иных организаций в сфере оказания государственных услуг, в том числе по внедрению соответствующих информационных систем, ресурсов и баз данных. [10]

Мы солидарны с позицией Б.Исмаилова, который считает, что в Узбекистане важным аспектом оптимизации государственного управления является цифровизация, которая преобразует государственные услуги, повышая тем самым качество и эффективность государственного сектора, обеспечивает открытость и прозрачность управленческих процессов, укрепляет доверие граждан к публичной власти, содействует эффективному раскрытию коррупционных правонарушений, способствует формированию в обществе атмосферы нетерпимости к коррупции и др. [Исмаилов Б. 2]

Примечательна позиция И.А.Хамедова, который полагает, что *изучение общественного мнения – ключевой показатель измерения качества оказания государственных услуг*. Общественное мнение во многих случаях игнорируется в связи с тем, что некоторые государственные служащие полагают, что пользователи не могут знать административные процедуры «изнутри». Однако, в действительности пользователи государственных услуг в большинстве случаев знают какая информация и действия дублируются в различных инстанциях, так как от них требуется та же самая информация в различных инстанциях. Прислушиваясь к общественному мнению, государственные органы могут значительно повысить не только эффективность внутренних административных процедур, но и качество оказываемых государственных услуг. [Хамедов И.А. 1]

В этом направлении создано правовое поле для объективного оценивания работы центров государственных услуг. Стоит отметить, о Постановлении Президента Республики Узбекистан от 25 февраля 2019 года «О мерах по повышению позиций Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах» №ПП-4210, в целях улучшения качества оказываемых государственных услуг, повышения уровня удовлетворенности населения деятельностью государственных органов, а также профессионализма их сотрудников внедрен институт «тайного покупателя государственных услуг», который оценивает уровень удобства прохождения административных процедур и соблюдения государственными органами, а также их сотрудниками требований нормативно-правовых актов, профессионализм и оперативность, этикет общения с населением при оказании государственных услуг. При этом, результаты мониторинга «тайного покупателя государственных услуг» не являются основанием для привлечения сотрудников министерств и ведомств, которые оказывают соответствующую

государственную услугу, к ответственности и носят рекомендательный характер, а расходы, связанные с функционированием института «тайного покупателя государственных услуг», финансируются за счет средств Фонда развития органов и учреждений юстиции и Торгово-промышленной палаты Республики Узбекистан. [8]

Если в рамках Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в Цели 9 было предусмотрено доведение **доли электронных государственных услуг до 100 процентов и устранение бюрократии**, то в Цели 5 Государственной программы на 2023 год [11] в качестве главной задачи предусмотрено законодательное закрепление статуса органов юстиции путем принятия соответствующего закона. Действительно, статус Министерства юстиции давно нуждается правовой регламентации, и, между прочим, в настоящем Законе необходимо закрепить полномочия и функции министерства в реализации единой государственной политики в сфере оказания государственных услуг физическим и юридическим лицам.

Кроме того, необходимо полностью пересмотреть Закон Республики Узбекистан «Об электронном правительстве» с учетом современных тенденций и реалий, посредством исключения из него норм касательно предоставления государственных услуг, разграничить права, полномочия и ответственность Министерства цифрового развития и Министерства юстиции в рамках реализации единой государственной политики в сфере оказания государственных услуг.

Также назрела необходимость пересмотра Закона Республики Узбекистан «Об административных процедурах», который как справедливо отмечает И.А.Хамедов: «…Исполнение закона «Об административных процедурах» (ЗАП) хокимияты, равно как и другие административные органы, тотально игнорируют уже больше четырёх лет». [Хамедов И.А. 4]

Министерству юстиции необходимо разработать методические рекомендации по неукоснительному соблюдению норм законодательства об административных процедурах в целях недопущения произвола чиновниками и введения нового вида административной ответственности за нарушение законодательства об административных процедурах. Все эти мероприятия вполне осуществимы посредством последовательного повышения правовой грамотности, правовой культуры и непримиримого отношения к коррупционным правонарушениям как у населения, так и сотрудников административных органов, и самое главное систематическое изучение общественного мнения, которое способно в итоге улучшить качество предоставляемых государственных услуг.

Таким образом, государству необходимо подчеркнуть важность преодоления разрыва между действительным и желаемым, ведь главная ее цель – сделать государственные услуги доступными, а систему государственного управления свободной от коррупции в целом.

Список использованной литературы и источников

1. Актуальные вопросы развития института государственных услуг в Узбекистане: И. А. Хамедов [и др.].— Т.: Baktria press, 2016. – 130 с., https://www.railway.uz/upload/iblock/d4d/d4d111bb54335ffd4fab4778d56907f2.pdf

2. Исмаилов, Б. 2022. Внедрение информационно-аналитических платформ как важный инструмент превенции коррупционных правонарушений в Республике Узбекистан. Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2, 2(июль2022), 17–21. DOI: https://doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2-iss2-pp17–21 (дата обр.: 19.02.2023)

3. Расулев, А., & Шайдулин, Э. (2022). Основные тенденции развития цифровизации органов юстиции Республики Узбекистан на современном этапе. Современные тенденции развития цифровизации в сфере юстиции, 1(1), 17–24. https://doi.org/10.47689/978-9943-7818-1-8-MTDDFJ-2021-pp17-24 (дата обр.: 19.02.2023)

4. Хамедов И.А. Качество госуправления не улучшить без соблюдения административных процедур // https://www.gazeta.uz/ru/2023/02/17/reforms/?utm_source=push&utm_medium=telegram (дата обр.: 20.02.2023)

5. Закон Республики Узбекистан, от 09.12.2015 г. № ЗРУ-395 // https://lex.uz/docs/2833855 (дата обр.: 20.02.2023)

6. Закон Республики Узбекистан, от 07.07.2008 г. № ЗРУ-158 // https://lex.uz/docs/1369507 (дата обр.: 19.02.2023)

7. Закон Республики Узбекистан, от 03.01.2017 г. № ЗРУ-419 // https://lex.uz/docs/3088013 (дата обр.: 19.02.2023)

8. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 25.02.2019 г. № ПП-4210 // https://lex.uz/docs/4215407 (дата обр.: 20.02.2023)

9. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции административной реформы в Республике Узбекистан» от 08.09.2017 г. № УП-5185 // https://lex.uz/ru/docs/3331176 (дата обр.: 19.02.2023)

10. Указ Президента Республики Узбекистан, от 17.03.2022 г. № УП-89 // https://lex.uz/docs/5915489 (дата обр.: 20.02.2023)

11. 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида // https://regulation.gov.uz/oz/d/76071 (дата обр.: 20.02.2023)

Shagilov Pulatbek Koptleuovich — *Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi Huquqiy fanlar sikli boshlig‘i, mayor*

Babanazarov Kalbay Rustamovich — *O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi, yu.f.d.(DSc), dotsent*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA JAMOATCHILIK NAZORATI

Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz, barchamiz birga harakat qilmog‘imiz zarur. Bunda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob’ekti sifatida alohida olingan korrupsioner emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarini bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo‘lishini anglagan holda harakat qilmog‘imiz lozim bo‘ladi.

Xalqaro tajribadan ma’lumki, davlat xizmatchilari uchun standart taqiqlashlar, cheklashlar va nizomlar barcha rivojlangan mamlakatlar qonunlarida mavjud. Quyida Meksika davlatida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi chora va uslublari haqida to‘xtalsak. Meksikada jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish yuzasidan bir qator choralar ko‘rilgan bo‘lib, mamlakatning Monterrey shaxrida 2018 yildan buyon yangi sayohat yo‘nalishi – Korrupsion tur ochilgan bo‘lib, mahalliy amaldorlar suratlari, pul to‘la xaltalar bilan turgan kostyum kiygan cho‘chqa va kallamushlar suratlari yopishtirilgan bitta avtobusga yo‘lovchilar (amaldorlar, deputatlar, talabalar va oddiy aholi vakillari) joylashib, shaharning eng qoloq, yo‘llari buzilgan, devorlari to‘kilib yotgan va boshqa soliq to‘lovchilarning mablag‘lari noqonuniy ishlatilgan yoki o‘zlashtirilgan joylarga olib boriladi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishga kam ta’minlangan va sharoiti og‘ir oilalar yashaydigan mavzelarga olib boriladi. Buning maqsadi, aynan kimlar yuqori lavozimlarga tayinlanishi yoki saylanishi borasida mahalliy aholini o‘ylantirishdir hamda amaldorlar, deputatlarni har bir bosayotgan qadami qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligiga o‘z ko‘zi bilan guvoh bo‘lishidir.

Hozirgi kunda, tegishli internet nashrlari tomonidan doimiy ravishda mamlakatimizning barcha xududlarida mavjud kamchiliklar, ta’mirsiz maktablar, buzilgan ko‘priklar, ogohlantirishsiz uy buzilishlar, suv bosgan yer to‘lalar va boshqa og‘ir misollar keltirilmoqda va bularning aksariyati shu illatning asorati desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma’lumki, korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi.

Davlat va jamiyatning rivojiga, xalqning adolatga bo‘lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavf – korrupsiya xavfining oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi ishlar mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma’muriy munosabatlari ma’no-mohiyatini o‘zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi.

Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga so‘zning keng ma’nosida yondashadigan bo‘lsak, bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma’naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, o‘ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar.

Korrupsiya iqtisodiyot rivoji, chinakam qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti uchun eng asosiy to‘siqlardan biridir. Bu illat bilan nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, balki har bir jamoa tomonidan jiddiy kurash olib borilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro‘-e’tiborini oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan Farmon va qarorlar imzonlandi. Bugungi kunga kelib respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning mustahkam huquqiy mustahkamlanmoqda.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga yo‘llangan Murojaatnomada[1.] korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan ko‘ra barvaqt oldini olishga o‘tish kerakligini ta’kidlab o‘tgandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy yo‘li davlat organlari faoliyati va ish jarayonlarini shaffof qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Zero, bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar fuqarolar tomonidan ham faollik ko‘rsatilsagina, ko‘zlangan natijani berishi mumkin. Shunday ekan korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz, barchamiz birga harakat qilmog‘imiz zarur. Bunda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob’ekti sifatida alohida olingan korrupsioner emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarini bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo‘lishini anglagan holda harakat qilmog‘imiz lozim bo‘ladi.

Barchamizga ma’lumki, hozirgi zamon milliy va xalqaro huquqida tobora ko‘p qo‘llanilayotgan atamalardan biri bu korrupsiya bo‘lib, bu illatga qarshi jahon miqyosida keng qamrovda kurash olib borilmoqda. Mamlakatimizda ham korrupsiya illatiga qarshi kurashish davlat ahamiyatiga molik masala sifatida alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradigan, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladigan illat ekanligi barchamizga ma’lum. Bu korrupsiya va poraxo‘rlik,

jinoyatning bu turi boshqaruv apparatini izdan chiqaribgina qolmay, bozor asoslarini ham barbod etishi mumkin. Korrupsiya, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarga madadkor bo‘lish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam berish uchun davlat xizmatining imkoniyatlaridan foydalanishidir» deb bejiz ta’rif berilmagan.

Bugungi kunda respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning mustahkam huquqiy bazasi va aniq tizimi shakllangani, barcha xodimlar o‘z xizmat vazifalarini halol, vijdonan, yuqori professional darajada va vakolatlaridan chetga chiqmagan holda bajarishi, har qanday vaziyatda o‘z sha’ni va qadr-qimmatini saqlashi, odob-axloq qoidalariga rioya qilishi, kamtar, xushmuomalada bo‘lishi, hech kimga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘lmasligi, fuqarolarni qabul qilishda o‘zining xolisligi va beg‘arazligini namoyon etishi lozimdir

Mamlakatimizda mavjud davlat organlarini obro‘sizlantirish va nufuziga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan o‘zini tiyishi, o‘z xizmat vazifalarini amalga oshirish bilan bog‘liq harakat yoki harakatsizlik evaziga pul, moddiy boylik va mulkiy ahamiyatga ega xizmatlar yoki boshqa ko‘rinishda haq olmasligi, o‘z xizmat mavqeyidan o‘zi, qarindoshlari va boshqa shaxslar uchun biron-bir manfaat, xizmat, tijorat yoki boshqacha tarzda foydalanmasligi, shaxsiy masalalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarga murojaat qilganda xizmat mavqeyidan foydalanmasligi, bo‘ysunuvidagi xodimlarni noqonuniy qarorlar qabul qilish yoki g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga majbur etmasligi kerakligini har kuni yodda tutmog‘i kerak.

Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga so‘zning ma’nosidan kelib chiqib yondashadigan bo‘lsak, bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma’naviy buzilish holatidir.

Shunday ekan, o‘ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha birdek mas’uldirlar.

Davlat hokimiyati tizimlarining ish faoliyati shaffof bo‘lishi kerak hamda bu shaffoflik jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari yordamida nazorat qilib borilishi lozim. Ularning fuqarolar huquqlarini sharhlab borishi va jamiyatda huquqiy savodxonlik darajasining yuksalishiga yordam beruvchi mustaqil hokimiyat manbai bo‘lishi ayni muddao.

Poraxo‘rlik – hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro‘siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan havfli jinoiy hodisalardan biridir.

Yurtimizda qisqa vaqt ichida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”[2.]gi “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”[3.] gi qonunlar qabul qilindi.

Iqtisodiyotimizni yanada jadal yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish

bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bilan chambarchas bog‘liq. Bu maqsad yo‘lida barchamiz birlashishimiz, bir yoqadan bosh chiqarishimiz, hamjihat va hamfikr bo‘lishimiz, korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosatini nafaqat qo‘llab-quvvatlashimiz, balki unda faol ishtirok etishimizni bugungi davrning o‘zi taqazo etayotganini unutmasligimiz shart va zarur.

Korrupsiya shunday illatki, uni bir yoki ikki idoraning sa’y-harakati bilan yo‘q qilib bo‘lmaydi. Qachonki, barcha fuqarolarimiz, jamiyat unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo‘q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkin. Mazkur masalaning tub mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, korrupsiyaga qarshi nafaqat huquqni muhoza qiluvchi idoralar va davlat tashkilotlari, balki jamoatchilik nazorati instituti imkoniyatidan ham keng foydalanish belgilab qo‘yilganini ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, jamoatchilik nazoratini olib borishda muhim o‘rin tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish alohida belgilash.

Ikkinchidan, joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o‘rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlab borish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalarini tashkil etish.

Uchinchidan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish, ushbu sohadagi qonunbuzilish holatlari yuzasidan xabar bergan shaxslarni himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy qilish.

To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta’minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o‘tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirishdan iborat.

Vaholanki, bugun har bir davlat xizmatchisi va huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari xodimlarining fe’l-atvoriga O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga bo‘ysunish va ularni hurmat qilish odobini singdirib borish o‘ta muhim vazifadir. Keltirib o‘tilgan mazmun-qoidalar, jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotgan hozirgi davrda mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish, qonunlarga hurmatsizlik qilgan mansabdor shaxslar to‘g‘risida asoslantirilgan ko‘rsatuvlar, eshittirishlar tashkil qilish, maqolalar chop etib borish, ularning qilmishi noto‘g‘ri ekanligini ta’sirchan vositalar orqali ko‘rsatib berish, albatta, o‘z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uza.uz/uz/posts/zbekiston
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 1-son, 2-modda
3. https://lex.uz/search

Ачилов Алишер Темирович

Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлик университети Жиноий-ҳуқуқий фанлар кафедраси доценти, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори(PhD)
E-mail:achilov1976@mail.ru

ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТДА КОРРУПЦИЯВИЙ ЖИНОЯТЛАР ВА ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ

Глобализация жараёнларининг кучайиб бориши шароитида, мамлакатнинг халқаро майдонда ўз ўрнини эгаллаши биринчи навбатда халқаро иқтисодий муносабатлардаги иштирокига боғлиқ. Мустақилликнинг илк йилларидан мамлакатимизда иқтисодиёт соҳасини, хусусан ташқи иқтисодий фаолият (ТИФ) соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда.

Республика ва дунёнинг бошқа давлатлари ўртасида халқаро савдонинг ривожланиши, ишлаб чиқариш интеграциясининг кенгайиши ва такомиллашуви ташқи иқтисодий фаолиятнинг янада кенгайишига сабаб бўлади. Ҳар қандай давлатнинг ташқи иқтисодий фаолияти жаҳон хўжалигининг фаолияти билан боғланади. Бугунги ривожланиб бораётган иқтисодий ҳаётда иқтисодиётнинг бир хилда мўтадил кетиши учун ташқи иқтисодий фаолиятнинг аҳамияти катта ҳисобланади, шунингдек ривожланиб бораётган бозор муносабатларида турли давлатлар билан сиёсий алоқалар сингари иқтисодий алоқалар ҳам ривожланиб боради. Бу эса иқтисодиётнинг муҳим тармоғи ҳисобланувчи ташқи иқтисодий фаолият нақадар юқори роль ўйнашини билдиради.

Ўзбекистонда кейинги йилларда барқарор иқтисодий ўсиш суръатлари таъминланмоқда ва ҳукумат томонидан уни мустаҳкамлаш борасида янги устувор вазифалар белгиланди. Давлат раҳбари бошчилигида олиб борилаётган оқилона ва пухта ўйланган сиёсат иқтисодий мунобатларни янада ривож топиб боришига сабаб бўлмоқда. Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, “макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва иқтисодий ўсишнинг юқори суръатларини сақлаб қолиш энг муҳим устувор вазифамиздир”[1.8Б.].

Мамлакатимиз иқтисодиётини жаҳон иқтисодиётига интеграциялашуви шароитида иқтисодий хавфсизликни таъминлаш, мамлакат иқтисодий салоҳиятини ўрганиш, иқтисодий хавфсизликни таъминлашда инвестициялар ва инновацияларнинг ўрнини баҳолаш, иқтисодиёт тармоқларининг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда яширин иқтисодиёт ва коррупциянинг келиб чиқиш сабаблари, шарт-шароитлари, бартараф этиш масалаларини назарий-амалий ўрганиш ва татбиқ этиш лозимлигини кўрсатмоқда.

Таҳлиллар мамлакатда замонавий молиявий тизимнинг ривожланиши ва мамлакатнинг молиявий хавфсизлигига “яширин иқтисодиёт”, “коррупция”, “капиталнинг хорижга оқими” ва “солиқларни ноқонуний минималлаштириш учун оффшорлардан фойдаланиш” каби ҳолатлар салбий таъсир этаётганлигини кўрсатмоқда.

Дунё олимлари тадқиқотлари давомида амалга оширилган ҳисоб-китоблари ҳар йили 20-25 миллиард доллар капиталнинг хорижга оқими содир бўлишини, мамлакатлар солиқ қонунчилигидаги номутаносиблик ҳисобига ялпи ички маҳсулотнинг 2,5 фоизи миқдори йўқотилиши ва барча даражадаги мансабдорларга берилган пора миқдори битимларнинг 10 фоизгачасини ташкил этишини тасдиқлаган[2. 30-31-бетлар].

Ўзбекистон Республикасининг “Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида”ги Қонуни 3-моддасига асосан,

Ташқи иқтисодий фаолият деганда, Ўзбекистон Республикаси юридик ва жисмоний шахсларининг хорижий давлатларнинг юридик ва жисмоний шахслари, шунингдек халқаро ташкилотлар билан ўзаро фойдали иқтисодий алоқаларни ўрнатиш ва ривожлантиришга қаратилган фаолияти тушунилади.

Ўзбекистон Республикасида рўйхатга олинган юридик шахслар, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг ҳудудида доимий яшаш жойига эга бўлган ва якка тартибдаги тадбиркор сифатида рўйхатга олинган жисмоний шахслар ташқи иқтисодий фаолият билан шуғулланишга ҳақлидир[3.].

Амалдаги қонун ҳужжатларида ТИФ соҳасидаги жиноят тушунчасига таъриф берилмаган. Бу тушунчага соҳага оид илмий адабиётларда ҳам алоҳида тўхталиб ўтилмаган. Шунга кўра, қонун ҳужжатлари ва амалиётдан келиб чиқиб, *“ташқи иқтисодий фаолият соҳасидаги жиноятлар бу – Жиноят кодексининг тегишли бобларида жавобгарлик назарда тутилган ташқи иқтисодий фаолиятни амалга ошириш тартибига тажовуз қилувчи трансчегаравий характердаги махсус усулларда ғаразли мақсадларда қасддан содир этиладиган ижтимоий хавфли қилмишлардир[4.]”,* - деб таъриф берсак мақсадга мувофиқ бўлади.

Ҳозирги вақтда ТИФ соҳасидаги жиноятлар энг интеллектуал, мураккаб, профессионал, юқори уюшган ва жуда даромадли ноқонуний фаолиятдир. Кўплаб олимлар ва амалиётчиларнинг фикрига кўра, ташқи иқтисодий фаолият соҳасидаги жиноятлар давлат манфаатларига энг катта зарар етказади. Илмий-услубий адабиётлар таҳлили, ушбу соҳадаги жиноятларни тергов қилиш амалиёти шуни кўрсатадики, ташқи иқтисодий жиноий фаолият таркибида унинг белгиловчи тури қоида тариқасида, божхона чегараси орқали товарлар ва бошқа қимматликлар, ашёларни ноқонуний олиб ўтиш билан боғлиқ операциялар, яъни божхона соҳасидаги жиноятлардир (ЖК 182, 184, 246 ва бошқа моддалар).

Ташқи иқтисодий фаолият соҳасидаги жиноятлар жиноий-ҳуқуқий квалификацияда *турли хил жиноятларнинг умумий хусусиятларига мос келади*. Булар қуйидаги, яъни: божхона қоидабузарликлари, иқтисодий соҳадаги ва мансабдор шахсларнинг жиноятларини ўз ичига қамраб олади ва ушбу соҳада улар асосий устувор гуруҳдаги жиноятлар ҳисобланади.

ТИФ соҳасидаги жиноятлар давлат ва маъмурият, тижорат ва бошқа ташкилотларнинг коррупцияси билан чамбарчас боғлиқдир. Энг аввало, кўплаб муаллифларнинг асарларида контрабанда, божхона тўловларини тўлашдан бўйин товлаш ва бошқа божхона жиноятларининг энг уюшган ва ижтимоий хавфли усуллари божхона ходимлари билан алоқада бўлганлиги қайд этилган [5. 183-184-бетлар].

Ёрдамчи жиноий фаолиятнинг асосий турлари иқтисодий ва хизматга оид жиноятлардир. Масалан, агар жиноий ташкилотнинг асосий фаолияти товар контрабандаси бўлса, шу мақсадда бир неча "*бир кунлик фирмалар*" ташкил этилади. Стратегик муҳим товарларнинг йирик партиялари (масалан: нефт маҳсулотлари, рангли метал ва бошқалар) турли хил йўллар билан ўғирланади, шу жумладан фирибгарлик, ноқонуний фойдаланиш ва ўғирлаш орқали ёки аниқ ўғирланган товарлар сотиб олинади. Контрабандани амалга ошириш учун транспорт корхоналарининг мансабдор шахслари божхона органларига пора бериш орқали мақсадларига эришадилар.

Коррупция **деганда** шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш тушунилади [6.]. Коррупция фаолияти яширин иқтисодиётнинг асосий турларидан бири ҳисобланади.

Яширин иқтисодиёт, ўз навбатида, коррупцияни вужудга келтиради. Коррупция эса "хуфиёна иқтисодиёт"нинг ривожланиши учун барча имкониятларни яратади. Яъни, бир томондан, "яширин иқтисодиёт" давлат хокимияти ва бошқарувининг барча тизими сезиларли даражада коррупциялашган шарт-шароитда ривожланса, иккинчи томондан, "яширин иқтисодиёт" сиёсат ва иқтисодиётнинг ўзаро хотиржам ҳолатда мавжуд бўлишини таъминловчи соҳалар билан коррупцияли муносабатларни шакллантиради. Учинчидан, коррупция "яширин иқтисодиёт"ни кўзига кўринмасдан, ноқонуний равишда тижоратни олиб боришга мажбур этади. Тўртинчидан, коррупция "яширин иқтисодиёт"нинг янги кўриниши ва соҳалар пайдо бўлишига замин яратади. Шу боис коррупцияга қарши курашиш "яширин иқтисодиёт"га қарши кураш билан бирга олиб борилмаса, керакли самарани бермайди"[7. 34-38-бетлар].

"Ғарб экспертларининг таъкидлашича, мамлакат ЯИМ нинг 40-50 %ини "хуфиёна иқтисодиёт" ташкил этган ҳолат хавфли "бўсаға" ҳисобланади". Миллий иқтисодий тизими ушбу кўрсаткичдан юқори бўлган мамлакатлар

ўзини жуда оғир ҳолатга тушган, деб ҳисоблаши лозим[8.]. Бундан хулоса қилиш мумкинки, мамлакатда “хуфиёна иқтисодиёт” даражасининг юқорилиги порахўрлик даражасининг ҳам юқори даражада бўлишига замин яратмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси маълумотига кўра, 2022 йил давомида республика бўйича жами 2 965 та жиноят иши бўйича 3 116 нафар мансабдор шахслар жиноий жавобгарликка тортилган[9.].

Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида Ташқи иқтисодий фаолиятда порахўрлик, таъмагирлик ва шунга ўхшаш жиноятлар қандай баҳоланади? Сўнгги йилларда амалиётда ташқи иқтисодий фаолиятда кўп учраётган баъзи коррупция жиноятларини жиноят-ҳуқуқий жиҳатдан ўрганиб чиқамиз.

Ўзбекистон Республикаси ЖКнинг 182-моддасида (Божхона тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузиш) назарда тутилган жиноят кўпинча, қалбакилиги олдиндан аён бўлган хужжатлардан фойдаланадилар ёки хужжатларга сохта маълумотлар киритиш орқали содир этилади. Бундай ҳолатда, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2013 йил 6 сентябрдаги 18-сон “Божхона тўғрисидаги қонунчиликни бузиш ва контрабандага оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарорининг 12-бандига кўра, ҳужжатнинг қалбаки эканлигини била туриб, уни божхона органларига ҳақиқий ҳужжат сифатида тақдим этган шахс ҳаракатлари ЖК 182-моддаси билан квалификация қилинади ва қўшимча равишда 228-моддаси билан квалификация қилишни талаб қилмайди.

Аммо Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми тушунтиришида айни шундай ҳаракат мансабдор шахс томонидан содир этилган тақдирда қилмиш қандай квалификация қилиниши лозимлиги аниқлаштирилмаган.

Бу эса, амалиётда қонунни турлича талқин қилишга сабаб бўлади. Жумладан, аксарият ҳолларда шундай қилмиш ЖКнинг 182 ва 209-моддалари бўйича жиноятлар жами тариқасида квалификация қилинишига, аксарият ҳолларда эса, ЖКнинг 182-моддаси иккинчи қисми “г” банди бўйича квалификация қилиш ҳолатини юзага келтириши муқаррар. Зотан, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми томонидан ушбу масалага аниқлик киритилиши лозим эди.

Амалиётда юзага келадиган ушбу муаммони бартараф этиш, айни бир тусдаги қилмишларга жавобгарлик масаласида бир хил ёндашувни таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2013 йил 6 сентябрдаги 18-сон “Божхона тўғрисидаги қонунчиликни бузиш ва контрабандага оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарорининг 12-банди иккинчи хатбошини қуйидаги таҳрирда баён этиш таклиф этилади:

“Ҳужжатнинг қалбаки эканлигини била туриб, уни божхона органларига ҳақиқий ҳужжат сифатида тақдим этган шахс ҳаракатлари ЖК 182-моддаси билан квалификация қилинади ва қўшимча равишда 228-моддаси билан квалификация қилишни талаб қилмайди. Худди шундай

қилмиш мансабдор шахс томонидан содир этилган тақдирда унинг ҳаракатлари ЖК 182-моддаси иккинчи қисми "г" банди билан квалификация қилинади ва қўшимча равишда 209-моддаси билан квалификация қилишни талаб қилмайди".

Коррупция жиноятларига оид нормаларда жиноят предмети сифатида фақат моддий хусусиятдаги манфаатлар таъкидланади (масалан: пул, буюм, моддий қийматликлар ва ҳ.к.лар), лекин қонунда моддий қийматликлардан ташқари қонун билан қўриқланадиган ҳуқуқ ва манфаатларга жиддий зарар, зиён ҳақида ҳам гапирилади. Фуқароларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларига жиддий зиён ёки зарар етказилганда жиноят предмети нафақат моддий ёки номоддий бойликлар, балки турли мазмундаги ҳолатлар ҳам бўлиши мумкин. Амалдаги Жиноят кодексида айрим коррупция жиноятларининг предмети тўғридан-тўғри кўрсатилган. Масалан, Жиноят кодекси 210-моддаси (пора олиш)да моддий қийматликларни олиш дейилса, 211-моддасида моддий қимматликларни бериш деб, жиноят предмети моддий қимматликлар эканлиги таъкидланади.

Коррупция жиноятларини квалификация қилишда жиноятнинг предмети масаласи айниқса эътиборга моликдир. Мазкур жиноятларнинг аксарияти, шу жумладан пора олиш предметли жиноятлар жумласига киради. Мулкий хусусиятга эга ҳар қандай наф, шу жумладан мулкдорлик ҳуқуқи ва мулкдорлик аҳамиятига молик ҳаракатлар, масалан, гонорарли асарни бепул ёзиб бериш, автомашинани текинга таъмирлаш, дала ҳовлини бажарилган иш учун ҳақ олмасдан қуриш ва ҳоказолар кенг маънода пора олиш объекти бўлиши мумкин. Пул, облигациялар, пора олувчининг номига ёки кўрсатувчига ёзилган омонат дафтарчалари, бошқа қимматли қоғозлар, қимматбаҳо металлар ва тошлардан ясалган заргарлик буюмлари, қимматбаҳо саноат моллари, баъзан озиқ-овқат маҳсулотлари ва спиртли ичимликлар одатдаги пора предметлари ҳисобланади.

Агар эркин фуқаролик муомаласидан чиқарилган предметлар – кесма қурол, гиёҳвандлик воситалари, порнографик нарсалар пора тариқасида берилган ёки мансабдор шахс томонидан олинган бўлса, айбдор шахсларнинг қилмиши қўшимча равишда ЖК нинг тегишли моддаларига мувофиқ жиноятлар мажмуи бўйича тавсифланиши лозим.

Пора олиш жиноятининг предмети жуда ранг-баранг. Жиноят қонуни бу ҳолатга урғу бериб, пора олиш бу мансабдор шахснинг "моддий қимматликлар олиши ёҳуд мулкий наф кўриши" эканлигини қайд этади. Бинобарин, мулкий хусусиятга эга бўлмаган хизматлардан фойдаланиш ва наф кўриш пора олиш ва бошқа коррупция жиноятларининг предмети бўла олмайди.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида мансабдорлик жиноятлари билан боғлиқ 205-208-моддалари диспозициясидаги "жиддий зиён", 209, 301-моддаларидаги "жиддий зарар" тушунчалари ушбу

кодекснинг “Атамаларнинг ҳуқуқий маъноси” деб номланган бўлимида аниқ ифодаланмаганлиги амалиётда муаммолар туғдирмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳларда “Жиддий зиён” ва “Жиддий зарар” тушунчалари баён қилинган бўлиб, “Норматив ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги қонун талабларига кўра Жиноят кодексига шарҳлар юридик кучга эга эмас.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 8-бўлимида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий суди пленуми қарорларида “Жиддий зиён” ва “Жиддий зарар” тушунчаларига тавсиф бериш мақсадга мувофиқ бўларди.

Коррупцион кўринишдаги жиноятлар учун ҳар хил жазо турларини тайинлаш амалиётини таҳлил қилиш алоҳида, чуқур ўрганишни талаб этадиган умумий муаммоларни аниқлаш имконини беради.

Коррупция жиноятини содир этганлик учун ҳукм қилишда суд судланувчини фахрий, ҳарбий, махсус ёки бошқа унвондан, мансаб, элчилик ёки малака даражасидан маҳрум қилиши мумкин.

Юқорида зикр этилганлардан ташқари, “моддий” жазо турлари – жарима солиш жиноятнинг олдини олишда айниқса катта самара беришини қайд этиб ўтмоқчимиз. Жарима солиш, ЖК Махсус қисмнинг тегишли моддаларида назарда тутилган ҳолларда тайинланиши мумкинлигини эътиборга олсак, мазкур жазо турини қасддан содир этилган барча коррупция жиноятларига татбиқ этиш, бизнингча, ўринли бўлади. Асосий ва қўшимча жазо тариқасида тайинланадиган жаримани ҳам коррупцияга қарши кураш мақсадларида ўзгартириш, хусусан, унинг қуйи чегарасини кўтариш мақсадга мувофиқ бўлади деб ўйлаймиз.

Коррупция жиноятлари учун белгиланадиган жазо турлари ва чоралари масаласини ҳал қилишда судлар тезкор-қидирув, суриштирув ва дастлабки тергов тадбирларини амалга оширувчи органларнинг фаолиятида юзага келган вазиятни эътиборга олишлари шарт. Уларнинг узоқ муддатли инқирози шароитларида ҳатто жуда кўп миқдорда пора олганлик учун ўлим жазосига қайтиш ҳам кутилган самарани бермайди. Бироқ, пора олувчи ва берувчи шахсларга енгил жазо бериш ҳам мантиққа зиддир. Бинобарин, ҳаддан ташқари қаттиқ ва енгил бўлмаган, процессуал жиҳатдан таъминланган (катта жарималар, мол-мулкни мусодара қилиш ва озодликдан маҳрум қилиш жазосини реал ўташни назарда тутадиган) қонун зарур. Бу субъектга ўз хулқ-атворини тарозига солиб кўриш, жиноятга қўл уриш натижасида нималарга эга бўлиши ва жиноий жавобгарликка тортилган тақдирда нималарни йўқотишини таққослаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак”. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси, https://www.lex.uz/docs/111453
3. Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси, https://www.lex.uz/docs/2876354
4. Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 26 майдаги “Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида”ги 77-II-сонли Қонуни, https://www.lex.uz/docs/67345
5. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги ЎРҚ-419 сонли Қонуни, https://lex.uz/docs/3088008
6. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2013 йил 6 сентябрдаги “Божхона тўғрисидаги қонунчиликни бузиш ва контрабандага оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 18-сонли Қарори, https://www.lex.uz/docs/2259789
7. Ачилов А.Т. Ташқи иқтисодий фаолият билан боғлиқ божхона қонунчилиги бузилиши жиноятларини жиноий-ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш //Монография-Тошкент: Божхона институти, 2020 й.
8. А.А.Симанович. Институциональные корни коррупции // Безопасность бизнеса. 2009. № 3. С. 30–31.
9. Ларичев В.Д., Гилмутдинова Н.С. Таможенные преступления: Уклонение от уплаты таможенных платежей. М., 2001. 183-184;
10. Диканова Т.А., Осипов В.Е Борьба с таможенными преступлениями и отмыванием "грязных денег": Методическое пособие. М., 2000. С.20-24;
11. Гармаев Ю.П. Преступления в сфере ВЭД и криминалистическая методика расследования // СПС «Консультант Плюс»

Bauetdinov Rauaj Ayapbergenovich ***Qaraqalpaqstan Respublikası pedagoglardı jańa metodikalarǵa úyretiw milliy orayı tariyx ilimleri kandidatı, docent. r.bauetdinov@gmail.com***

KORRUPCIYA - MÁMLEKET HÁM JÁMIYET RAWAJLANIWINA TOSQINLIQ ETIWSHI ILLET

Korrupciya dúnya kóleminde sheshiliwi tiyis bolǵan global mashqalalardiń biri bolıp tabıladı. Bul illet hár qanday mámleket hám jámiyettiń siyasıy-ekonomikalıq rawajlanıwına zıyan jetkezip, insan huqıq hám erkinlikleriniń ayaq astı bolıwına alıp keledi. Sol sebepli oǵan qarsı gúres xalıqaralıq áhmiyetke iye máseleler qatarınan orın alǵan. Ózbekstan mámleketi jáhán jámiyetshiliginiń ajıralmas bir bólegi sıpatında bul zıyanlı illetke qarsı gúresti óziniń baslı wazıypalarınan biri etip belgilegen. Korrupciyaǵa qarsı tabıslı gúres sistemasın qurıwda keń kólemli xalıqaralıq sheriklikti jolǵa qoyıw hám shet ellerdiń aldıńǵı tájiriybesin úyreniw, oǵan sın kózqarastan úyrengen halda milliy nızamshılıq bazasın jetilistiriw ilajların tabıslı ámelge asırmaqta.

Etimologiyalıq jaqtan “korrupciya” - latınsha “corruptio”, yaǵnıy “buzıw, satıp alıw, para menen ózine awdiriw” degen mánislerdi ańlatadı. Korrupciya shaxstıń óz hámel yamasa xızmet wazıypasınan jeke máplerin gózlep yamasa materyaliq payda alıw maqsetinde nızamǵa qılap ráwishte paydalanıwı, sonıń menen birge bunday paydani nızamǵa qarsı túrde usınıw bolıp esaplanadı[1].

Bul zıyanlı illettiń jámiyet hám mámleket rawajlanıwına keri tásiri haqqında Sh.M.Mirziyoev Ózbekstan Respublikası Prezidenti lawazımına kirisiw saltanatına bağıshlanǵan Oliy Majlis palatalarınıń qospa májilisindegi bayanatında “Jámiyetimizde korrupciya, túrli jınayatlardı islew hám basqa huqıqbuzarlıq jaǵdaylarına qarsı gúresiw, olarǵa jol qoymaw, jınayatqa jaza, álbette, bar ekenligi haqqındaǵı nızam talapların ámelde támiyinlew boyınsha qatań sharalar kóriwimiz zárúr”, dep aytıp ótken edi [Mirziyoyev Sh.M.: 2].

Korrupciya – bul jámiyetti túrli jollar menen iskenjege alatuǵın qorqınıshlı illet bolıp tabıladı. Bul unamsız illet demokratiya hám huqıq ústinligi tiykarlarına zıyan jetkizedi, insan huqıqları buzılıwına alıp keledi, bazarlar iskerligine tosqınlıq qıladı, ómirdiń sapasın jamanlastıradı hám adamlar qáwipsizligine qáwip tuwdıratuǵın shólkemlesken jınayatshılıq, terrorizm hám basqada hádiyselerdiń tamır urıp, gúllewi ushın sharayat jaratıp beredi. Atap ótiw orınlı, bul zıyanlı illet úlken hám kishi, bay hám kámbaǵal bolıwınan qaramastan, barlıq mámleketlerde ushıraydı. Prezident Sh.M.Mirziyoev Ózbekstan Respublikası Konstituciyası qabıl qılınǵanınıń 26 jıllıǵına bağıshlanǵan saltanatlı máresimdegi bayanatında «Korrupciya menen hesh qashan maqsetimizge erise almaymız. Bul illet penen tek ǵana huqıqtı qorǵaw uyımları, bálki hár bir jámáát qatań gúresiwi kerek. Sonıń ushın hár bir mámleketlik uyımda jámáátshilik tárepinen qadaǵalanatuǵın korrupciyaǵa qarsı gúresiw boyınsha óz ishki dástúrleri bolıwı kerek» - dep aytıp ótken edi [Mirziyoev Sh.M.: 3].

Biraq, bul korrupciya hámme jerde bir túrde degendi bildirmeydi. Korrupciyanıń júzege keliwi sebepleri hár jerde hár qıylı bolıp, tariyxıy dáwir hám de social-ekonomikalıq rawajlanıw ózgesheliklerine baylanıslı boladı [1].

Búgingi kúnde mámleketimiz korrupciya jınayatına qarsı gúresiw boyınsha jáhán jámiyetshiligi tárepinen tán alıńgan Birlesken Milletler Shólkeminiń Korrupciyaǵa qarsı gúres konvenciyasına qosılǵan.

Sonday-aq, mámleketimizde sońǵı jıllarda korrupciya jınayatına qarsı gúresiw boyınsha bir qatar huqıqıy-normativ húJjetler qabıl etildi. Milliy nızamshılıq húJjetlerin muwapıqlastırıw ushın olar turaqlı ráwishte jetilistirilip barıldı hám korrupciya jınayatına qarsı gúresiwdiń jańasha mexanizmleri kórsetip berildi. Bul zıyanlı illet, mámleketimiz aldında turǵan sheshiliwi júdá quramalı bolǵan máselelerden biri esaplanadı. Mamleketimizde ótken 2 jıl ishinde 1 mıń 986 lawazımlı shaxs korrupciyalıq jınayatlar islegeni ushın jınayıy juwapkershilikke tartılǵan bolsa, 2 jıl dawamında korrupciyalıq jınayatlar aqıbetinde jetkizilgen zıyan 2 trillion sumnan asıp ketken [Kallibekov T.: 7].

Korrupciyaǵa qarsı gúres mámleketimizdiń hámiyshe dıqqat orayında turǵan máselelerden biri bolıp tabıladı. Sonlıqtan da, Prezidentimiz óziniń hár bir shıǵıp sóylegen sózinde bul illettke qarsı gúresiw baslı wazıypa ekenligin atap kórsetedi. Korrupciyanıń jámiyetimizge, rawajlanıwımızǵa tiygizip atırǵan jaman tásiri haqqında Sh.Mirziyoev “Jámiyettiń rawajlanıwına irkinish jasap atırǵan bir illet, bul korrupciya illeti”-dep biykarǵa atap ótpegen edi [1]. Bul illetke qarsı dúnya mámleketleri birgelikte gúresiwin huqıqıy tártipke salıw maqsetinde Birlesken Milletler Shólkemi Bas Assambleyasınıń 2003-jıl 31-oktyabrdegi 58/4-sanlı rezolyuciyası menen AQShtıń Nyu-York qalasında “Korrupciyaǵa qarsı Konvenciya”sı qabıl etildi. Konvenciya 2005-jıl 14-dekabrden kúshke kirdi. [2].

Mámleketimiz usı shólkemniń hám Konvenciyanıń aǵzası, yaǵnıy Ózbekstan Respublikası 2008-jılı 29-iyulda «Birlesken Milletler Shólkeminiń Korrupciyaǵa qarsı Konvenciyası»na qosılıw hám onı ratifikaciyalaw haqqındaǵı ORQ-158-sanlı Nızamın qabıl etti [3].

Korrupciyaǵa qarsı toqtawsız hám ayawsız gúres dáwir talabına aylandı. Búgingi kúnde korrupciyaǵa qarsı gúres hám onıń aldın alıwǵa dúnya júzinde, sonıń ishinde mámleketimizde de ayrıqsha dıqqat qaratıldı. BMSh tárepinen qabıl etilgen “Korrupciyaǵa qarsı Konvenciya”ǵa mámleketimizdiń qosılǵanlıǵın, korrupciyaǵa qarsı gúres alıp barıw maqsetinde Ózbekstan Respublikasında «Korrupciyaǵa qarsı gúresiw haqqında»ǵı Nızam qabıl etilgenligin, usı tarawda Prezidentimizdiń «Korrupciyaǵa qarsı gúresiw haqqında»ǵı Ózbekstan Respublikası Nızamı talapların ámelge asırıw is-ilajları haqqındaǵı Qararı, «Ózbekstan Respublikasında korrupciyaǵa qarsı gúresiw sistemasın jáne de jetilistiriw is-ilajları haqqında»ǵı Pármanı hám Mámleketimizde 2019-2020-jıllarda korrupciyaǵa qarsı gúresiw mámleketlik Baǵdarlaması qabıl etilgenligi bunıń ayqın mısalı bola aladı.

Prezidentimiz baslaması menen qabıl etilip atırǵan normativlik-huqıqıy húJjetler korrupciyanıń aldın alıwda áhmiyetli ilaj esaplanıp, bunda korrupciyanı túp-tamırınan joq etiw mámleket siyasatınıń tiykarǵı baǵdarlarınan biri sıpatında belgilep berildi. «Jámiyetlik pikir»di úyreniw orayı tárepinen 2017-2018-jıllarǵa mólsherlengen Korrupciyaǵa qarsı gúresiw boyınsha Mámleketlik dástúrdiń orınlanıwı boyınsha puqaralardıń bul illetke múnásibeti úyrenilgende, sorawlarda qatnasqan jerlesleriмizdiń kópshiligi, yaǵnıy 91,5 payızı mámleketimiz basshısınıń korrupciyaǵa qarsı gúresiw tarawında huqıqıy múnásibetlerdi kompleksli tártipke salıw, usı tarawdaǵı is-ilajlar nátiyjeligin asırıw, usı illetti tamırı menen joq etiw, jámiyette korrupciyaǵa qarsı qatal qatnastı qáliplestiriwge qaratılǵan nızamshılıq baslamasın qollap quwatlaǵanlıǵı, jerleslerimizdiń 76,3 payızınıń pikirinshe, bul illet barlıq jerde emes, jámiyettiń ayırım tarawlarında, atap aytqanda den-sawlıqtı saqlaw, bilimlendiriw, sonday-aq, ayırım huqıq qorǵaw organları, bántlik, sociallıq qorǵaw, kommunallıq xızmet kórsetiw, bank, salıq, bajıxana mákemeleri hám de hákimlikler jumıslarında da ushırasatuǵınlıǵı bildirilgen.

Haqıyqattanda, Ózbekstan Respublikasınıń Jınayat kodeksinde názerde tutılǵan korrupciya menen baylanıslı jınayat túrlerin, bunday jınayatlardıń jámiyetke qáwipliligin, jınayat aqıbetinde hákimiyat, basqarıw hám jámiyetlik birlespe organlarınıń jumısına, puqaralardıń nızamlı huqıq hám erkinliklerine zıyan keltiretuǵınlıǵın, mámlekettiń ekonomikalıq rawajlanıwına keri tásir etetuǵınlıǵın bárshemiz biliwimiz tiyis.

Keyingi jıllarda elimizde korrupciyaǵa qarsı gúresiw tarawında áhmiyetli shólkemlestiriw-huqıqıy reformalar ámelge asırılıp atır. Xalıqtıń huqıqıy sanasın hám huqıqıy mádeniyatın arttırıwǵa, jámiyette korrupciyaǵa ayawsız qatnas jasawdı qáliplestiriwge qaratılǵan sistemalı ilajlar kórilmekte. Reformalardı ámelge asırıw sheńberinde puqaralardıń huqıqları menen máplerиniń qorǵalıwın, mámleketlik hákimiyat hám basqarıw uyımları jumısınıń ashıq-aydınlıǵın, jámiyetlik hám parlamentlik qadaǵalawdı támiyinlew mexanizmleri jetilistirildi. Huqıq qorǵaw hám sud uyımları jumısınıń huqıqıy tiykarları reformalandı. Sonıń menen birge, ekonomikanı bunnan bılay da ósiriw, xalıqtın abadanlıǵın arttırıw, elimizde investiciyalıq ortalıqtı jaqsılaw baǵdarındaǵı strategiyalıq wazıypalardı sheshiw korrupciyaǵa qarsı gúresiw tarawında mámleketlik siyasattıń nátiyjeli ámelge asırılıwın támiyinlew jáne korrupciya kórinislerinin sebeplerin hám sharayatların saplastırıw boyınsha jańa sistemalı ilajlar kóriliwin talap etpekte.

«Házirgi waqıtta reformalarımızdıń nátiyjesi kóp jaǵınan tórt áhmiyetli faktorǵa – yaǵnıy, nızam ústinligin támiyinlew, korrupciyaǵa qarsı qatań túrde gúresiw,institucional potencialdı jetilistiriw hám kúshli demokratiyalıq institutlardı qáliplestiriwge baylanıslı»-dep atap ótken edi Prezident Sh. Mirziyoyev [4].

Sonday-aq, Prezidentimiz ózиniń 2020-jılı 24-yanvar kúngi Oliy Majliske Múrájatında, “Bárinen burın, sudtıń erkinligin tolıq támiyinlew - eń áhmiyetli wazıypalarımızdıń biri bolıwı zárúr. Sudyalarımızdıń ádillikti hám nızam ústinligin támiyinlew baǵdarında aqlaw húkimlerin shıǵarıp atırǵanı, hesh bir gúmansız, sud-

huqıq tarawındağı eń úlken tabısımız bolıp tabıladı. Men, Prezident sıpatında, sudyalardıń bunday mártligi hám isenimin bunnan keyin de tolıq qollap-quwatlayman. Endi sud arqalı insanlardıń huqıqı tiklengenin atap ótiw menen sheklenip qalmastan, ne sebepten sudqa shekemgi bolǵan tergew procesinde insan huqıqları hám erkinlikleri buzılǵan, degen sorawdı da kóldeneń qoyatuǵın waqıt keldi. Sud bosaǵasına qádem taslaǵan hár bir insan, Ózbekstanda ádalat húkim súrip atırǵanına tolıq isenim payda etiwi kerek. Keri jaǵdayda, ullı nemis filosofı Immanuil Kant aytqanınday, «Ádalat joǵalǵan payıtta, ómirdiń qádirin belgileytuǵın basqa hesh nárse qalmaydı». Bul haqıyqattı hesh qashan umıtpawımız kerek. Ózbekstanda sudyalar nızamlardıń qorǵawshıları, ádalattıń bekkem ústinleri bolıwı tiyisligin atap ótti.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń “Ózbekstan Respublikasında Korrupciyaǵa Qarsı gúresiw sistemasın jáne de jetilistiriw is-ilajları haqqında”ǵı 2019-jıl 27-maydaǵı PF-5729 -sanlı Pármanı izbe-izlikti sáwlelendiriwshı logikalıq dawamı bolıp, bunnan gózlengen tiykarǵı maqset mamleketımızde korrupciyaǵa qarsı gúresiw sisteması natiyjeliligin jáne de asırıw, eń joqarı dárejedegi qolay investiciyalıq hám isbilermenlik ortalıǵın jaratıw, mámlekettiń xalıq aralıq maydandaǵı unamlı imidjin asırıw hám bekkemlewge qaratılǵan. Bilimlendiriw tarawı xızmetkerleriniń baslı wazıypası ósip kiyatırǵan jas áwladtıń sanasına korrupciya illetiniń jámiyet rawajlanıwı ushın tosıq bolatuǵın, mámlekettiń gúllep-jasnawına jol bermey buwatuǵın, onı daǵdarıs jaǵdayına jetelewshi qáwip-qáter ekenligi haqqındaǵı túsiniklerdi sińdirip barıwı bolıp tabıladı. Bul illetke pútkil jámiyet aǵzaları bir bolıp qarsı turıw arqalı ǵana unamlı nátiyjege erisiw hám onıń túp-tamırına balta urıw múmkin boladı.

Paydalanǵan ádebiyatlar dizimi:

1.Ózbekiston yuridik enciklopediyasi. –T., «Adolat». 2010. -264-b.

2.Мирзиёев Ш.М. «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз» Тошкент., Халқ сўзи, 2016 йил. 15 декабр.

3. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидур. Тошкент 2018 й.

4.Конвенция ООН против коррупции. Сборник международно-правовых докумунтов ООН в области прав человека и борьбы с преступностью. UNODC -2009.

6.Ózbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida Korrupciyaga Qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to'g'risida” 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son Farmoni.

7. Kallibekov T. Korrupciya jámiyetimizge jat illet. Nókis.,2022.

F.Qutlımuratov — ***Qaraqalpaq mámleketlik universiteti yuridika fakulteti dekani yu.i.k., docent***

Z.Shamshetova — ***Qaraqalpaq mámleketlik universiteti yuridika fakulteti 2-kurs studenti***

KORRUPCIYA JINAYATSHILIĠINIŃ ALDIN ALIW

Gilt sózler: *Korrupciyaǵa qarsı gúres, korrupciya jınayatı, nizam, korrupciyaǵa qarsı gúresiw Mámleketlik baǵdarlaması, kommissiya,*

Annotatciya: *Usı maqalada korrupciya jınayatshılıǵınıń aldın alıw barısında alıp barılıp atırǵan is ilajlar haqqında oǵan qarsı gúresiw hám korrupciya menen baylanıslı jınayatlar ushın juwapkershilik hám onıń aldın alıwǵa tiyisli máseleler haqqında jazılǵan.*

Korrupciya dúnya kóleminde sheshim tabılıwı kerek bolǵan global máselelerden biri bolıp tabıladı. Bul illet hár qanday mámleket hám jámiyettiiń siyasiy-ekonomikalıq rawajlanıwına úlken ziyan jetkeredi, insan huqıq hám erkinliklerіniń ayaq astı bolıwına alıp keledi. Sol sebepli oǵan qarsı gúres alıp barıw xalıq aralıq áhmiyetke iye bolıp, jáhán siyasatınıń zárúrli máseleleri qatarınan orın alǵan.

Búgingi kúnde korrupciyaǵa qarsı gúres hám onıń aldın alıwǵa dúnya júzinde, sonıń ishinde Ózbekstan Respublikasında da ayrıqsha dıqqat qaratılǵan

Bul máselede Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarınıń qospa májlisindegi bayanatında “Jámiyetimizde korrupiya, túrli jınayatlardı islew hám basqa huqıqbuzarlıqlar jaǵdaylarına qarsı gúresiw, olarǵa jol qoymaw, jınayat, álbette, jazasız qalmawı haqqındaǵı nızam talapların ámelde támiynlew boyınsha anıq ilajlar kóriwimiz kerek» dep atap ótken edi.

Ózbekstanda jınayatshılıqtıń sebeplerin anıqlaw sharaları kórilmekte, anıqlanǵan korrupcionerler qatti jazalanbaqta. Mámleket ishindegi jınayatshılıq mudamı mámleket tárepinen qattı qadaǵalap barıladı. Korrupciyǵa qarsı gúres alıp barıw maqsetinde 2017-jıılı 3-yanvarda Ózbekstan Respublikasında “Korrupciyaǵa qarsı gúresiw haqqında» ǵı Nızamı qabıl etildi. Bunnan basqada prezidentimiz baslaması menen qabıl etilgen nızam húJjetleri korrupciyanıń aldın alıwda áhmiyetli qádem boldı. Bunda korrupciyanı túp-tamırı menen joq etiw mámleket siyasatınıń tiykarǵı baǵdarlarınan biri sıpatında belgilep berilgen.

Ózbekstan Respublikasınıń ‘‘Korrupciyaǵa qarsı gúresiw haqqında’’ǵı Nızamda korrupciyanıń aldın alıw boyınsha is-ilajlar túrleri belgilengen. Bul is-ilajlar tómendegi tarawlar boyınsha bólingen:

1. Mámleketlik basqarıw tarawında korrupciyanıń aldın alıw;
2. Social-ekonomikalıq rawajlanıw hám isbilermenlik tarawında korrupciyanıń aldın alıwǵa tiyisli ilajlar;
3. Máplerdiń soqlıǵısıwınıń aldın alıw hám onı boldırmaw boyınsha is-ilajlar;

4. Hákimshilik tártip tarawında korrupciyanıń aldın alıwǵa tiyisli is-ilajlar;

5. Mámleketlik satıp alıwlardı ámelge asırıw tarawında korrupiyanıń aldın alıw is-ilajlar;

1. Mámleketlik basqarıw tarawında korrupciyanıń aldın alıw is-ilajlar

mámleketlik organlardıń iskerliginiń ashıqlıǵın hám olardıń esap beriwin támiyinlew, mámleketlik basqarıw sistemasınıń nátiyjeliligin asırıw, mámleketlik shólkemleriniń, lawazımlı shaxslarınıń hám basqa xizmetkerlerdiń óz moynına júkletilgen wazıypalardı orınlawı boyınsha juwapkerligin kúsheytiw;

korrupciyaǵa qarsı gúresiw tarawında mámleketlik organlardıń iskerligi ústinen parlamentlik hám jámiyetlik qadaǵalawın ámelge asırıw;

mámleketlik organlardıń iskerliginde korrupciyanıń aldın alıwǵa tiyisli ilajlardıń ámelge asırılıwı boyınsha usı organlar tárepinen kórilip atırǵan ilajlar nátiyjeliligin bahalaǵan halda úziliksiz túrde monitoring ótkeriw;

normativlik-huqıqıy húJjetlerdiń hám olardıń joybarlarınıń korrupciyaǵa qarsi ekspertizasın shólkemlestiriw;

Mámleketlik organlardıń hám ózge shólkemlerdiń lawazımlı shaxsları hámde basqa xızmetkerleri nızam húJjetlerine ámel etiwi, óz hámel yamasa xizmet minnetlemelerin biyǵárez menen, qalıs, húJdanlı, ádep-ikramlıq qaǵiydalarına ámel etken halda orınlawı hámde korrupciyaǵa tiyisli qandayda bir huqıqbuzarlıqtı islewden yamasa bunday huqıqbuzarlıqlardı islew ushın shárt-shárayatlar jaratatuǵın basqa hár qanday háreketlerden ózin tıyıwı shárt.

2. Social-ekonomikaliq rawajlanıw hám isbilermenlik tarawında korrupciyanıń aldın alıwǵa tiyisli ilajlar tómendegilerden ibarat:

hákimshilik hám byurokratiyalıq tosqınlıqlardı saplastırıw, dizimge alıw, ruxsat etiw hám licenziyaǵa tiyisli tártip-dásturlerdi ápiwayılastırıw hámde olardıń operativligin asırıw;

mámleketlik organlardıń qadaǵalaw-tekseriw wazıypaların ıńǵaylastırıw, isbilermenlik subyektleriniń iskerligin tekseriw sistemasın jetilistiriw, olardıń iskerligine nıamsız túrde aralasıwǵa jol qoymaw;

mámleketlik organlar hám isbilermenlik subyektleri ortasındaǵı óz ara múnásibetlerdiń aralıq túrin keń engiziw;

tálim, den sawlıqtı saqlaw, sociallıq támiynat, kommunal xızmet kórsetiw tarawında hám social-ekonomikaliq rawajlanıwdıń basqa tarawlarıda xalıq ushın ádalatlı shárt-shárayatlardı hámde keń imkaniyatlardı jaratıw, korrupciyaǵa baylanıslı huqıqbuzarlıqlarǵa jol qoymaw;

mámleketlik emes shólkemlerde korrupciyaǵa qarsı gúrestiń nátiyjeli mexanizmlerin engiziw;

Nızam húJjetlerinde social-ekonomikalıq rawajlanıw hám isbilermenlik tarawında korrupciyanıń aldın alıwǵa tiyisli basqa ilajlarda názerde tutılıwı múmkin.

3. Máplerdiń soqlıǵısıwınıń aldın alıw hám onı saplastırıwǵa tiyisli ilajlar tómendegilerden ibarat:

Mámleketlik organlardıń xızmetkerleri hámel yamasa xızmet minnetlemelerin orınlaw barısında máplerdiń soqlıǵısıwına alıp keletuǵın yamasa alıp keliwi múmkin bolǵan jeke mápdarlıqqa jol qoymawı kerek.

Mápdar soqlıǵısıwı júzege kelgen táǵdirde, mámleketlik organnıń xızmetkerleri óziniń tikkeley basshısın tezlik penen xabardar etiwi kerek. Mápler soqlıǵısıwı bar ekenligi haqqında maǵlıwmatlar alǵan basshı bul soqlıǵısıwdıń aldın alıw yamasa onı saplastırıw boyınsha óz waqıtında sharalar kóriwi shárt.

Mámleketlik organnıń arnawlı bólimleri yamasa ádep-ikramlılıq komissiyaları máplerdiń soqlıǵısıwın sheshiw qaǵıydalarına ámel etiliwi boyınsha monitoringti ámelge asıradı.

Mámleketlik organnıń máplerdiń soqlıǵısıwınıń aldın alıw yamasa onı saplastırıw talaplarınıń buzılıwına jol qoyǵan xızmetkerler, sonıń menen birge olardıń basshıları nızam húJjetlerine muwapıq juwapker boladı.

4. Hákimshilik procedura tarawında korrupciyanıń aldın alıwǵa tiyisli ilajlar tómendegilerden ibarat:

nızamlılıq hám ádalatlılıq principlerin támiyinlew, hákimshilik-basqarıw procesiniń qalıslıǵı kepilligin jaratıw, usı procestiń ashıqlıǵın, sırtqı hám ishki qadaǵalaw ushın ashıqlıǵın asırıw;

óziniń ıqtıyarınsha háreket etiw wákilligin sheklengen halda hákimshilik proceduranı tolıq tártipke salıw, byurokratiyalıq rásmiyshilikke jol qoymaw;

ápiwayılastırılǵan hákimshilik proceduranı engiziw;

mámleketlik organlardıń qararları ústinen shaǵım etiwdiń hám keltirilgen zıyannıń ornın qaplawdıń nátiyjeli mexanizimlerin belgilew.

Nızam húJjetlerinde hákimshilik procedura tarawında korrupciyanıń aldın alıwǵa tiyisli basqa ilajlar da názerde tutılıwı múmkin.

5. Mámleketlik satıp alıwlardı ámelge asırıw tarawında korrupciyanıń aldın alıw is-ilajlar tómendegilerden ibarat:

Mámleketlik satıp alıwlardı ámelge asırıw procedurası haqqındaǵı maǵlıwmattıń áshkaralıǵı hám ashilıqlıǵın támiyinlew;

ádalatlı básekini hám qararlar qabıllaw waqtında qalıs ólshemlerden paydalanıwdı támiynlew;

ishki qadaǵalawdıń nátiyjeli sistemasın, sonıń menen bitge mámleketlik satıp alınǵan zatların ótkeriw nátiyjeleri boyınsha shaǵım etiw hám dawlasıwdıń nátiyjeli procedurasın jaratıw;

mámleket elektron sawdalarınıń nátiyjeli islewin támiyinlew.

Nızam hujjetlerinde mámleketlik satıp alıwlardı ámelge asırıw tarawında korrupciyanıń aldın alıwǵa tiyisli basqa ilajlar da názerde tutılıwı múmkin.

Ulıwma aytqanda, korrupciya hár qanday mámlekettiń rawajına úlken zıyan keltiredi. Puqaralardıń sociallıq ádillik, haqıyqatlıq hám mámleket organlarına bolǵan isenim joqqa shıǵaradı. Sol ushın mámleketimiz bul illetke qarsı gúresiw boyınsha keskin sharalar kóriw boyınsha isler alıp barılmaqta. Sebebi búginniń ózinde korrupciyaǵa qarsı sharalar islep shıǵılmasa, ol demokratiyalıq mámlekettiń

siyasiy hám sociallıq institutlarına keri (unamsız) tásir kórsetedi, mámleket ulıwma jámiyet qáwipsizligine qáwip saladı.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Mirziyoyev.Sh.M. Irkin va farovan, demokratik O'zbekiston davlatini barpo itamiz/ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatlarining qushma majlisidagi nutq// SH.M.Mirziyoyev.-Toshkent: «O'zekiston» NMIU, 2016.-56-6

2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupciyaga qarshi kurashish tug'risida" qonuni 2017 yil 3 yanvar, UPQ-149-son/ Xalq suzi,2017y 4-yanvar 2(6696)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori 2017 yil 14 mart, PQ-2833 son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korrupciyaga qarshi kurashish tug'risidagi"gi Farmoni 2017yil 7fevral, PF-(4947)

5.Utemuratova S. Sh. "Korrupciya hám onıń aldın alıw" /oqiw qollanba/ - Toshkent:''Muharrir nashiriyoti", 2021-110 b.

Рейимбаев А.Қ *ҚДУ юридика факультети декан ўринбосари*

КОРРУПЦИЯ ЖИНОЯТИНИ ЯШИРИШ ЁКИ У ҲАҚДА ХАБАР БЕРМАСЛИК ҲОЛАТИГА ОИД ЖАВОБГАРЛИК

Бугунги кунда коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бутун дунёда долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “коррупциянинг олдини олмасак, ҳақиқий ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини яратиб бўлмайди, умуман, жамиятнинг бирорта тармоғи ривожланмайди”[Мирзиёев Ш., 3]. Ҳақиқатдан ҳам, коррупциявий жиноятлар давлатнинг ривожланишига тўсқинлик қилиб, халқнинг давлат органларига нисбатан ишончини сусайтиради [Авдеев В.А., Авдеева О.А., 19].

Дунёда жиноятга дахлдорлик учун жавобгарлик масалалари кўпгина давлатларда кенг ёйилган. Мазкур жиноятга қарши кураш муаммолари, иқтисодий-сиёсий, суд-ҳуқуқ ислоҳотларини амалга ошириш даврида долзарб аҳамият касб этади. Бугунги кунда мазкур жиноятнинг оқибатларни холис баҳолаш, шахсни, иқтисодиётни ва давлатни ушбу жиноий таъсирдан ҳимоя қилиш учун махсус чора-тадбирларни ишлаб чиқиш зарурати тобора равшан бўлиб бормоқда. Бунинг аҳамияти шундан иборатки, амалга оширилаётган чора-тадбирларга қарамай, мамлакатда давом этаётган салбий ҳодисалар таъсири остида жиноятга дахлдорлик учун жавобгарлик масалларини ҳал этиш бир қанча муаммолар мавжудлигини кўрсатмоқда.

Жаҳонда суриштирув ва тергов органлари жиноятга дахлдорлик ҳолатларини квалификация қилишда турли тушунмовчиликлар ва қийинчиликларга дуч келмоқдалар. Жумладан, жиноятга дахлдорликни иштирокчиликдан фарқлаш, олдиндан ваъда берилган ҳолда жиноят ҳақида хабар бермаслик, жиноят содир этган шахслар ҳақида хабар бермаслик, жиноятни яширишнинг содир этилиш усуллари ва интеллектуал яширувчиликни квалификация қилишда хатога йўл қўйилмоқда. Жиноятга дахлдорлик билан боғлиқ жиноятларнинг субъектив томонини аниқлашда ҳам хатолар мавжуд. Хусусан, қилмишни жиноят субъекти қасдинингхусусияти ва йўналишини, жиноят мотивлари ва мақсадларини аниқлаш билан боғлиқ равишда квалификация қилиш чоғида тушунмовчиликлар юзага келмоқда. Жиноятга дахлдорлик институтига оид кўплаб баҳс-мунозарали масалалар жиноят ҳуқуқи назариясида ҳам мавжуд. Жумладан, «жиноятга дахлдорлик» тушунчаси, шунингдек унинг шакллари масаласида ягона фикр олимлар ўртасида ҳанузгача мавжуд эмас. Жиноятга дахлдорлик билан боғлиқ жиноятларнинг латентлик даражаси юқорилиги, унинг нисбатан кенг тарқалганлиги, квалификация қилишда муаммоларнинг мавжудлиги, амалдаги жиноят қонунчилигининг қоидалари ва ҳуқуқни

қўллаш амалиётига асосланган муаммоларнинг назарий жиҳатдан таҳлил этилмаганлиги ушбу мавзуни тадқи этишнинг долзарблигини елгилаб беради. Мазкур ҳолатлар албатта коррупция жиноятларини яшириш ёки коррупция ҳақида хабар бермаслик масалаларига ҳам оиддир.

Коррупциявий жиноятларнинг содир этилиши орқали коррупция амалда юзага келади. Шу сабабли ҳам, коррупцияга оид жиноятлар тушунчасини ва унинг таркибий элементларини тадқиқ қилиш коррупцияга қарши курашиш ва коррупциянинг олдини олишдаги энг асосий усул ва воситалардан биридир. Эътибор қаратишимиз лозимки, “коррупция” атамаси аксарият ҳолларда мулкий кўринишдаги наф олишга қаратилган порахўрлик жинояти сифатида тушунилади. Аммо, коррупциявий жиноятларнинг рўйхати порахўрлик жиноятлари билангина чекланиб қолмайди. Коррупция – бу ягона таркибга эга бўлган алоҳида жиноят эмас. Жиноят қонунчилиги коррупция учун эмас, балки коррупцияга оид жиноятлар учун жавобгарликни назарда тутади. Бу эса, коррупциянинг бир қанча жиноятлар йиғиндиси эканлигини англатади.

Коррупциявий жиноятларнинг умумий объекти давлат ҳокимияти ва бошқарув органларининг нормал фаолият юритишини, фуқароларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлашга қаратилган ижтимоий муносабатлар ҳисобланади. Ўз навбатида, мазкур ижтимоий муносабатлар Жиноят кодексининг 205-206, 209-214-моддалари учун бевосита объект бўлиб хизмат қилади. Жиноят кодекси 1929-19211-моддаларида кўрсатилган жиноятларнинг бевосита объекти хўжалик юритувчи субъектларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлашга қаратилган ижтимоий муносабатлардан иборат. Мулкни мансаб мавқеини суиистеъмол қилиш орқали ўзлаштириш ёки растрата йўли билан талон-торож қилиш жиноятининг бевосита объекти айбдорга ишониб топширилган ёки унинг ихтиёрида бўлган ўзганинг мулкини муҳофаза қилишга қаратилган ижтимоий муносабатлар ҳисобланади.

Хизмат мавқеидан фойдаланиб содир этилган фирибгарлик жиноятининг бевосита объекти эса, ўзганинг мулки ёки мулкий ҳуқуқларини муҳофаза қилишга қаратилган ижтимоий муносабатлардир. Кўриниб турибдики, коррупциявий жиноятларнинг объектига хос умумий жиҳат шундаки, коррупциявий жиноятлар давлат ҳокимияти ва бошқаруви, жамоат бирлашмалари фаолияти билан боғлиқ давлат аппаратининг нормал фаолиятини таъминлайдиган ижтимоий муносабатлар ва бу муносабатларда айрим фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонун билан қўриқланадиган манфаатларига тажовуз этади. Мазкур турдаги жиноятларнинг предмети масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратмоқ лозим бўлади. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни 3-моддасида “коррупция” тушунчасига нисбатан берилган расмий таъриф мазмунидан англашиладики,

коррупциявий жиноятларнинг предмети нафақат моддий, балки номоддий наф ҳам бўлиши мумкин. Шунингдек, соҳага оид халқаро конвенцияларнинг қарийб барчасида, шу жумладан, БМТнинг Коррупцияга қарши конвенциясида ҳам коррупциявий жиноятларнинг предмети сифатида моддий ва номоддий қимматликлар ҳамда мулкий ва номулкий наф назарда тутилган.

Коррупция жинояти бўйича илмий асарлар муаллифи Б.Шамсуддинов қўйидагича фикр билдиради: жиноят қонунчилиги коррупциявий жиноятлар, жумладан, пора олиш жиноятининг предмети сифатида фақатгина моддий қимматликлар ва мулкий манфаатдорликни назарда тутади. Шу каби нормаларни Жиноят кодексининг 192[9]-192[10], 211, 213-214-моддалари диспозицияларида ҳам кўришимиз мумкин. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Порахўрлик ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги қарорининг 2-бандига асосан, “пул, қимматбаҳо қоғозлар, моддий бойликлар, шунингдек, пора оладиганга қайтармаслик шарти билан, лекин мулкий моҳиятга молик бўлган (масалан, таъмирлаш, қурилиш, қайта тиклаш ишларини бажариш ва бошқалар) хизматлар пора предмети бўлиши мумкин”[Шамсуддинов Б., 25].

Албатта, коррупция ҳақида шахс хабар топса у ҳақда хабар беришга мажбур. Бу ерда жавобгарлик масаласи ҳам пайда бўлиши мумкин, аниқроғи жиноий жавобгарлик. Агар шахс коррупция ҳақида хабар топса ёки гувоҳи бўлса ва у хабар топган жиноят оғир ёки ўта оғир жиноятлар тоифасига кирса, унда шахс Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 241-моддаси бяйича жавобгар ҳисобланади. Агар шахс коррупция содир этилишига олдиндан билиб, манфаатдор бўлиб, кўмаклашаётган бўлса ва бунда яширилаётган (асосий) жиноятнинг давомли хусусиятини англаётган бўлса, жиноят қонунининг иштирокчилик тўғрисидаги қоидалари бўйича квалификация қилиниши лозим.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 25.01.2020 йилдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // [Электрон манба]. https://uza.uz/oz/politics/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020

2. Авдеев В.А., Авдеева О.А. Стратегические направления противодействия коррупции в РФ // Российская юстиция. 2016. № 7.

3. Шамсуддинов Б. Коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик. Монография. – Т.: ТДЮУ , 2020.

Бабабеков Нодир Джурабаевич — ***Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ихтисослаштирилган ўқув маркази катта ўқитувчиси***

ЎЗБЕКИСТОНДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ СОҲАСИДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР

Коррупция сиёсий ва иқтисодий режимга боғлиқ эмас. Замонавий даврда коррупция ҳодисасини деярли ҳар қандай давлатда учратиш мумкин. Кўпгина тадқиқотчиларнинг фикрича, коррупция давлат ҳокимиятини давлат хизматчиларининг аниқ ҳаракатлари шаклида амалга оширишнинг универсал жиҳати ҳисобланади.

Коррупцияга қарши курашиш Ўзбекистонда давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан бири бўлиб, буни сўнгги йилларда соҳага оид қабул қилинган концептуал аҳамиятга эга норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, коррупцияни олдини олишга қаратилган маъмурий ислоҳотлар мисолида ҳам кўриш мумкин.

Давлат хизматида коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш воситаларини жорий этиш бўйича хорижий тажрибани ўрганиш шуни кўрсатадики, кўплаб давлатларда миллий ўзига хосликларга боғлиқ бўлмаган коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича чора-тадбирлар шаклланган. Шу билан бирга, биз хорижий давлатларнинг давлат хизмати тизимида коррупциянинг олдини олиш ва унга чек қўйиш концепцияларининг мазмуни давлат хизматчисининг маъмурий-ҳуқуқий мақомини батафсил белгилашгача қисқартирилганлигини ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишга асосланганлигини таъкидлаймиз.

Шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, коррупцияга қарши курашнинг сифат ва сон жиҳатдан мутлақо янги даражага кўтарилиши Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг сиёсий иродаси маҳсулидир. Жумладан, давлат раҳбарининг жамиятни «***ҳалоллик вакцинаси билан эмлаш***» зарурияти ҳақидаги фикрлари бу борадаги ишларга қўйилган тамал тоши десак, асло муболаға бўлмайди. Зеро, Президентимиз 2020 йилнинг 24 январь куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига қилган Мурожаатномасида «*Жамиятимизда коррупция иллати ўзининг турли кўринишлари билан тараққиётимизга ғов бўлмоқда. Бу ёвуз балонинг олдини олмасак, ҳақиқий ишбилармонлик ва инвестиция муҳитини яратиб бўлмайди, умуман, жамиятнинг бирорта тармоғи ривожланмайди*» деб таъкидлаган.

Соҳада норматив-ҳуқуқий базани тизимли равишда такомиллаштириб бориш чоралари кўрилмоқда. Фикримизнинг исботи ўлароқ, коррупцияга қарши кураш борасидаги қонуннинг кучга киргани, шунингдек турли қонуности ҳужжатларининг қабул қилинганини келтириш мумкин. Хусусан, 2017 йил 3 январь куни Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги қонунни имзолади. Ушбу

Қонуннинг мақсади коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат бўлиб, унда «коррупция», «коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик», «манфаатлар тўқнашуви» каби асосий тушунчаларга изоҳ бериш билан бир қаторда, коррупцияга қарши курашишнинг асосий принциплари ҳам қайд этилган. Шунингдек, қонун билан коррупцияга қарши курашиш борасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари, ваколатли органлар тизими, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ва фуқароларнинг мазкур соҳадаги иштироки, коррупциянинг олдини олишга доир чора-тадбирлар, жазо муқаррарлигини таъминлаш ва бу борада халқаро ҳамкорликни таъминлаш каби чоралар мустаҳкамлаб қўйилди.

Чора-тадбирларнинг самарали амалга оширилиши учун махсус давлат органи ташкил этилиб, бу борадаги давдат сиёсатининг институционал асослари такомиллаштирилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида Коррупцияга қарши курашиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Фармони қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсатини, шунингдек коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларнинг тизимли сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш ҳамда коррупцияга қарши курашиш чораларининг самарадорлигини оширишга қаратилган давлат ва бошқа дастурларни шакллантириш ва амалга ошириш мақсадида Коррупцияга қарши кураш Агентлиги ташкил этилди. Агентлик фаолиятининг ҳуқуқий асослари, вазифа ва функциялари, ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилашда халқаро нормаларни илгари сурган ҳолда хорижий тажриба атрофлича ўрганилди. Унинг энг мақбул жиҳатлари Президентнинг мазкур фармонида тўлақонли акс эттирилди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси коррупцияга қарши курашиш Миллий кенгаши ва унинг ҳудудий кенгашлари ташкил этилди. Ушбу ислоҳотлардан кўзланган асосий мақсад – ***коррупция*** деган иллатга барҳам беришдир.

Мамлакатда коррупцияга қарши кураш бўйича чора-тадбирларнинг асосида давлат органлари фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш устувор вазифа сифатида белгиланмоқда. Жумладан, 2021 йил 16 июнда қабул қилинган «Давлат органлари ва ташкилотларининг фаолияти очиқлигини таъминлаш, шунингдек, жамоатчилик назоратини самарали амалга оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонига кўра, барча давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, шу жумладан, Ҳисоб палатаси, Марказий банк, суд ва прокуратура органлари ҳамда уларнинг таркибий ва ҳудудий бўлинмалари, шунингдек, устав фондида (устав капиталида) давлат улуши 50 фоиз ва ундан ортиқ бўлган хўжалик жамиятлари ҳамда давлат унитар корхоналари

томонидан Очиқ маълумотлар сифатида жойлаштирилиши керак бўлган ижтимоий аҳамиятга молик маълумотлар рўйхатини тасдиқлашлари лозимлигини жорий этилди. Бундан ташқари, бюджет харажатларини тартибга солиш бўйича жамоатчилик назоратини амалга ошириш, бюджет қонунчилигининг бузилиши фактлари тўғрисида хабардор қилиш ва бюджет жараёнини такомиллаштириш юзасидан таклифлар киритиш тартиб-таомилини ташкил этиш бўйича «Openbudget» – «Очиқ бюджет» портали ишга туширилди.

Коррупция ҳолатларининг олдини олиш ва уларни бартараф этишнинг энг муҳим жиҳатларидан бири – давлат бошқаруви тизимида «инсон омили»ни камайтириш учун давлат ва жамият бошқарувига ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш йўлга қўйилди. Маъмурий ва бюрократик тўсиқларни бартараф этиш, рўйхатга олиш, лицензиялаш ва рухсат беришга доир тартиб-таомилларни соддалаштириш ҳамда уларнинг тезкорлигини ошириш мақсадида барча ҳудудларда жами 201 та давлат хизматлари марказлари ташкил этилди. Ушбу марказлар томонидан 150 турдан зиёд шаффоф, қулай ва тезкор давлат хизматлари кўрсатилмоқда.

Коррупцияга қарши кураш халқаро тажриба ва ҳуқуқнинг тегишли нормаларини мамлакат қонунчилиги ва амалиётига имплементация қилиш билан биргаликда олиб борилмоқда. Жумладан, Коррупцияга қарши кураш Агентлигининг ташкил этилиш ҳам Ўзбекистон ратификация қилган БМТнинг Коррупцияга қарши кураш тўғрисидаги Конвенциясининг тегишли моддалари, шунингдек халқаро коррупцияга қарши кураш амалиётидаги «Жакарта принциплари»нинг мамлакатдаги имплементациясига мисол бўла олади.

Коррупцияга қарши муросасиз муҳитни яратиш жамоатчиликнинг кенг иштирокида амалга оширилмоқда. Хусусан, жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш тизими тубдан такомиллаштирилиб, Президентнинг Халқ ва Виртуал қабулхоналари, «Ишонч телефони» ҳамда ҳар бир вазирлик ва давлат идораларининг «ишонч телефонлари», «виртуал қабулхоналари» ташкил қилиниб, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш мақсадида барча даражадаги давлат раҳбарларининг «сайёр қабуллар»ни ўтказиш амалиёти йўлга қўйилди.

Бундан ташқари 2022 йил 12 январ куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Коррупцияга қарши курашиш ишларининг самарадорлигини рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори қабул қилиниб, унга кўра бир қатор вазирлик ва идоралар, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларида ISO 37001:2016 халқаро стандартига асосан коррупцияга қарши менежмент тизими жорий этилиб, коррупцияга қарши курашиш бўйича ички идоравий ҳужжатлар

қабул қилинди ҳамда 2022 йил 1 июлдан бошлаб рейтинг баҳолаш тизими барча давлат ташкилотлари фаолиятига жорий этилди.

Албатта, амалга оширилаётган ишлар кўлами мақтовга лойиқ, бироқ, ҳали ўз ечимини кутаётган масалалар ҳам йўқ эмас. Коррупцияга қарши кураш Агентлигининг маълумотларига кўра, 2021 йилнинг 6 ойи мобайнида 2544 нафар мансабдор шахсга нисбатан коррупция ҳолатлари билан боғлиқ бўлган 1676 та жиноят ишлари тергов қилиниб, судларга юборилган. Суд якунлари бўйича коррупцияга оид жиноят ишлари бўйича 592,5 млрд. сўм моддий зарар етказилгани аниқланиб, шундан 170,8 млрд. сўми (28 фоизи) ундирилиб, 421,7 млрд. сўми Бош прокуратура ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси томонидан ундирилиши белгиланган.

Ўз навбатида, 2021 йил январь ойида эълон қилинган «Transparency International» халқаро ноҳукумат ташкилоти томонидан 2020 йил бўйича «Коррупцияни қабул қилиш индекси» рейтингида Ўзбекистон 180 та давлат орасида 26 балл билан 146-ўринни эгаллаб, 7 поғонага кўтарилди. 2019 йилда Ўзбекистан 25 балл билан 153-ўринни эгаллаган бўлса, 2018 йилда бу кўрсаткич 23 балл билан 158-ўринни ташкил этди. Ўзбекистон икки йил ичида 12 поғонага юқорилаб, Марказий Осиё минтақасида коррупцияга қарши курашишда сезиларли ижобий кўрсаткични намойиш этди. Бу эса, ўз навбатида, мамлакатда коррупцияга қарши кураш соҳасида олиб борилаётган ислоҳотлар самарали натижалар бераётганига далолатдир.

Sharapov Sherzod Abdualimovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislarni tayyorlash Markazi Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli katta o’qituvchisi QK xizmatchisi



O’G’IRLIK VA KORRUPSIYANING FARQI NIMADA.

Annotasiya: Maqolada o’g’irlik va korrupsiya bir-biridan nimasi bilan farq qilishini muallif o’z fikrlariga va hayot tajribasiga asoslanib bayon qilgan. Muallif bugungi kunda o’g’irlik va korrupsiyaning jamiyatga yetkazayotgan zararini solishtirib, xulosa chiqarishga undaydi.

Kalit so’zlar: Korrupsiya, o’g’irlik, tug’ma sifatlar, ahloq, vijdon, sadoqat, tarbiya, ziyon, pastkashlik.

Bu savol XX asrning 50-yillaridan boshlab, bir qator o’zini fanga bag’ishlagan xuquqshunoslarni va yuridik psixologiya bilan shug’ullanadigan psixologlarni qiziqtirib kelmoqda. Ular quyidagi savollarga javob topishga harakat qiladilar: “Nega ayrim insonlar hayoti davomida o’g’irlik yoki korrupsiya sodir etishadi va bu holat qachongacha davom etishi mumkin? Nega ayrim davlatlarda o’g’irlik yoki korrupsiya avjiga chiqib ketgan, boshqa davlatlarda esa bunday xolatlar judayam kam uchraydi? O’g’irlik faqat odam toifasiga xosmi yoki boshqa mavjudotlar orasida uchrab turadimi? O’g’irlik va korrupsiya kabi salbiy sifatlarni inson xayoti davomida o’zlashtirganmi yoki tug’ma sifatlarga kiradimi?

Bunday savollarga shu mavzu bilan shug’ullanadigan olimlar, quyidagicha izoh berdilar: “O’g’irlik, bu insonda tug’ma sifat, korrupsiya - esa insonning miya maxsuli”.

Xayvonot olamida o’g’irlik xolatlari ham tez-tez uchrab turishi kuzatilgan.

Inson tomonidan belgilab qo’yilgan va qonun tomonidan jazo qo’llash sharti bilan man etilgan xolatlarni (“Bosqinchilik”, “Talonchilik”, “O’g’rilik”, “Guruh tarkibida jinoyat sodir etish”), xayvonot olamida ham uchratishimiz mumkin.

Bugungi taraqqiy topgan davrda inson o’g’irliksiz kun kechira oladi, ammo o’g’irlik fazilatlarisiz inson ibtidoiy davrda yashay ololmasdi. Xolbuki o’g’irlik tug’ma sifatlari bilan inson olamga keladi.

Inson va xayvon olamini birlashtiradigan narsa bu instinkdir. Instinkt barcha tirik mavjudotning ajralmas sifati bo’lib hisoblanadi.

Instinktsiz na odam va na xayvonot olami yashashi mumkin emas. Buni fiziologlar “birinchi signal sistema” deb atashadi.

Inson xayvonlardan ongi bilan ajralib turadi. Ong orqali insonda yangi signal sistema paydo bo’lgan, bu nutq. Uni psixologlar “ikkinchi signal sistema” deb atashgan.

Nutq insonda faqat jamiyatda yashash davomida paydo bo'lib rivojlanadi. Shu asosda olimlar jinoyatchilarning tarkibini tahlil qilib qo'yidagi xulosaga kelishgan. Og'zaki nutqi rivojlanmagan insonlarda, jinoyat sodir etishga moyillik ko'proq bo'larkan.

Inson dunyoga kelishi bilan unda instink sifatlari xukmronlik qiladi. Emizikli bolada qo'li bilan biron narsani ushlab olish imkoniyati paydo bo'lishi bilan u barcha qo'liga ilingan narsalarni mahkam ushlab oladi. Bu holat uning tili chiqib ota-ona yoki tarbiyachilar tomonidan "...bu narsa birovniki, uni olish mumkin emas"ligi o'qtirilmaguncha davom etadi.

Agarda oilada yoshlikdan bola tarbiyasiga nima yaxshiyu, nima yomon singdirilmasa, ota-onasi yoki yaqinlari birovning narsasini beruxsat olib kelganligi uchun yaxshi so'zlar bilan taqdirlashsa, unda bolada o'g'rilikka moyillik sifatlari rivojlanib boraveradi.

Insonning atrofida faqat noqonuniy yo'l bilan boylik topadiganlar ko'pchilikni tashkil qilsa, unda ham noqonuniy yo'l bilan moddiy boylik topish fazilatlari rivojlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan, nega taraqqiy etgan va iqtisodiy rivojlangan davlatlarda o'g'irlik, rivojlanmagan davlatlarga nisbatan kamroq, deb berilgan savoliga kelsak, insonga taraqqiy etgan va iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yaxshi yashash uchun barcha kerakli maxsulotlar muxayyo. Bunday jamiyatlarda ahloq tushunchasi yuqori pog'onalarda davlat va jamiyat institutlari orqali singdirilgan. Masalan, Finlyandiya davlatida shaxs xuquqbuzarlikni sodir etsa, muammoni nokonuniy yo'l, ya'ni polisiya xodimiga pora bermaslikni ongli ravishda anglagan. Polisiya xodimi xam, beriladigan porani olmasligini ongli ravishda yaxshi biladi.

Taraqqiy etmagan va iqtisodiy qoloq davlatlarda yetishmovchilik tufayli o'g'irlik illati o'sib boraveradi.

Taraqqiy etgan va iqtisodiy rivojlangan davlatlarda yetishmovchilik boshlansa, u yerda insonning tug'ma instinkti faoliyati kuchaya boshlaydi, ya'ni ijtimoiy-darvinizm qonuni, yashash uchun kurash konuni xukumronlik qiladi.

O'g'rilik - bu insonning tug'ma instinkti xisoblanadi. Buni inson dunyoga kelishi bilan xuddi yerga jinoyat urug'uni ekib qo'yganga o'xshatish mumkin. Agar shu uruqqa yaxshi ozuqa berilsa, u unib chiqadi, ozuqa deb esa har xil xuquqbuzarlik illatlari tushuniladi. Inson o'z qilmishi bilan uni o'stiradi yoki quritib yuboradi.

O'g'rilikning eng past darajasi bu korrupsiya. Oddiy kissovur o'g'rilik qilsa, undan bitta inson, ya'ni pulini o'g'irlatgan aziyat chekadi. Korrupsioner esa o'z qilmishi bilan jamiyatning ahloqiy sifatlarini badnom etadi. Insonlarning ongida ahloqiy sifatlarni va muqaddas tushunchalarni vayron etadi.

Korrupsiya demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, ichki va tashqi bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi

uchun sharoit yaratib beradi. Eng achinarlisi korrupsiya bor joyda rivojlanish, adolat bo'lmaydi, jamiyatning madaniy va axlokiy sifatlari badnom etiladi. Insonlarning ongida yillar davomida shakllangan axlokiy sifatlarini va mukaddas narsalar vayron etadi.

Korrupsioner davlatga nafaqat moddiy, balki ma'naviy zarar ham yetkazadi. Bunday jamiyatlarda iymon, vijdon, or-nomus, g'urur, sadoqat, insonparvarlik va boshqa ahloqiy sifatlar qog'ozda qolib ketaveradi. Xalol yo'l bilan kun kechiradigan aholi esa, adolat bu davlatda yo'qligiga va rahbariyatga ishonmay qoladi. Balki shuning uchundir Xitoy, Singapur, Filippin, Indoneziya, Eron, Tayland va boshka davlatlarda) korrupsionerlarni o'lim jazosiga mahkum etishadi.

Korrupsionerlik, bu instinkt emas, bu insonning pastkashlik sifatlaridan biridir.

Bugungi kunda korrupsionerlar shunday makkorlik bilan pora olish yo'lini topishganki, ularga ishi tushgan odam o'zi kelib yalinib pulini berib ketishiga majbur etishadi.

Qonunlar puxta bo'lmasa va xuquq targ'ibot hodimlari chalasavod va malakasiz bo'lishsa, Bilimdon va aqlli korrupsiyanerni jinoyat ustida ushlash judayam murakkab.

Islom olamida, insondan ajralmaydigan, doim hamrox bo'lib yuradigan eng katta dushmanni "Nafs balosi" deyishadi. Agar aql insonni to'g'ri yo'lga, savobli ishlarga boshlasa, nafsu shahvat faqat nafsni qondirib, shahvoniy hirsini qondirishga va bu yo'lda har qanday jinoiy ishlardan qaytmaslikka boshlaydi.

Nafs balosi orqali topilgan boylik esa xarom hisoblanadi. Qalbida iymoni bor musulmonlar duoga qul ochishib, Allohdan suv balosida, olov balosida, to'xmat balosidan va nafs balosidan panox so'rashadi.

Kimki o'z nafsini jilovlay olsa, u jinoyat olamidan uzoqlashadi. Bu qalbida iymon bor insonlar, xudodan qo'rqqanlari uchun xarom boylikdan va poraxo'rlikdan xazar qilishadi.

Qaysi mansabdor nafsini jilovlay olmasa, unda noqonuniy yo'l bilan boylik topish tuyg'ulari ajralmas sifatga aylanadi.

Korrupsiyani ko'pchilik – poraxo'rlik deb tushinishadi. Poraxo'rlar, porani o'zaro suxbatlarida, boshqalar tushunmasliklari uchun ko'p nomlari bilan atashadi, masalan "Yakan", "Soqqa", "Kurak", "Yutal", "Shapka", "Quruq", "Xizmat xaqqi", "Qo'l xaqqi", "Sovg'a", "Volosataya ruka", harbiylar tilida pora olib va berish "Dvijeniye", "Gruz", "Tashabbus", "Paket" va xoqazo ataladi.

Bugungi kunda korrupsiyani barcha soxalarda uchratish mumkin.

Korrupsionerlarning farzandlari xarom luqma yeb katta bo'lishganliklari uchun ularda ahlokiy sifatlar shakllanmaydi.

Bugun korrupsiya - jahonning global muammolaridan biri bo'lib, deyarli barcha mamlakatlarda mavjuddir. Bugungi kunda u, qonun ustuvorligiga, inson huquqlari tamoyillariga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga jiddiy xavf solayotgan tahdidlardan hisoblanadi.

Barcha davlatlarda korrupsiya global muammolar orasida taraqqiyot uchun eng xatarli illatlardan biriga aylandi.

Korrupsiya-bu faqat inson jamiyatiga xos tuyg'u. Uni mutlaqo yo'q qilib bo'lmaydi, ammo jilovlash mumkin.

Buning uchun:

a) jamiyatning ahloqiy, ma'naviy va ma'rifiy holatini yuqori darajaga ko'tarish;

b) qonun ustuvorligini gapda va qog'ozda emas, balki amalda namoyish qilish;

v) barcha korrupsionerlarni televideniye orqali ko'rsatib gazetalarda qilmishlarini yozib, shahar va tumanning gavjum joylarida katta plakatlarda ularning qilmishlarini aks ettirib, rasmi bilan o'rnatish, o'zlarini ustiga "poraxo'r" yozuvi tikilgan libos kiydirib shaharning gavjum joylarida ko'chalarni supurtirib ariqlarni tozallatirish kerak;

g) korrupsionar yashagan manzilda, bu yerda korrupsioner falonchi yeb yashagan deb uning qorrupsiya faoliyatini yoritish kerak (korrupsionerning oyog'i ostidagi yer yonishi kerak va unga nisbatan jamiyatning nafratini qo'zg'atish kerak);

d) korrupsionerlarga nisbatan Jinoyat kodeksining 53-moddasini (Musodara) albatta tiklash kerak.

Balki shu choralar korrupsiyani kamaytirar.

Korrupsioner-bu jinoyatchi, shuning uchun uning xuquqi emas majburiyati ko'proq.

Barcha mansabdorlar qonunni xurmat qilishlari yoki undan qo'rqishlari kerak.

Ikkinchi Imperiyaning asoschisi, yagona birlashgan Germaniyani tuzgan Otto Bismark aytgan ekan "Insonni oldinga intilishga ikki narsa ta'sir kiladi, biri daxshat, ikkinchisi qiziqish". Balkim shuning uchun, nemis xalqida qonunga ongli ravishda itoat qilish qondan qonga o'tib kelmoqda.

Toki mansabdor shaxs, o'z manfaatlarini jamiyat manfatlaridan ustun qo'yar ekan bunday jamiyatda korrupsiyani yo'q qilish u yoqda tursin, uni kamaytirib ham bo'lmaydi!

Bir so'z bilan aytganda, korrupsiya – taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

Kelajakni korrupsiyasiz qurishimizda, avvalo, o'zimizni o'zimiz tarbiya qilishimiz kerak.

Qurolli Kuchlarimizda eng ko'p o'g'irlik, tashmachilik, mansabni suiiste'mol qilish xodisalari, Front orti ta'minotida boshqa sohalarga nisbatan ko'proq sodir etiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" 2017 yil 3 yanvar, O'RQ-419-son

2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Birlashgan millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvyensiyasiga (nyu-york, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida 2008-yil 7-iyul, O'RQ-158-son

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 27 may, PF-5729-son

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2017 yil 2 fevral, PQ-2752-son

5.2021yil 31may “O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo’shinlarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish to’g’risida” Mudofaa vaziri buyrug’i

6. Mamatov T., “Korrupsiya va jamiyat”. Darslik .KMTM 2021y.

Ochilov To’ra Yoqubovich — ***O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi texnik tayyorgarlik sikl o’qituvchisi, podpolkovnik***



Azizov Shuxrat Shodmonovich — ***O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi texnik tayyorgarlik sikl o’qituvchisi, mayor***



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – BARCHAMIZNING FUQOROLIK BURCHIMIZ

Annotasiya: *Yangi O’zbekistonda iqtisodiyotni yanada o’stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash bo’yicha yangi tizimli choralar ko’rilishini taqozo qilmoqda.*

Kalit so’zlar: *isloh, dasturi amal, pora, amaldorlar, jamiyat, qo’rquv, o’zini-o’zi qo’rqitish, millat.*

... Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma’lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to’g’anoq bo’ladi. Davlatni ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat – korrupsiya va poraxo’rlikdir.

Aynan shu illat sababli ko’plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma’lum.





Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavfli.

Shu boisdan ham davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'ldi. Ushbu qonun me'yorlarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2017 yil 2 fevraldagi qarori bilan "2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi" qabul qilindi. Dastur doirasida bir qator qonun loyihalari ishlab chiqildi, mavjudlari inventarizasiyadan o'tkazildi. Umuman olganda, so'nggi yillarda qilingan ishlar tahlili aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilganini ko'rsatib turibdi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta'minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi.

Albatta, bajarilgan ishlar salmoqli. Ammo biz kechagi qilgan ishimizning natijasiga mahliyo bo'lib qolsak, ertangi ishimizning yakuni biz kutganchalik bo'lmasligi tabiiy.

Shundan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha yangi tizimli choralar ko'rilishini taqozo qilmoqda. Prezidentimiz tomonidan kuni kecha imzolangan "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon ham ayni shu maqsadni ko'zlagani bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Korrupsiya shunday illatki, uni bir yoki ikki idoraning sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, barcha fuqarolarimiz, jamiyat unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkin.

Farmonning tub mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi nafaqat huquqni muhoza qiluvchi idoralar va davlat tashkilotlari, balki jamoatchilik nazorati instituti imkoniyatidan ham keng foydalanish belgilab qo'yilganini ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, farmonda jamoatchilik nazoratini olib borishda muhim o'rin tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish alohida belgilangan.

Ikkinchidan, joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o'rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlab borish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalarini tashkil etish tavsiya qilinmoqda.

Uchinchidan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish, ushbu sohadagi qonunbuzilish holatlari yuzasidan xabar bergan shaxslarni himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish ta'kidlangan.

To'rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta'minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o'tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, farmonda davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish vazifasi belgilab berildi. Bu norma, albatta, har bir mansabdor shaxsdan xulosa chiqarishni talab etadi.

Vaholanki, bugun har bir davlat xizmatchisi va huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari xodimlarining fe'l-atvoriga O'zbekiston Respublikasi qonunlariga bo'ysunish va ularni hurmat qilish odobini singdirib borish o'ta muhim vazifadir.

Farmonda nazarda tutilganidek, jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotgan hozirgi davrda mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish, qonunlarga hurmatsizlik qilgan mansabdor shaxslar to'g'risida asoslantirilgan ko'rsatuvlar, eshittirishlar tashkil qilish, maqolalar chop etib borish, ularning qilmishi noto'g'ri ekanligini ta'sirchan vositalar orqali ko'rsatib berish, albatta, o'z samarasini beradi.

O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasi jamiyatda adolatni ta'minlashda korrupsiyaga qarshi kurashni o'zining ustuvor maqsadlaridan deb biladi. Shu bois partiya saylovoldi dasturida korrupsiyaga qarshi kurash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashning ustuvor vositasi sifatida davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi hamda faoliyatining shaffofligini oshirish ko'zda tutilgan. Prezidentimiz tomonidan imzolangan mazkur farmon bilan partiyamizning yuqoridagi g'oyalari hamohangligi biz uchun ahamiyatli bo'lib, ayni vaqtda farmonda belgilangan vazifalarni hayotga samarali tatbiq etish bo'yicha mas'uliyat ham yuklaydi.

Xulosa tariqasida shuni aytish lozimki, mazkur farmon jamiyatda adolatlilik g'oyasi, barchaning qonun oldida tengligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim hujjat hisoblanadi. Adolat ustuvor bo'lgan mamlakatda esa taraqqiyot, xalq farovonligi, islohotlar samarasi ta'minlaydi.

Султанов Эшберди Мусаевич — ***Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Кичик мутахассисларни тайёрлаш Маркази Гуманитар ва ижтимоий фанлар цикли катта ўқитувчиси ҚК хизматчиси***



КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ АСОСИЙ ШАРТИ.

“Дунёқарашни ўзгартирмасдан
Коррупцияга қарши курашиб бўлмайди”
Шавкат Мирзиёев.

Аннотация: Мақолада коррупциянинг жамиятда эгалаган ўрни, унинг инсон аҳлоқига салбий тасири кўрсатилган. Бугунги кунда бу салбий бало билан барча инсонлар курашиш кераклиги акс эттирилган.

Калит сўзлар Коррупция, мансаб, амал, нафс, суиистеъмол, пора, лаганбардорлик, эхтиёж, манфаат, халол, харом, мулк, маблағ.

"Ер" деб номланган сайёрамизда глобал муаммолар жуда кўп. Айни пайтда улардан бири бу коронавирусдир. Ушбу эпидемияни олдини олиш учун дунё олимлари, барча саъй-ҳаракатларини қилишмоқда.

Инсониятнинг порлоқ ақллари ушбу балога қарши курашиш учун янги дори воситаларини яратмоқдалар ва эҳтимол, Яратган эгамнинг иродаси билан, охир-оқибат бундай офат балони жиловлай олишади.

Аммо инсон жамиятига нафақат иқтисодий асосларига зарар етказадиган, балки инсониятнинг ахлоқ ва одамийлик асосларини бадном қиладиган офат бало ҳам мавжуд. Ушбу офат бало "Коррупция"дир.

Коррупцияга қарши лаборатория шароитида вакцина (зардобни) ишлаб чиқариш мумкин эмас. Барча инсонларни инъекция йўли билан эмлаб, ахлоқий фазилатларида мавжуд бўлган “Коррупция” деб номланадиган салбий жирканч сифатларни даволаб бўлмайди.

Халқаро қонунларда ханузгача “Коррупция” тўғрисида умумий тушунча қабул қилинган йўқ.

Ўзбекистон Республикасининг 2017йил 03 январь 419-сонли “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида” ги қонунининг 3 моддасида коррупцияга шундай тушинча берилган: *“К**оррупция** — шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқедан шахсий манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этиш”.*

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг (БМТ) Бош ассамблеянинг 2003 йил 31 октябрдаги 58/4 қарори билан қабул қилинган “Коррупцияга қарши конвенцияси”нинг 20-моддаси "Ноқонуний бойитиш" талқинига асосланиб бундай таърифни таклиф қиламан. *“Коррупция - мансабдорнинг бойиб кетиш мақсадида, ўз лавозимидан аҳлоққа ва қонунга зид равишда фойдаланиб, давлат ва жамиятга моддий, ахлоқий ва маънавий зарар етказиш”.*

Коррупция деганида, кўпчилик фақат бу порахўрлик деб тушунади, бу эса ундан ташқари амалдор шахснинг бойиб кетиш учун ўз манфаатини суиистъемол қилиш ҳамдир. Амалдор, пора олмай ҳам, эгаллаб турган мансабидан ноқонуний бойиб кетаверади, чунки унга ишониб берган давлат мулкини, талон - тарож қилишга чексиз имкониятлар бор.

Қайси амалдор, мансабни коррупция орқали эгаллаган бўлса, у ҳеч қачон халол ишламайди, чунки унинг онги ҳаромхўрлик вируси билан захарланган. Бу хасталикни қисқартириш мумкин, аммо мутлақо йўқ қилиб бўлмайди, чунки ҳар бир инсон билан унинг ажралмас сифати бор, унинг номи нафсдир. Шу нафс балоси инсонни барча ахлоқий бузуқ ва разил ишларга ундайди.

Лаганбардорлик ҳам, коррупциянинг бир тури, чунки лаганбардор, шахсий мақсадни кўзлаб, ўзидан юқори мансабда ўтирган амалдорни барча ишлари учун мақтайди.

Нега лаганбардор ҳалол ишлайдиган оддий меҳнаткашни олқишламайди, мақтамайди? Чунки мансаби йўқ ҳалол инсондан унга бир тийин ҳам фойда йўқ. Содда қилиб айтиш мумкин, коррупцияга қарши қандай курашса, шундай йўл билан ҳам лаганбардорликка қарши кураши керак.

Агарда мендан бугунги юртимиз коррупционер башарасини ифодалаб беринг дейишса, уни шундай изоҳлаб берар эдим. *Юртимиз коррупционери - бу аҳлоқий-маънавий қашшоқ ва жирканч мансабдор шахсдир. Шахсий манфаатини жамият манфаатидан устун қўядиган, моддий ва маънавий бойлик оттириш максадида барча ноқонуний йўллар билан мансабидан фойдаланиб, жамиятга нафақат моддий, шунингдек аҳлоқий ва маънавий зарар етказадиган шахс.*

Инсонларни коррупцияга муносабатига қараб, қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

Биринчи гуруҳ. Коррупция билан чамбарчас боғланиб кетган мансабдорлар.

Улар коррупция орқасидан орттирган қўша-қўша данғиллама мулкларга нафақат юртида, балки бошқа давлатларда ҳам эгадирлар. Анча миқдорда бойликлари чет давлат банкларига жойлаштирилганлар. Ноёб автомобилларида юришади хамда бир нечта, катта даромад келтирадиган кўчмас мулк, корхона, фирма ва бошқа ҳусусий мулкларга эгадирлар.

Фарзандлари ва яқинлари чет давлатда яшашади, ўқишади ва курортларда дам олишади,

Иккинчи гуруҳ. Коррупция орқали шаҳсий эҳтиёжларини қондириб, коррупция борлигига шукур қилиб юрадиганлар.

Бу тоифадаги инсонлар ашаддий лаганбардор бўлиб, белгиланган қонунларни четлаб ўтган ҳолда, коррупция орқали барча манфаатларини ҳал қилиб юришади. Улар онгида "барча масалани фақат пора орқали бажариш мумкин" – тушинчаси, мияларида қаттиқ ўрнашиб олган.

Бундай инсонлар юртга нафақат моддий, энг ачинарлиси, катта ахлоқий зарар етказишади. Қолган халол инсонларда буларнинг қилмишларини кўриб, онгларида адолатга ишончисизлик пайдо бўлади ва уларнинг қилмишларида бефарқлиқ сифатлари томир отади.

Учинчи гуруҳ. Коррупцияга бефарқ бўлиб юрганлар.

Булар кўпчиликни ташқил қилишадилар, уларнинг хаётий шиори- "Менга нима". Бу тоифадагилар ўзлари коррупцияга қарши бирон чора қўришмайди, бундан ташқари коррупцияга қарши курашганларни йўлдан оздириб, "Барибир ҳеч нарсага эришиб бўлмайди"-деб юришади ва бошқалар онгида ўзларида мавжуд бўлган бефарқликларни ривожлантиришадилар.

Тўртинчи гуруҳ. Коррупцияни йўқ қилиб бўлмайди деб юрадиган пессимистлар.

Бундай тоифадагиларни ҳолатини саҳрода бўри тўдасига дуч келган қўй подаси билан тенглаштириш мумкин.

Бешинчи гуруҳ. Фақат сўзда "Коррупцияни" йўқ қилиш керак деб барча йиғилишда гапирадиганлар.

Бу тоифадагилар мадҳиябозлар, ўзлари имкон пайдо бўлиши билан коррупцияга қўл уришади, аммо қўлларидан шу коррупцияни йўлини тўсиш имконияти бўлишига қарамай чора кўришмайди. Бунақаларни "кампаниячилар"-деб аташ ҳам мумкин, агарда давлат рахбари бирон та чиқишда коррупция тўғрисида гап очса, улар коррупцияга қарши қоғозбозлик, гапбозлик, йиғилишбозлик тадбирларни бошлаб юборишадилар. Улар барча оммавий ахборот воситалари, радио, телевидение, корхона, ташкилот, маҳаллалар ва бошқа давлат ва нодавлат ташкилотларни жалб этиб коррупцияга қарши иш олиб борилаётганликларини кўз-кўз қилиб бўрттириб кўрсатишадилар, аммо бундай чоралардан бирон та амалий фойда бўлмайди.

Буни оддий қилиб "навбатдаги самарасиз кампания" дейишади. Уларнинг ишларини кичкина болани хўрозқант билан алдашга тенглаштирсак тўғри бўлади.

Олтинчи гуруҳ. Коррупцияни бартараф этилишига ишонадиган ва унга қарши курашадиганлар.

Бугунги кунда гуруҳлар ичида энг камчиликни ташкил қиладиганлар бу 6 (олти)нчи тоифадагилардир. Бундай инсонларнинг қалбида иймон ва

виждон хукумронлик қилади. Бу тоифадагилар ўзлари халол ризқ топиб кун кўришадилар ва айни пайтда коррупциядан катта азият чеккан ёки чекаётганлар ҳам шулар бўладилар. Улар мусулмон оламида айтганидек "Ноумид шайтон"-деб коррупцияга қарши мавжуд бўлган қонунлар ва маънавият орқали курашишадилар. Улар коррупцияга қўл уришмайдилар ва бошқаларни шу йўлга кириб кетишидан тийишади.

Бунақаларни кўпчилик ёмон кўришади. Улар тўғрисида "*Ўзи ҳам емайди, биров еса кўролмайди"*-дейишади, шунинг учун уларни юқори мансабларга яқинлаштиришмайди ва фақат сўзларда олқишлашади.

Бугунги кунда юртимизда мавжуд бўлган қонунлар билан коррупцияни тўлиқ бартараф қилиб бўладими? Тўғри, айрим мадҳиябоз олимлар бундай қонунларимиз билан коррупцияни мутлоқ йўқ қиламиз деб жар солишяпти, ишқилиб натижаси самарали бўлсин.

Мавжуд бўлган қонунларимиз билан, мансабидан фойдаланиб, оддий меҳнаткаш инсонлар яратган саноқсиз бойликларни ўзлаштириб олган коррупционернинг мулкини қандай қилиб мусодара қилиш мумкин? Коррупция тўғрисида Жиноят кодексимизда тегишли моддалар мавжуд, аммо, ушбу кодексдаги 53 модда -"Мулкни мусодира қилиш"- олиб ташланган.

Бир неча йилга озодликдан маҳрум этилган коррупционер вақти келиб, бизнинг гуманитар қонунларимизга асосан озодликка чиқади ва коррупция орқали тўплаган, халққа тегишли бойликларни, бironта чет давлатда ялло қилиб ўзи ва яқинлари билан совуриб юради.

Тараққий топган Осиё давлатларидан илғор технологияларни оляпмиз ва самараси юкори бўлмоқда. Нега энди шу давлатлардан, масалан Хитой, Сингапур, Жанубий Корея ва бошқалардан коррупцияга қарши курашиш услубларини ва чора тадбирларни ўз қонунимизга инплантация қилмаяпмиз?

Хитой давлати сингари коррупционерларни отишни таклиф қилмаяпман, инсонга хаётни Оллох беради ва жонини олиш унинг қўлида. Коррупцияни камайтириш бўйича бир қатор самарали қонунлар қабул қилиш мумкин. Масалан, коррупцияга қарши курашиш бўйича барча қонунларни Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 2003 йил 31 октябрида қабул қилинган Конвенциясининг 20 моддасига "Ноқонуний бойиб кетиш"га асосланиб қонунларамизни мослаштиримиз керак. Бундан ташқари коррупцияга қарши курашишда яна қуйидагиларни инобатга олиш керак деб ҳисоблайман.

Биринчидан, зудлик билан Жиноят кодексида 53-моддани "Мулкни мусодира қилиш"ни тиклаб ва уни коррупционерларга нисбатан қўллаш. Коррупцияга тааллуқли моддаларни "Давлат жиноятлари" таркибига киргизиш.

Иккинчидан, "Коррупция" сўзи нимани англатадиганини аҳолига батафсил етказиш, чунки кўпчилик коррупция - бу порахўрлик деб тушунишадилар.

Учинчидан, барча қўлга олинган коррупционерлар тўғрисида зудлик билан оммавий ахборот хамда радио ва телевидения орқали маълумот бериш.

Тўртинчидан, коррупционерни очиқча суд қилиб ва суд жараёнини радио, телевидение ва оммавий ахборот воситалари орқали аҳолога етказиш.

Шаҳарнинг, туманнинг аҳолиси гавжум бўладиган жойларда "Бизнинг шаҳар, туман коррупционери"- деган фото галлереяни ташкил қилиб унда барча коррупционерларни расмини ва тўлиқ таржима холини ва давлатга етказилган зарарни кўрсатиш лозим.

Бешинчидан, телевидениядa "Жамият ва коррупция", деган янги канал очиб, унда республикамизда содир этилган коррупция ва коррупционерлар тўғрисида репортажларни хамда коррупционерлар тўғрисида батафсил ҳужжатли фильм олиб, шарҳлари билан кўрсатиш керак.

Олтинчидан, озодликдан махрум этилган коррупционерларга "Коррупционер", деб ёзилган махсус кийимлар тикиб, уларни кийгизиб ҳар куни шаҳар ва туман кўчаларини супуртириб, сув иншоотларини тозалаттириб, камида 8соат ишлатиш керак. Коррупционерлар оёғи остида ер ёниши керак, улар нафақат моддий жазога тортилиши энг аввало, маънавий жазога тортилишлари лозим.

Еттинчидан, бу гувоҳларни муҳофааза қилиш қонунига асосан, барча коррупция тўғрисида ҳабар берган фуқароларга коррупционернинг мусодара қилинган молк-мулкидан 25% уларнинг номига банкга ўтказиш. Бу энг самарали услуб, ундан барча ривожланган Европа, Америка ва Осиё давлатлар унумли фойдаланиб жинояларни минимумгача камайтиришган.

Бугунги кунда "Коррупция" жаҳоннинг глобал муаммоларидан бири бўлиб, деярли барча мамлакатларда мавжуддир. У қонун устуворлиги, инсон ҳуқуқлари тамойилларига, ижтимоий ва иқтисодий ривожланишга жиддий хавф солаётган таҳдидлардан ҳисобланади.

Инсониятни ташвишга солаётган ушбу ижтимоий иллат жамиятни турли йўллар билан исканжага оладиган даҳшатли иллатдир.

Коррупция бугун кунда юртимизни барча соҳаларини ўз ичига камраб олган. Коррупция демократия ва ҳуқуқ устуворлиги асосларига путур етказади, ички ва ташқи бозорлар фаолиятига тўсқинлик қилади, инсон ҳуқуқлари бузилишига олиб келади, фуқаролар ўртасида нотенгликни юзага келтиради, ҳаёт сифатини ёмонлаштиради, айрим мансабпараст шахсларнинг қўлида маблағ тўпланиб, шунинг ҳисобига жамият таназзулга юз тутишига сабаб бўлади ҳамда одамлар хавфсизлигига таҳдид соладиган уюшган жиноятчилик, терроризм ва бошқа ҳодисалар илдиз отиб, гуллаши учун шароит яратиб беради. Энг ачинарлиси "Коррупция" бор жойда ривожланиш, адолат бўлмайди, жамиятнинг маданий ва ахлокий сифатлари бадном этилади. Инсонларнинг онгида йиллар давомида шакилланган ахлокий сифатларини ва мукаддас инсоний омилларни вайрон этилади.

Коррупция деб номланган офат балоси, бугунги кунда ўз доирасига барча соҳаларни камраб олган, шунинг учун Мудофаа вазири 2021йил 31май куни “Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги қўшинларида коррупцияга қарши курашиш борасида амалга оширилаётган ишлар самарадорлигини янада ошириш тўғрисида” буйруғ қабул қилди.

Президентимиз, Қуролли Кучлар Олий бош қўмондони Шавкат Миромонович Мирзиёев 2016йил Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қўшма мажлисидаги маърузасида “Жамиятимизда коррупция, турли жиноятларни содир этиш ва бошқа ҳуқуқбузарлик ҳолатларига қарши курашиш, уларга йўл қўймаслик, жиноятга жазо, албатта, муқаррар экани тўғрисидаги қонун талабларини амалда таъминлаш бўйича қатъий чоралар кўришимиз зарур”, деб бежиз таъкидламади.

Бир сўз билан айтганда, коррупция – тараққиёт кушандаси, хавфсизликка таҳдид туғдирувчи хавфли ва энг жирканч жиноят. Бу иллатга қарши курашиш белгиланган ташкилотларнинггина эмас, балки барча виждонли инсонларнинг иши бўлиши зарур. Шундагина биз ушбу хавфни бартараф этган бўламиз.

Келажакни коррупциясиз қуришимизда, аввало, ўзимизни -ўзимиз тарбия қилишимиз керак. Коррупцияни сахрода ўсаётган улкан дарах билан солиштирсак ҳам бўлади. Сахрода барча ўсимликлар сувсизликдан қуриб қолишади, аммо коррупция дарахти аксинча, қуримай улканлашиб бормоқда. Нега бундай десангиз, бу масаласига шошилмай, ўзимизга иқрор бўлиб тан олсак албатта барчамиз шу дарахт остига сув қуйганмиз. Кимдир пиёла билан, кимдир баклашка билан, кимдир сатил билан, кимдир сув ташувчи машина билан, кимдир цистерна билан қўйган.

Тўғри, кимдир мажбур бўлганлигидан, кўпчилик эса онгли равишда шу коррупция дарахти остига сув қуйган. Лекин қандай бўлмасин биз бундай қилишимиз керак эмас эди.

Шаҳсий манфаат, нафс балоси ва онгли пастлигимиз шундай жиноят ишга қўл уришни бизни ундади.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг қонуни «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида» 2017 йил 3 январь ЎРҚ-419-сон

2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Birlashgan millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvyensiyasiga (nyu-york, 2003-yil 31-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida 2008-yil 7-iyul, O‘RQ-158-son

3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2019 йил 27 май, ПФ-5729-сон

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида 2017 йил 2 февраль, ПҚ-2752-сон

5.2021йил 31май “Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги қўшинларида коррупцияга қарши курашиш борасида амалга оширилаётган ишлар самарадорлигини янада ошириш тўғрисида” Мудофаа вазири буйруғи

6. Маматов Т., “Коррупция ва жамият”. Дарслик .КМТМ 2021й.

Anorboyev Farrux Rustamovich — *O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi “Huquqiy fanlar” sikli boshlig‘i, mayor*

To‘ychiyev Suhrob Umarali o‘g‘li — *O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Jizzax mintaqaviy o‘quv markazi “Huquqiy fanlar” sikli katta o‘qituvchisi, kapitan*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA HAR BIRIMIZ MAS’ULMIZ

Xalq tilida soddagina qilib - poraxo‘rlik, keng ma'noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan, ushbu maqolada uni keltirib chiqaruvchi sabab va qarshi kurash choralarini tahlil etamiz.

«Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda, g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida, o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir». Aslida korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilik va axloqqa zid ravishda o‘zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir. Atama, eng avvalo, siyosiy apparat xodimlariga nisbatan foydalanishi odatiy tusga kirgan.

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o‘tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Hatto rivojlangan arab davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo‘lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Qur’oni karimda poraxo‘rlik bevosita taqiqlanadi: “Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang” (Baqara surasi, 188).

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, insoniyat shakllanish jarayonining ilk davri bo‘lmish ibtidoiy jamiyatlarda ham korrupsiyaning ayrim ko‘rinishlari bo‘lib, o‘sha davrda qabila oqsoqoliga yoki harbiy boshliqlarga muayyan bir imtiyozni egallash uchun haq to‘lash tabiiy hol hisoblangan. Keyinchalik esa davlat boshqaruvining takomillashuvi va murakkablashuviga ko‘ra, korrupsiyaning ham turli xil shakllari yuzaga kelib, oxir-oqibatda u global muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Bilamizki, shaxs, jamiyat hamda davlat tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq. Shu sababli jamiyatning biron a’zosiga ta‘sir qilgan biror illat, albatta, butun jamiyatga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Korrupsiya paydo bo‘lishi va rivoji mazkur mamlakatning taraqqiyotiga zimdan to‘sqinlik qiladi hamda davlatning olib borayotgan islohotlariga qarshilik ko‘rsatadi. Korrupsiya illatiga qul bo‘lgan amaldorlar davlatning, jamiyatning, xalqning bildirgan

ishonchini suiste'mol qilib, o‘z manfaatlarini xalq va davlat manfaatlaridan ustun qo‘yadilar. Bu esa davlar siyosatining o‘sha amaldorlar boshqarayotgan bo‘g‘inida ish sifatining buzilishiga olib keladi. Natijada butun bir jamiyat zarar ko‘radi. Korrupsiya davlatni nafaqat moddiy, balki ma'naviy-ahloqiy jihatdan ham yemirib, xalq va davlat o‘rtasida ishonchsizlik deya atalmish ulkan chegaraning vujudga kelishiga olib keladi. Bu esa xalq o‘rtasida Vatanga daxldorlik va kelajakka ishonch tuyg‘ularining so‘nishiga olib keladi.

Yuqoridagi fikrimizning isboti o'laroq qaysi bir manba borki aynan shu illatni qoralamagan bu illat azaldan insoniyat rivoji uchun doimiy to'siq bo'lib kelmoqda. Tarixga nazar soladigan bo'lsak ham bu holat Usmoniylar saltanatida ham istisno emasdi hattoki harbiy sohada ham yuksalishlarga yo'l bermagan.

Usmoniylar saltanatida poraxo‘rlik oqibati shu bo‘ldiki, qo‘shinlar harbiy tayyorgarligini yo‘qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag‘lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi.

Xullas, qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko‘ngildagidek natija bermagan.

Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo‘rlik, tamagirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga minb'ad chek qo‘yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarur. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo‘l urmaydi.

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘lini o‘zi tanlaydi, aniqrog‘i, qanday yo‘l to‘g‘ri ekanini hayot ko‘rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko‘zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e'tibor qaratilgani bejiz emas.

Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan qutqarish sharafli burchimiz ekanligini hamma birdek tushunmog‘i shart. Aks holda, o‘ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo‘rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar jazoga tortilishi muqarrar!

Ho'sh ushbu salbiy illatdan halos bo'lish uchun nima qilish lozim, qanday choralar ko'rilsa bu illatning tomir otib yashnab ketishiga to'sqinlik qilgan bo'lamiz? Tabiiyki, korrupsiya ortida mo‘may daromad topish ilinji turibdi, biroq har bir quyi bosqichda uning hakalak otishiga davlat xizmatchilarining oylik maoshi pastligi sabab bo‘lmoqda.

Masalan, mahalliy hokimiyatning oddiy xizmatchisini ko‘z oldingizga keltiring, uning kichik maoshi, aslida xodim inson kapitaliga mos emasligi, korrupsiyaga qo‘l urishga majbur qiladi. Boshqacha qilib aytganda, kuchli bilim va tajribaga ega xodim hech qachon kichik maosh taklif etilgan ish lavozimida mehnat qilmaydi. Uning oldida tanlash uchun ikkita yo‘l turibdi: ish joyini o‘zgartirib, ko‘p oylik maosh va'da qilib turgan xususiy sektorga o‘tib ketish yoki kichik maoshga «qanoat» qilib, korrupsiyaga qo‘l urish. Bunday vaziyatda, davlat

organlarida kadrlar yetishmovchiligi kuzatilib, tajribali va bilimli mutaxassislarni yo‘qotishi ham hech gap emas.

Bunday turdagi illatga qarshi kurashish uchun avvalambor insonlarni ongini yuksaltirish, ularni huquqiy savodxonligini oshirish zarur. Korrupsiya natijasida xalq va davlatning rivojlanishi ortda qolayotganligini va kelajakda yoshlar bizdan yomon o’rnak olishini tushuntirish lozim.

Davlat organlarida oylik maoshni oshirish bilan korrupsiyaga barham berish mumkinmi? Nisbatan. Hozirgi kunga kelib bu illat faqatgina oylik maosh bilan bog’liq bo’libgina qolmay balki, insonlarning qalbiga singdirilmog’i lozim. Xalqimizda bir gap bor “o’rgangan ko’ngil o’rtansa qo’ymas” demakki avvalo insonlarni huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo‘rlik, tamagirlik, huquqbuzarliklar va ularga chek qo‘yish lozimligi, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligi haqida har bir shaxsning ongiga doimiy singdirilib borilishi lozim.

Biz bu borada Jahon tajribasiga yani korrupsiyaga keskin cheklovlar qoya olgan mamlakatlar va davlatlar tajribasiga suyanmog’imiz zarur va hozirgi aytmoqchi bo’lgan jahon mamlakatlari usullaridan ham samarali foydalanishimiz kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin egallaydi.

Korrupsiya ildiziga bolta urishda jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar ustuvor mavqeni egallashi lozim, degan fikrdaman.

Lekin afsuski, MDH davlatlarida kimningdir tazyiqi, ko‘rsatmasi yoki tamagirligi, mansabdorning sotib olinishi evaziga sudlarning adolatsiz hukmlar chiqarishi hollari ko‘p uchraydi (yurtimiz ham mustasno emas). Sud tizimi siyosiy hokimiyatning itoatgo‘y, tobe organiga aylanishi kasallikning battar gazak olishiga olib keladi.

Xulosa shundaki, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ana shu hodisa yashab turgan jamiyat yaratgan tizimning nosog‘lom yashashida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda alohida ta'kidlab o‘tish lozimki, ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy vazifasi ijtimoiy kayfiyatni yoritish: cho‘qqining o‘tkir nuqtasiga yetib kelganimizni eslatib turishdan iborat.

Sarimsokov Shoyatbek Mutallibjonovich — ***O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi texnik tayyorgarlik sikl boshlig'i, podpolkovnik.***



Achilov Vadim Elmuradovich. — ***O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi texnik tayyorgarlik sikl katta o'qituvchisi, podpolkovnik***



KORRUPSIYA – MAMLAKAT TARAQQIYOTIGA TO'SIQ BO'LADIGAN ILLAT

Annotasiya: *Ushbu maqolamda koorupsiya illatini tomirini quritish yoki chopib tashlash bo'yicha bir qancha tadbirlar olib borilmoqda va biz yangi O'zbekistonimizni huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish va bunda korrupsiya jinoyatiga qarshi kurashish yuzasidan qator chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar tayyorlangan.*

Kalit so'zlar: *pora, illat tomiri, mansabdor, moyil, global, maqsad, kurashish, matonat, sadoqat, qo'rquv, vatan, mehr, millat, jarayon.*





Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Hozirgi davrda korrupsiya ko'pgina davlatlarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib bera oldi. Unga qarshi kurashish,

muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Shulardan kelib chiqib, 2017 yil 3 yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi.

Uning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo'lib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuviga doir tushunchalarga ta'rif berilgan, ya'ni **korrupsiya** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqyeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Mazkur Qonun o'z navbatida, fuqarolarga korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning nima ekanligi va ularning salbiy illatlari haqida ma'lumot beradi.

Darhaqiqat, korrupsiya har qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotiga xavf soladigan, qolaversa, mamlakat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan illatdir.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish va bunda korrupsiya jinoyatiga qarshi kurashish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar sharoitida davlat qurilishi va huquqiy siyosatning mazmun va mohiyatini aniqlashtirish, uning maqsad va vazifalarini islohotlarning bugungi taraqqiyoti asosida shakllantirib borish, inson manfaatlarini ta'minlashning strategik jihatdan yangi vositalar bilan bir qatorda, ham taktik xususiyatga ega bo'lgan yangi usullarni qo'llash, shaxs hamda jamiyat manfaatlarini yanada samaraliroq himoya qilish, korrupsiyaning oldini olishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyoji vujudga kelishi bilan belgilanadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisidagi **"Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"** mavzuidagi ma'ruzasida "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur", deb bejiz ta'kidlamadi.

Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida javobgarlik belgilangan quyidagi ijtimoiy xavfli qilmishlar korrupsiyaviy jinoyatlar hisoblanadi:

Masalan, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish, byudjet intizomini buzish, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, pora olish, pora berish; pora olish-berishda vositachilik qilish, xizmatchini pora evaziga og'dirish, tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish, yolg'on guvohlik berish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, hokimiyatni suiiste'mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi va hokazolar.

Ushbu Qonunning muhim ahamiyatli jihati korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari haqida ma'lumot berilib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishlari nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari Qonunning 16, 17, 18-moddalarida o'z ifodasini topgan.

Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar.

Ushbu Qonunning yana o'ziga xosligi, Qonunning 5-bobida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi nazarda tutilgan.

Shunday ekan, o’zimizga xulosa qilishimiz, kelajakni korrupsiyasiz birgalikda qurishimiz, buning uchun avvalo o’zimizni o’zimiz tarbiya qilishimiz, korrupsiyanining har qanday ko’rishnishini bartaraf qilish uchun birgalikda kurashishimiz zarurdir. Qabul qilingan Qonun esa davlat va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir etuvchi mazkur illatga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa tariqasida shuni aytish lozim bo’ladiki hozirgi kunlarda korrupsiya ko’pgina davlatlarning iqtisodiy va siyosiy salohiyatiga o’zining salbiy ta’sirini ko’rsatib bera oldi. Unga qarshi kurashish, muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur bo’lgan dolzarb vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.

Foydalangan manbalar:

1. O’zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy organlari tomonidan ishlab chiqilgan o’quv qo’llanma, Toshkent 2022 y.

2. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi //O’zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar. Inson huquqlari bo’yicha universal shartnomalar / Mas’ul muharrir A.X.Saidov. - T.: “Adolat”, 2002.

Turanov Yusufbek Yunusaliyevich ***O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Farg‘ona mintaqaviy o‘quv Markazi "Axborot komunikatsiya texnologiyalari va texnik qo‘riqlash vositalari" sikli boshlig‘i, mayor***

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH – VATAN TARAQQIYOTINING KAFOLATIDIR!

“Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”

Annotatsiya: maqolada mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora – tadbirlar xaqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, inson xuquqlari, davlat, kurash, jinoyatchilik, normativ xujjatlar.

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Hozirda, korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro miqyosdagi kabi respublikamizda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etishda keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, unga tanqidiy yondoshgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, korrupsiya o‘ziga tamagirlikni qamrab olgan holda jamiyatning ma’naviy ustunlari hamda demokratiyani yemirib, mamlakatning iqtisodiy – ijtimoiy va siyosiy taraqqiy etishi uchun ulkan xavf tug‘diradi.

Etimologik jihatdan “**korrupsiya**” - lotincha “**corruptio**”, ya’ni “**buzish, sotib olish, pora evaziga og‘dirish**” degan ma’nolarni anglatadi. Korrupsiya shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish demakdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Buni so‘nggi yilllarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ma’muriy islohotlar misolida ham ko‘rish mumkin. Jumladan,

korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda O‘zbekiston islohotlarining asosiy hujjati hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan 2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ahamiyati katta hisoblanadi.

Mamlakat taraqqiyotining eng muhim yo‘nalishlari belgilangan Harakatlar strategiyasining Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishida bevosita korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shuni ta’kidlash o‘tish joizki, korrupsiyaga qarshi kurashning sifat va son jihatdan mutlaqo yangi darajaga ko‘tarilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi mahsulidir. Jumladan, davlat rahbarining jamiyatni “halollik vaksinasi bilan emlash” zaruriyati haqidagi fikrlari bu boradagi ishlarga qo‘yilgan tamal toshi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, Prezident 2020 yilning 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”.

Bundan tashqari, sohada normativ – huquqiy bazani tizimli ravishda takomillashtirib borish choralari ko‘rilmoqda. Fikrimizning isboti o‘laroq, korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi qonunning kuchga kirgani, shuningdek turli qonunosti hujjatlarining qabul qilinganini keltirish mumkin. Xususan, 2017 yil 3 yanvar kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunni imzoladi. Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, unda “korrupsiya”, “korrupsiyaga oid huquqbuzarlik”, “manfaatlar to‘qnashuvi” kabi asosiy tushunchalarga izoh berish bilan bir qatorda, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari ham qayd etilgan. Shuningdek, qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohadagi ishtiroki, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, jazo muqarrarligini ta’minlash va bu borada xalqaro hamkorlikni ta’minlash kabi choralar mustahkamlab qo‘yildi.

Jumladan, mazkur Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashdan iboratdir.

2020 yil uchun qabul qilingan Davlat dasturining 53-bandiga ko‘ra, Davlat rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart – sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi. Agentlik faoliyatining huquqiy asoslari, vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilashda xalqaro normalarni ilgari surgan holda xorijiy tajriba atroflicha o‘rganildi. Uning eng maqbul jihatlari Prezidentning mazkur farmonida to‘laqonli aks ettirildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tashkil etildi. Ushbu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, bu – korrupsiya illatlariga barham berishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi Qarori bilan 2017–2018 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha birinchi Davlat dasturi qabul qilinib, uning ijrosi doirasida aniq chora – tadbirlar amalga oshirildi. Bu islohotlarni davom ettirgan holda, 2019 yilning 27 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan 2019–2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha navbatdagi Davlat dasturi, 2021 yilning 6 iyul kuni “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2022 yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturlari ishlab chiqildi. Mazkur Davlat dasturida korrupsiya holatlarini oldini olish bo‘yicha ustivor vazifalar belgilangan.

Jumladan, korrupsiya holatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning eng muhim jihatlaridan biri – davlat boshqaruvi tizimida “inson omili”ni kamaytirish uchun davlat va jamiyat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish yo‘lga qo‘yilishidir;

- ma’muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, litsenziyalash va ruxsat berishga doir tartib – taomillarni soddalashtirish;

- hududlarda jami 201 ta davlat xizmatlari markazlarini tashkil etilishi va ushbu markazlar tomonidan fuqarolarga 2017 yilda 37 turdagi davlat xizmatlari, 2018 yilda 106 turdagi, 2019 yilda 133 turdagi, 2020 yilda 148 turdagi, 2021 yilda 150 turdagi, 2022 yila esa markazlar orqali 276 turdagi shaffof, qulay va tezkor davlat xizmatlari ko‘rsatilganligi xam bejis emas.

Korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni yaratish jamoatchilikning keng ishtirokida amalga oshirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tizimini tubdan takomillashtirilib, Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonalari, “Ishonch telefoni” hamda har bir vazirlik va davlat idoralarining “ishonch telefonlari”, “virtual qabulxonalari” tashkil qilinib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash maqsadida barcha darajadagi davlat rahbarlarining “sayyor qabullar”ni o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Albatta, amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami maqtovga loyiq, biroq, hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar ham yo‘q emas. Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar, 2022 yilda 2349 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan.

Sud yakunlari bo‘yicha korrupsiyaga oid jinoyat ishlari bo‘yicha 592,5 mlrd. so‘m moddiy zarar yetkazilgani aniqlanib, shundan 170,8 mlrd. so‘mi (28 foizi) undirilib, 421,7 mlrd. so‘mi Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan undirilishi belgilangan.

Xulosa shundan iboratki O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan qator islohotlar davlat jamiyatni, davlat boshqaruvi va xo‘jalik organlarini mazkur illatdan xoli bo‘lishi uchun kurashayotganligidan dalolatdir. Korrupsiyani oldini olmasdan turib barqaror taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligi aholining huquqiy savodxonligi, ma’naviyati, axloq–odobi va demokratiya prinsiplariga qanchalik amal qilishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu sababli, korrupsiyaga qarshi ma’rifat – insonda bilim, immunitet, vijdon, insof, iymon, e’tiqod, halollik kabi sifat va hissiyotlar shakllangan bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan aksariyat korrupsiyaviy jinoyatlarda javobgarlikni amal qilish muddati sifatida ikki yil muddat keltirilgan. Bu jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan qochish uchun javobgarlikni amal qilish muddati tugagunga qadar jinoyat protsessini kechiktirishida imkoniyat berib kelmoqda. Shu sababli, korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli vaqtni ta’minlash va javobgarlikni amal qilish muddatini kamida qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi maruzasidan 2016 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020 yil 24 yanvar.

3.O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunni 2017 yil 3 yanvar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son. 2021 yil 6 iyul

Yormatov Sayfiddin Saitmuratovich — *O‘R QK Kichik mutaxassislar tayyorgarlik markazi uslubiy bo‘linma boshlig‘i, podpolkovnik*

Ibragimov Qobil Soatovich — *O‘R QK Kichik mutaxassislar tayyorgarlik markazi muxandislik tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISHDA YUZAGA KELAYOTGAN AYRIM MUAMMOLAR.

“Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”
Shavkat Mirziyoyev.

Anatatsiya: Maqolada korupsiyani keltirib chiqaradigan muammolar, ularning sabablari va Qonunga ko‘ra korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish choralari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: korruptsiya, pora, manfaatlar to‘qnashuvi,tamagirlik kronizm, klientelizm, manfaat, jinoyat.

Demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan bir vaqtda davlat xizmatchilari tomonidan poraxo‘rlik, mansab mavqeini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etilishi hokimiyatning obro‘sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur etishiga, natijada amaldagi hokimiyatga nisbatan norozilikka sabab bo‘ladi. Korrupsiyaning ma’lum bir mamlakatda rivojlanishi esa o‘sha davlatning tanazzuliga olib keladi.

Korrupsiya bu – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat turi hisoblanadi. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo‘lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki, davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo‘lishi, pora pul emas, balki boshqa narsa evaziga ma’lum xizmatni amalga oshirishlari mumkin.

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur etkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. SHu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Hozirda, korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro miqyosdagi kabi respublikamizda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etishda keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, unga tanqidiy yondoshgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, korrupsiya o‘ziga tamagirlikni qamrab olgan holda jamiyatning ma’naviy ustunlari hamda demokratiyani emirib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy taraqqiy etishi uchun ulkan xavf tug‘diradi.

Etimologik jihatdan “korrupsiya” - lotincha “corruptio”, ya’ni “buzish, sotib olish, pora evaziga og‘dirish” degan ma’nolarni anglatadi. Korrupsiya shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish demakdir.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bilan bog‘liq huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul kilingan.

Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi maruzasida “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”, deb ta’kidlagan edilar.

SHunga ko‘ra, Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratilgan holda 2017 yil 3 yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi hamda shundan so‘ng bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ular: aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashdan iboratdir.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi

Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti belgilangan bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishlari nazarda tutilgan.

Qonunga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, bu jarayonda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etilishi belgilangan. Ushbu komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi qayd etilgan. Bu me’yor korrupsiyaga qarshi kurashning doimiy va izchil tus olishida muhim ahamiyatga ega.

Binobarin, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya masalalari Qonunning bir nechta moddalarida o‘z ifodasini topgan. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan va huquqiy ta’lim va tarbiya jihatdan etuk bo‘lgan insonlar salbiy illat bo‘lmish korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydilar.

Bu borada, davlatimiz rahbari ko‘plab ma’ruza va chiqishlarida loqaydlik, beparvolik, poraxo‘rlik, korrupsiya, soxtakorlik, mansab vakolatini suiiste’mol qilishga qarshi kurash butun jamiyatning maqsadiga aylanishi kerakligi to‘g‘risida ta’kidlab o‘tgan.

Xususan, davlat rahbari “Halollik vaksinasi” va korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul bo‘ladigan alohida organ tashkil etilishi haqida ilk bor joriy yil Parlamentga yo‘llagan murojaatnomasida qayd etgan edi. Keyinchalik ushbu fikrlar, 2020 yilgi Davlat dasturida ham aks etdi.

2020 yilgi “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” Davlat dasturining 53-bandiga ko‘ra, Davlat rahbarining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi va mazkur hujjat bilan yangi organ – O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya balosi tarixning amaliy sinovlaridan o‘tganligi nuqtai nazaridan ham nafaqat bizning millatimizga, balki butun insoniyatga baxtsizlik, murosasozlik va boshqa ko‘plab siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://www.transparency.org/ru/press/2021-corruption-perceptions-index-press-release

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5263-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021 y. , No 07/21/5263/0990.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori NoUP-60 // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.

Jamolov A.A. ***O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi artilleriya sikli katta o‘qituvchisi podpolkovnik***

KORRUPSIYA JAMIYATNING “QORASON” ILLATIDIR.

Annotasiya*: Ushbu maqolada korrupsiyaning jamiyatda egalagan o’rni, uning inson ahloqiga salbiy tasiri va bugungi kunda shu salbiy balo bilan barcha insonlar kurashish kerakligi aks ettirilgan.*

Kalit so’zlar *Korrupsiya, mansab, amal, nafs, suiiste’mol, pora, laganbardorlik, extiyoj, manfaat, xalol, xarom, mulk, mablag’.*

Shuni takidlab o‘tish lozimki korrupsiyaga qarshi butun jahon kurashib kelmoqda. Ozgina qarashlarimizni tibbiyotga sohasida qaratadigan bo‘lsak, agar inson biror kasallik bilan kasallansa uni oldini olish uchun dori darmon yoki biror vaksina emlashi bilan kasallikdan qutilish mumkin. SHuninig uchun barcha insonlarni inyeksiya yo’li bilan emlab, axloqiy fazilatlarida mavjud bo’lgan “Korrupsiya” deb nomlanadigan salbiy jirkanch sifatlarni davolash lozigini takidlab o‘tsak bo‘ladi. Masalan Xitoy xalq Respublikasida amaldor xodimlar korrupsiya orqali jazolanganlar uzoq muddatga qamoq jazosi yoki belgilangan jazoni o‘tamasdan turib ozodlikka yuborilmasligi bilganliklari sababli ushbu davlatda korrupsiya jinoyat ko‘rsatishlari juda kam. Xalqaro qonunlarda xanuzgacha “Korrupsiya” to’g’risida umumiy tushuncha qabul qilingan yo’q. O’zbekiston Respublikasining 2017yil 03 yanvar 419-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi qonunining 3moddasida korrupsiyaga shunday tushincha berilgan: ***“Korrupsiya — shaxsning o’z mansab yoki xizmat mavqyedan shaxsiy manfaatlarini yoxud o’zga shaxslarning manfaatlarini ko’zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”.***

Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Bosh assambleyaning 2003 yil 31 oktyabrdagi 58/4 qarori bilan qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”ning 20-moddasi "Noqonuniy boyitish" talqiniga asoslanib bunday ta’rifni taklif qilaman. *“Korrupsiya - mansabdorning boyib ketish maqsadida, o’z lavozimidan ahloqqa va qonunga zid ravishda foydalanib, davlat va jamiyatga moddiy, axloqiy va ma’naviy zarar yetkazish”.*

Korrupsiya deganida, ko’pchilik faqat bu poraxo’rlik deb tushunadi, bu esa undan tashqari amaldor shahsning boyib ketish uchun o’z manfaatini suiistyemol qilish hamdir. Amaldor, pora olmay ham, egallab turgan mansabidan noqonuniy boyib ketaveradi, chunki unga ishonib bergan davlat mulkini, talon - taroj qilishga cheksiz imkoniyatlar bor.

Qaysi amaldor, mansabni korrupsiya orqali egallagan bo’lsa, u hyech qachon xalol ishlamaydi, chunki uning ongi haromxo’rlik virusi bilan zaxarlangan. Bu xastalikni qisqartirish mumkin, ammo mutlaqo yo’q qilib bo’lmaydi, chunki har bir

inson bilan uning ajralmas sifati bor, uning nomi nafsdir. Shu nafs balosi insonni barcha axloqiy buzuq va razil ishlarga undaydi.

Insonlarni korrupsiyaga munosabatiga qarab, quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh. ***Korrupsiya bilan chambarchas bog'lanib ketgan mansabdorlar.***

Ular korrupsiya orqasidan orttirgan qo'sha-qo'sha dang'illama mulklarga nafaqat yurtida, balki boshqa davlatlarda ham egadirlar. Ancha miqdorda boyliklari chet davlat banklariga joylashtirilganlar. Noyob avtomobillarida yurishadi xamda bir nechta, katta daromad keltiradigan ko'chmas mulk, korxona, firma va boshqa hususiy mulklarga egadirlar. Farzandlari va yaqinlari chet davlatda yashashadi, o'qishadi va kurortlarda dam olishadi,

Ikkinchi guruh. ***Korrupsiya orqali shahsiy ehtiyojlarini qondirib, korrupsiya borligiga shukur qilib yuradiganlar.***

Bu toifadagi insonlar ashaddiy laganbardor bo'lib, belgilangan qonunlarni chetlab o'tgan holda, korrupsiya orqali barcha manfaatlarini hal qilib yurishadi. Ular ongida "barcha masalani faqat pora orqali bajarish mumkin" – tushinchasi, miyalarida qattiq o'rnashib olgan.

Bunday insonlar yurtga nafaqat moddiy, eng achinarlisi, katta axloqiy zarar yetkazishadi. Qolgan xalol insonlarda bularning qilmishlarini ko'rib, onglarida adolatga ishonchisizlik paydo bo'ladi va ularning qilmishlarida befarqliq sifatlari tomir otadi.

Uchinchi guruh. ***Korrupsiyaga befarq bo'lib yurganlar***.

Bular ko'pchilikni tashqil qilishadilar, ularning xayotiy shiori- "Menga nima". Bu toifadagilar o'zlari korrupsiyaga qarshi biron chora qo'rishmaydi, bundan tashqari korrupsiyaga qarshi kurashganlarni yo'ldan ozdirib, "Baribir hyech narsaga erishib bo'lmaydi"-deb yurishadi va boshqalar ongida o'zlarida mavjud bo'lgan befarqliklarni rivojlantirishadilar.

To'rtinchi guruh. ***Korrupsiyani yo'q qilib bo'lmaydi deb yuradigan pessimistlar.***

Bunday toifadagilarni holatini sahroda bo'ri to'dasiga duch kelgan qo'y podasi bilan tenglashtirish mumkin.

Beshinchi guruh. ***Faqat so'zda "Korrupsiyani" yo'q qilish kerak deb barcha yig'ilishda gapiradiganlar***.

Bu toifadagilar madhiyabozlar, o'zlari imkon paydo bo'lishi bilan korrupsiyaga qo'l urishadi, ammo qo'llaridan shu korrupsiyani yo'lini to'sish imkoniyati bo'lishiga qaramay chora ko'rishmaydi. Bunaqalarni "kampaniyachilar"-deb atash ham mumkin, agarda davlat raxbari bironta chiqishda korrupsiya to'g'risida gap ochsa, ular korrupsiyaga qarshi qog'ozbozlik, gapbozlik, yig'ilishbozlik tadbirlarni boshlab yuborishadilar. Ular barcha ommaviy axborot vositalari, radio, televideniye, korxona, tashkilot, mahallalar va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarni jalb etib korrupsiyaga qarshi ish olib borilayotganliklarini

ko’z-ko’z qilib bo’rttirib ko’rsatishadilar, ammo bunday choralardan bironta amaliy foyda bo’lmaydi.

Buni oddiy qilib “navbatdagi samarasiz kampaniya” deyishadi. Ularning ishlarini kichkina bolani xo’rozqant bilan aldashga tenglashtirsak to’g’ri bo’ladi.

Oltinchi guruh. ***Korrupsiyani bartaraf etilishiga ishonadigan va unga qarshi kurashadiganlar.***

Bugungi kunda guruhlar ichida eng kamchilikni tashkil qiladiganlar bu 6 (olti)nchi toifadagilardir. Bunday insonlarning qalbida iymon va vijdon xukumronlik qiladi. Bu toifadagilar o’zlari xalol rizq topib kun ko’rishadilar va ayni paytda korrupsiyadan katta aziyat chekkan yoki chekayotganlar ham shular bo’ladilar. Ular musulmon olamida aytganidek “Noumid shayton”-deb korrupsiyaga qarshi mavjud bo’lgan qonunlar va ma’naviyat orqali kurashishadilar. Ular korrupsiyaga qo’l urishmaydilar va boshqalarni shu yo’lga kirib ketishidan tiyishadi.

Bunaqalarni ko’pchilik yomon ko’rishadi. Ular to’g’risida “***O’zi ham yemaydi, birov yesa ko’rolmaydi”***-deyishadi, shuning uchun ularni yuqori mansablarga yaqinlashtirishmaydi va faqat so’zlarda olqishlashadi.

Bugungi kunda yurtimizda mavjud bo’lgan qonunlar bilan korrupsiyani to’liq bartaraf qilib bo’ladimi? To’g’ri, ayrim madhiyaboz olimlar bunday qonunlarimiz bilan korrupsiyani mutloq yo’q qilamiz deb jar solishyapti, ishqilib natijasi samarali bo’lsin.

Mavjud bo’lgan qonunlarimiz bilan, mansabidan foydalanib, oddiy mehnatkash insonlar yaratgan sanoqsiz boyliklarni o’zlashtirib olgan korrupsionernig mulkini qanday qilib musodara qilish mumkin? Korrupsiya to’g’risida Jinoyat kodeksimizda tegishli moddalar mavjud, ammo, ushbu kodeksdagi 53 modda -“Mulkni musodira qilish”- olib tashlangan.

Bir necha yilga ozodlikdan mahrum etilgan korrupsioner vaqti kelib, bizning gumanitar qonunlarimizga asosan ozodlikka chiqadi va korrupsiya orqali to’plagan, xalqqa tegishli boyliklarni, bironta chet davlatda yallo qilib o’zi va yaqinlari bilan sovurib yuradi.

Taraqqiy topgan Osiyo davlatlaridan ilg’or texnologiyalarni olyapmiz va samarasi yukori bo’lmoqda. Nega endi shu davlatlardan, masalan Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya va boshqalardan korrupsiyaga qarshi kurashish uslublarini va chora tadbirlarni o’z qonunimizga inplantasiya qilmayapmiz?

Xitoy davlati singari korrupsionerlarni otishni taklif qilmayapman, insonga xayotni Ollox beradi va jonini olish uning qo’lida. Korrupsiyani kamaytirish bo’yicha bir qator samarali qonunlar qabul qilish mumkin. Masalan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha barcha qonunlarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 31 oktyabrida qabul qilingan Konvensiyasining 20 moddasiga “Noqonuniy boyib ketish”ga asoslanib qonunlaramizni moslashtirimiz kerak. Bundan tashqari korrupsiyaga qarshi kurashishda yana quyidagilarni inobatga olish kerak deb hisoblayman.

Birinchidan, zudlik bilan Jinoyat kodeksida 53-moddani “Mulkni musodira qilish”ni tiklab va uni korrupsionerlarga nisbatan qo’llash. Korrupsiyaga taalluqli moddalarni “Davlat jinoyatlari” tarkibiga kirgizish.

Ikkinchidan, “Korrupsiya” so’zi nimani anglatadiganini aholiga batafsil yetkazish, chunki ko’pchilik korrupsiya - bu poraxo’rlik deb tushunishadilar.

Uchinchidan, barcha qo’lga olingan korrupsionerlar to’g’risida zudlik bilan ommaviy axborot xamda radio va televideniya orqali ma’lumot berish.

To’rtinchidan, korrupsionerni ochiqcha sud qilib va sud jarayonini radio, televideniye va ommaviy axborot vositalari orqali ahologa yetkazish.

Shaharning, tumanning aholisi gavjum bo’ladigan joylarda “Bizning shahar, tuman korrupsioneri”- degan foto gallereyani tashkil qilib unda barcha korrupsionerlarni rasmini va to’liq tarjima xolini va davlatga yetkazilgan zararni ko’rsatish lozim.

Beshinchidan, televideniyada “Jamiyat va korrupsiya”, degan yangi kanal ochib, unda respublikamizda sodir etilgan korrupsiya va korrupsionerlar to’g’risida reportajlarni xamda korrupsionerlar to’g’risida batafsil hujjatli film olib, sharhlari bilan ko’rsatish kerak.

Oltinchidan, ozodlikdan maxrum etilgan korrupsionerlarga “Korrupsioner”, deb yozilgan maxsus kiyimlar tikib, ularni kiygizib har kuni shahar va tuman ko’chalarini supurtirib, suv inshootlarini tozalattirib, kamida 8soat ishlatish kerak. Korrupsionerlar oyog’i ostida yer yonishi kerak, ular nafaqat moddiy jazoga tortilishi eng avvalo, ma’naviy jazoga tortilishlari lozim.

Yettinchidan, bu guvohlarni muhofaaza qilish qonuniga asosan, barcha korrupsiya to’g’risida habar bergan fuqarolarga korrupsionerning musodara qilingan molk-mulkidan 25% ularning nomiga bankga o’tkazish. Bu eng samarali uslub, undan barcha rivojlangan Yevropa, Amerika va Osiyo davlatlar unumli foydalanib jinoyalarni minimumgacha kamaytirishgan.

Bugungi kunda “Korrupsiya” jahonning global muammolaridan biri bo’lib, deyarli barcha mamlakatlarda mavjuddir. U qonun ustuvorligi, inson huquqlari tamoyillariga, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga jiddiy xavf solayotgan tahdidlardan hisoblanadi.

Insoniyatni tashvishga solayotgan ushbu ijtimoiy illat jamiyatni turli yo’llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir.

Korrupsiya bugun kunda yurtimizni barcha sohalarini o’z ichiga kamrab olgan. Korrupsiya demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, ichki va tashqi bozorlar faoliyatiga to’sqinlik qiladi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, fuqarolar o’rtasida notenglikni yuzaga keltiradi, hayot sifatini yomonlashtiradi, ayrim mansabparast shaxslarning qo’lida mablag’ to’planib, shuning hisobiga jamiyat tanazzulga yuz tutishiga sabab bo’ladi hamda odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Eng achinarlisi “Korrupsiya” bor joyda rivojlanish, adolat bo’lmaydi, jamiyatning madaniy va

axlokiy sifatlari badnom etiladi. Insonlarning ongida yillar davomida shakillangan axlokiy sifatlarini va mukaddas insoniy omillarni vayron etiladi.

Korrupsiya deb nomlangan ofat balosi, bugungi kunda o'z doirasiga barcha sohalarni kamrab olgan, shuning uchun Mudofaa vaziri 2021yil 31may kuni "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" buyrug' qabul qildi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2016yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida "Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur", deb bejiz ta'kidlamadi.

Bir so'z bilan aytganda, korrupsiya – taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli va eng jirkanch jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish belgilangan tashkilotlarninggina emas, balki barcha vijdonli insonlarning ishi bo'lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo'lamiz.

Kelajakni korrupsiyasiz qurishimizda, avvalo, o'zimizni -o'zimiz tarbiya qilishimiz kerak. Korrupsiyani saxroda o'sayotgan ulkan darax bilan solishtirsak ham bo'ladi. Saxroda barcha o'simliklar suvsizlikdan qurib qolishadi, ammo korrupsiya daraxti aksincha, qurimay ulkanlashib bormoqda. Nega bunday desangiz, bu masalasiga shoshilmay, o'zimizga iqror bo'lib tan olsak albatta barchamiz shu daraxt ostiga suv quyganmiz. Kimdir piyola bilan, kimdir baklashka bilan, kimdir satil bilan, kimdir suv tashuvchi mashina bilan, kimdir sisterna bilan qo'ygan.

To'g'ri, kimdir majbur bo'lganligidan, ko'pchilik esa ongli ravishda shu korrupsiya daraxti ostiga suv quygan. Lekin qanday bo'lmasin biz bunday qilishimiz kerak emas edi.

Shahsiy manfaat, nafs balosi va ongli pastligimiz shunday jinoyat ishga qo'l urishni bizni undadi.

Xulosa: Biz xulasa qilib aytganda butun jahon ushbu qo'rinmas qotil illati bilan kurashayotgan bir vaqtda biz yoshlar bir tanu bir jon bo'lib kurashishimiz kerak. Hozirga zamon talabi kelib chiqqan holda yoshlarimiz ilimli, bilimli, zakovatli va qolaversa jijoatli bo'lish lozim. Shundagina muhtaram prizdentimiz SH. Mirziyoev aytib o'tganlaridek Yangi O'zbekistonni qurush yo'lida korrupsiyani oldini olishda juda ko'p xissamizni qo'shgan bo'lamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasining qonuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" 2017 yil 3 yanvar,O'RQ-419-son

2. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Birlashgan millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvyensiyasiga (nyu-york, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida 2008-yil 7-iyul, O'RQ-158-son

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 yil 27 may, PF-5729-son

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 2017 yil 2 fevral, PQ-2752-son

Pulatov Bunyod Uktamovich — ***O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxasislar tayyorlash markazi Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi QK xizmatchisi***

Ibragimov Qobil Soatovich — ***O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxasislar tayyorlashmarkazi Muxandislik tayyorgarligi sikli katta o'qituvchi o'qituvchisi QK xizmatchisi***

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA O'Z –O'ZINI TUSHINISH.

Annotasiya: *Maqolada o'tmishda bizning ota-bobolarimiz qanday insoniy fazilatlarga ega bo'lganligi misollar orqali ko'rsatilgan.*

Bugungi kun harbiy xizmatchilari jamiyatda mavjud bo'lgan salbiy illatlardan tarixdan ibrat olib forig' bo'lish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Jamiyat, davlat, rivojlanish, ma'naviyat, ahloq, urf-odat, burch, vijdon, sadoqat, tarbiya.*

Jamiyat hayotida jiddiy siyosiy o'zgarishlar yuz berganda inson o'ziga, o'zligiga yanada teranroq nazar tashlashga intilib qoladi

Murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelgan dolzarb muammolar xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya, mafquralardan saqlash, himoya qilishni talab etmoqda.

Har bir taraqqiyot etgan xalqning o'z tili, urf-odatlari, adabiyoti, moddiy va ma'naviy boyliklari bo'ladi. O'zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri sifatida ulkan xazinaga ega. Bu bilan biz o'zbeklar, haqli ravishda fahrlansak arziydi

Inson barcha mahluqlar ichida eng aziz va eng mukarram. Inson boshqa hayvonatdan aqllu-idroki, nutqi, shaklu shamoyili, taomu- liboslari, boshqa jonzotlarni o'ziga bo'ysundirishga kabi bir qator xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turad. Hayvonlarda nafsu shaxvat boru, ong yo'q. Odamdzodda esa ong ham, nafsu shaxvat ham bor. Aql uni to'g'ri yo'lga, savobli ishlarga boshlasa, nafsu shaxvat faqat nafsni qondirib, shaxvoniy hirsini qondirishga va bu yo'lda har qanday jinoiy ishlardan qaytmaslikka undaydi.

Qalbi pok odamlar hamisha hayot uchun, tiriklik uchun aql, matonat bilan kurashadilar, har qanday buzuqliqka va yovuzlikka mardona boqib, jonlarini fido qiladilar. Ota-bobolarimizdan qolgan yaxshi odatlarimiz, qiladigan amallarimiz borki. Har birimiz uni unutmasligimiz yoki tark etmasligimiz kerak. Xursandchilik va quvonch, mehr va shafqat, birodarlik va inoqlik bizning xalqimizning doimiy kundalik odati bo'lgan. Qishloq va mahallada, oilada xursandchilik qilish, ochiq chehrali bo'lish, ota-ona, qo'ni-qo'shni, qarindoshlarga xursandchilik, quvonch baxsh etish siz bilan bizning vazifamiz. Ammo ming afsus, nadomatlar bo'lsin,

jamiyatimizda insonga nomunosib odatlar va qiliqlar mavjuddirki, bu insonlik sha'niga dog'dir. Shulardan birlari korrupsiya, adolatsizlik, vijdonsizlik, baxillik, o'g'rilik, ichkilikbozlik, giyoxvandlik, zinokorlik va foxishabozlik. Misol uchun, korrupsionerlar o'z qilmishlari bilan yurtga nafaqat moddiy, eng achinarlisi, katta axloqiy zarar yetkazishadi. Qolgan xalol insonlarda bularning qilmishlarini ko'rib, onglarida adolatga ishonchisizlik paydo bo'ladi va ularning qilmishlarida befarqliq sifatlari ildiz otadi.

Ichkilikbozlikni olaylik, statistik ma'lumotlar xulosasiga qaraganda jinoyatlarning 90% kishining mastlik chog'ida sodir etilar ekan. Ko'pchilik insonlar, siqilsa ham ichadi, xursand bo'lsa ham ichadi. Bilimli aroq ichsa, madaniyatsiz va farosatsizga aylanadi. Bilimsiz aroq ichsachi? Buni tasavvur etish qiyin emas.

Ichimlik aql-idrokka ham, bilimga ham yotdir. U urush va janjallar asosi. Ne-ne dono va aql-idrokli kishilar ham aroq ichganidan so'ng tubanlik qilish, nojo'yalik sari yuz burishi mumkin. Aql idrokli, andishali, fe'li soz kishilar boshlarini aroqqa suqqanlaridan so'ng o'z ishlarini buzishgan. Mana shu yaramas ichkilik tufayli ko'plab yaxshi odamlar ham telba, tentak degan nom olishgan. Ichimlik kishini el aro sharmandai sharmisor qilishi mumkin.

Bugungi kunda ichkilikbozlik jamiyat tanasidagi tuzalmas o'simtadir. Uni vaqtida kesib olib tashlanmasa, butun jamiyatni shikastlashi mumkin. Aroq kasofati achinarli. U markaziy asab tizimiga, jigar, yurak faoliyatiga shikast yetkazadi. Aqliy faoliyati zaiflashadi. Naslga zarar yetkazadi, tafakkurga putur yetadi. Tafakkursiz inson hayvonga aylanib qolishi hyech gap emas. Ichkilik va giyoxvand moddalar odamlarni ancha shu tafakkurdan ayiruvchi vositadir.

Ichkilikbozlik jamiyatimizda keng tarqalib borayotganligi, bu hol ko'pchilikni tashvishga solayotganligi sir emas. Alkash deganda, ichuvchi tomonidan faqat aroq ichish yoki shunday nomlangan ichimlik ko'zda tutilmayotir, balki xar bir mast qiluvchi ichimlik ko'zda tutilayotir.

Narkoman (giyohvand) deganda afyun, qora dori, nasha, yana boshqa nomlar bilan ataladigan giyohlardan tayyorlanadigan mast qiluvchi moddalarni iste'mol qiladiganlar aytiladi.

Yurtimizni Chor Rossiyasi bosib olinguncha shahar va qishloqlarda ichkilikbozlik illatlari bo'lmagan ekan. Rus bosqinchilar o'lkaga dastlab juda katta miqdorda turli mast qiluvchi ichimliklar bilan alkashlarni, kissavurlarni, bezorilarni, ishyokmaslarni yuborgan ekan. Ular bilan birga sanqi fohishalar ham bizning diyorimizga kiritilgan ekan. "Surgun" qilinganlar o'zlariga yordam bergan maxalliy kishilarga ziyofatlarga taklif qilib, aroq ichirgan ekanlar. Barcha xoinlik, o'g'rilik, bezorilik, fohishabozlik, odam o'ldirish kabi jinoyatlar esa ko'proq mastlikda sodir etilishi hammaga ma'lum.

Insonlarning yaxshi xulqlarga chaqirib, yomon xulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini bildiradigan ilm-bu ilmi ahloqdir.

Dunyoda chin inson bo'laman degan kishilarga bu ilmni o'qitmoq, ahloq yo'llarni o'rgatmoq, yaxshi xulq qaysi, yomon xulq qaysi bilmoq, farqini bir-biridan ajratib olmoq lozim. Xazrati Alisher Navoiy ahloqning insonning qimmatbaho ma'naviy libosi deb hisoblagan. Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino hayo va iffatni insondagi husn va latofati, deb baholagan.

Ota-onaga itoat etmoq, qarindoshlarni izzat xurmat qilmoq, to'g'ri so'zlamoq, muhtojlarga yordam bermoq, sahovat, yumshoqlik, ochiq yuzlik, tavoze, shafqat, murruvat-bularning hammasi yaxshi xulklardandir.

Jaholat, vijdonsizlik, yalqovliq,bahillik, qo'rqoqlik, yolg'onchilik, hiylagarlik, hasad, isrofgarchilik, behuda so'zlamoq, g'iybatchili, sir aytmoq, chaqimchilik, zulm qilmoq, ichkilikbozlik, farosatsizlik, g'azablik bo'lmoq-bularning hammasi yomon xulqlardir.

Umuminsoniy qadriyatlardan biri o'tmishni xotirlashdir. Shu bois inson o'tmish ajdodlarini xotirlash bilan qanday xalq vakili ekanligini dildan his qiladi. Qalbi faxr, g'urur va iftihorga to'ladi. Har qaysi inson yaxshilik qo'lidan kelmasa-da yaxshi niyat bilan yashamog'i kerak.

Insonlar orasida eng yetugi-nomusli, uyat, andishalilaridir. Nomus, andishasi bo'lmagan odam har qanday pastkashlikdan qaytmaydi.

Dunyoda haqiqiy kishi deb ataladigan ikkita toifa bor: birinchisi o'rgatuvchi, ikkinchisi o'rganuvchi. Kishi bir narsani boshqalarga o'rgatmasa, yohud o'zi o'zgalardan o'rganmasa, uning hayvondan farqi qolmaydi.

Agar o'tmishdagi ajdodlar hayotiga nazar solguday bo'lsak, bir holatni kuzatamiz: oddiy odam ham, katta martabadagi kishilar ham bilimli va dono bo'lsa, ular el-yurt tadbirini o'ylashgan. Bugun ham komillikka intilgan har qanday odam ezgulikka intilib yashagan kishilarga bosh bo'ladi. Boshliq bilimli va dono bo'lsa atrofiga o'ziga o'xshagan yaxshi insonlarni yig'adi. Bu xil boshliq elini ma'naviyatga yetaklaydi va boyitadi. U sahiy deb nom oladi. Saxiy o'lsa ham nomi tirik qolaveradi. Agar boshliq bilimsiz va takabbur bo'lsa, odamlar taqdiri haqida o'ylamasa, shaxsiy boylik orttirish yo'lida har qanday ishdan toymasa, u atrofiga laganbardorlarni va o'ziga o'xshaganlarni yig'a boshlaydi. Bunaqalar jamiyatga emas, o'z boshliqlariga xizmat qiladilar holos.

Salbiy hodisalarning sabablari, bu bugungi ma'naviy tarbiyaning sustligidir. Tarbiya qonuniga ko'ra, inson jism va ruhdan iborat. Jism tarbiyaga qanchalik muhtoj bo'lsa, ruh ham tarbiyaga shunchalik tashnadir. Ruhiy tarbiya topmagan inson ma'naviy qashshoq bo'lib, rahmu-shafqat, adolat va ezgulik tuyg'ularidan mahrum bo'ladi. Bunday kishilar ertami kechmi, ahloqiy nopoklik va ma'naviy tubanlik chohiga duchor bo'ladilar. Balog'at ostonasida turgan yoshlar tarbiyasiga g'oyat zararli ta'sir ko'rsatadilar. Bu holatni to'g'ri izga solish uchun ahloqiy-ma'naviy tarbiyani umumxalq ishiga aylantirish zarur.

Soriyev Xolmurod Yaxshimurodovich — *O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxasislar tayyorlash markazi Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi QK xizmatchisi*

Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich — *O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxasislar tayyorlash markazi Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi QK xizmatchisi*

KORRUPSIYA VA UNGA QARSHI KURASHISHNING BA'ZI USLUBLARI

Annotasiya: Maqolada korrupsiyaning jamiyatda egallagan o'rni va uning inson ahloqiga salbiy ta'siri ko'rsatilgan. Bugungi kunda bu salbiy balo bilan barcha insonlar kurashish kerakligi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, mansab, amal, nafs, suiiste'mol, pora, laganbardorlik, ehtiyoj, manfaat, halol, harom, mulk, mablag'.

Har bir insonda yaxshi va yomon fazilatlar aralash bo'ladi. Inson xulq-atvorida ularning ba'zilari ustunlik qiladi. Komil inson bo'lish qiyin, har kim o'z ustida ishlashi, o'zining xulq-axloqini yaxshilashi mumkin, shu bilan birga atrofdagi dunyo ham o'zgaradi.

Korrupsionerda ko'pincha fe'l-atvorida eng yomon fazilatlar ustun bo'ladi, bunday insondan vijdonli, adolatli, oriyatli va halol insonlar uzoqlashib yurishadi, chunki bunday odam bilan muloqot qilishni o'zlariga ep ko'rishmaydilar.

Adolatli jamiyatda, insonlarning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishi, yaxshilik qilish eng oliy fazilatdir.

Demak har birimiz qayerda va qanday mavqedan bo'lishimizdan qat'iy nazar, yon atrofimizdagilarga doimo xushmuomala, rahm-shafqatli bo'lib, yaxshilik ulashishimiz zarur.

Mamlakat aholisini korrupsiyaga munosabati bo'yicha qo'yidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Korrupsiya bilan chambarchas bog'lanib ketgan amaldorlar.

Bu toifadagilar korrupsiya orqali qo'sha-qo'sha dang'illama uylarga, dala hovlilariga, nafaqat O'zbekistonda balki boshqa davlatlarda ham mol-mulkka ega.

Ularning ancha miqdordagi boyliklari chet davlat banklariga joylashtirilgan. Farzandlari va yaqinlari chet davlatda yashab, oliygohlarda o'qishadi. O'zlari yaqinlari bilan doim chet davlatlarning nufuzli kurortlarida dam olishadi, antiqa avtomobillarda yurishadi, hamda bir nechta katta daromad keltiradigan korxona, firma va boshqa xususiy mulklarga ega. Bunaqalar xalqning va yurtning kanasi.

2. Korrupsiya orqali shaxsiy ehtiyojlarini qondirib korrupsiya borligiga shukur qilib yurganlar.

Bu toifadagi insonlar ashaddiy laganbardor va madhiyaboz bo'lib, belgilangan qonunlarni chetlab o'tgan holda, korrupsiya orqali barcha

manfaatlarini hal qilib yurishadi. Ularning ongida “Har bir masalani faqat korrupsiya orqali bajarish mumkin” - degan tushuncha qattiq o’rnashib olgan. Bunday insonlar yurtga nafaqat moddiy, balki katta axloqiy zarar yetkazishadi.

3. Korrupsiyaga befarq bo’lib yurganlar.

Bular ko’pchilikni tashqil qiladilar. Ularning hayotiy shiori “Menga nima”. Bu toifadagilar o’zlari korrupsiyaga qarshi biron chora ko’rishga harakat qilishmaydi, bundan tashqari korrupsiyaga qarshi kurashganlarni yo’ldan ozdirib “Baribir hech narsani o’zgartirib bo’lmaydi”, - deb birovlarni ham yo’ldan qaytarishadi. Bunday insonlar o’z qilmishlari bilan boshqalar ongida o’zlarida mavjud bo’lgan befarqlik illatini tarqatishadi.

4. Korrupsiyani yo’q qilib bo’lmaydi deb yuradigan pessimistlar. Bunday toifadagilarni holatini sahroda bo’ri to’dasiga duch kelgan qo’y podasi bilan qiyoslash mumkin. Bu toifadagi odamlar korrupsiya bilan duch kelib qolishsa o’zlarini himoya qila olmaydilar.

5. Faqat so’zda “Korrupsiyani yo’q qilish kerak” deb yig’ilishlarda, tadbirlarda, ommaviy axborot vsitalarida balandparvoz gaplarni og’izlarini to’ldirib gapiradiganlar.

Bu toifadagilar onglarida ikkiyuzlamachilik mustahkam joylashib olgan. Bunday insonlar imkon paydo bo’lishi bilan korrupsiyaga qo’l urishadi, ammo qo’llaridan shu korrupsiyani yo’lini to’sish imkoniyati bo’lishiga qaramay unga qarshi kurashmaydilar. Bunaqalarni “kampaniyachilar” deb ham atash mumkin. Agarda eng katta rahbar birorta chiqishda korrupsiya to’g’risida gap ochsa, bu toifadagi odamlar korrupsiyaga qarshi kurashamiz deb, qog’ozbozlik va yig’ilish-tadbirbozlik amallarini boshlab yuborishadilar. Bu kabi tadbirlarga ular ommaviy axborot vositalari, radio, televideniya, korxona, tashkilot, mahalla va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarni jalb etib, korrupsiyaga qarshi ish olib borilayotganliklarini bo’rttirib ko’rsatishadilar. Bu kabi amaldorlarning bunday choralaridan xalqqa va jamiyatga birorta amaliy foyda bo’lmaydi. Buni oddiy qilib “navbatdagi samarasiz kampaniya” deyishadi. Ularning ishlarini kichkina bolani xo’rozqand bilan aldashga qiyoslasak to’g’ri bo’ladi.

Ko’pchilik halol insonlar yuqorida ko’rsatilgan guruhlarning qilmishlarini ko’rib, qalblarida adolatga ishonchisizlik paydo bo’ladi va onglarida befarqlik illati tomir otadi.

6. Korrupsiyani bartaraf etilishiga ishonadigan va unga qarshi kurashadigan toifadagi insonlar.

Bunday insonlarning qalbida iymon, vijdon, adolat va oriyat hukumronlik qiladi. Bu toifadagi insonlar o’zlari halol rizq topib kun kechirishadilar. Korrupsiyadan katta aziyat chekkan yoki chekayotganlar ham shu insonlar bo’ladi.

Ular korrupsiyaga qarshi mavjud bo’lgan qonunlar va yuksak ma’naviyat orqali kurashadilar. O’zlari korrupsiyaga qo’l urmaydilar va boshqalarni shu yo’lga kirib ketishidan tiyadilar.

Bunday insonlarni korrupsiya botqog'iga botganlar yomon ko'rishadi. Ular to'g'risida "O'zi ham yemaydi, birov yesa ko'rolmaydi" deyishadi. Shuning uchun ularni yuqori lavozimlarga yaqinlashtirmaslikka harakat qiladilar.

Bugungi kunda yurtimizda mavjud bo'lgan qonunlar bilan korrupsiyani kamaytirib bo'ladimi?

To'g'ri, ayrim amaldorlar korrupsiyani mutloq yo'q qilamiz deb jar solishyapti, lekin samarasi etarli darajada emas, afsuski.

Bugungi kunda mansabidan foydalanib, xalqning boyliklarini o'zlashtirib olgan korrupsionerni mulkini qanday qilib musodara qilish mumkin?

Amaldagi jinoyat kodeksida korrupsiya jinoyati bilan jazoga tortilgan shaxsni jazolash bo'yicha moddalar mavjud, ammo jinoyat kodeksdagi 53-modda: "Mulkni musodira qilish" moddasi olib tashlangan.

Sud hukmi bilan korrupsiya uchun bir necha yilga ozodlikdan mahrum etilgan korrupsioner-amaldor vaqti kelib bizning insonparvar (gumanitar) qonunlarimizga asosan ozodlikka chiqadi va korrupsiya orqali to'plagan, xalqga tegishli bo'lgan boyliklari o'zi va yaqinlari bilan bemalol sovurib yuradi.

Bu borada dunyoning korrupsiyani yo'qotish borasida rivojlangan davlatlardan, Finlyandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Singapur, Janubiy Koreya va boshqa davlatlardan ularning korrupsiyaga qarshi kurashish uslublarini va chora tadbirlarni o'z qonunimizga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyani bir qator samarali choralar va qonunlar qabul qilish bilan kamaytirish mumkin. Masalan:

birinchidan, zudlik bilan jinoyat kodeksimizda 53-moddani "Mulkni musodira qilish"ni tiklash va bu moddani korrupsiya jinoyatini sodir etganlarga nisbatan qo'llash;

ikkinchidan, "Korrupsiya" so'zi nimani anglatishini aholiga batafsil yetkazish bo'yicha doimiy ish olib boorish. Chunki ko'pchilik insonlar korrupsiyani faqatgina poraxo'rlik deb tushunishadi, aslida bu ancha kengroq ma'noga ega;

uchinchidan, korrupsiya jinoyati bilan ayblangan shaxslarni keng jamoatcholik uchun ochiq bo'lgan sud qilib, sud jarayonini radio, televideniya va ommaviy axborot vositalari orqali aholiga yetkazish;

to'rtinchidan, shahar, tumanlarda aholi gavjum bo'ladigan joylarda "Bizning shahar, tuman korrupsioneri"- degan FOTO KO'RGAZMANI (GALLEREYANI) tashkil qilib unda barcha korrupsiya jinoyati bilan sudlanganlarni rasmini, to'liq tarjimai holini va davlatga yetkazilgan zararni ko'rsatish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.

2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvar kunidagi qonuni, O'RQ-419-son

3. "Birlashgan millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvyensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida" (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyul kunidagi qonuni, O'RQ 158-son

4. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may kunidagi Farmoni, PF 5729-son

5. [Mamatov T., "Korrupsiya va jamiyat"]. Darslik .KMTM 2021 y.

Azamatova Gulmira Bayirbekovna — *Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi.*
@gulmiraazamatova2023

JAMIYAT HAYOTIDA KORRUPSIYA HOLATINI YUZAGA KELTIRUVCHI SALBIY OMILLAR VA UNI BARTARAF QILISH YO'LLARI

Jahonda yuz berayotgan iqtisodiy globallashuv jarayoni va moliyaviy inqirozlar, iqtisodiy xavfsizlikka qaratilgan tahdidlar sharoitida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va rivojlantirish har bir davlatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti asosida turli tarmoq va sohalarning rivojlanishi yotadi. Taraqqiyot davomida ham bir qancha muammolar o'zining salbiy xususiyatlari bilan ham davlat faoliyatiga, ham jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. SHuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma'muriy qonunchilikdagi "vilka" sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya'ni, sanksiyaning aniq miqdori yo'qligi sudyada uni o'z xohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi — mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi — aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo'lgan daromadlardan kamligi;

iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

inflyasiyaning yuqori darajasi;

mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;

mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat —bu usul boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqozo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning

ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat — bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya'ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko'proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish —demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Aytishlaricha, qadimgi dunyoda ba'zi qabilalarda muayyan mavqega ega bo'lish uchun uning sardoriga turli sovg'a-salomlar berish odatidan korrupsiyaning ildizlari boshlangan ekan. U vaqtlarda bu amal odatiy hol deb qabul qilingani tabiiy. Biroq oradan o'tgan vaqt davlatlar tashkil topishi, uning ishi murakkablashuvi va markazlashuvi korrupsiyaning yurt rivojiga katta to'siq ekanini ko'rsatdi.

Bu fikrni XVII asrda yashagan Tomas Gobbsning "Korrupsiya – davrlar osha o'sib kelayotgan ildiz bo'lib, u har xil orzu-havaslar ortidan birortayam qonunni mensimaslikdir" - degan gapi yanada mustahkamlaydi.

Korrupsiyani tadqiq qilish bo'yicha taniqli fin mutaxassisi, professor Seppo Tixonen fikriga ko'ra, bugungi kunda xalqning xavfsizligi va osoyishtaligi yaxshi boshqaruv bilan bog'liq, ya'ni, siyosiy hokimiyatning xalqning ishlarini boshqaraolishi. Korrupsiya qonun ustuvorligi prinsipini buzadi, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy birlikning institutsional asoslarini bo'shashtiradi, iqtisodiy rivojlanishni murakkablashtiradi [1.].

Korrupsiyaga qarshi kurashish asosiy sabablari quyidagilarning vujudga kelishini oldini olish maqsadida amalga oshiriladi:

- korrupsiya kompaniyani ham, jamiyatni ham samarali faoliyatini pasaytiradi, chunki pul mablag'lari va boshqa resurslarni samarasiz ishlatishga majburlaydi;
- korrupsiya – kriminal strukturalarning asosi;
- korrupsiya barcha bo'g'inlarda boshqaruvni samarasiz qiladi, hokimiyat munosabatlarini buzadi, chunki kadrlarni tanlash ularning ish qobiliyatlariga qarab emas balki korrupsion aloqalariga qarab amalga oshiriladi;
- korrupsiya hokimiyat nufuzini pasayishiga olib keladi, fuqarolarning hukumatga ishonchsizligi oshadi;
- jamiyatning turli sohalarida korrupsiyalashgan holatlarning yuqori darajadaligi natijasida davlatning xalqaro maydondagi nufuzi pasayadi;
- alohida shaxslarning manfaatlari uchun jamiyatning va kelajak avlodning umumiy qadriyatlari nobud bo'lib boradi;
- korrupsiyaning asosiy jabrlanuvchilari doim xalq bo'ladi;

- korrupsiya aholining eng zaif qatlamlari hisobidan tor guruhlar foydasiga mablag‘larni qayta taqsimlashga yordam beradi;

- mulkdorlar sinfining tengsizligi keskin oshiradi.

Bugungi kunda korrupsiyaning tarqalishi sababli quyidagilardan iborat:

- antikorrupsion qonunlar va qonunosti hujjatlarning optimal ishlash tizimining mavjud emasligi;

- iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdagi jiddiy xatolar va kamchiliklar;

- sezilarli qismi korrupsionerlarni moliyalashtirishga ketadigan yashirin iqtisodiyot va noqonuniy daromad ko‘rish shakllanishi hamda keng tarqalishi;

- davlat hokimiyatining siyosiy irodasizligi va zaifligi, davlatning kadrlar siyosatining zaifligi;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha bo‘g‘inlarida uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashishda tayyor emasligi;

- siyosat arboblarining aksari jinoyat olamiga jalb qilingani;

- jamiyatning ma’naviy tanazzulga uchrashi, aholini korrupsiyaga nisbatan sabr-bardoshligi (bag‘rikengligi, ayniqsa quyi tizimlarda);

- korrupsiyaning asosi sifatida mansabga qarab intilishi tezkor sur’atlarda o‘sishi;

- davlatning jamiyat hayotiga haddan ziyod aralashuvi, shuning uchun byurokratiyaning monopoliyasi juda ko‘p funksiyalarga ega, chunki mulk va xizmatlar byurokratlarning qo‘lida;

- davlat organlarning faoliyati yopiqligi yuqori darajadaligi;

- aholini korrupsiya holatini jamiyatga ta’siri haqidagi ma’lumotlarga etarli ega emasligi, fuqarolarni huquqiy tayyorlash past darajada;

- fuqarolik jamiyati institutlarning sustligi va mustahkam demokratik an’analarining mavjud emasligi;

- OAVlarning haqiqiy mustaqilligi yo‘qligi;

- fuqarolar ongida korrupsiyaning ildizlagan va juda barqaror tarixiy an’analarga egaligi.

Korrupsion qilmishlar sodir etadigan mansabador shaxslarga ta’sir etadigan ko‘plab metodlar ishlab chiqilgan. Unga qarshi kurashish metodlar dunyoda taniqli va turli davlatlarda amaliyotgan joriy qilingan. Korrupsiyaga qarshi kurashishning keng qamrovli va asosiy metodlaridan biri quyidagilar[2.]:

1. Davlatning iqtisodiyotga minimal aralashuvi. Davlat ishtirokida barcha korxonalar korrupsion harakatlarning o‘chog‘i hisoblanadi. Korrupsiya ko‘p hollarda byudjetning pullari talon-toroj qilishda vujudga keladi.

2. Siyosiy raqobatning mavjudligi. Agar parlamentda bir siyosiy partiya vakillar boshqa partiyaning vakillarini almashtirsa, unda vujudga kelgan qonunsizlik uchun javob berishga majbur bo‘lishada va ushbu holatni normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berish orqali bartaraf etishadi.

3. OAVning ochiqligi. Agar korrupsion faktlar jamoatchilik nazoratiga etkazilib turilsa, unga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarning qilmishi uchun tahdid bo‘lib turadi. Bundan tashqari, OAV korrupsion qilmishlarni sodir etishga moyilligi bo‘lgan mansabdor shaxslarni ushlab turish vositalaridan biri hisoblanadi.

4. Davlat hokimiyati organlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochiqligi. Jamoat nazorati va jamiyat oldida hisobdorlikning mavjud bo‘lmasligi, mansabdor shaxsni hech qanday vositalar ushlab turmayotganligini anglatadi.

5. Jamiyat ishtiroki – fuqarolik jamiyati institutlarining ijro hokimiyatini nazorat qilish va normativ-huquqiy hujjatlarini qabul qilishida ishtirok etib borishi. SHuningdek, ayrim manbalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shunga o‘xshash usullar ko‘rsatiladi:

1. Markaziy apparat shtatlarini optimallashtirish. Davlat xizmatchilari davlat boshqaruv organiga yuklatilgan vakolatlarga mutanosib bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, davlat xizmatchilarining xizmat yo‘riqnomalarida ularning kasbiy o‘sishining umumiy tamoyillari ko‘rsatilgan bo‘lishi, shu kabi, davlat xizmatining yagona tizimida kadrlarni rotatsiya qilish va kadrlar zaxirasidan foydalanishning ma’muriy-huquqiy mexanizmi o‘rnatilishi lozim.

2. Korrupsiya to‘g‘risida qonun hujjatlarini ishlab chiqish. Korrupsiyani ta’qib qilish rejimini shakllantirish va intizom amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish.

3. Davlat xizmatchisining tanlashga imkonini cheklash. Davlat xizmatchisi tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik aniqlanganda ma’muriy ta’sir qilishning huquqiy mexanizmini yaratish orqali huquqbuzarga nisbatan oldini olish yoki jazo choralaridan birini tanlash imkonini cheklash.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning xorijiy tajribasi. Boshqa davlatlarning bu boradagi tajribasini o‘rganish va qo‘llash lozim.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha institutlarni tashkil etish, bu holatda ushbu institutlar tergov qilish, taqib qilish hamda oldini olish vakolatlariga ega bo‘lishi lozim.

6. Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish.

7. Davlat apparati hajmini kichrayishiga va uning samarasini oshirishga qaratilgan Davlat boshqaruvini keng isloh qilish[3.].

Korrupsiyaga qarshi kurash O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari ochiqlik, shaffoflik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligidir.

REFERENCES:

1. Khidirov, K. I., & Gofurova, S. S. (2021). The United Kingdom has a special textbook for detecting facts of corruption. *Scientific progress*, *2*(1), 121-124.

2. Ibodullaevich, K. K., & Bakhromovna, T. D. THE UNITED KINGDOM HAS A SPECIAL TEXTBOOK FOR DETECTING FACTS OF CORRUPTION.

3. Ismatovich, M. S., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Preventing Corruption Methods and Means. *Eurasian Scientific Herald*, *8*, 66-68.

4. Ibodullaevich, K. K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, *1*(1), 1-4.

5. Botir, U., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *8*, 37-40.

6. Ibodullaevich, K. K. (2022, April). IN THE FIGHT AGAINST JUSTICE AND CORRUPTION AS AN EFFECTIVE ROAD. In *E Conference Zone* (pp. 370-372).

7. Melikuzievich, K. P., & Ibodullaevich, K. K. (2022, March). MORAL PERFECTION-ANTI CORRUPTION THE SPIRITUAL BASIS OF STRUGGLE. In *E Conference Zone* (pp. 86-88).

8. Ibodullaevich, K. K., & Mahmatkobil, O. (2022, March). A JUST LEADER IS THE BASIS OF SOCIETY. In *E Conference Zone* (pp. 59-61).

9. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2022). "Philosophical Paradigms in The Fight Against Corruption Today: Problems and Solutions. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *5*, 160-164.

10. Ibodullaevich, K. K., & Mahmatkobil, O. (2022). "Electronic System"-Estonia Is Among the Leaders in The Fight Against Corruption. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, *5*, 152-155.

11. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2020). Corruption: Concept, Genesis, Evolution And Survival Trends. *International Journal Of Discourse On Innovation, Integration And Education*, *1*(5), 409-413.

12. Xidirov, X., & Obilkoshimov, M. (2021). Kambag 'allik va qashshoqlikka qarshi kurashish: oldini olish yo 'llari, usullari va mazmun-mohiyati. *Obuęstvo i innovatsii*, *2*(11/S), 97-104.

13. Raximova, D., & Ibodullaevich, K. K. Obedience to the Law is High Culture, Spirituality, IT is a Sign of Enlightenment. *JournalNX*, 234-236.

Abdurasulov Abdullo Rustam o‘g‘li. — *O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxasislar tayyorlash markazi Aloqa va axborotlashtirish sikli o‘qituvchisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA SUD-HUQUQ TIZIMIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH

Anatatsiya: Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma’lum bir sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘ladi. Davlatni ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat – korrupsiya va poraxo‘rlikdir. Aynan shu illat sababli ko‘plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma’lum.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda korrupsiya muammosi eng dolzarb muammolardan biri ekani, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish davlat va jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi muhim qadamlardan biri ekanligi ma’lum qilindi.

Kalit so'zlar: korruptsiya, huquqbuzarliklar, rivojlanish, ijtimoiy hodisa, tendentsiya.



Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz.

Korrupsiya (lot. Corrumpere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko‘p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko‘plab davlatlarning jinoyat va ma’muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta’qib qilinadi.

Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda “Sovg‘alarni qabul qilma, chunki sovg‘a ko‘rni ko‘radigan qiladi va haqiqatni o‘zgartiradi” deyilgan bo‘lsa, Qu’roni Karimda “Boshqalarning mulkini nohaq yo‘l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo‘lgan narsalarni olish uchun o‘z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko‘proq ta’sir ko‘rsata boshladi. Bu o‘sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impechmentga tortish mumkin bo‘lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o‘rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi[1].

Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan O‘zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko‘rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavfli.

Shu boisdan ham davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan eng birinchi hujjat “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bo‘ldi. Ushbu qonun me’yorlarining samarali ijrosini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2017 yil 2 fevraldagi qarori bilan “2017-2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat

dasturi” qabul qilindi. Dastur doirasida bir qator qonun loyihalari ishlab chiqildi, mavjudlari inventarizasiyadan o‘tkazildi. Umuman olganda, so‘nggi yillarda qilingan ishlar tahlili aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli choralar ko‘rilganini ko‘rsatib turibdi.

Islohotlarni amalga oshirish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini, jamoat va parlament nazoratini ta’minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi. Albatta, bajarilgan ishlar salmoqli. Ammo biz kechagi qilgan ishimizning natijasiga mahliyo bo‘lib qolsak, ertangi ishimizning yakuni biz kutganchalik bo‘lmasligi tabiiy. Shundan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni yanada o‘stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha yangi tizimli choralar ko‘rilishini taqozo qilmoqda. Prezidentimiz tomonidan kuni kecha imzolangan “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon ham ayni shu maqsadni ko‘zlagani bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Korrupsiya shunday illatki, uni bir yoki ikki idoraning sa’y-harakati bilan yo‘q qilib bo‘lmaydi. Qachonki, barcha fuqarolarimiz, jamiyat unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo‘q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkin.

Farmonning tub mohiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, korrupsiyaga qarshi nafaqat huquqni muhoza qiluvchi idoralar va davlat tashkilotlari, balki jamoatchilik nazorati instituti imkoniyatidan ham keng foydalanish belgilab qo‘yilganini ko‘rishimiz mumkin.

Birinchidan, farmonda jamoatchilik nazoratini olib borishda muhim o‘rin tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish alohida belgilangan.

Ikkinchidan, joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o‘rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlab borish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalarini tashkil etish tavsiya qilinmoqda. Uchinchidan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish, ushbu sohadagi qonunbuzilish holatlari yuzasidan xabar bergan shaxslarni himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish ta’kidlangan. To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari

faoliyatining chinakam erkinligini ta’minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o‘tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, farmonda davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish vazifasi belgilab berildi. Bu norma, albatta, har bir mansabdor shaxsdan xulosa chiqarishni talab etadi. Vaholanki, bugun har bir davlat xizmatchisi va huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari xodimlarining fe’l-atvoriga O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga bo‘ysunish va ularni hurmat qilish odobini singdirib borish o‘ta muhim vazifadir. Farmonda nazarda tutilganidek, jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotgan hozirgi davrda mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish, qonunlarga hurmatsizlik qilgan mansabdor shaxslar to‘g‘risida asoslantirilgan ko‘rsatuvlar, eshittirishlar tashkil qilish, maqolalar chop etib borish, ularning qilmishi noto‘g‘ri ekanligini ta’sirchan vositalar orqali ko‘rsatib berish, albatta, o‘z samarasini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi “Qurolli Kuchlari Kichik Mutaxassislar Tayyorlash Markazi” jamiyatda adolatni ta’minlashda korrupsiyaga qarshi kurashni o‘zining ustuvor maqsadlaridan deb biladi. Shu bois Kichik Mutaxassislar Tayyorlash Markazida korrupsiyaga qarshi kurash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashning ustuvor vositasi sifatida davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi hamda faoliyatining shaffofligini oshirish ko‘zda tutilgan. Prezidentimiz tomonidan imzolangan mazkur farmon bilan Kichik Mutaxassislar Tayyorlash Markazining yuqoridagi g’oyalari hamohangligi biz uchun ahamiyatli bo‘lib, ayni vaqtda farmonda belgilangan vazifalarni hayotga samarali tatbiq etish bo‘yicha mas’uliyat ham yuklaydi[2].

Sud-huquq tizimida korrupsiyaning oldini olish

Dunyoda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Transparency International ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yil ichida korrupsiya bilan bog'liq vaziyat umuman o'zgarmagan, shuning uchun 180 mamlakatning 2/3 qismi 100 balllik tizimda 50 balldan kam ball to'plagan, 131 davlat korruptsiyaga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishmagan. , 27 ta davlat o‘z tarixida bu sohada eng past ballga erishdi va 154 ta davlat salbiy dinamikani ko‘rsatdi yoki ijobiy siljish kuzatilmadi.[3]

Shu bilan birga, jahonda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish, ularning yuzaga kelishiga imkon beruvchi oqibatlari, sabab va sharoitlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengaymoqda. Ulardan kelib chiqib, korrupsiyaga, ayniqsa, poraxo‘rlik bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida amaliyotga maxsus texnik

qurilmalar va qurilmalar, jumladan, poraxo‘rlik uchun elektron mayoqlar o‘rnatish, foto, video va audio mayoqlarni o‘rnatish zarur. dronlardan foydalanish orqali turli burchaklardan fiksatsiya, mobil telefonlarni sud-tibbiy ekspertizasi uchun mo'ljallangan UFED qurilmasi, shuningdek, chiziqli bo'lmagan lokator yordamida elektron qurilmalarni aniqlashning yangi taktik usullari.

Respublikamizda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasining 84-maqsadiga erishish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashishda qonun hujjatlarining korrupsiyaga ta’sirini baholashga alohida e’tibor qaratilib, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qilmoqda. Normativ-huquqiy hujjatlarda inson omilini cheklashga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashda, shu jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalari, normativ-huquqiy hujjatlarni “korrupsiyasiz qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqishni ta’minlash, bu esa normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. korrupsiyaga qarshi ekspertiza samaradorligi nuqtai nazaridan. Xususan, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida “Korrupsiyaga moyil bo‘lgan soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaning oldini olish tizimi samaradorligini oshirish [4] omil, jamiyatda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish”[5] ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Sud-huquq tizimidagi korruptsiya odil sudlovning xolisligiga putur etkazuvchi va adliya tizimining har qanday sub'ektiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan nomaqbul ta'sir ko'rsatish shakli bo'lib, uning natijasi noto'g'ri sud hujjatlarini chiqarish, tinglash va qarorlar qabul qilishda noxolislikka olib keladi. . Sud-huquq tizimida korrupsiyaning oldini olish sud-huquq tizimining tegishli subyektlarining sudyalar va sud apparati xodimlari o‘rtasida korrupsiyaning sodir etilishiga sabab bo‘layotgan sabablar va shart-sharoitlarni o‘rganish, aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha protsessdan tashqari faoliyatidir.

xalqaro darajadagi korruptsiya - xorijiy amaldorlarga pora berish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, yashirish va xalqaro uyushgan jinoyatchilik. milliy darajadagi korruptsiya - hokimiyat va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlari, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolarning tadbirkorlik sohasidagi o'zaro munosabatlari natijasida yuzaga keladi.

O‘zbekistonda 2021-yilda jami 5483 nafar shaxsga nisbatan korrupsiyaga oid 3769 ta ish sudlarga yuborilgan. 2020 yilga nisbatan sudga yuborilgan jinoyat ishlari soni 2621 taga, jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar soni esa 3760 taga yoki 218 foizga oshgan. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etish natijasida 2020-yilda davlat va jamiyat manfaatlariga 500 milliard 102 million so‘m zarar yetkazilgan, 355 milliard so‘mi yoki 71,0 foizi undirilgan, 2021-yilda yetkazilgan moddiy zarar miqdori 1 trillion 282 milliard so‘m, shundan 887 milliard so‘mi yoki 69,1 foizi undirildi2.[6]

Bundan tashqari, so‘roq qilish taktikasini o‘tkazish jarayoni va bu borada hal etilgan masalalar tizimli yoritildi. Korrupsiya jinoyati sodir etilgan joyni tekshirishda tergovchi quyidagi harakatlarni amalga oshirishi shart:

1) voqea joyida va unga tutash hududlarda jinoyat ishtirokchilari qoldirgan turli xil izlarni (barmoq izlari, poyabzal, transport vositalari izlari) qidirish;

2) jinoyat ishtirokchilari tomonidan tashlab ketilgan yoki tashlab ketilgan narsalarni (sigaret qoldiqlari, ruchkalar, telefonlar, bosh kiyimlar va boshqalar) qidirish, olingan DNK namunalarini aniqlash;

3) buyumlar, kiyim-kechak, transport vositalarida qolishi mumkin bo'lgan mikrofiberlar, mikrozarralar va jinoyatchilar qo'llarining izlarini aniqlash.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistika jihatlarini har tomonlama o‘rganish va huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish asosida qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagi konseptual xulosalar, ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

-Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy asoslarini, aholining davlatga bo‘lgan ishonchini va davlatning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiboriga putur yetkazuvchi murakkab salbiy ijtimoiy-huquqiy hodisadir.

- qonun hujjatlarining korrupsiyaga ta'siri to'g'risida - davlat organlari, ilmiy tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarida, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaning omillari va xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash yo'li bilan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyat. va ularning qoralamalari har bir davlatning milliy qonunchilik tizimi o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi va qonun hujjatlarining korrupsiyaga ta’sirini bir ma’noda baholash mumkin emas;

- ayrim rivojlangan mamlakatlarda ochiqlik va jamoatchilik nazoratining ta’siri kuchli, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati, aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksakligi tufayli alohida baho berishga hojat yo‘q;

- baholash jarayonida ishtirok etuvchi mutaxassislar sifatida ham nazariy bilimlarga, ham amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan professional kadrlarning etishmasligi;

- aholining huquqni qo‘llash amaliyotida korrupsiya omillari va xavf-xatarlari to‘g‘risida bexabarligi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur farmon jamiyatda adolatlilik g‘oyasi, barchaning qonun oldida tengligi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim hujjat hisoblanadi. Adolat ustuvor bo‘lgan mamlakatda esa taraqqiyot, xalq farovonligi, islohotlar samarasi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.https://anticorruption.uz/uz/item/what-is-corruption.

2. http://www.adolatgzt.uz/society/huquq/5522.

3. https://www.transparency.org/ru/press/2021-corruption-perceptions-index-press-release

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5263-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2021 y. , No 07/21/5263/0990.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori NoUP-60 // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz.

6. Zhalolov Sherzod Rustamovich. Korruptsiya bilan boglik zhinoyatlarni tergov qilish kriminologiya zhigatlari. Yuridik fanlar bijicha falsaf Doktor (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat. 2022.

Shrazov Adilbay Shamshetdinovish — *Qaraqalpaqstan Respublikası Pedagoglardı jańa metodikalarǵa úyretiw milliy orayı oqıtıwshısı*

Saparov Orınbasar Baxievish — *Qaraqalpaqstan Respublikası Pedagoglardı jańa metodikalarǵa úyretiw milliy orayı oqıtıwshısı*

ELEKTRON HÚKIMET SISTEMASIN RAWAJLANDIRIW - KORRUPCIYAǴA QARSI GÚRESTIŃ AHMIYETLI BO'LEGI

Búgingi kúnde korrupciyaǵa qarsı gúresiw tarawında mámleket organları menen puxaralıq jámiyeti institutları ortasında «ko'pir» wazıypasın orınlawshı jámiyetshilik qadaǵalawınıń rawajlanıw tendenciyası baqlanbaqta. Ózbekstan Respublikası Perzidenti Shavkat Mirziyoev Konctitutsiya qabıl etilgeniniń 27-jıllıǵına arnalǵan saltanatli merekedegi shıǵıp sóylegen sózinde tómendegilerdi aytıp ótti: «Konstitutsiya hám nızam ústinligine erisiwde jámiyetshilik qadaǵalawınan artıq nátiyjeli qural joq. Haqıyqatında da, xalıqımız nızam buzılıwına qarsı qattı gúrespese, mámleket hákimyatı organları, lawazımlı shaxslar qanshelli urınbasın, nızam ústinligin támiyinlew qıyın boladı».

Mámleketimizde mámleket hákimiyatı shólkemleri iskerliginiń ashıqlıǵı hám esaplasıwın támiyinlewge qaratılǵan bir qatar zárúrli nızamlar qabıl qılındı. Atap aytqanda, «Jámiyetshilik qadaǵalawı haqqında»ǵı, «Parlament qadaǵalawı haqqında»ǵı qabıl etilgen Nızamlar korrupciyaǵa qarsı siyasattıń ámelge asırılıwın baqlaw processinde bul institutlardıń rolin kúsheytti. Mámleketlik satıp alıwlar tarawı, sonıń menen birge, mámleketlik xızmetlerin kórsetiw menen baylanıslı licenziyalaw, ruxsat beriw, dizimge alıw hám basqa mámleket xızmetin ámelge asırıw menen baylanıslı tarawlar jańalana baslandı. Mámleket xızmetlerin elektron formada alıw múmkinshiligi gúmansız korrupciyaǵa qarsı gúres sharayatında aldınǵa taslanǵan zárúrli qádem esaplanadı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń baslaması menen 2016 jıl aqırınan berli elektron qabıllawxanalar tarmaǵı aktiv rawajlanıp kelmekte. Prezident Xalıq qabıllawxanası, Prezident virtual qabıllawxanası, sonıń menen birge, aymaqlarda Prezident Xalıq qabıllawxanaları dúzildi. Xalıqtıń mámleket shólkemleri iskerligi hám olardıń qararları haqqında keń maǵlıwmatqa ıye bolıwı maqsetinde «Elektron húkimet» sisteması keń kólemde engizilip atır. Sonıń menen birge, Ózbekstan Respublikasınıń húkimet portalı jaratıldı.

Elektron húkimet mámleket shólkemleriniń fizikalıq hám de yuridikalıq shaxslarǵa informaciyalıq-kommunikaciya texnologiyaları jardeminde mámleket xızmetlerin kórsetiwge tiyisli iskerligin, sonıń menen birge keńseler ortasında elektron sheriklik qılıwdı támiyinlewge baǵdarlanǵan shólkemlestirilgen-huqıqıy ilajlar hám texnikalıq qurallar sisteması esaplanadı.

Elektron húkimetti hár qıylı tariyplew múmkin. Keń mániste, elektron húkimettiń wazıypaları hám xızmetler kórsetiwi hám de iskerligin rawajlandırıw ushın Informaciya kommunikaciya texnologiyaları (IKT) nı qóllaw kórinisinde belgileniwi múmkin.

Atap aytqanda búgingi globallasıw mákanı hám zamanında barlıq tarawlardıń elektronlasıwı óz-ózinen mámleket hám jámiyet basqarıwdıń hám elektronlasıwın talap etpekte. Bul bolsa húkimet shólkemleriniń xalıq aldında ashıq hám ádalatlı xizmet kórsetiwi, sonday-aq ashıqlıq hám nızamlılıq principiniń bas kriteryası bolıp tabıladı.

Búgingi kúnde elektron húkimet sisteması Qubla Koreya, Ullı Britaniya, AQSh, Avstraliya, Jańa Zelandiya, Singapur, Norvegiya, Kanada, Niderlandiya, Daniya hám de Germaniya sıyaqlı mámleketlerde natiyjeliligin kórsetip atır. Bul mámleketlerde júdá kóplep mámleket xızmetlerinen úyden shıqpaǵan halda, onlayn rejiminde paydalanıw múmkin. Mámleket shólkemlerine sorawlarǵa juwaplar, hár túrli tólewler, rásmiy hújjetlerdiń úlgisin alıw, olardı toltırıw, elektron qol menen jiberiw, joqarı oqıw orınlarında aralıqtan oqıw, ishki isler keńselerine arza menen múrájat etiw hám basqalar usılar túrkiminen bolıp tabıladı. Mısalı, Qubla Koreyada elektron húkimet infrostruktura dúziliwi 1987-jılda qabıl etilgen. Bul sistema sebepli mámleket xalıqı derlik barlıq operaciyalardı óz úylerinen shıqpastan ámelge asırıwları múmkin: dúkanlarda satıp alıwdan tartıp, sheklerdi tólew hám hújjetlerdi qayta islewge shekem. Jámiyetlik orınlarda siz kerekli maǵlıwmattı ańsatǵana tabıwıńız yamasa hár qanday elektron hújjetti baspadan shıǵarıwıńız múmkin bolǵan arnawlı terminallardı kóriwińiz múmkin. Qubla Kareya hár jılı ortasha internet tezligi boyınsha da, xalıqtıń keń polosalı tarmaq penen qamtıp alıw dárejesi boyınsha da dúnyada birinshi yamasa ekinshi orında turadı. Bunnan bir neshe jıl burın mámleket sektorında 100% elektron hújjet aylanıw sisteması engizilgen edi.

Elektron húkimettiń korrupciyanı kemeytiw ushın áhmiyeti ilimiy izertlewlerde de, siyasiy kóz-qaraslarda da keń tán alınǵan. Usınıń menen birge elektron húkimet hám korrupciya ortasındaǵı baylanıslılıqtı intuitiv yaǵnıy ayrıqsha dárejede biliw múmkin.

Zamanagóy jámiyette korrupciya derlik mámleket nátiyjesizliginiń tiykarǵı dáregi bolıp esaplanadı. Onıń tásirinen social hám ekonomikalıq taraw aqsaydı hám mortlasadı.

Búgingi kúnde rawajlanǵan institutlar hám elektron húkimettiń engiziliwi korrupciya múmkinshiliklerin paseytiredi degen pikir barǵan sayın kúsheyip barmaqta. Atap aytqanda, insan faktorınıń azayıwı jáne onıń wazıypaları texnologiyalar tiykarında ámelge asırılıwı onı basqa bir personal aldında haq ekenligine urınıwına bolǵan umtılıwdı azaytadı.

Informaciya tenologiyaları hám kommunikaciyaların engiziw birinshiden, mámleket basqarıwında kóbinese mámleket hákimiyatınıń islewi hám natiyjeliligin asırıw, bahalaw salasındaǵı basqarıw reformalarınıń tiykarı boladı. Bunnan tısqarı,

informaciyalıq-texnologiyaları hám elektron húkimettiń tiykarǵı maqseti húkimettiń barlıq dárejelerinde mámleket organları iskerliginde áshkaralıq hám ashıqlıq principlerin támiyinlewden ibarat. Álbette, bul texnologiyalardı ámelge asırıwda mámleket byudjeti ǵárejelerin kemeytiw múmkinshiligi zárúrli unamlı tárepi bolıp esaplanadı.

Ekinshiden, insaniyattıń ámeldegi potencialınan bir neshe ese qúdiretli bolǵan informaciya sistemaların engiziliwi mámleket xızmetiniń isenimi hám súyenishi bolıp qalǵan bir neshe jıllıq "xizmetshiler" xızmetine mútajlik qaldırmaydı. Sonıń menen birge, informaciya texnologiyaları hám kommunikaciyalardı engiziw hámeldarlar ushın para alıwda qáweterleniwi, qorqıwı qáliplesiwine xızmet etedi, jáne bul illettiń óz ózinen tawsılıwına sebep jaratadı.

Búgingi kúnde mámleketimizde ámeldegi jaǵday hám xalıq aralıq reytinglerdegi Respublikamizdıń ornı jáne bul boyınsha ámelge asırılıp atırǵan jumıslarǵa názer taslaytuǵın bolsaq, barinen burın Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń "Xalıq aralıq reyting hám indekslerde Ózbekstan Respublikasınıń ornın jaqsılawǵa tiyisli ilajlardı sistemalastırıw haqqında"ǵı pármanında Ózbekstan Respublikası Prezidenti Admınıstraciyasınıń Xalıq aralıq reytingler menen islew hám "Elektron húkimet" sistemasın engiziw jumısların muwapıqlastırıw filialı menen ústin turatuǵın xalıq aralıq reyting hám indekslerde Ózbekstan Respublikasınıń ornın jaqsılaw ushın kompleks ilajlardı belgilew tárepinen jaqınnan sheriklik etedi dep belgilep ótilgen.

2020 jıl nátiyjelerine qarata, Ózbekstan Respublikası Elektron húkimetti rawajlandırıw indeksi (E-government Development Index) de 193 mámleket arasınan 1 balldan 0, 62 ball toplaǵan halda 81-orınnan jay alǵan (2019 jılda 87-orındı iyelengen). Bul dizimdi bolsa 1 balldan 0.9758 ball toplap Daniya Respublikası basqarıp kelmekte. Itibarlı tárepi sonda, Daniya Respublikası Transparency International tárepinen qáliplestirilgen Korrupciyanı qabıllaw (Corruption Perceptions Index) indeksinde 100 balldan 88 toplaǵan halda birinshi, yaǵnıy eń korrupciyalaspaǵan mámleket esaplanadı. Bul bolsa óz-ózinen elektron húkimettiń ámelde bar ekenligi shárti jáne onıń joqarı támiyinlengenlik hám isenimli dárejesi korrupciyanı joytıw faktorı retinde kóriwimiz múmkin.

Sońǵı jıllarda mámleketimizge korrupciyaǵa qarsı úzliksiz gúresilip kelmekte hám bunıń nátiyjesi bolıp esaplanıp xalıq aralıq reytinglerdegi mámleketimizdiń ornı bir qansha kóterilip atır. Soǵan qaramastan buǵan baylanıslı ámelge asırılıwı kerek bolǵan bir qatar wazıypalar belgilep alınǵan. Usılardan biri bul barlıq mámleket xızmetlerin elektron sistemasın jaratıw hám elektronlasıw nátiyjesinde insan faktorınıń azayıwına erisiw bolıp esaplanadı.

Elektron húkimettiń wazıypası sonnan ibarat, mámleket xizmetkeri hám puqara ortasında tikkeley baylanısqa kirisiw hám bir birinen mápdarlıqtı kemeytiwden ibarat. Buǵan baylanıslı ámelge asırılıp atırǵan dıqqatqa iye is "Birden-bir ayna" sistemasınıń hámde "Mámleket xızmetleri agentligi"niń iske

túsiriliwi boldı dep aytıwımız múmkin. Bunıń nátiyjesinde bolsa lawazımlı shaxs hám puqaranıń ushırasıw jayı mámleket mákemesi sonday-aq, lawazımlı shaxs ofisi emes bálkim, barlıq ushın teń hám ashıq bolǵan birden-bir internet mákanı yaki birden-bir portal yamasa elektron sistemalar bolıp atır dewimiz múmkin.

Bizge málim, mámleketimizde isbilermenlik iskerligin ámelge asırıwdı jeńillestiriw hám xoshametlew, isbilermenlik iskerligine tiyisli bir qatar tártipler, gónergen, zaman talabına juwap bermeytuǵın byurokratlıq tosıq hám irkiniwlerdi alıp taslaw, respublikada isbilermenlik ortalıǵın jaqsılaw, isbilermenlik subektleri hám jeke investorlar ushın keń múmkinshilikler jaratıw, kirip potencialın kúsheytiw hám bajıxana administraciyashıǵın jetilistiriw boyınsha izbe-iz ilajlar ámelge asırılıp atır. Bunı “Bir ayna” bajıxana informaciya sisteması (BAT) mısalında kóriwimiz múmkin.

Usı sistema BMTnıń Sawda tártip-dástúrlerin ápiwayılastırıw hám elektron jumıs ámeliyatları boyınsha orayı tárepinen islep shıǵılǵan “bir ayna” mexanizmin jaratıw boyınsha usınıslar hám jol-joba principleri kriteryalarına juwap berip, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019 jıl 23 apreldegi “Sırtqı ekonomikalıq iskerlikti ámelge asırıwda basqarıw tártip-dástúrlerdi jáne de jetilistiriw ilajları haqqında”ǵı hám de 20 noyabr degi “Mámlekette biznes ortalıǵın jáne de jaqsılaw hám isbilermenlikti qollap-quwatlaw sistemasın jetilistiriw ilajları haqqında”ǵı qararlarınıń talapları tiykarında islep shıǵılǵan bolıp, isbilermenlik subektleri bajıxana rásmiylestiriwi ushın zárúr ruxsat etiw ózgeshelikine iye húJjetler hám sertifikatlardı alıw ushın “Bir ayna” BATda belgilengen formadaǵı elektron arzanı tolıq toldıradı hám elektron arzalarǵa zárúr húJjetlerdi qosımsha bildirgen halda tiyisli kepillikli organlarǵa jiberedi.

Házirgi kúnde, isbilermenlik subektleri tárepinen “Bir ayna” BATdan paydalanǵan halda bajıxana rásmiylestiriwi ushın zárúr ruxsat etiw ózgeshelikine iye húJjetler hám sertifikatlardı alıw ushın elektron arzalardı jiberiw múmkinshiligi bar.

Juwmaqlap aytqanda, qaǵazbazlıq hám byurokratiyaǵa tiykarlanǵan islew rejiminde puqaranıń ámelge asırıwı kerek bolǵan jumısı tikkeley lawazımlı shaxstıń bul wazıypaǵa qatnasıwshı baylanıs tiykarında ámelge asırıladı. Lawazımlı shaxs bolsa bul wazıypanı orınlawı ushın puqaradan qanday da materiallıq máp dámegóylik qaladı jáne bul korrupciyaǵa sebep boladı. Sol kózqarastan elektronlasıw materiallıq mápdarlıqtı kemeytiw menen birgelikte ashıq hám barlıq ushın ashkaralıq sistema jaratılıwına sebep boladı. Ashıqlıq hám ashkaralıq bolsa korrupciyanıń júzege shıǵıwı qarsılıq etedi. Sonday-aq korrupciya jabıq hám sırlı mákanda túbir asıradı, ashıqlıq hám ashıqlıqtan bolsa qorqadı.

Óz gezeginde elektron húkimettiń formalanıwı mámleket xizmetkerleri yaki lawazımlı adamlardıń waqıtları hám fizikalıq kúshleri tejeliwin sonıń menen birge artıqsha áwegershilik hám tártipsizliktiń aldı alınıwına da xızmet etedi. Atap aytqanda málim maqsetke erisiw ushın yáki qandayda bir iskerlikti ámelge asırıw ushın mápdar shaxs emes bálki, húJjetler háreketi ámelge asadı. Bul bolsa puqaralardıń waqıtı hám aqshası tejeliwine sebep boladı. Hár qanday másele shaxstıń individdiń aralasıwisiz ádalatlı tárzde sheshiledi. Bul bolsa korrupciyanı toqtatıwdıń bas faktorı esaplanadı.

Yusupov Bekpulat Quatovich — ***O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi "Maxsus va o‘q otish tayyorgarligi" sikl o‘qituvchisi, kapitan***

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BARCHAMIZNING BURCHIMIZ

Demokratik qadriyatlar qaror topib borayotgan bir vaqtda davlat xizmatchilari tomonidan poraxo‘rlik, mansab mavqeini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etilishi hokimiyatning obro‘sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur etishiga, natijada amaldagi hokimiyatga nisbatan norozilikka sabab bo‘ladi. Korrupsiyaning ma’lum bir mamlakatda rivojlanishi esa o‘sha davlatning tanazzuliga olib keladi.

Korrupsiya bu – mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat turi hisoblanadi. Korrupsiya faoliyati xufyona iqtisodiyotning asosiy turlaridan biridir. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat xizmatchilari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab, boylik orttirish maqsadida xalqdan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo‘lga kiritish tushuniladi. Ammo, umuman olganda, davlat amaldorlarigina emas, balki, davlat tashkilotida ishlamaydigan fuqarolar ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo‘lishi, pora pul emas, balki boshqa narsa evaziga ma’lum xizmatni amalga oshirishlari mumkin.

Etimologik jihatdan “korrupsiya” atamasi “buzish, pora evaziga og‘dirish” degan ma’noni anglatadigan lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta’kidlashicha, “korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir.

Darhaqiqat, korrupsiya – ildizlari davlat xizmatini tashkil etishdagi nuqsonlarga va davlat xizmatchilarining o‘ziga xos psixologiyasiga borib taqaladigan ijtimoiy hodisa. Bu korrupsiyaga qarshi avvalo ma’muriy-huquqiy va tashkiliy-boshqaruv chora-tadbirlari ko‘rilishi zarurligidan darak beradi.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma’muriy munosabatlari ma’no-mohiyatini o‘zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. “Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir.

Malakatimiz rahbari “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma’ruzasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan fuqarolik jamiyat institutlari nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratilgan

“O‘zbekiston Respublikasida jamotchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish fursati etganligini ta’kidlab o‘tgan edi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazoratini amalga oshirish fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Zotan, fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga befarq bo‘lmasligi hamda har bir davlat xizmatchisining o‘z faoliyatini jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning muhim shartidir. Buni davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug‘ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko‘paytirsak, amaldorlarning zo‘ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo‘l yo‘q. Shu ma’noda aytganda, “O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilishning ahamiyati beqiyosdir.

Umuman, jamoatchilik nazorati fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan davlat hokimiyati organlariga muayyan qarorlarni qabul qilish bo‘yicha murojaat etish, davlat hokimiyati organlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha so‘rovlarni amalga oshirish, davlat hokimiyati organlari va mahallalar hududlaridagi korxona va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish kabi shakllarda yo‘lga qo‘yilgani o‘z samarasini bermoqda. Qolaversa, bugungi kunda davlat Dasturlari talablarining fuqarolar yig‘ini hududidagi ijrosini ta’minlashda jamoatchilik guruhlarini tuzish va o‘rganish, natijalari bo‘yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari hisobotlarini eshitish va shu orqali aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish, shuningdek, mahalliy davlat organlari faoliyatiga ko‘maklashish tadbirlari samarali olib borilmoqda. Bu esa, jamoatchilik nazoratining jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi, shaxs, jamiyat va davlat aloqalarida muvozanat, tenglik, o‘zaro mas’uliyat va javobgarlikka xizmat qiluvchi asosiy omil ekanidan dalolatdir.

Bugungi kunda respublikamizda jinoyatchilikning sabablarini aniqlash choralari ko‘rilmoqda, fosh etilgan korrupsiyachilar qattiq jazolanmoqda. Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi. Jinoyatchilik keng avj olib ketishiga va korrupsiyachilar domiga ilingan amaldorlarning beboshligiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishga solingan. Ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyamizni belgilab beradi. Jinoyatni jazolashdan ko‘ra, uni oldini olish singari profilaktik tadbirlarning yo‘lga qo‘yilishi qay darajada oqilonaligi allaqachon isbotlangan. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyatlarning oldini olish jinoyat qonunining asosiy vazifalaridan biri sifatida bejiz belgilab qo‘yilmagan. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bugungi kunda mazkur

yo‘nalishda qonun hujjatlari loyihalarini tayyorlash, ekspertizadan o‘tkazish, soha mutaxassis va ekspertlarining fikrini o‘rganish, amaldagi qonunlarimizni monitoring qilish va xorij tajribasini izchil tahlil qilish bo‘yicha bir qator ishlarni olib bormoqda. Eng muhimi, davlatimiz rahbari belgilab bergan vazifalarning to‘la-to‘kis ijrosini ta’minlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda keng jamoatchilik orasida targ‘ibot-tushuntirish ishlari o‘tkazayapti. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo‘lmasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. O‘ylaymizki, bunday ma’naviy buzilish holatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas’uldirlar. SHunday ekan, davlat va jamiyat, shu bilan birga nodavlat notijorat tashkilotlari bunday illatni oldini olishva unga qarshi kurashda birgalikdagi harakatigina samarali natijalarga erishishning eng maqbul yo‘li bo‘lib hisoblanadi.

Qlichbaev Paraxat Orazalievich — ***O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi "Kasbiy tayyorgarlik" sikli o‘qituvchisi, kapitan***

KORRUPSIYA-KELAJAKKA XAVF.

Davlatimiz rah’bari Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis palatalarining qwshma majlisida “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusida so’zlagan nutqida “Jamiyatimizda korruptsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa h’uquqbuzarlik h’olatlariga qarshi kurashish, ularga ywl qo’ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to’g’risidagi qonun talablarini amalda taminlash bo’yicha qatiy choralar ko’rishimiz zarur”, deb bejiz takidlamagan edi.

Mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashda juda muh’im bo’lgan ikki h’ujjat-O’zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish twg’risida”gi Qonuni va uning asosida davlatimiz rah’barining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur h’ujjatlar o’z mazmun-moh’iyati, maqsadi bilan respublikamizda korruptsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi, deyish mumkin.

Korruptsiya-bu nima? Korruptsiyani jamiyatdagi har bir odam har xil tushunadi. Chunki korrupsiya ba’zi bir odamlar uchun taraqqiyot kushandasi. Ba’zi bir odamlar uchun esa shunchaki o’z manfaat, ehtiyojlarini qondirishning bir usuli. Jamiyatda har xil insonlar uchrab turadi. Ko’chma ma’noda ezgulik va yovuzlik tarafdorlari. Ezgulik tarafdori bo’lgan insonlar davlat, jamiyat uchun qanday ijobiy xizmat qilsam ekan deb o’ylasalar, yovuzlik tarafdori bo’lgan shaxslar esa shaxsiy manfaatlarini ko’zlab davlat va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Korruptsiyaga yuridik jihatdan ta’rif beradigan bo’lsak, korrupsiya-bu mansabdor shaxslarning shaxsiy boyish yoki mulkiy naf ko’rish maqsadida sotilishidir. “Korruptsiya” so’zi lotincha so’zdan olingan bo’lib, “buzish”, “sotib olish” degan ma’nolarni bildiradi. Korruptsiya hozirgi kunda dunyo davlatlarini tashvishga solib kelayotgan global muammolardan biridir. Korrrupsiyaning insoniyat kelajagiga solayotgan xavfi har birimizni ogohlikka chaqiradi. Umuman olganda, korrupsiya O’zbekistonga qanchalik zarar keltirmoqda? O’zbekistonda qaysi bir soha rivojlanishdan oqsayotgan bo’lsa, bularning barchasiga korrupsiya sabab. Ayniqsa, korrupsiya iqtisodiyotga, davlat g’aznasiga juda katta zarar keltirmoqda. Haqiqatni haqqoniy aytadigan bo’lsak, butun bir hayotimizni korrupsiya chulg’ab olgan. Misol qilib aytadigan bo’lsam, go’dakning tug’ilishidan tortib, uning o’smirlik davri, ishdagi faoliyati, butun bir umri davomida korrupsiya bilan to’qnashishiga to’g’ri keladi. Bunga yaqqol misol qilib Behbudiyning “Padarkush” asarini keltirishimiz mumkin. Asarda bolaning bilimsizligi, ilmsizligi otasining o’limiga sabab bo’ladi. Ya’ni o’g’il o’z otasini pichoqlab o’ldiradi. Hozirda yoshlarning bilim olishi, o’qib o’rganishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Biz shunday sharoitlardan foydalangan holda yurtimizga kerakli, sadoqatli, vijdonli, halol shaxs bo’lib yetishishimiz kerak. Insonni inson qilib turgan uning aqli hisoblanadi. Inson aqli shu darajada kuchliki, uni tasavvurimizga sig’dirib bo’lmaydi. Bu aqlni esa davlat uchun, yurt uchun, uning kelajagi uchun ishlatishimiz zarur. Lekin ba’zi bir kimsalar borki, korrupsiya deb atalmish yovuzlikning botqog’iga botib bormoqdalar. Ularning nodonliklari, bilimsizligi tufayli davlat katta zarar ko’rmoqda. Korruptsiyaning jamiyatga salbiy ta’siri tufayli davlatning barcha sohalariga zarar yetmoqda. Sharl Monteskyo korrupsiyani yo’talga o’xshatadi: “yo’talni rivojlanmasidan oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin yo’tal rivojlanib ketsa, uni aniqlash oson davolash qiyin” degan edi. Bundan ko’rinib turibdiki, korrupsiyani rivojlanmasidan oldin uning ildiziga bolta urilsa, O’zbekistonda haqiqiy demokratik davlat qurish mumkin. Lekin korrupsiyaning rivojlanishiga shunday qarab tursak, fuqarolik jamiyati, demokratik davlat qurish haqidagi maqsadimiz quruq qog’ozda qolib ketadi. Shuning uchun jamiyat orasida fuqarolarning huquqiy madaniyatini, ongini oshirish zarur deb o’ylayman. Buning uchun aholi orasida korrupsiya kabi yomon illatlarning oqibatlari nimaga olib kelishini aholiga tushuntirishimiz zarur deb o’ylayman. Albatta, buning uchun yoshlarni bo’sh vaqtini to’g’ri taqsimlash zarur. Chunki O’zbekistonning kelajagi yoshlarning qo’lida. Yoshlarni ongini g’oyaviy bo’shliqlardan tozalab, ularni turli xil to’garaklar, sport turlariga qatnashishini zarur deb o’ylayman. Chunki kelajakda u inson bilimsizligi tufayli korrupsiya botqog’iga osongina botib qolishi mumkin. Korruptsiya tufayli jamiyatning barcha toifalari orasida hokimiyatga nisbatan ishonchsizlik paydo bo’lishi mumkin. Bir mansabdor shaxsning adolatsizligi sababli hokimiyatning, davlatning sha’niga putur yetishi mumkin. Bu esa davlatning inqiroziga sabab bo’lishi mumkin. Chunki hokimiyat va xalq o’rtasidagi munosabatni o’zaro ishonch tashkil qiladi. Korruptsiyadan aziyat chekkan inson kelajakda korrupsiya bilan shug’ullanmaydi deb kim kafolat beradi? Korruptsiya kimningdir nazarida o’z ehtiyojini qondirishning oson yo’li bo’lib ko’rinishi mumkin. Lekin bu narsa davlat, jamiyat kelajagi uchun katta xavfdir. O’zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash

sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-yil 4-yanvardan kuchga kirgan “Korruptsiyaga qarshi kurash to’g’risida”gi qonun. Qonun 6 bob va 34 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi korrupsiyaga oid munosabatlarni tartibga solishda iborat. Bu qonun O’zbekiston tarixidagi muhim hujjat hisoblanadi. Bundan tashqari O’zbekiston 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan va 2005-yil 7-iyuldan kuchga kirgan “Korruptsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga ham a’zo hisoblanadi. Xalqaro tajribalar shuni ko’rsatadiki, korrupsiya eng rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida ma’lum miqdorda bor. Korruptsiya har qanday jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini hamda jamiyatning ma’naviy-ahloqiy asoslarini yemiradi, dekmokratik institutlar va qonunustivorligini kuchsizlantiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi. Korruptsiya uyushgan jinoyatchilikni, terrorizmni va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa tahdidlarning o‘sishiga yordam beradi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan eng birlamchi masalalardan biri korrupsiya muammosidir. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro miqyosga ko‘tarilib, jahon siyosatining muhim masalalaridan biriga aylandi. Binobarin, ushbu illat nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘siq bo‘lishi, balki o‘tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid tug‘dirishi barchaga ma’lum. Mamlakatimizda mazkur muammoga qarshi kurash masalasiga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jiddiy e’tibor qaratib kelinayotir. Korruptsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo’l urgan odam uchun ulug’ narsalar, mo’tabar tuyg’ularning qadri yo’qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o’ylaydi. Korruptsiyaga aralashgan inson hech kimga, imon-e’tiqodga ishonmaydi, ayni paytda, bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani inonib bo’lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug’lari, yor-u birodarlari, mahalla-ko’yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydi O’zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurash sohasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-2021-yillarga mo’ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi. Bundan tashqari Jinoyat kodeksining 210-moddasi pora olish, 211-moddasi pora berish, 212-moddasi pora olish-berishda vositachilik qilish kabi moddalar mavjud. Xulosa sifatida aytadigan bo’lsam, korrupsiyaning davlat va jamiyatga xavfi juda kattadir. Siz o’ylashingiz mumkin ikki odamning pora olish-berishda qatnashishi O’zbekiston g’aznasiga dengizdan tomchi bo’lib ko’rinshi mumkin. Lekin shunga o’xshagan kimsalarning minglab qilmishlari vaqt o’tgan sayin davlatning parokanda bo’lishiga olib keladi. Tasavvur qilib ko’ring, davlatda korrupsiya va shunga o’xshagan illatlarning yo’q bo’lishi davlat va jamiyat uchun qanchalik foyda keltirgan bo’lardi? Korruptsiya yo’q bo’lganida barcha sohalar gullab-yashnagan, davlat iqtisodiyoti, g’aznasi boyigan bo’lardi. Endi o’zingizga savol bering ko’ring. Korruptsiyani yo’q qilish vaqti kelmadimikan?..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Korrupsiyaga qarshi kurash to’g’risida”gi Qonun. 2017.
2. Jinoyat kodeksi. Adolat. 2019.
3. I. Ismailov, S. Muxtarov. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi. O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2017.
4. R.Zufarov, B.Ahrorov. Korruptsiya. Qonun. Javobgarlik.TDYI nashriyoti. 2011.

Akramova Habibahon O'tkirbek qizi *Qoraqalpoq davlat unversiteti Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH JAMIYAT VA DAVLAT RIVOJINING MUHIM OMILI.

Anotatsiya: Korrupsiyaga qarshi kurash faolyatini amalga oshiruvchi organlar va ularning vazifalari. Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish .

Korrupsiyaga qarshi kurashish haqida gapirishdan oldin korrupsiya nima ekanligini tushunishimiz lozim. **Korrupsiya** — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi.[3] Endi bizda tabiy bir savol tug'iladi biz nima uchun korrupsiyaga qarshi kurashishimiz kerak? nima uchun har bir shaxs unga qarshi turishi zarur? degan. Chunki poraxo‘rlik - hokimiyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan, uning aholi oldidagi obro‘siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan havfli jinoiy hodisalardan biridir.

Ma'lumki, korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi.

Korrupsiya fuqaroning davlat vakili bilan ma'muriy munosabatlari ma'no-mohiyatini o‘zgartiradi va jamiyat uchun ham, davlat uchun ham salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi. “Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo‘sinda g‘ayriqonuniy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida o‘z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir. Lekin faqat davlat xizmatchilari korrupsiya faoliyatining sub'ektlari hisoblanadi, chunki korrupsiya munosabatlari yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan qarorlar qabul qilish yoki harakatlar sodir etish uchun hokimiyat vakolatiga faqat ular ega bo‘ladi”.

Umuman olganda, korrupsiya hodisasiga so‘zning keng ma'nosida yondashadigan bo‘lsak, bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma'naviy buzilish holatidir. Shunday ekan, o‘ylaymizki, mazkur illatga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar. Bugungi kunga kelib respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning mustahkam huquqiy bazasi va aniq tizimi shakllandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish haqida gap ketar ekan biz bu kayfiyatni shaxslarni bolalik chog'idan boshlashimiz kerak. Bolalikdan korrupsiyaga qarshi toqatsizlik kayfiyatini uyg‘otish uchun maktablarda antikorrupsion darslar tashkil etilishi kerak. Darsda korrupsiya nima, uning qanday zararlari borligi bolalar

tushunadigan sodda tilda yetkazilishi, o‘quvchilar bilan korrupsiya haqida suhbatlar o‘tkazilishi, rolli o‘yinlar o‘ynalishi mumkin.

Darslarda korrupsion holatlarga aniq misollar keltirilib, uning oqibatlari, qarshi kurashish usullari, bunda o‘quvchining shaxsiy ishtiroki qanday bo‘lishi aytiladi. Masalan, muayyan tibbiy ma’lumotnomani olishda ko‘rikdan o‘tmay turib, pora evaziga ishni bitirish holati hammaga tanish. Ammo shunday yo‘l bilan tibbiy ma’lumotnoma olgan sil kasalligiga chalingan shaxs maktab oshxonasida ishlasa nima bo‘ladi? Oqibatda qancha odam kasallanadi, ular orasida siz ham bo‘lishingiz mumkin, deyiladi.

Kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashda rolli o‘yinlar foydali. Biror vaziyat sahnalashtirilib, pora oluvchi soha mutasaddilari roli bolalar o‘rtasida taqsimlanadi. Yoki bolalar vijdonli va vijdonsiz rahbar haqidagi o‘z qarashlarini suratlar orqali tasvirlab beradi.Jamiyatda poraxo‘rlikka qarshi kurash keng qamrovli, kompleks ishlarni o‘z ichiga oladi. Birgina sababga qarshi kurashib bu illatni yo‘qotib bo‘lmaydi. Barcha sabablar chuqur o‘rganilishi, poraxo‘rlik, ya’ni oqibat emas, balki unga olib boruvchi yo‘llar, uni vujudga keltiruvchi sabablar yo‘qotilishi kerak.O‘qituvchi pora olmaydi, maktab direktori hammani teng ko‘radi, u o‘z mansabi va vakolatlarini hech qachon suiiste’mol qilmaydi, biz pora berib o‘qimaymiz, ta’limda tenglik, qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik bo‘lishi shart, qabilidagi tushunchalar odamlarning qon-qoniga singib, qadriyat darajasiga ko‘tarilmas ekan, korrupsiya biz bilan yonma-yon yashayveradi.[2]Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish faolyatini juda kop davlat organlari amalga oshirmoqdalar.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuratururasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.[1]Abu Nasr Farobiy ,, Fozil odamlar shahri’’ asarida ham fuqorolik jamiyatini qurishda to’g’anoq bo’ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan. Bugungi kunda haqiqatdan ham korrupsiya taraqqiyot kushandasi ekanligi tasdig’ini topib kelmoqda.[4]

O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha

milliy kengashi (bundan buyon matnda Milliy kengash deb yuritiladi) tashkil etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar (bundan buyon matnda hududiy idoralararo komissiyalar deb yuritiladi) qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta’minlash;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo‘yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash va boshqalar.[1]

Men korrupsiyaga qarshi kurashish borasida taklifim avvalo har birimiz o’zimizga xulosa qilishimiz, kelajakni korrupsiyasiz birgalikda qurishimiz, o’zimiz o’zimizni tarbiya qilishimiz kerak. Undan keyin jamiyatni har bir qatlamiga korrupsiyani zararini,huquqiy bilimi savodxonligini oshirish uchun televideniya va teleradio kompaniyalari bilan hamkorlik amalga oshirish zarur. Filmlar, qo’shiq va sahna ko’rinishlar orqali insonlarni, multfilmlar orqali esa bolalarni korrupsiyaga nisbatan betovqat muhitda tarbiyalashga harakat qilishimiz mumkun.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1.Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida’’gi qonun.
2.Ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish
3.mineconomy.uz
4.Abu Nasr Forobiy – Fozil odamlar shaxri asari.

Turatov Shuxrat Baxromovich — *Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)*
@shuxratturatov2023

ABU NASR FOROBIY ASARLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH MASALALARI

Kalit so‘zlar: Korrupsiya, Abu Nasr Forobiy, Ikkinchi muallim, SHarq Arastusi, "Fozil odamlar shahri", johillar, benomuslar, ayirbosh qiluvchilar shahri va h.k.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘z davrining qomusiy olimi hisoblangan Abu Nasr Forobiyning Fozil odamlar shahri asarida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarining yoritilganligi haqida so‘z boradi.

Bugungi kunda "Korrupsiya" deb atalayotgan tushunchada aks ettirilayotgan salbiy hodisalarning kelib chiqish sabablarini bundan 1200 yillar oldin (milodiy 873 yilda tug‘ilgan - 950 yilda vafot etgan) yashab o‘tgan ulug‘ mutafakkir, qomusiy olim, fanlar rivojiga qo‘shgan hissasi uchun "al-Muallim as-soniy" ("Ikkinchi muallim"), "Sharq Arastusi" nomiga sazovor bo‘lgan vatandoshimiz Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiyning asarlarida mufassal tarzda yoritib berilgan.

Forobiy o‘zining "Fozil odamlar shahri" nomli kitobida bir tomondan fozillar shahri haqida fikr bildirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa fozillar shahrining ziddi bo‘lgan shaharlar haqida so‘z yuritadi. Bunda fozillar shahri hokimi quyidagi o‘n ikkita hislat-fazilatga:

birinchidan, bunday shaharga hokim bo‘ladigan odam (Allohdan boshqa) hech kimga bo‘ysunmasligi, to‘rt muchasi sog‘-salomat bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a’zosidagi nuqson halal bermasligi;

ikkinchidan, tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi;

uchinchidan, anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarini xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi; to‘rtinchidan, u zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlar nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi;

beshinchidan, fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida fasohatli ifodalay olishi;

oltinchidan, ustozlardan ta’lim olishi, bilim, ma’rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish, o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi;

ettinchidan, taom eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi, qimor yoki boshqa o‘yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi;

sakkizinchidan, haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan bo‘lishi;

to‘qqizinchidan, o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo‘lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug‘ma olihimmat bo‘lishi, ulug‘, oliy ishlarga intilishi;

o‘ninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan, mol-dunyo ketidan quvmaydigan bo‘lishi;

o‘n birinchidan, tabiatan adolatparvar bo‘lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko‘ruvchi, o‘z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o‘zi sevgan go‘zalliklarni ravo ko‘ruvchi bo‘lishi; o‘zi haq ish oldida o‘jarlik qilmay, odil ish tutgani holda, har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo‘lishi;

o‘n ikkinchidan, o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi zarurligi»[1],- aytilgan. Har bir odam, katta va kichik rahbarlar, boshliqlar ana shu fazilatlarga ega bo‘lsa, jamiyat ichida korrupsiyaga hojat qolmagan bo‘lar edi.

Insoniyat rivoji tarixiga nazar tashlasak, fozillar shahrining ziddi bo‘lgan shaharlar va ularda yashovchi aholi ham mavjudligining guvohi bo‘lamiz. SHuni inobatga olgan Forobiy fozillar shahrining ziddi bo‘lgan shaharlar borligini ta’kidlagan holda, ularni: 1) johillar shahri; 2) benomuslar shahri; 3) ayirbosh qiluvchilar shahri; 4) adashgan, zalolatdagi odamlar shahriga ajratgan. Bu bilan “korrupsiya”ning salbiy hodisa sifatida o‘ziga xos bo‘lgan ijtimoiy ontologik asoslari borligini ko‘rsatib bergan. SHu nuqtai nazardan qaraganda: “johillar shahrining aholisi baxt-saodatga intilmaydi, asl baxt-saodat nimaligini bilmaydi.”[2],-deydi. Eng qizig‘i shundaki, bizning nazdimizda Forobiy: “jaholatdagi odamlar hech qachon baxt topmagan va baxt-saodatga erisholmaydi ham.... Jaholatdagi odamlar o‘tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazzatlarni, hirsu shahvatni, obro‘, amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o‘ylaydilar. SHu ne’matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo‘lib ko‘rinadi”[3],- degan fikrni bildirgan holda korrupsionerlarning maqsadini va ularning ma’naviy vujudida mujassamlashgan axloqiy yomonlikdan iborat bo‘lgan fazilatlarini ochib berganligini ko‘ramiz.

Forobiy korrupsionerlarni ijtimoiy ontologik asos bo‘lmish «jaholatdagi shahar - davlat» ning turlariga qarab quyidagicha tasniflagan, ya’ni:

1) zarur bo‘lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, ya’ni, badan uchun oziq-ovqat, ichimlik, kiyim-kechak, turar joy, jinsiy aloqa hamda shu kabilarga erishish uchun bir-birlariga yordam berish bilangina cheklangan odamlar;

2) ayirbosh qiluvchilar, ya’ni, to‘qchilik va mol-dunyoga erishuvda bir-birlariga yordam berishni hayotning asosiy maqsadi deb biladiganlar;

3) razolat (tubanlik) va badbaxtlikliklar, ya’ni, faqat eyish, ichishda, jinsiy aloqada huzur-halovat topishga, hissiy lazzatlar, aysh-ishrat, kayf-safoning barcha turlariga intiladiganlar;

4) obro‘parastlar, ya’ni, bir-birlarini maqtashni, ko‘kka ko‘tarishni, bir-birlarining oldida yoki begonalar ko‘ziga ulug‘vor, shon-shavkatli bo‘lib ko‘rinishni xohlaydiganlar;

5) amalparastlar, hokimiyatparastlar, ya’ni, barcha xalqlar ularga bo‘ysunishini, o‘zlari hech kimga bo‘ysunmaslikni, fikr-u zikri g‘alabalar, futuhotlar nashidasini surishga qaratilgandir;

6) shahvatparastlar, ya’ni, har biri ehtiroslari tizginini jilovlamay, istalgancha shahvat nafslarini, tuban mayllarini qondirishga intiladiganlar va shunga o‘xshash kabilarga ajratgan[4].

Forobiy ana shunday yomon fazilatlarga ega bo‘lgan korrupsionerlarga qarshi kurash olib borish: “... ikki yo‘l bilan, ya’ni, ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir” [5]. Bu odatda ikki yo‘l bilan hosil qilinadi. «Birinchisi - qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo‘l (yoki usul) - majbur etish yo‘li. Bu usul gapga ko‘nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga (korrupsionerlar – X.X.I.) nisbatan ishlatiladi. CHunki ular o‘z istaklaricha so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’atlarni egallashga intilishi bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. CHunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad - ularni yaxshi fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir» [6].

Forobiyning yuqorida keltirilgan fikrlari metodologik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, bugungi kunda katta va kichik korrupsionerlarga qarshi kurash olib borishning falsafiy asoslaridan biri hisoblanadi. Zero, “Baxt-saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (axloq, kasb-hunar kabilar) yordam bersa, uni saqlamoq va mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur”[7]. SHuning uchun bo‘lsa kerak, davlat va jamoat arbobi I.A.Karimov: “Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari bundan ming yilcha muqaddam yaratilganligiga qaramasdan, bugungi o‘quvchi ham bu asardan hozirgi hayotning murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo‘l-yo‘riqlarni topa oladi” [8.],- degan edi.

REFERENCES:

1. Khidirov, K. I., & Gofurova, S. S. (2021). The United Kingdom has a special textbook for detecting facts of corruption. Scientific progress, 2(1), 121-124.

2. Ibodullaevich, K. K., & Bakhromovna, T. D. THE UNITED KINGDOM HAS A SPECIAL TEXTBOOK FOR DETECTING FACTS OF CORRUPTION.

3. Ismatovich, M. S., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Preventing Corruption Methods and Means. Eurasian Scientific Herald, 8, 66-68.

4. Ibodullaevich, K. K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 1(1), 1-4.

5. Botir, U., & Ibodullaevich, K. K. (2022). Causes of Corruption, Socio-Political Consequences. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8, 37-40.

6. Ibodullaevich, K. K. (2022, April). IN THE FIGHT AGAINST JUSTICE AND CORRUPTION AS AN EFFECTIVE ROAD. In E Conference Zone (pp. 370-372).

7. Melikuzievich, K. P., & Ibodullaevich, K. K. (2022, March). MORAL PERFECTION-ANTI CORRUPTION THE SPIRITUAL BASIS OF STRUGGLE. In E Conference Zone (pp. 86-88).

8. Ibodullaevich, K. K., & Mahmatkobil, O. (2022, March). A JUST LEADER IS THE BASIS OF SOCIETY. In E Conference Zone (pp. 59-61).

9. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2022). “Philosophical Paradigms in The Fight Against Corruption Today: Problems and Solutions. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 5, 160-164.

10. Ibodullaevich, K. K., & Mahmatkobil, O. (2022). “Electronic System”-Estonia Is Among the Leaders in The Fight Against Corruption. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 5, 152-155.

11. Ibodullaevich, K. K., & Bahromovna, T. D. (2020). Corruption: Concept, Genesis, Evolution And Survival Trends. International Journal Of Discourse On Innovation, Integration And Education, 1(5), 409-413.

12. Xidirov, X., & Obilkoshimov, M. (2021). Kambag ‘allik va qashshoqlikka qarshi kurashish: oldini olish yo ‘llari, usullari va mazmun-mohiyati. Obщestvo i innovatsii, 2(11/S), 97-104.

13. Raximova, D., & Ibodullaevich, K. K. Obedience to the Law is High Culture, Spirituality, IT is a Sign of Enlightenment. JournalNX, 234-236.

Sultanbayev Altinbay Maxsetbayevich — *O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mintaqaviy o'quv markazi kurs boshlig'i*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilganligi yozilgan

Kalit so’zlar: korrupsiya, byurokratik, iqtisodiyot, funksiya, jamiyat, agentlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, faktlar, madaniyat.

Аннотация: В статье написано, что в нашей стране последовательно осуществляются широкомасштабные реформы, направленные на предупреждение и борьбу с коррупцией, ликвидацию коррупционных факторов во всех сферах государственного и общественного строительства.

Ключевые слова: коррупция, бюрократия, экономика, функция, общество, ведомство, информационно-коммуникационные, технологии, факты, культура.

Abstract: In the article, it is written that large-scale reforms aimed at preventing and fighting corruption, putting an end to corruption factors in all spheres of state and society building have been consistently implemented in our country.

Key words: corruption, bureaucratic, economy, function, society, agency, information-communication, technology, facts, culture.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish choralari ko‘rilmoqda hamda “Korrupsiyasiz soha” loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar korrupsiya holatlarining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etishning ta’sirchan tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu ishlarga fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorning boshqa vakillarini ham keng jalb etish zarurati tug‘ilmoqda.

2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini izchil ro‘yobga chiqarish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tashkil etildi

Kopmplaens nazorat” tizimini joriy etish va uni amalga oshirish;

- filialda korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo’lgan yo’nalishlar hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash;

- filialda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar ijrosini ta’minlash;

- filialda korrupsiyaga qarshi kurashishga yo’naltirilgan jamoatchilik nazoratini muvofiqlashtirib borish, shuningdek zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida korrupsiyaga qarshi monitoring olib borish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta’minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi;

korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi hamda tahlil qiladi, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalga oshiradi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha tamoyillar (Oliy ta'lim muassasalari va uchun qo'llanma) T.2001 yil.

2. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish" kursi o'quv qo'llanmaKonstitutsiyasini

3. S. Otamurodov va boshqalar "Politologiya" o'quv qo'llanma. T. 1999 yil.

4.O'zbekiston XX1 asrga intilmoqda. T. 2001 yil.

5. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. T. 1998 yil.

6. "Xalq so'zi" gazetasi 31 avgust 2002 yil.

7. O'zbekistonda demokratik jamiyat nazariyasi va amaliyoti. Darslik. qurish

Navruzov Laziz Abdirashidovich *O‘R QK Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi o’qituvchisi QK xizmatchisi*

FUQAROLIK JAMIYATINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA YORDAM BERADIGAN AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING 4 TA TEXNOLOGIYASI

Anatatsiya: *Bu maqolada Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) davlat boshqaruvi organlarining shaffofligi va hisobdorligini oshirish orqali korruptsiyani kamaytirishning samarali vositasi sifatida belgilangan. AKTga ko‘plab rollar berilgan va ulardan biri boshqaruv tizimlari orqali raqamli izlar orqali hisobdorlikni oshirish orqali korruptsiyaga qarshi kurashni qo‘llab-quvvatlashi, qoidalar va to‘lovlarni e’lon qilish orqali shaffoflikni oshirishi va pora so‘rovlari ko‘p bo‘lgan joylarda yuzma-yuz muloqotni kamaytirishi mumkin. Shu bois korruptsiyaga qarshi kurashda yordam beradigan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining 4 ta texnologiyasi haqida keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Korruptsiya, Korruptsiyaga qarshi kurash, AKT, Elektron boshqaruv, Big Data, Data Mining, Mobile Applications, Forensic Tools.*

Elektron hukumat nazoratni kuchaytirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning bir usuli sifatida qaraladi. Shaffoflik ko'pincha firibgarlikni aniqlash uchun muhim omil deb hisoblanadi.

Korruptsiya davlat va xususiy sektordagi muammo bo'lib, turli shakl va shakllarda bo'ladi. shu jumladan poraxo'rlik, o'zlashtirish, tovlamachilik, hokimiyatni suiiste'mol qilishning oqibatlari korruptsiya xilma-xildir. Korruptsiya jamiyatga zarar etkazishi va qashshoqlikning oshishiga, pulning kamayishiga olib kelishi mumkin asosiy davlat xizmatlari uchun mavjud bo'lib, fuqarolarning hukumatga bo'lgan ishonchini yo'q qiladi va susaytiradi.

Texnologiyaning rivojlanishi jamiyatlar, iqtisodiyot va atrof-muhitga oid katta hajmdagi ma'lumotlarga misli ko'rilmagan tezkor kirish imkonini berdi. Bunga rioya qilish uchun hukumatlar, tashkilotlar va fuqarolar yangi tajriba, innovatsiya va moslashish holatida. Hozirda mavjud bo'lgan ma'lumotlar miqdori va texnologik innovatsiyalarni nazarda tutuvchi "*ma'lumotlar inqilobi*" jamiyatdagi asosiy muammolarni, shu jumladan korruptsiyani hal qilish imkoniyatiga ega.

Axborotdan foydalanish va oshkoralik demokratiyaning zaruriy sharti sifatida xizmat qilishdan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashda ochiqlik va hukumatlar va bozorlar uchun teng sharoit yaratishga olib keladigan asosiy vositalardir. Ushbu vositalarning paydo bo'lishi korruptsiyani aniqlash, oldini olish va tahlil qilish usullarini inqilob qilish orqali korrupsiyaga qarshi kurash kun tartibini ilgari surish imkoniyatiga ega. Yaqinda moliyaviy hujjatlarning sizib chiqishi Bu hozirda shaxslar va tashkilotlar ushbu texnologiyadan foydalanish va korruptsiya imkoniyatlarini kamaytirish uchun turli usullarni qo'llayotganining bir misolidir.

1. Big Data *(Katta ma'lumotlar)*



Texnologiya jarayonlarda avtomatlashtirish, aniqlik va chastotani oshirish orqali tashkilotlarda shaffoflikni yaratish uchun foydalanilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar firibgarlik va til biriktirishni aniqlash va oldini olish uchun innovatsion dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda ushbu inqilobning boshida turibdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan aniqlanganidek, yanada qulayroq va sifatli ma'lumotlar yaxshilangan siyosiy qarorlar va katta mas'uliyatga olib keladi va ularning bir qancha so'nggi hisobotlarida ma'lumotlar inqilobining barqaror rivojlanish majburiyatlariga qanday kiritilishi tasvirlangan.

Bu samaradorlikni oshirish, imkoniyatlar muammolarini hal qilish, muhim kamchiliklarni aniqlash, hamkorlikni oshirish va umumiy manfaatlar uchun innovatsiyalar uchun rag'bat yaratish uchun katta ma'lumotlar, ilg'or tarmoqlar va ma'lumotlar bilan bog'liq infratuzilma kabi vositalar orqali texnologiya va innovatsiyalarni almashishni o'z ichiga oladi. Katta ma'lumotlar birinchi navbatda sog'liqni saqlash, savdo va soliqqa tortish sohalarida qo'llaniladi, bu erda qimmatli tushunchalarga ega bo'lish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarning tendentsiyalari, naqshlari va munosabatlarini aniqlaydigan bashoratli tahlil va vizualizatsiya qo'llaniladi. Bunga misol qilib, Avstraliya Soliq idorasi soliq jannatlaridan foydalanish dalillarini topish uchun katta hajmdagi yozuvlarni qidirish uchun katta ma'lumotlardan foydalanish va o'z majburiyatlarini bajarish majburiyatlarini bajarmayotgan kichik onlayn chakana sotuvchilarni aniqlash uchun ma'lumotlarni moslashtirishdir.

An'anaga ko'ra, katta hajmdagi ma'lumotlar tufayli korruptsiyani fosh qilish qiyin bo'lgan. Biroq, raqamlilik va katta ma'lumotlarning mashhurligi davlat sektorida firibgarlik va suiiste'mollikning oldini olish uchun ma'lumotlarni boshqarishning yangi usullariga olib keldi. Firibgarlik tahlillari endi soliq va sog‘liqni saqlash sohalarida shubhali tranzaktsiyalar namunalarini aniqlay oladi va real vaqt rejimida agentliklar firibgarlikni aniqlash, to‘xtatish va bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ldi, bu esa milliardlab potentsial xarajatlarni tejashga olib keladi. Mamlakatlar, shuningdek, axborot sifatini yaxshilash va ommaviy ma'lumotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan "Jahon statistika buluti" kabi ma'lumotlarni ishlab chiqish va almashishning yangi usullarini ishlab chiqmoqda.

2. Data Mining (*ma'lumotlarni qazib olish).*

Ko'p tomonlama rivojlanish banklar jarayonlarni kuzatish va nazorat qilish uchun bir qator innovatsion vositalarga amal qilmoqda. Davlat xaridlarida,

hukumatlar qachon takliflar chiqarayotganini kuzatish va til biriktirish shakllari va yolg'on ma'lumotlarni aniqlash uchun audit uchun ma'lumotlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish orqali to'lovlar yoki tranzaktsiyalardagi aniqlash uchun foydalaniladi . Budapeshtdagi Korruptsiyani o'rganish markazi tadqiqotchilari Yevropa Ittifoqi davlatlarining davlat xaridlari tartib-qoidalarining katta hajmdagi ma'lumotlar to'plamini juda qisqa muddatlar yoki g'ayrioddiy natijalar (masalan, g'olib bo'lgan tender uchun raqobat yo'qligi yoki qayta-qayta g'alaba qozongan tenderlar) kabi g'ayritabiiy naqshlarni qidirish orqali o'rganib chiqdilar. xuddi shu kompaniya).



Korruptsiyaga qarshi dasturiy ta'minot vositalari firibgarlikni aniqlash va ularga javob berish, jumladan, ma'lumotlar to'plami va ma'muriy tartib-qoidalarni "*aqlli ravishda qazib olish*" uchun maxsus ishlab chiqilgan. Yevropa Komissiyasi ham, Transparency International ham turli davlat va xususiy muassasalar ma’lumotlarini o‘zaro tekshiradigan ma’lumotlar tahlili dasturini ishlab chiqdi. Ushbu dasturiy ta'minot firibgarlik, manfaatlar to'qnashuvi yoki qonunbuzarlik xavfiga moyil bo'lgan loyihalarni hamda ochiq manbali xaridlar monitoringi va tahliliy portallari orqali ma'lumotlarni qidirish vositalarini aniqlashga yordam beradi . Ushbu vositalarni hukumatlarning elektron boshqaruv va elektron xaridlar amaliyotiga samarali integratsiyalashuvi nafaqat qarorlar qabul qilishni yaxshilaydi, balki jarayonlarni soddalashtirish orqali yanada oshkoralikni ta'minlaydi.

3. Mobile Applications (*mobil ilovalar).*

Ma'lumotlardan foydalanish va tezroq ma'lumot olish uchun mobil texnologiyalar va ilovalardan foydalanilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu texnologiya chekka hududlardagi fuqarolarning imkoniyatlarini kengaytirish, axborotni yanada qulayroq qilish uchun qo'llanilmoqda va bu texnologiya muvaffaqiyatidan korruptsiyaga qarshi kurashda foydalana olmasligi uchun hech qanday sabab yo'q.



Bunga misol qilib, Jahon bankini o'z versiyasini yaratishga undagan “***I paid a bribe***” (*men pora berdim*) kabi korruptsiyani aniqlash va oldini olish uchun ilovalar va veb-saytlarni yaratish kiradi. “***Integrity***” ilovasi fuqarolarga Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarga kirish va firibgarlik va korruptsiya bilan bog'liq

muammolar haqida darhol xabar berish imkoniyatini berishga qaratilgan . Ilova orqali foydalanuvchilar to'g'ridan-to'g'ri bank tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarga tegishli ma'lumotlarni yuborishlari mumkin.

Kelajakda, shuningdek, ushbu loyihalarning aniq joylashuvini aniqlash funktsiyalari va QR teglari sarflanishi va loyihani yakunlash muddati haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etish uchun mavjud bo'ladi. Smartfonlar kamroq tarqalgan hududlarda alohida mexanizm oddiy mobil telefonga ega bo'lgan har bir kishiga bankning Integrity bo'limiga bepul murojaat qilish imkonini beradi. Mobil telefonlar Integrity (INT) tomonidan Jahon banki tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarda firibgarlik va korruptsiyani tergov qilishda ham qo'llanilmoqda va ishonch telefoniga yiliga 26 000 kishi murojaat qiladi. O‘tgan yilning o‘zida bank tomonidan moliyalashtirilgan loyihalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan 370 ta holat bo‘lib, buning natijasida firma va jismoniy shaxslarga nisbatan 34 ta sanksiya qo‘llanilgan, ko‘plab ifloslangan shartnomalar tuzilgunga qadar oldini olingan va yuqori xavfli loyihalar bo‘yicha ehtiyot choralari ishlab chiqilgan.

4. Forensic Tools (*Sud-tibbiyot vositalari)*

Davlat va xususiy sektorda korruptsiya xavfiga qarshi kurashish uchun auditorlar uchun o'z-o'zini nazorat qilish, tahlil qilish va hisobot berish texnologiyasi (SMART) kabi sud-tibbiy vositalar qo'llanilmoqda. Texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda, ushbu vositalar ma'lumotlar tezligini boshqarish uchun tobora murakkablashmoqda, chunki ular real vaqt rejimida tranzaktsiyalarni tahlil qilish, bashoratli modellashtirish, anomaliyalarni aniqlash va xavf-xatarlarni baholash algoritmlari sotib olishda potentsial noto'g'ri to'lovlarni belgilash yoki to'xtatishga intiladi. to'lov jarayonlari .

Ichki jarayonlarni kuchaytirish va firibgarlik amaliyotlarining oldini olish uchun ma’lumotlar tahlili xaridlar va to‘lov modellaridagi tranzaktsiyalarni vaqti-vaqti bilan tekshirish va noqonuniy moliyaviy oqimlar kabi shubhali operatsiyalarni tezda aniqlashga qodir. Aniqlash va oldini olishga olib keladigan texnologiyaning boshqa afzalliklari orasida inson agentlarini, masalan, shartnoma tuzuvchi mansabdor shaxslarni va xarid operatsiyalaridagi korruptsiya imkoniyatlarini olib tashlaydigan jarayonlarni avtomatlashtirish kiradi. Bu operatsiyalarda poraxo'rlikni kamaytirishga qaratilgan va uni har qanday tizimda ishlatish mumkin..

Texnologiyaning bu tarqalishi shaffoflik va korruptsiyaga qarshi kurash uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratish potentsialiga ega. Biroq, texnologiya tez tuzatish yoki tezkor yechim emas. Ushbu tendentsiyalardan chinakam foydalanish uchun hukumatlar va tashkilotlar tezda moslashishlari va harakat qilishlari kerak. Ba'zi hollarda, ushbu o'zgarishlarni amalga oshirish uchun barcha darajalarda innovatsiyalarga moliyaviy va texnik investitsiyalar talab qilinadi. Boshqa sharoitlarda, xalqaro tashkilotlar va xavflarni kamaytirish uchun murakkab vositalar va keyingi avlod dasturiy ta'minotini ishlab chiqish orqali jarayonni osonlashtirmoqda.

Xulosa

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ni davlat boshqaruvi va davlat boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga joriy etish jarayon shaffofligini oshirish va davlat xizmatlarini kontaktsiz ko'rsatilishini ta'minlash orqali korrupsiya darajasining sezilarli pasayishiga erishishga imkon beradi. Ammo raqamli texnologiyalarning ushbu afzalliklari universal elektron hujjat aylanish tizimining yo'qligi, texnik va huquqiy mezonlarning etishmasligi, aniqlangan faktlarni va axborot xavfsizligini tekshirish tizimining mavjud emasligi tufayli minimallashadi. Yuqorida keltirilgan 4 texnalogiyalar amaliyotda qo'llash uchun ularning amaldagi jinoiy, ma'muriy va axborot qonunchiligiga, shuningdek, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy usullari bilan muvofiqligini inobatga olish muhim shart hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Коррупцияга қарши кураш: Ўқув қўлланма/ Н.С. Салаев, Б.Б. Хидоятов, Г. Тулаганова, С. Ниёзова . - Т.: ТДЮУ, 2018. - 98 б.

2. Грязные деньги: уголовная ответственность за отмывание преступных доходов и ее применение в борьбе с преступностью и коррупцией: монография/ И.А. Киселев; Рецензенты Н.Г. Кадников. - М.: Юриспруденция, 2009. - 152 с

3. Foreign Corrupt Practices Act 1977 // PL 95 - 213, Title 1; 91 Stat 1494, [Электрон манба].

4. Sarbanes-Oxley Act of 2002. Corporate responsibility.//Public law 107. 4-july 30, 2002// [Электрон манба].

5. Базельский комитет по банковскому надзору//Руководство Принципы корпоративного управления для банков// [Электрон манба]. URL: https://www.cbr.ru/Content/Document/File/36687/Basel_cgpb.pdf;

Amaniyazova Sveta Bayniyazovna — *Qoraqalpoq davlat universiteti «Inson huquqlari, davlat huquqi va boshqaruv» kafedrasi docenti v.b yuridik fanlari falsafa (PhD) doctori sss83.84@mail.ru*

Saparniyazov Muxamatdin Maratovich — *Qoraqalpoq davlat universiteti, yuridika fakulteti 1-kurs talabasi*

KORRUPCIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI: XORIJIY TAJRIBA

«Korrupciya» atamasi lotincha «corruptio» sózidan kelib chiqqan bólib, «buzish», «sotib olish» degan manolarni anglatadi. Ushbu ikki sóz korrupciyaning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Masalan, Rossiyada chop etilgan yuridik enciklopediyada «korrupciya» atamasi «mansabdor shaxslarning ózlariga berilgan huquq va hokimiyat vakolatlaridan shaxsiy boyish maqsadida foydalanishlaridan iborat bulgan siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat» [1] sifatida tariflangan.

Bugungi kunda korrupciya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupciya sónggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan muammodir.

Takidlash lozimki, korrupciya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investiciyaviy jozibadorligiga salbiy tasir kórsatadi.

Korrupciyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi sifatida ***Transparency International*** xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili elon qilib boriladigan ***"Korrupciyani qabul qilish indeksi" da*** Ózbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-órin, 2018 yilda esa 158-órinni egallagan bólsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-órinni, 2020-yilda 146-órinni egallagan bólsa, 2021-yilda 28 ball bilan 140-órinni egallab 6 poǵonaga kótarilgan [2] ligini qayd etish mumkin.

Bundan tashqari, Jahon odil sudlov loyihasi xalqaro nohukumat tashkilotining Huquq ustuvorligi indeksidagi "Korrupciyadan holilik" indikatorida (Absence of Corruption) mamlakatimiz 2020 yil bóyicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-órinni egallagan bólsa, 2021 yilda 139 davlat orasida 0,46 ball bilan 70-órinni egalladi. Bu kórsatkich bilan mamlakatimiz 2020 yildagi 89-órindan 19 poǵonaga yuqorilagan [3].

Bundan tashqari, 2020 yilning dekabr oyida "Open Data Watch" xalqaro notijorat tashkiloti tomonidan elon qilingan ochiq malumotlar reytingida

Ózbekiston 63 ball bilan jahon bóyicha 187 mamlakat orasidan 44-órinni, Markaziy Osiyoda esa 1-órinni egalladi [4].

Xalqaro tashkilotlar reytinglaridagi bunday kórsatkichlar mamlakatimizda korrupciyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.

Korrupciyaga qarshi kurashda muvaffaqqiyatga erishgan mamlakatlar mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadida, “Transparency International” xalqaro tashkilotining har yilgi reytinglarida eng yuqori órin egallagan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Daniya qirolligi davlati korrupciyaning minimal darajasi bóyicha dunyodagi eng yaxshi uchta reytingdan birini egallagan bólib, davlat va tijorat sektorining ózaro tasiri orqali korrupciyaga qarshi kurashishda eng katta yutuqlarga 2000 yillardan boshlab erishgan davlatlardan biridir.

Uning tajribasiga kóra, 2002 yilda qabul qilingan “Korrupciya tóǵrisida” gi Daniya Qonuni korrupciyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, tasirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bólgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili óz mol-mulki va shaxsiy daromadlari tóǵrisidagi malumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda akciyalarga ega bólishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupcion holatlarini oldini olishga yordam beradi.

Korrupciyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va talim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korrupcion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi [5].

Gruziyaning korrupciyaga qarshi kurashish tajribasi noyob va muvaffaqiyatli bólib, uning kóp jihatlari boshqa mamlakatlarda moslashtirilishi va qóllanilishi mumkin.

Gruziya, korrupciyani qabul qilish indeksida 2004 yilda 85-órinni, 2014 yilda esa 50 órinni egallagan. Bu davr (10 yil) Gruziya uchun korrupciya holatlarini kamaytirishdagi eng ahamiyatli davr hisoblanadi.

Gruziyada davlat boshqaruvi tuzilmasini isloh qilish va korrupciya darajasini pasaytirishda Amerika, Italiya, YAngi Zelandiya va Buyuk Britaniyaning tajribalaridan foydalangan holda ushbu vazifalarni amalga oshirishda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamǵarmasi va USAID kabi xalqaro tashkilotlarning maslahatchilari va ekspertlari jalb qilinganligi ahamiyatli.

Gruziyaning korrupciyaga qarshi kurash modelining óziga xos xususiyati shundaki mamlakatda korrupciyaga qarshi kurashish bóyicha alohida organ mavjud emas. Gruziyada 2008 yilda korrupciyaga qarshi kurashni muvofiqlashtirish va monitoring qilish bóyicha maxsus Kengash tuzilgan bólib, unga Adliya vaziri rahbarlik qiladi va adliya vazirligining Analitik bólimi kengash kotibiyati vazifasini bajaradi.

Janubiy Koreyada 2020 yil 15 iyulda “Yuqori martabali mansabdor shaxslar órtasida korrupciyani tergov qilish boshqarmasini tashkil etish va uning faoliyati tóǵrisida”gi 16863-son Qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunga asosan, yuqori lavozimda ishlab keladigan amaldorlarga qarshi shikoyatlarni tekshirish yuzasidan Korrupciyaga qarshi tergov boshqarmasi (**Corruption Investigation Office – CIO**) tashkil etilgan bólib, mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupciyaviy jinoyatlar tergovini amalga oshiradi.

Shu órinda qayd etish kerakki, Janubiy Koreyada korrupciyaga qarshi tergov boshqarmasini yaratish jarayoni 20 yildan ortiq davom etgan. Bunday organni tashkil etish bóyicha birinchi qonunchilik tashabbusi 1996 yilda paydo bólgan.

Braziliyada 2013 yilda “Korrupciyaga qarshi kurashish tóǵrisida”gi 12.846-son qonuni qabul qilingan bólib, ushbu qonun yuridik shaxslarni (kompaniyalar, korxonalar) ularning hodimlarini korrupciyaga oid xatti-harakatlarni sodir etganligi uchun jazolashni nazarda tutadi.

Gollandiyada ham Daniyada bólgani kabi korrupciyaga qarshi kurash samarali yólga qóyilgan. Mamlakatda korrupciya holatlarini aniqlash bóyicha muhim vakolatlarga ega “Korrupciyaga qarshi kurashish bóyicha davlat xavfsizligi” tizimi yaratilgan [6].

Germaniya Federativ Respublikasida kóp yillardan buyon davlat organlarida korrupciyani oldini olish uchun rotaciya amalga oshirilmoqda. Germaniya qonunchiligida korrupciyaga moyil bólgan lavozimlarda ishlaydigan davlat xizmatchilarini rotaciya qilish nazarda tutilgan. Bunday lavozimlarda xizmat muddati 5 yil qilib belgilangan. Mamlakatda nazorat guruhlari ishtirokida rotaciya joriy etilishi bilan korrupciya darajasi kamayganligini tasdiqlagan tajriba ótkazildi. Germaniya olimlarining fikriga kóra, korrupciya darajasi pasayishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi: jismoniy shaxs va davlat xizmatchisining qayta uchrashish ehtimoli kamligi; pora taklif qilishi mumkin bólgan shaxs kelajakda berilgan sovǵalar yangi xodimlar tomonidan inobatga olinishiga ishonmasligi; va bundan tashqari, pora taklifiga yangi tayinlangan davlat xizmatchisi qanday munosabat bildirishini jismoniy shaxs bilmaydi.

Rossiya Federaciyasida esa “Tasodifiy korrupciya” haqidagi qonun loyihasi birinchi óqishda maqullandi. Ushbu qonun loyihasida, agar korrupciyaga qarshi normalar inson nazorati ostida bólmagan tashqi holatlar natijasida buzilgan bólsa, u holda shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin deb belgilandi. Jumladan, loyihada mansabdor shaxslarni, prokurorlarni, harbiy xizmatchilarni va boshqa toifadagi fuqarolarni korrupciyaga qarshi normalarni buzganlik uchun, agar bu davlat xizmatchilariga boǵliq bólmagan holatlar tufayli sodir etilgan bólsa jazodan ozod qilinishi belgilandi.

Shuningdek, “Rossiya Federaciyasining ayrim qonun hujjatlariga korrupciyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish

bóyicha ózgartirishlar kiritish tóǵrisida”gi 1078992-7-son qonuni birinchi óqishda maqullandi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatga berilgan tushintirish xatida:

Agar cheklashlar va taqiqlarga rioya qilmaslik unga boǵliq bólmagan holatlar oqibati deb tan olinsa, korrupciyaga qarshi kurash tóǵrisidagi qonunlarni buzganligi uchun jismoniy shaxslar javobgarlikdan ozod qilinishi kórsatildi [7].

Shuningdek, belgilangan cheklovlarga rioya qilishga tósqinlik qiladigan, unga boǵliq bólmagan holatlar tugatilgan kundan boshlab, qonunbuzarliklarni bartaraf etish uchun shaxslarga bir oy muddat beriladi.

Shu órinda qayd etish kerakki, “Transparency International”(Xalqaro korrupciyaga qarshi kurashish tashkiloti)ning 2020 yilgi malumotiga kóra Rossiya Federaciyasi korrupciyani qabul qilish indeksida 180 mamlakat ichida 129-órinni egallagan.

Xulosa qilib aytadigan bólsak, bugungi kunda ilǵor xorijiy davlatlarning korrupciyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qóllayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaraciya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan kózlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar tóqnashuvini bartaraf etishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar róyxati:

1. Юридическая энциклопедия. 2-е изд., перераб. — М., 2003.

2. https://www.transparency.org/en/countries/uzbekistan

3. https://hsti.uz/?goto=https%3A%2F%2Fworldjusticeproject.org%2Frule-of-lawindex%2Fcountry%2F2021%2FUzbekistan%2FAbsence%2520of%2520Corruption%2F

4.https://hsti.uz/?goto=https%3A%2F%2Fanticorruption.uz%2Fuzc%2Fitem%2F2021%2F09%2F24%2Fkorruptsiyaga-qarshi-kurashish-agentligi-direktori-aburkhanov%2520ning-ozbekiston-respublikasining-millij-manfaatlariga-va-khalqaro-imidzhiga-zarar-etkazuvchi-zhinoyatlarni-tergov-qilish-natizhalarini-kompleks-tahlil-etish-togrisidagi-akhboroti

5. Максим Михайлович Поляков. Специализированные антикоррупционные органы государственной власти и должностные лица в России и зарубежных странах // Вестник Университета имени О. Е. Кутафина. 2019. №6 (58). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/spetsializirovannye-antikorruptsionnye-organy-gosudarstvennoi-vlasti-i-dolzhnostnye-litsa-v-rossii-i- zarubezhnyh-stranah .

6. Поляков М. М. Специализированные антикоррупционные органы государственной власти и должностные лица в России и зарубежных странах. // Вестник Университета имени О.Е.Кутафина. 06/2019. 158-С.

7. Садикова С.М. Коррупцияга қарши курашишнинг халқаро стандартлари // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №2.

F.Qutlımuratov — ***Qaraqalpaq mámleketlik universiteti yuridika fakulteti dekani yu.i.k., docent***

Z.Shamshetova — ***Qaraqalpaq mámleketlik universiteti yuridika fakulteti 2-kurs studenti***

KORRUPCIYAǴA QARSI GÚRES ALIP BARIWDAǴI SHET EL MÁMLEKETLERINIŃ TÁJRIYBESI

Gilt sózler: korrupciya, shet el tájriybeleri, principler, jınayıy juwapkershilik, Transparency International, korrupciyaǵa qarsı gúres, korrupciya jınayatshılıǵınıń aldın alıw

Annotatciya: Usi maqalada shet el mámleketleriniń korrupciyaǵa qarsı gúres tájriybesin úyreniw, olardıń ózine tán ózgesheikleri haqqinda, olar qanday principlerge súyengen halda is alıp barıwı haqqında, Daniya, Singapur, Finlyandiya, Qıtay siyaqli mámleketlerdegi korrupciyaǵa qarsı gúresiw boyınsha hárqıylı nátiyjeli tájriybeleri haqqında sóz etiledi.

Korrupciya - bul mámlekettiń rawajlanıwına keri tásir etetuǵın qorqınıshlı illet. Dúnyada korrupciyanıń túri de, oǵan beriletuǵın sıpatlamada kóp. Jer júzinde hár bir mámleket óz imkaniyatlarınan kelip shiqqan halda ózine tán usıllar menen korrupciyaǵa qarsi gúres alıp barmaqta.Korrupciyaǵa qarsi gúres alıp barıwdıń barlıq mámleketler ushın tán bolǵan birdey usıllar joq.

Hár bir mámleket korrupciyaǵa qarsı gúresiw boyınsha óz tájriybesine iye. Mámlekettiń korrupciyaǵa qarsı alıp barǵan gúresiw isleri nátiyjelerine qarap unamlı yáki unamsız degen pikirge kelsek boladı. Shet el mámleketi tájriybesin úyreniw, analizlew korrupciyaǵa qarsi gúres alıp barıw iskerligin jedellestiriw, nátiyjeligin arttırıw áhmiyeti esaplanadi. Búgingi kúnde korrupciyaǵa qarsi maqsetli siyasattıń alıp barılıwı nátiyjesinde korrupciyanıń belgili dárejede sezilerli kemeywine sebep boldı. Korrupciyaǵa qarsı gúresiwdiń shet el tájriybesi mámleketlerde korrupciya dárejesin eń kem muǵdarǵa kemeytiwe bolatının kórsetti.

Korrupciya kóplegen shet el mámleketlerde turmıstıń barlıq tarawlarına unamsız tásir etedi hám onıń xalıq aralıq xarakterdegi jinayat ekenligi tán alınadı.Dúnya júzlik jámiyet korrupciyanı boldırmaw hám onıń aldın alıw boyınsha kúshlerdi birlestiriwge urınıp kelmekte. Evropa Awqamında korrupciya ushın tek ǵana jınayıy juwapkershilik emes, al puqaraliq-huqıqıy tártipte de juwapkershilikke tartılıwı múmkinligin názerde tutıladı. Nızamda korrupciya nátiyjesinde jábir kórgen shaxs kórgen zıyanın qaplaw ushın puqaralık dawa qozǵatıwı múmkin. 2019-jıl "Transparency International"dıń bergen esabı boyınsha korrupciya tómendegi mámleketlerde derlik joq: Daniya hám Jańa Zelandiya, Finlyandiya, Singapur, Shveciya hám Shveycariya.

Daniyada korrupciyanıń mámleketlik dárejede joq bolıwı puqaralarınıń joqarı dárejede sanası hám juwapkershiligi menen de baylanıslı, sol sebepli daniyalıqlar korrupiya mashqalası menen basqa evropa ellerine salıatırǵanda 8 márte kem duslasadı Daniyada korrupciya dárejesi tómenliginiń baslı sebepleriniń biri, korrupciyanı tek ǵana mámleketlik hámeldarlar emes, bálki ápiwayı puqaralar arasında qaralaw dásturge aylanǵan. Mámleketlik ádep-ikramlıq kodeksi, hámeldarlardıń ar-namıs kodesi, húkimet dárejesinde áshkaralıq hám ashıqlıq húkim súredi. Sol sebepli, kimdur korrupciyada gúman etilgen jaǵdayda, kásiplik mártebesiniń asıwı menen xoshlasıwı múmkin.

Daniyalılar arasında paraxorlıq dárejesiniń tómen bolıwına waqtı-waqtı menen korrupciya haqqındaǵi nızamnıń qatallastırıp barılıwı da tásir kórsetedi. Keyingi jılları mámleketlik organlardaǵı korrupciya ushın úsh jıldan altı jılǵá deyin, jeke sektorda bolsa, bir jıldan tórt jılǵa deyin erkinen ayırıw jazasınıń muǵdarı kóbeydi.

Daniyadaǵı korrupciyanıń aldın alıwdıń eń nátiyjeli sharası 2002-jıl qabıl etilgen Daniyanıń korrupciya haqqındaǵı nızamı esaplanadı. Nızamǵa kóre, Daniya húkimeti wákilleri hár jılı óz múlki hám jeke dáramatları haqqındaǵı maǵlıwmatlardı daǵaza etiwi talap etiledi. Bunnan tısqarı, lawazımlı shaxslar xizmet lawazımınan jeke maqsetlerde paydalanıwına jol qoymaw ushın olar óz akciyaların shet el kárxanalarına satıwı kerek. Daniyadaǵi korrupciyaǵa qarsı gúresiwdegi eń úlken kómek beriwshi bul ǵalaba xabar quralları bolıp esaplanadı.

Korrupciyaǵa qarsı unamlı tájiriybesi menen xalıq aralıq kólemde tán alınǵan taǵı bir mámleket *Singapur* bolıp, ol házirde dúnyadaǵı eń kem korrupciyalasqan mámleketlerden biri esaplanadı. Singapurda korrupciyaǵa qarsı kampaniyanıń nátiyjeli engiziliwine 70-jıllarda Singapur premer-ministri Li Kuan Yu tiykar saladı, onıń arqasında mámleket úshinshi dúnyadan birinshige kóterile aldı.1999-jılı noyabrde ol ózine isenim menen << Hadal, daq tiymegen, nátiyjeli húkimet ústinlik etiwshi partiyanıń hám Singapurdıń baslı bahalıǵı bolıp qaladı>>

Singapurdaǵı korrupciyaǵa qarsı gúresiwdiń tiykarǵı baǵdarı korrupcion iskerlikti tergewdiń avtonomiyalıq Byurosı bolıp, ol 1970-jıldan baslap, bas ministrdiń kancelyariyasına boysındı. Puqaralarǵa byuroǵa mámleketlik xızmetketlerden shaǵım etip múrájat etiw hám zıyandı talap etiw imkaniyatı berildi.

Singapurdıń korrupciyaǵa qarsı strategiyası " korrupciyanıń aldın alıw aktı" tiykarlanǵan bolıp, shaxstıń korrupcion háreketlerdi islewine iytermeleytuǵın shárayatlardi kemeytiw yaki joq etiw" sonday-aq, principiallıq hám izbe-izlik.

Singapur dúnya júzi boyinsha búgingi kúnde korrupciyanıń joq ekenligi, ekonomikalıq erkinlik hám rawajlanıwı boyınsha jetekshi orında turadı.

Shveciyanıń korrupciyaǵa qarsı gúresiw tájriybesine itibar beretuǵın bolsaq, XIX-ásir ortalarına shekem bul mámlekette korrupciya oǵada rawajlanǵan edi. Mámleketti modernizaciyalawdıń nátiyjeleriniń biri merkantilizmdi joq etiwge qaratılǵan ilajlar kompleksi boldı. Mámleketlik retlestiriw xoshámetlewlerge

tiykarlandı (salıqlardan jeńillikler beriw, lgota, subsidiyalar). Ishki mámleketlik húJjetlerinen paydalanıw múmkinshiligi ashılıp, biǵárez Ádil sudlaw sisteması engizildi. Usılardıń qatarında, Shveciya parlamenti hám húkimeti basshıları ushın joqarı ádep-ikramlıq standartlardı ornatıldı hám oǵan boysınıwǵa kiristi. Tek bir neshe jıldan keyin, hadallıq sociallıq normaǵa aylandı. Dáslep, joqarı lawazımlı hámeldarlardıń is haqıları jumısshılar tabısınan 12-15 retke asıp ketti, bıraq waqıt ótiwi menen bul parıq eki retke kemeydi. Búgingi kúnde, Shveciya ele dúnyada korrupciya boyinsha eń tómen dárejede turǵan mámleketlerden biri.

Xalıq aralıq dárejede *Qıtay*dıń korrupciyaǵa qarsı gúreiw tájriybe usılın úyreniw júda qızıqlı.

Qıtayda korrupciyaǵa qarsı gúresiw siyasatı korrupciya jınayatlarında ayıplı dep tabılǵan shaxslarǵa qarata júdá qatal jınyıyı jaza qollanılǵanlıǵı menen belgili. Qıtayda korrupciyaǵa qarsı gúresiwdiń nátiyjeligi lawazımlı shaxslardıń iskerligin bahalawdıń jolǵa qoyılǵanlıǵı easplanadı. Ol lawazımlı shaxs basqaratuǵın yáki qadaǵalaw yáki baqlaw alıp baratuǵın aymaqtıń yáki tarawdıń rawajlanıw kórsetkishleri menen belgilenedi. Qıtay mámleketlik organlarda qandayda bir tanıs-bilisleri, baylanısları bar bolǵanlıǵı ushın emes, al hadal bazar báseki arqalı tabıslarǵa eriskenligi haqqında maǵlıwmatlardı tarqatıw hár tárepleme qollap quwatlandı.

Qıtayda barlıq mámleketlik hákimiyat hám basqarıw organlarında turaqlı ámelge asırılatúǵın kadrlar rotaciyası korrupciyaǵa qarsı gúresiwde unamlı nátiyje sanaladı. Kadrlar rotaciyası hámeldarlardıń qáliplesken xızmet, aǵayın-tuwısqan, dos-yaran hám basqada baylanıslarınan paydalanıwın kemeytedi.

Korrupciyǵa qarsı tiykarlar Finlyandiya mámleketi Konstitutciyasında belgilengen: barlıq mámleketlik hákimiyatlarda nızam ústinligin támiyinlew; mámleketlik xizmetkerlerdi kásiplik uqıplıǵı, tekserilgen puqaralıq ádepliligi tiykarında lawazımǵa belgilew. << Mámleketlik xızmetkerler (lawqzımlı shaxslar) haqqında>>ǵı bekkemlengen kórsetpelergemuwapıq, lawazımlı shaxslarǵa olar tásir etiwi múmkin bolǵan mápdar shaxslar esabınan sıylıqlar yamasa kewilashar xızmetlerden paydalanıwvqadaǵan etiledi.

Finlyandiyada korrupciyaǵa qarsı gúresiw haqqında arnawlı nızam joq, korrupciyaǵa qarsı gúeriwshi arnawlı organ da shólkemlestirilmegen. Korrupciyaǵa ulıwma jınayatshılıqtıń bir bólegi sıpatinda gúres alıp barıladı. Finlyandiya Konstitutciyası, Jınayat kodeksi, Puqaralıq xızmeti haqqında nızam, hákimshilik basqarıwǵa tiyisli kórsetpeler hám basqa da nızam astı húJjetleri korrupciyanıń aldın alıwǵa qaratılǵa húJjetler esaplanadı. Bulardıń arasında eń áhmiyetlisi ádep-ikramlıq qaǵıydaları esaplanadı.

Korrupciyaǵa qarsı gúresiw tarawındaǵı jaqsı nátiyjege erisken Daniya, Singapur, Qıtay, Finlyandiya, Shveciya hám taǵı basqada shet el mámleketleriń tájriybelerin úyreniw biz ushın áhmiyetli. Álbette, Ózbekstan Respublikasınıń rawajlanıw tariyxın, mentalitetin esapqa alıp joqarıdaǵı mámleketlerdiń unamlı tájriybesin engiziw zárúr.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Ismaylov B.I. "Korrupciyaga qarshi kurashga oid xalqaro andozalar: Horijiy davlatlar va Ózbekiston Respublikasi milliy amaliyoti"/ Oquv-qullanma.- T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2012.-53 b

2. Utemuratova S.SH. "Korrupciya hám onıń alın alıw"/oqıw qollanba/- Toshkent: "Muharrir nashriyoti",2021 - 110 b.

3. Куракин. А.В. "Предупреждение и пресечение коррупции в зарубежных государствах"// Государство и право. Москова,2001.- N4.- С. 53

4. Методы борьбы с коррупцией в Дании в 2020 году. ttps://emigranto.ru/evropa/daniia/korruptciia

5. Мировой опыт борьбы с коррупцией:феномен Сингапура. https://articlekz.com/article

Мунназарова Элвира Муратовна ***Эркин изланувчи журналист***

КОРРУПЦИЯ БИЛАН КУРАШНИНГ ЧЕТ ЭЛ ТАЖРИБАСИ: МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

Аннотация: Ушбу мақолада коррупция билан курашда чет давлатларда қўлланилаётган чет эл тажрибаси яъни чет давлатларда коррупция билан курашда қўлланилиб келаётган методлар ва уларнинг қайси бирлари таъсирчан эканлиги тўғрисида сўз боради. Бундан ташқари, мақола чет давлатларда коррупция билан курашда пайдо бўлаётган муаммолар ва уларнинг ечимлари қандай тарзда амалга оширилаётганлиги хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: Коррупция, чет эл тажрибаси, давлатнинг ривожланиши, коррупция билан боғлиқ булған шов-шувли воқеалар, коррупциянинг олдини олиш ва огоҳ бўлиш муаммолари.

Коррупция сиёсий ёки иқтисодий ҳолатларга бўйсинмайди. Коррупция бўйича белгиларни ҳоҳлаган давлатда топиш мумкин. Кўпгина тадқиқотчиларнинг таъкидлаб ўтишиша, коррупция бу конкрет бир давлат ходимининг давлат ҳукумати аспектида куриладиган ҳолат ҳисобланади [4. Симонян Н.А. 45.].

Масалан, АҚШ, Италия ва Сингапур каби давлатларда коррупция билан кўрашда катта ишлар амалга оширилган. Коррупция билан кўрашда катта тажрибага эга АҚШ давлати ўз давлати ишида халқаро майдонда коррупция билан кўраш бўйича ўз таклифлари билан чиқди. «Коррупция» атамаси

АҚШда ижтимоий, давлат ва сиёсий арбоблар, давлат хизматчиларининг пулга сотилиши тушинилади [3. 196].

1787- йили қабул қилинган АҚШ конституциясида пора олиш энг оғир жиноятлар қаторига киради. Конституцияга биноан агар Президент ушбу жиноятни содир этса импичмент берилиши мумкин. АҚШда коррупция билан кураш ўтган асрнинг 70 йиллари бошланди. Японияда фаолият олиб бораётган АҚШнинг «Локхид» компаниясининг коррупцион мажорага аралашиб қолиб ҳуккматнинг ўз вазифасидан бўшатилиши 1977 йили америка қонунчилига «Чет эл коррупцион тажрибаси бўйича акт» ни қабул қилишга мажбур этди.

Қабул қилинган акт чет давлатнинг фуқораларининг америка фуқоралари ва компанияларига пора беришга тусқинлик қилиш керак эди. Аммо, ушбу қонун қабул қилинганидан сўнг америка ишбилармонлари жамоаси томонидан қаршиликлар бўла бошлади, уларнинг фикрича АҚШнинг коррупция бўйича позицияси дунёнинг учунчи даражали давлатларида фаолият олиб бораётган америка компанияларининг нуфузига ёмон таъсир қилади. Натижада Акт 1988 йили бекор қилинган [2. Михайлов Л.В. 149].

Аммо вазият ўзгармаган. 1995 йили «Экономист» журналида чоп этилган мақолада шундай фикрлар янграган эди, 1994-1995 йиллари америка компаниялари умумий қиймати 45 миллиард долларни ташкил қиладиган 100 дан ортиқ шартномаларни қўлдан бой берган. АҚШ савдо департаменти томонида 1996 йили тайёрланган ҳисоботига кўра, АҚШ конкурентларининг пора берганлиги сабабли америка фирмалари 11 млдр доллар атрофида зарар кўрган. Бунинг асосида АҚШ томонидан чет эл мутассадиларига пора беришни жиноят сифатида қабул қилишга ундади.

Бошқа давлатларда коррупция билан курашни олиб боришнинг ўзига ҳос хусусиятларини учратиш мумкин.

Масалан, Нидерландия давлатида коррупция билан кўрашиш қўйидаги асосий институционал чораларни ўз ичига олади:

- давлат ва ижтимоий ташкилотларда пайдо бўлиши мумкин бўлган нуқталарини мониторинг қилиш ва ушбу жойларда иш олиб борадиган ходимлар устидан кескин назорат ўрнатиш. Коррупция нуқтаи назаридан хавфли деб ҳисобланган лавозимларга ходимларни танлов асосида қабул қилиш;

- Коррупцион ҳаракатлар учун жазо белгилаш ва асосан давлат томонидан бериладиган ҳар хил енгилликларни олиб ташлаш ва давлат органларида ишлашдан маҳрум қилиш;

- Лавозимли ҳодимларнинг яхши ишларига қўшимча ҳақи тўлаш, бу лавозимли шахснинг иқтисодий ва маънавий томондан натижали ва одил иш олиб бориши учун бир енгиллик;

- коррупция билан курашда давлат ҳавфсизлиги системаси ташкил қилиниши, яъни махсус полиция каби. Уларнинг иш фаолияти катта имкониятлар билан боғланган.

Бошқа давлатларда ҳам ўзини яхши кўрсата олган антикоррупцион чоралар турлари бор. Институт сифатида фаолият юритадиган жамоат ташкилотлари коррупция билан кураш мустақил комиссияси ишларини фаоллиштириш мумкин. Шундай органлар Гонконг, Сингапур, Малайзия, Тайланд каби давлатлар иш олиб боришмоқда.

ЖАР давлатида коррупция паст даражада. Давлатда ҳукумат парламент олдида ҳисоб беради, ва бундан ташқари, шартли равишда лавозимли шахслар ва депутатлар ўз мулклари ҳақида декларация топширади. Шунинг билан бирга тез-тез давлат мулклари ишлатилиши устудан назорат давлат комитети йиғилишлари ташкил этилиб турилади.

Яна шундай давлат сифатида Ботсванани келтириш мумкин. У ерда коррупциянинг тез усип кетишини олдини олишда ушбу талаблар фойда берган: лавозимли шахсларнинг ойликларининг кўтарилиши барорида уларнинг сонларининг қисқартилиши, давлат органлари бўлимларининг қисқариши, коррупцияда айбланган барча шахсларининг тезлик билан ҳар хил санкциялар билан «сийланиши»[5].

Коррупция билан кўрашда эталон сифатида 2002-йили 1 январда Жанубий Кореяда қабул қилинган «Коррупция билан кўраш ҳақида» ги қонун кўпчилик томонидан таъкидлаб ўтилади. Унга кўра, вояга етган ҳар бир давлат фуқаросида коррупция юзасидан ўз тексиришларин олиб бориш ҳуқуқи берилган. Аудит ва инспекция қўмитаси ҳар бир келиб тушган мурожат бўйича текшириш ишларини олиб бориши шарт этиб белгилаб қўйилган.

Сингапурнинг антикоррцпкион сиёсати кўпчилик давлатларни ҳайратга солиб келмоқда. Энг асосий антикоррупцион сиёсатнинг негизида «инсонларнинг коррупциявий ҳаратларни амалга оширишга бўлган истагини минималлаштириш ва ундай ҳолатларни йўқ этиш». Ушбу талаблар бир қатор принциплар негизида амалга оширилиб келинмоқда: 1) давлат органлари ходимлари моашлари ишбилармонлик секторида иш олиб борадиган одамнинг ўрташа ойлигига теглаштирилган. 2) давлатнинг лавозимли ходимларининг ўз шахсий мулклари ва активлар, қарзлари ҳақида ҳар йили ҳисоб бериб бориши, коррупциянинг олдини олиш актини бўзган деб гумон қилинаётган шахснинг банк ҳисоб рақамлари, ҳиссодорлик ҳисоб рақамларини полиция текширишга ҳаққи бор. 3) сиёсий лидерларнинг пора сотилмаслиги имиджини яратиш мақсадида лавозимли шахслар юзасидан коррупцион ишларнинг кескинлик билан олиб борилиши. 4) иқтисодиётни ривожлантишига тўсиқ бўлаётган тўсқинларни бартараф қилиш.

Сингапурда коррупцияга қарши курашни ўтган асрнинг 70 йиллари омадли амалга оширган премьер-министр Ли Куан Ю бўлган эди. Унга кўра

давлат учунчи даражали давлатдан биринчи даражали давлат қаторига кушилди. 1999 йили у шундай деган эди: «Ҳақиқатпарвар ва натижали, ўзига шаънига доғ туширмаган ҳукумат бошқарувчи партиянинг ютиғи ва Сингапурнинг асосий негизи ҳисобланади».

Ўтган асрнинг 80 йилларидан бошлаб Сингапурда бюрократиянинг сифатида бўйича ишлар олиб борилди. Биринчи навбатда, лавозимли шахсларнинг ойлик маошларини кўтариш бошланди. Бу уларнинг пора олишини тухтатиши керак эди. Хукумат лавозимли шахсларнинг профессиясини нафақат юқори маош оладиган балки катта обрўли ҳам қилиб қўйди. Маҳаллий бюрократия дунёда кўзга кўринган ҳисобланади. [1. Андрианов В.Д. 122]

Шунга қарамастан давлат органлари ҳақидаги ислоҳотларнинг олиб борилиши омадли ҳисобланиши билан, аммо юқорида келтириб ўтган давлатларда кенг кўламли реформалар тўлақонли омадли якунланди деб ҳисоблаш мумкин эмас.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Андрианов В.Д. Бюрократия, коррупция и эффективность государственного управления: история и современность / В.Д. Андрианов.-2-е изд., – М.: Волтерс Клувер, 2011.

2. Михайлов Л.В. Борьба с коррупцией в США (80-е годы) // Вопросы истории. − 1994,- №5.С. 149.

3. А.Ю. Борьба с коррупцией в США в XIX веке и государственная модернизация // Правоведение. − 2001. − № 3. С. 196.

4. Симонян Н.А. Особенности национальной коррупции // Свободная мысль.-XXI.-2001.-№ 7-8.С.45.

5. Гилевская М.А. Передовые национальные антикоррупционные стратегии. URL: http:// www.corupti.net/rus/2/html. Загл. с экрана.

Қаллибеков Тоғайторе Шыныбекович *Қарақалпақ мәмлекетлик университети, "Инсан ҳуқықлары, мәмлекетлик ҳуқық ҳәм басқарыў" кафедрасы доценти, юридика илимлериниң кандидаты.*
E-mail: tkallibekov@mail.ru;

КОРРУПЦИЯҒА ҚАРСЫ ГҮРЕСИЎШИ ХАЛЫҚ АРАЛЫҚ ҲҮЖЖЕТЛЕР ҲӘМ ДЕ СЫРТ ЕЛ ТӘЖИРИЙБЕЛЕРИ

Президентимиз Ш.Мизиёев өзиниң 2020-жыл 24-январьда Өзбекстан Республикасы Олий Мажлисине Мүражатында «Жәмийетимизде коррупция иллети өзиниң түрли көринислери мене раўажланыўымызға тосқынлық етпекте. Бул жаўыз бәлениң алдын алмасақ, ҳақыйқый исбилерменлик ҳәм инвестиция орталығын жаратып болмайды, улыўма, жәмийеттиң бирде бир тармағы раўажланбайды» [1] деген пикирди айтқан еди. Себеби, коррупция - мәмлекет ҳәм жәмийеттиң раўажланыўына, халықтың нызам ҳүжжетлеринде беккемленген әдиллик көз қарасларына болған исенимине жүдә үлкен зыян келтиретуғын қәўип болып табылады. Сонлықтан да, бүгинги күнде коррупция қәўпиниң алдын алыў ҳәм оған қарсы гүресиў бойынша дүнья жүзи мәмлекетлеринде кең көлемдеги жумыслар әмелге асырылып, халық аралық шөлкемлер тәрепинен ҳуқықый ҳүжжетлер қабыл етилген.

Бул ҳүжжетлер қатарына Бирлескен Миллетлер Шөлкеми тәрепинен 1996-жыл 12-декабрьде Нью-Йоркта қабыл етилген «Мәмлекет лаўазымлы шахсларының халық аралық этикалық кодекси»н, Европа Кеңесиниң 1999-жылы 27-январьда Страсбургта қабыл етилген «Коррупция бойынша жынаят жуўапкершилиги ҳаққында»ғы Конвенциясын, 1999-жыл 4-ноябрьде Страсбургта қабыл етилген «Коррупция бойынша пуқаралық-ҳуқықый жуўапкершилик» Конвенциясын ҳәм 2003-жылы 4-ноябрьде қабыл етилген усы Конвенцияға қосымша протоколды, Экономикалық Шериклик ҳәм раўажланыў Шөлкеми шеңберинде 2003-жылы 10-сентябрьде қабыл етилген «Коррупцияға қарсы гүресиў бойынша Станбул Ҳәрекет режеси»н, Москвада 2011-жыл 16-июньда қабыл етилген "Жынайый дәраматларды легалластырыў ҳәм терроризмди финанслық тәмийинлеўге қарсы гүресиў бойынша Евроазия топары ҳаққында"ғы Питимди [2] ҳәм де Бирлескен Миллетлер Шөлкеми тәрепинен 2003-жылы 31-октябрьде қабыл етилген "Коррупцияға қарсы Конвенция»ны [3] киргизиў мүмкин. Сондай ақ, Бирлескен Миллетлер Шөлкеми Бас Ассамблеясының 2003-жыл 21- ноябрьдеги резолюциясына муўапық, 2004-жылдан баслап «9-декабрь - Халық аралық коррупцияға қарсы гүресиў күни" ретинде байрамланып келинбекте.

Коррупция, соның ишинде парахорлық жынаятына қарсы дүньяның барлық мәмлекетлеринде дерлик гүрес алып барылмақта. Коррупцияға қарсы гүресиўде жоқары көрсеткишлерге ерискен мәмлекетлерден бири

есапланған Данияда нызамларға сөзсиз бойсыныў принципи жоқары дәрежеге жеткен. Жәмийеттиин барлық ағзалары тәрепинен әдеп-икрамлық қағыйдаларына әмел етиў жәмийетти нәтийжели басқарыўдың тийкарғы усылына айланған. Соцаллық көз қарасы яки келип шығысына қарамастан, нызам алдында ҳәмме бирдей жуўапкер болып, басқарыў ямаса жынаятлы ҳәрекети ушын жуўапкершиликтен ҳеш ким қашып қутыла алмайды. Мысалға, автомашинасында тезликти асырғаны ушын Дания патшасының баласы, шаҳзада Йоахим жәрийма төлеген ҳәм баспасөздиң кескин сын пикирине ушыраған. Сондай-ақ, өмирлик жолдасы өзиниң фермасында сырт еллик жумысшыларды дизимнен өткерместен ислеткени ушын министрлердиң бири жумыстан босаўға мәжбүр болған.

Дүньяда экономикасы раўажланған ҳәм коррупцияға қарсы табыслы гүресиўде үлги сыпатында Сингапурдағы өткерилген реформаларды көрсетиў мүмкин. Бул мәмлекет 1965 жылы ғәрезсизликке ерискен жыллары елде коррупция жүдә күшили раўажланған жағдайда болған. Лекин, мәмлекет қысқа ўақыттың ишинде Азияның раўажланыўда артта қалған мәмлекетинен дүньяның ең раўажланған мәмлекетлери қатарына шықты ҳәм буған мәмлекеттеги коррупцияға қарсы аяўсыз гүрес нәтийжесинде ерискен. Мәмлект ҳүкимети коррупцияға қарсы гүресиў бойынша арнаўлы бағдарлама ислеп шыққан. Бағдарлама бойынша барлық дәрежедеги лаўазымлы шахслардың искерлиги, алып барып атырған жумысларының толық ашық болыўы тәмийинленген. Коррупциялық байланыслар тамырласып кетпеслиги ушын мәжбүрий ротация тәртиби енгизилген. Барлық дәрежедеги ҳәмелдарлардың пуқаралар менен мүнәсәбетлеринде турақлы қадағалаў орнатылған. Ҳәр қыйлы бюрократиялық тосқынлықлар алып тасланыўы ушын бул мүнәсәбетлер механизми жетилистирилип барылған. Булардан тысқары, барлық лаўазымлы шахслардың ис ҳақылары сезилерли дәрежеде асырылып, суд системасы ғәрезсизлиги тәмийинленген. Пара алғанлық ҳәм бергенлик ушын жаза аўырластырылған. Коррупцияның ҳәр қандай көриниси ҳаққында жәмийетшиликти хабардар етип турыўшы ғәрезсиз ҒХҚ шөлкемлестирилген. Мәмлекетте шөлкемлестирилген Коррупцияға қарсы Бюро кең көлемдеги ўәкилликлерге ийе ғәрезсиз коррупция бойынша тергеў уйымына айланған. Пуқаралар келтирилген зыянды қаплаў бойынша усы уйым хызметкерлерине мүрәжат еткен. Бюро коррупцияға қарсы гүрес басланған дәўирде Ли Куан Ю ҳүкимети министрлери ҳәм оның жақын ағайинлериниң қарсысына тергеў ҳәрекетлерин алып барған. Коррупцияға араласқан министрлер еркинен айрыў жазасына ҳүким етилген. Нәтийжеде Ли Куан Ю өз ҳәрекети менен мәмлекеттиң барлық пуқараларына оның ҳүкимети, министрлери ҳәм басқада лаўазымлы шахслары параға сатылмаслығы мүмкинлигин дәлиллеп берди. Коррупцияны кемейттирип, машақатлы, сапалы мийнет ҳәрдайым жоқары мийнет ҳақы менен тәмийинленетуғынлығын ҳәм тоқшылыққа алып баратуғынлығын көрсете

алды. Сингапур мәмлекети басшысы Ли Куан Ю дың «Коррупция үстинен жеңиске ерисиўди қәлеген инсан өз ағайинлари ҳәм жақын досларын да қамаққа алыўға тайын болыўы керек» деген сөзи мәмлекетте коррупцияға қарсы аяўсыз гүрес алып барылғанлығынан дерек береди. Сингапурда коррупцияшы ҳәмелдарларға мәлим бир мүддетке еркинен айырыў жазасы қолланылады [4].

АҚШ мәмлекети экономикалық ҳ.т.б. тәрепинен дүнъя жүзинде жоқары раўажланған мәмлекетлердиң бири есапланады. Лекин, бул мәмлекетте де коррупциялық жағдайлар ушырасады. Мәмлекетте коррупцияға қарсы гүресиўге айырықша дыққат қаратылған. Коррупциялық хәрекетлер көплеп ушырасатуғын банк тараўында АҚШ нызамшылығына муўапық, банклер, олардың басшыларының жумысларын тексериўшилер ҳәм қадағалаўшыларға пул яки қандайда бир саўға усыныўлар қатаң қадаған етилген болып, бундай ҳәрекелер ушын оларды жынаят жуўапкершилигине тартыў белгиленген. Бундай жыянаят жуўапкершилиги тексериўшилер, қадағалаўшылар ушын да тийисли есапланады. Лаўазымлы шахс қандайда бир басқа шахстан оның машқаласын яки мәселесин унамлы шешип бериў ушын пул яки саўға, сыйлық алса, жынаят жуўапкершилигине тартылады. Мәмлекет уйымлары хызметкерлери лаўазымлы шахслар, ҳәмели бойынша ўәкилликлеринен нызамларға қайшы мақсетте пайдаланыў жағдайлары сезилгенде тийисли органларға хабар бериўлери шәрт. Буннан тысқары, мәмлекет хызметкерлери тапқан дәраматлары ҳаққында декларация толтырыўға мәжбүр. АҚШ нызамшылығы бойынша пара алғанлық ушын алынған параның үш есеси муғдарындагы жариймаға тартыў жазасы, айырым жағдайларда болса 15 жылға шекем еркинен айырыў жазасы белгиленген.

Ҳәзирги күнде экономикалық өсиў бойынша дүньяны ләрзеге салып турған мәмлекетлердиң бири Қытай. Бул мәмлекетте пара алыў иллетине қарсы гүресиў бойынша арнаўлы оқыў курслары шөлкемлестирилген. Мәмлекетлик хызметкерлердиң психикалық ҳәм физикалық шынығыўлар арқалы ой-пикирин раўажландырыў ҳәм денелерин саламатландырыўы белгиленген. Сондай-ақ, бул мәмлекетте парахорлыққа қарсы гүресиўге бағышланған онлайн-ойын ислеп шығылған болып, бул ойыннан пайдаланыўшылар парахор ҳәмелдарларды пүткил ағайын-туўысқанлары менен қырып таслаўы керек. Лекин, парахорлыққа қарсы алып барылып атырған илажларға қарамастан бундай жынаятлар елде даўам етпекте. Мағлыўматларға көре, 2003 жылдан бери бул мәмлекетте 10 мыңға жақын лаўазымлы шахс атыў жазасына ҳүким етилген, 120 мың шахс узақ мүддетлерге қамақ жазасына тартылған. Айырым жағдайларда пара менен усланған ҳәмелдарлардың қолы шабылған. Қытайда коррупциялық жынаятлар ушын ең аўыр жазалар ретинде өлим жазасы ҳәм де өмирлик еркинен айырыў жазалары белгиленген.

Гонгконг - Қытай мәмлекетиниң арнаўлы ҳәкимшилик аймағы есапланып, ҳәзирги күнде Азия ҳәм дүньяның жетекши финанслық орайларынан бири. Коррупцияға қарсы гүресиў басланған 1974-жылда мәмлекетлик уйымлардың 94 пайызы коррупция жағдайында болған. Коррупцияға қарсы гүресте ең өнимли илажлардан: лаўазымлы шахслар ушын айыпсызлық презумпциясы принципиниң бийкар етилиўи, оның орнына «Мүлкти пара есесине алмағаныңды сыпатлаң» принципиниң қолланылыўы болған. Айыпсызлық презумпциясы принципиниң бийкар етилиўи менен Гонгконгта бир нешше жоқары лаўазымдағы ҳәмелдарлар қамаққа алынған. Нәтийжеде коррупцияға қарсы гүресиўдиң 30 жылы ишинде, парахорлық дәрежеси 90 пайыздан 3 пайызға төменлеген. Бул нәтийжеге ерисиў ушын мәмлекет уйымлары лаўазымлы шахсларының барлық мал-мүлки, турақ жайлары, автомобиллерин ҳәм басқа да қымбат баҳалы буйымларын ҳадал жол менен тапқан қаржларына сатып алғанлығын тастыйықлап бериўи тийис болған тәртип орнатылған. Егерде буны тастыйықлай алмаса, оларды қамаққа алыў ҳәм барлық мал-мүлкин мәмлекетке өткериў жазалары қолланылған. Гонгконгта 1974 жылда «Коррупцияға қарсы гүресиўши ғәрезсиз комиссия» жумыс алып барған. Комиссия қурамы офицерлар, оқымыслы адамлар ҳәм бизнесменлерден ибарат болып, оларға оғада көп муғдарда ис ҳақы төленген ҳәм де олар тек ғана губернаторға бағынышлы болған. Сондай-ақ, халыққа ҳәм ҒХҚ ўәкиллерине парахорлыққа қарсы гүресиў ушын кең мүмкиншилик жаратып берилген. Пуқаралар пара талап еткен лаўазымлы шахслар үстинен комиссияға шағым етиўи, журналистлар болса ҳәр қандай лаўазымлы шахстың ислеген жумыслары бойынша тексериўлер өткериўлери мүмкин болған. Мәмлекет нызамларына муўапық, лаўазымлы шахс өзиниң сырт елдеги есап бетлериндеги қаржыларды нызамлы тапқанлығын яки көшпес мүлкти ҳәм қымбат баҳалы мал-мүлкти ҳадал пулға сатып алғанлығын дәлиллей алмаса, сол лаўазымлы шахс он бес жылға қамақ жазасына ҳүким етиледи.

Нидерландия мәмлекетинде де коррупцияға қарсы гүресиў ушын бир қатар илажлар ислеп шығылған. Пара менен қолға түскен лаўазымлы шахслардың кейин ала мәмлекет шөлкемлеринде жумыс ислеўи қадаған етиледи ҳәм ол мәмлекет тәрепинен берилетуғын барлық социаллық жеңилликлер ҳәм кепилликлерден айырылады. Мәмлекетте мүмкиншилиги болғанынша парахор жоқары лаўазымды ийелемеслиги ушын кадрлар таңлаўдың арнаўлы системасы ислеп шығылған. Сондай-ақ, үлкен мәкемелерде лаўазымлы шахслар өз ўәкилликлеринен коррупциялық мақсетте пайдаланыўларының алдын алыў ушын оларды гүзетип туратуғын арнаўлы ишки қаўипсизлик системалары шөлкемлестирилген. Мәмлекетте ҒХҚна парахорлық жағдайы менен байланыслы ўақыяларды кең жарытып барыў ҳәм сорастырыўлар өткериўге рухсат берилген. Парахорлық пенен

ҳеш қашан шуғылланбаған лаўазымлы шахслар ҳәм де өз кәсиплеслениң хызмет ўәкилликлеринен өзбасымшалық пенен пайдаланып талан-таражлыққа жол қойып атырғаны ҳаққында хабар бергенлерди материаллық хошаметлеў дизими енгизилген.

Қубла Кореяда 1999-жылы Сеул қаласының ҳәкими Гоҳ Куннның буйрығы менен ислеп шығылған «OPEN» деп аталған коррупцияға қарсы гүресиў бағдарламасы пуқараларға мәмлекеттиң лаўазымлы шахсларының алып барып атырған жумысларын толық қадағалап барыўға имканият жаратқан. Нәтийжеде пуқаралар қәлеген ўақытта интернет арқалы өзлериниң мүрәжатлары қандай көрип шығылып атырғанлығын гүзете алатуғын болды. Пуқаралар белгили бир анық шәраятта рухсатнамалар яки санкциялар бериў мәселеси коррупция анықланған жағдайларда қандай шешилиўин гүзетиўге ҳәм егерде жуўапкерлер қандайда бир нызам бузыўшылыққа жол қойса, наразылығын билдириўге имканият береди.

Жуўмақластырып айтқанда коррупцияға қарсы гүресиў бағдарындағы сырт ел тәжирийбеси мәмлекетимизде де кең ен жайған. Коррупция жынаяты ҳәм оның ақыбетине байланыслы ҳәр қыйлы түрдеги еситтириў, көрсетиў, мақалалар ҳәм басқа да информациялық материаллар, билимлендириў мәкемелеринде коррупцияға қарсы гүресиў саласында ҳуқықый билим бериў бойынша системалы ҳәм мәнзилли илажлар, жасларға коррупцияға қарсы гүресиў саласында ҳуқықый билим бериў, Коррупцияға қарсы гүресиў агентлигиниң ҒХҚ ҳәм халық пенен биргеликте ислесиўин жолға қойыў хәм бунда, Коррупцияға қарсы гүресиў агентлиги тәрепинен коррупцияға тийисли хабарларды көрип шығыў ҳәм жәмийетшиликке мағлыўматнама берип барыўы өз нәтийжелерин береди.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Өзбекстан Республикасы Президенти Шавкат Мирзиёевтиң Олий Мажлиске мүрәжааты (2020жыл 24 январь). //«Еркин Қарақалпақстан» газетасы, 28-январь 2020-жыл №12 (20410).

2. Коррупцияга қарши курашишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар рўйхати. https://anticorruption.uz/uzc.

3. Конвенция ООН против коррупции. Сборник международно-правовых документов ООН в области прав человека и борьбы с преступностью. UNODC - 2009.

4. Б.Исмолилов., Ф.Йўлдашов. Халқаро рейтинг ва индексларда Ўзбекистон мавқеини юксалтиришнинг муҳим жиҳатлари. https://uza.uz/oz/posts/.

Валиев Сайдулла Салиевич

Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Ихтисослаштирилган ўқув маркази катта ўқитувчиси
saydulla.valuev@mail.ru

КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАСИ

Коррупция сиёсий ва иқтисодий режимга боғлиқ эмас. Замонавий даврда коррупция ҳодисасини деярли ҳар қандай давлатда учратиш мумкин. Кўпгина тадқиқотчиларнинг фикрича, коррупция давлат ҳокимиятини давлат хизматчиларининг аниқ ҳаракатлари шаклида амалга оширишнинг универсал жиҳати ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси давлат хизматидаги коррупциянинг умумий назарий жиҳатини таҳлил қилиб, тегишли фаолиятнинг хорижий тажрибасига эътибор қаратиш зарур кўринади. Бу ҳолат кўп сабабларга боғлиқ. Хорижий тажрибадан фойдаланишнинг сабабларидан бири шундаки, саноати ривожланган мамлакатларда, одатда, давлат хизмати ишининг янада такомиллашган тизими мавжуд.

Давлат хизматида коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш воситаларини жорий этиш бўйича хорижий тажрибани ўрганиш шуни кўрсатадики, кўплаб давлатларда миллий ўзига хосликларга боғлиқ бўлмаган коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш бўйича чора-тадбирлар шаклланган. Шу билан бирга, биз хорижий давлатларнинг давлат хизмати тизимида коррупциянинг олдини олиш ва унга чек қўйиш консепцияларининг мазмуни давлат хизматчисининг маъмурий-ҳуқуқий мақомини батафсил белгилашгача қисқартирилганлигини ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишга асосланганлигини таъкидлаймиз. Шу боис АҚШ, Канада, Италия, Германия, Сингапур ва Хитой каби мамлакатларда коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш воситаларини жорий этиш амалиётига оид бир қанча ижобий мисолларни кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Ушбу материалнинг кўлами ва мақсадини ҳисобга олган ҳолда, бу борада энг муваффақиятли мамлакатлар тажрибасини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ кўринади. Масалан, АҚШ, Италия ва Сингапур каби мамлакатлар ичида ва халқаро майдонда коррупцияга қарши фаол кураш ташаббускорларидан бири бу ҳодисага қарши курашда катта тажрибага эга Қўшма Штатлар бўлди. "Коррупция" атамаси Қўшма Штатларда жамоат, давлат ва сиёсий арбоблар, давлат хизматчиларининг найрангига ишора қилиш учун ишлатилади.

1787 йилда қабул қилинган АҚШ Конституциясида пора олиш энг оғир жиноятлардан бири ҳисобланади. Конституцияга кўра, АҚШ президенти ушбу жиноят учун импичментга тортилиши мумкин. Қўшма Штатларда

коррупцияга қарши ҳақиқий курашнинг бошланиши ўтган асрнинг 1970-йилларга тўғри келади. Американинг Япониядаги Лоскҳеед компанияси фаолияти билан боғлиқ бўлган шов-шувли коррупция можаросининг зарбаси мамлакат ҳукуматининг истеъфога чиқишига олиб келди, америкалик қонунчиларни 1977 йилда "Хорижий коррупция амалиёти тўғрисида"ги қонунни қабул қилишга ундади.

Қабул қилинган ҳужжатда Америка фуқаролари ва компаниялари томонидан хорижий амалдорларга пора бериш тақиқланган. Бироқ, ушбу қонун қабул қилингандан сўнг, Америка ишбилармон доиралари АҚШнинг коррупцияга нисбатан қатъий позицияси коррупциялашган Учинчи дунё муҳитида фаолият юритаётган Америка компаниялари позициясини жиддий равишда бузаётганидан шикоят қила бошладилар. Натижада 1988 йилда Қонун бекор қилинди. Бироқ, вазият ўзгармади.

1995 йилда «Экономист» журналида чоп этилган материаллардан бирида 1994-1995 йилларда Америка компаниялари хорижда жами 45 миллиард долларга яқин 100 га яқин шартномани йўқотди, бу эса унчалик принципиал бўлмаган рақиблар ва рақобатчиларга кетди деб таъкидланган. АҚШ Савдо вазирлигининг 1996 йилги ҳисоботига кўра, АҚШ разведка агентликлари кўмагида америкалик фирмалар рақобатчиларнинг порахўрликка йўл қўйгани сабабли 11 млрд.долларга яқин зарар кўрган. Шу асосда Қўшма Штатларда ИҲТТ (Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти)га аъзо бошқа давлатларни чет эллик амалдорларга пора беришни жиноятга айлантиришга мажбурлаш кампанияси бошланди. Ўшанда Клинтон маъмурияти ИҲТТда порахўрлик бўйича музокараларни АҚШ Давлат департаменти фаолиятидаги устувор йўналишлардан бири деб эълон қилган эди.

Шундай қилиб, америкаликлар ўз рақобатчилари билан тенг ҳуқуқлиликка эга бўлишни хоҳлашди. Коррупцияга қарши кураш чора-тадбирларини кучайтириш ва ушбу муаммони халқаро миқёсда ҳал қилишда Америка компанияларига кўмаклашиш мақсадида, учинчи минг йилликнинг бошида АҚШ Савдо вазирлиги интернет тармоғида ўз веб-сайтида “ишонч телефони”ни яратди. Шуниси қизиқки, Қўшма Штатларда коррупция билан боғлиқ қонун бузилишларини назорат қилиш тизими шаклланган. Шундай қилиб, 1946 йилдан бери Қўшма Штатларда «Лоббичилик бўйича федерал регламент» қонуни мавжуд бўлиб, унга кўра Конгрессга босим ўтказадиган ҳар қандай ташкилот ўз лоббичиларини рўйхатдан ўтказиши ва қонунчилик соҳасидаги ўз манфаатлари ҳақида хабар бериши керак.

Маълумки, Ўзбекистон Республикасида лоббичилик фаолиятини тартибга солувчи қонун йўқ, шунинг учун лобби институти ҳуқуқий тартибга солишдан ташқарида. Бундай қонунчилик вакууми тартибга солинмаган лоббичиликка ва натижада давлат аппаратида коррупцияга олиб келади.

Ҳозирги вақтда АҚШ ва Буюк Британия тажрибасидан келиб чиқиб, мамлакатимизда лоббичилик фаолиятини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш холисона зарур, бу эса коррупция лоббичилик фактларини унинг дастлабки босқичидаёқ аниқлаш ва уларга чек қўйиш имконини беради. Қонун лоббичилик фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқини давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларида мансабларни эгаллаб турган шахсларнинг давлат хизматининг бутун муддати давомида ва хизматдан бўшатилгандан кейин маълум бир давр мобайнида чеклаши керак.

Сўнгги йилларда Америка иқтисодиётидаги порахўрлик кўлами яна шу даражага етдики, ҳукумат чет элда ўз манфаатларини илгари суриш учун пора ишлатадиган компанияларга қарши кенг кўламли ҳужум уюштиришга мажбур бўлди.

Хулоса қилиб айтганда, АҚШ давлат хизмати тўғрисидаги қонун давлат хизматида манфаатлар тўқнашувига йўл қўймайдиган, давлат ресурсларидан тўғри фойдаланишни таъминлайдиган ва ходимлар ўртасида энг юқори профессионаллик ва ҳалоллик даражасига эришишни талаб қилувчи маъмурий кодекслар ва ахлоқий хулқ-атвор стандартларини ўз ичига олади.

Коррупциянинг олдини олиш ва унга чек қўйиш соҳасида 1992-1993 йилларда коррупцияга қарши кенг кўламли курашда жуда муваффақиятли тажрибага эга бўлган Италия давлати алоҳида эътиборга лойиқдир. Дунёга машҳур “Тоза қўллар” операцияси амалга оширилди. Италия ҳукумати ушбу фавқулодда чораларни кўришга мажбур бўлди, чунки мамлакатда мафия жиноятлари кўлами кескин нуқтага етди. Расмий маълумотларга кўра, йил давомида жиноий гуруҳлар томонидан 718 та қотиллик ва 822 та одам ўғирлаш, 830 та суиқасд ва 886 та маҳаллий ҳокимият вакилларини қўрқитиш ҳолатлари содир этилган. Тергов органларининг кўплаб ходимлари ва прокуратура вакиллари коррупционерлар қурбони бўлишди. Операцияни амалга ошириш учун давлат мафияга қарши курашиш учун барча имкониятлардан фойдаланган.

Коррупцияга қарши кураш бўйича махсус ваколатларга эга бўлган махсус прокурор тайинлангани муҳим чора-тадбирлардан бири бўлди. Мамлакат ижро ҳокимияти тузилмасида уч минг нафаргача ходимдан иборат коррупцияга қарши кураш бўйича махсус бўлим ташкил этилди. Бундан ташқари, мафияга қарши кураш тўғрисида қонун қабул қилинди, бу махфий хизматларнинг жиноятчилар сафига кириб боришига имкон берди, ҳибсга олиш ва терговни осонлаштирди, сиёсатчиларга пора берганлик учун жазони кучайтирди ва тавба қилган жиноятчиларни амнистия қилишга рухсат берди. Жиноят ва процессуал кодексларга ўзгартиш ва қўшимчалар қабул қилинди, суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари, махсус хизматларнинг ҳуқуқлари қонун билан кенгайтирилди. Хусусан, тергов органларига парламент аъзоларини эркин сўроқ қилишларига рухсат берилди, бу эса "Тоза қўллар" операциясининг боришини сезиларли даражада осонлаштирди. Шу боис

кўплаб нуфузли кишиларнинг ҳаётини қийинлаштирган кампанияни бошлаган Ди Пиетро ишдан бўшатилмай, бошлаган ишини давом эттира олди. Коррупционерларга нисбатан қўлланилган ҳаракатлар тўғрисидаги барча маълумотлар оммавий ахборот воситаларига расман етказилди. Мамлакатнинг бир қатор вилоятларига мафияга қарши курашиш учун ҳарбий қисмлар юборилди.

Ҳозирги вақтда Италияда коррупция бартараф этилмаган, аммо унинг кўлами ва табиати сезиларли ўзгаришларга дуч келди. Судьялар ва прокурорларни мунтазам равишда ўлдириш кўринишидаги мафия ҳодисалари ўтмишда қолди, жамиятдаги умумий муҳит яхши томонга ўзгарди.

Янги саноатлашган мамлакатлар орасида биринчилардан бўлиб коррупцияга қарши кенг қамровли кураш олиб борган Сингапур ҳукумати бу соҳада катта муваффақиятларга эришди. Мамлакатда коррупцияга қарши курашиш ва унга барҳам беришнинг жуда самарали тизими яратилган. Бу мамлакатда коррупцияга қарши стратегия қатъийлик ва изчиллик билан ажралиб туради ва шахсни коррупцион хатти-ҳаракатларга ундаш учун ҳам рағбат, ҳам имконият яратадиган шароитларни минималлаштириш ёки йўқ қилишга қаратилган. Коррупция даражасини пасайтириш тактикаси маъмурий ва қонунчилик чоралари мажмуини қўллаш асосида қурилган, жумладан: бюрократик жараёнларни соддалаштириш; мансабдор шахсларнинг ҳаракатларини тартибга солиш; юқори ахлоқий меъёрларни қатъий назорат қилиш.

Сингапурда коррупцияга қарши курашнинг ҳуқуқий асоси 1960 йилда қабул қилинган Коррупциянинг олдини олиш тўғрисидаги қонунчилик қонуни билан мустаҳкамланган. Махсус давлат органи - Коррупцияга қарши кураш агентлиги (КҚКА) ташкил этилди, унинг директори бевосита мамлакат Бош вазирига бўйсунади. КҚКА тузилмасида учта бўлим мавжуд: оператив, маъмурий ва ахборот.

Қабул қилинган қонун бир қатор жиддий тўсиқларни бартараф этди. Аввало, қонунда коррупциянинг барча турларига аниқ таъриф берилди ва агентлик фаолияти тартибга солинди, унга алоҳида ваколатлар берилди. Қонун порахўрлик учун жазони кучайтирди. Пора олганлик учун қамоқ жазоси оширилди, пора берганлик ёки коррупцияга қарши терговда иштирок этишдан бош тортганлик учун қаттиқ чоралар кўрилди. Агентлик ходимлари эҳтимолий порахўрларни қўлга олиш, уларнинг уйи ва иш жойларида тинтув ўтказиш, банкдаги ҳисоб рақамларини текшириш ва ҳоказолар ҳуқуқига эга бўлди. Сингапур фуқаролари давлат хизматчилари устидан агентликка шикоят қилишлари ва уларнинг жазоланишини талаб қилишлари мумкин. Кейинчалик Сингапур қонунчилиги бир неча бор тўлдирилди. Хусусан, 1989 йилда мулкни мусодара қилишни назарда тутувчи жазо тури жорий этилди.

Мустақил суд ҳокимиятини оширишга қаратилган қатор чора-тадбирлар белгиланди. Судьялар имтиёзли мақом ва юқори маош олдилар.

Мустақил суд тизими, қонунни бузган мансабдор шахс оғир жиноятда айбдор деб топилиши мумкин бўлган коррупциянинг потенциал жалб этилишини кескин камайтиради. Коррупцияга қарши курашиш доирасида божхона органлари ва бошқа давлат ташкилотлари ва хизматларидаги мансабдор шахсларни оммавий равишда ишдан бўшатиш амалиёти жорий этилди. Бу чора-тадбирлар иқтисодиётни тартибга солиш, мансабдор шахсларнинг иш ҳақини ошириш ва малакали бошқарув кадрларини тайёрлаш билан бирлаштирилди.

XX-аср 80-йилларнинг иккинчи ярмидан бошлаб Сингапур ҳукумати бюрократиянинг «сифати» устида жиддий ишлай бошлади. Аввало, улар мансабдор шахсларнинг маошларини сезиларли даражада оширишга қарор қилишди, бу эса уларни пора олишдан сақлаб қолиши керак эди. Ҳукумат амалдор касбини нафақат юқори маошли, балки юксак ҳурматга сазовор қилди. Маҳаллий бюрократия дунёдаги энг самарали идоралардан бири ҳисобланади. Сингапурда давлат даражасида юқори мартабали кадрларни танлаш ва жойлаштириш сиёсатида 1 меритократия тамойили тарғиб қилинади.

Сингапурда қобилиятли, зукко, илғор фикрлайдиган ёшларни танлаш имконини берувчи, уларнинг билим ва касбий ўсишига ҳисса қўшадиган тизим яратилди. Мансабдор шахсларга номзодларни танлаш мактабда ўтказилади. Кейин бўлажак элита вакилларига университетга киришда ёрдам берилади, чет элга ўқиш ва амалиёт ўташга юборилади. Хусусан, давлат амалдорларининг фарзандлари Оксфорд, Сорбонна, Гарвард ва бошқа энг нуфузли хорижий университетларда ўқиш учун маош олади. Бу бюрократик сулолаларнинг пайдо бўлишига туртки беради. Порага алданган давлат хизматчиси нафақат ўзининг, балки авлодларининг келажагини ҳам хавф остига қўяди.

Коррупцияга қарши кураш агентлиги бўлажак мансабдор шахсларни тайёрлаш билан шуғулланади. Шундай қилиб, давлат бошқарув аппарати босқичма-босқич профессионал, малакали ва билимли кадрлар билан янгиланиб борди, уларнинг аксарияти агентлик сафига қўшилди. Сингапурда ҳар уч йилда исталган мансабдаги мансабдор шахс қайта аттестациядан ўтказилади, унда унинг фаолияти натижаси ва самарадорлиги синчковлик билан таҳлил қилинади, иш сифатини ошириш бўйича фикр ва мулоҳазалар билдирилади.

Ўтган асрнинг охирида ушбу мамлакатда ўтказилган социологик тадқиқот шуни кўрсатдики, сўровда қатнашган давлат муассасалари ходимларининг деярли 100 фоизи ўз бошлиғи ҳеч қачон қонунни бузмаган ва пора олмаган деб ҳисоблайди.

Шундай қилиб, давлат аппаратида коррупциянинг олдини олиш ва унга чек қўйиш билан боғлиқ муаммолар нафақат мамлакатимиз учун долзарбдир. Бу муаммо АҚШ, Канада, Италия, Германия, Сингапур, Хитой ва бошқа бир қатор давлатлар учун ҳам муҳим ва долзарбдир.

Хорижий тажрибани ўрганишни якунлар эканмиз, шуни таъкидлаш керакки, давлат хизматлари тизимидаги коррупциядан дарҳол ва тўлиқ халос бўлиш амалда имконсиздир. Коррупция кўринишларига қарши курашиш бўйича қонунчилик ва амалиётни ўрганиш шуни кўрсатадики, ҳозирда бирорта ҳам давлатда уларга қарши курашишнинг самарали воситалари мавжуд эмас. Халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар ва хорижий давлатларнинг коррупцияга қарши қонунчилиги таҳлили шуни кўрсатдики, бир қатор ҳолларда коррупцияга қарши курашни ҳуқуқий тартибга солиш масалалари уларда Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига қараганда анча тўликроқ ва чуқурроқ акс эттирилган, бир қатор ҳолларда эса хорижий мамлакатларда ушбу муаммони тартибга солиш Ўзбекистон Республикасига қараганда сезиларли даражада юқори.

Ривожланган мамлакатларда давлат хизматини ислоҳ қилишнинг яққол муваффақиятларига қарамай, юқорида қайд этилган давлатларда олиб борилган кенг кўламли ислоҳотларнинг ҳеч бири тўлиқ муваффақият билан якунлангани йўқ. Кўриниб турибдики, бу мамлакатда давлат хизматининг ижтимоий муносабатларнинг реал ҳолати ва жамият тараққиёти даражасидан, ўзи кадрлар оладиган ва ўзи раҳбарлик қилишга чақирилганидан олдинда бўлмаслиги кераклиги билан боғлиқ. Акс ҳолда, давлат хизматининг жорий этилган моделидан бутунлай воз кечиш ёки давлат хизматининг фақат расмий жиҳатларини кейинчалик бузиб, мамлакатда ҳақиқатда мавжуд бўлган ижтимоий муносабатларга мослаштириш билан қарзга олиш муқаррар. Бу эса пировардида, амалга оширилаётган ислоҳотлар «қопқоқлиги» остида мамлакатда мавжуд камчиликларнинг сақланиб қолишига олиб келади.

Матжанов И.А.

ҚМУ Жынайый-ҳуқықый ҳәм пуқаралық-ҳуқықый пәнлер кафедрасы доценти, юридика илимлери кандидаты, доцент
matjanov@mail.ru

КОРРУПЦИЯҒА ҚАРСЫ ГҮРЕСТЕ ХАЛЫҚАРАЛЫҚ ҲҮЖЖЕТЛЕРДИҢ ТУТҚАН ОРНЫ

Өзбекстан Республикасында әмелге асырылып атырған реформалар социаллық-экономикалық, сиясий ҳәм мәдений турмыстың барлық салаларын өзинде қамтып алды. Ақырғы мақсети ҳуқықый демократиялық мәмлекетти қәлиплестириў болған бул реформалар мәмлекетимиздиң суд-ҳуқық системасына сезилерли тәсир көрсетти. Суд-ҳуқық реформасы ҳуқықый мәмлекет ҳәм пуқаралық жәмийетти қурыў процессиниң ажыралмас қурам бөлеги болып, тараўда реформа өткерместен мәмлекетте нызам шығарыўшы ҳәм атқарыўшы ҳәкимият тармақлары менен тең, бийғәрез, күшли суд ҳәкимиятын жүзеге келтириў мүмкин емес.

Мәмлекетимизде демократиялық жаңаланыўдың бүгинги басқышындағы ең әҳмийетли бағдарларынан бири – нызам үстинлигин ҳәм нызамшылықты беккемлеў, инсан ҳуқық ҳәм мәплерин исенимли қорғаўға қаратылған суд-ҳуқық системасын избе-из демократияластырыў ҳәм либералластырыўдан ибарат. Елимизде ҳуқықый мәмлекет тийкарларын жәнеде жетилистириў ҳәм халықтың ҳуқықый санасын раўажландырыў шешиўши ўазыйпа болып қалмақта. Усы тийкарда, мәмлекетимиздиң экономикалық ҳәм социаллық раўажланыўында әлбетте коррупцияға қарсы гүресиў биринши дәрежели әҳмийетке ийе.

Ҳәзирги күнде дүнья көлеминде шешилиўи лазым болған ең бирлемши мәселелерден бири – коррупция машқаласы саналады [Шамсуддинов Б.С., 25]. Оған қарсы гүресиў халық аралық көлемге көтерилип, жәҳән сиясатының әҳмийетли мәселесине айланды. Усы иллет тек ғана реформалар жолына тосқынлық болып қалмастан, өтиў дәўиринде белгиленген мақсетлерге ерисиўге тиккелей қәўип туўдырады.

Мәмлекетимизде коррупцияға қарсы гүресиў мәселесине ғәрезсизликтиң дәслепки күнлеринен итибар қаратып келинбекте. Өткен ўақыт даўамында коррупцияға қарсы гүресиў ҳәм оның алдын алыўға қаратылған беккем ҳуқықый база ҳәм системалы әмелият қәлиплести. Ең алды менен, мәмлекетимизде БМШ кәўендерлигинде қабыл етилген ECOSOS (БМШниң экономикалық ҳәм социаллық кеңеси) Коррупцияға қарсы гүресиў Резлюциясы (1995-ж.), Мәмлекетлик лаўазымлы шахсларының халықаралық әдеп-икрамлылық этикасы кодекси (1996-ж.), Халық аралық коррупция ҳәм парахорлыққа қарсы гүресиў ҳаққындағы Декларация (1997-ж.), Трансмиллий жынаятшылыққа қарсы гүресиў конвенциясы (2000-ж.) ҳәм

басқада халықаралық ҳүжжетлердиң ратификация етилиўи коррупцияға қарсы гүресиўде әҳмийетли фактор болып хызмет етпекте.

Халықаралық ҳүжжетлер ишинде, БМШниң Бас Ассамблеясы тәрепинен қабыл етилген Коррупцияға қарсы конвенция (2003-жыл 31-октябрь) тийкарғы халықаралық ҳуқықый ҳүжжет болып, ол усы жынаяттың мазмунын толық сәўлелендирип, оған қарсы гүресиў шараларын белгилеп береди [Абдурасулова Қ., Қурбонов О., 58].

Конвенция тәрепинен қатнасыўшы мәмлекетлердиң ҳәрекетлерин муўапықластырыў мақсетинде турақлы Арнаўлы конференция шөлкемлестирилген болып, БМШниң Гиябентлик ҳәм жынаятшылыққа қарсы гүресиў басқармасы оның секретариаты етип белгиленген.

Барлық мәмлекетлер коррупция иллетин түп-тамыры менен жулып таслаўда халықаралық жәмийетшилик пенен бирге ислесип атырған болса да, оған қарсы гүресиў ҳәр бир мәмлекеттиң өзинде алып барылыўыда айрықша әҳмийетке ийе саналады. Себеби, жоқарыдағы Конвенция миллий нызамшылықты жетилистириў бағдарларын да белгилеп береди.

Өзбекстан бул бойынша әҳмийетли қәдем таслап келмекте. Елимизде коррупция экономикалық ҳәм социаллық раўажланыў ушын қәўип екенлиги тән алынды. Сол мақсетте, “Жәмийетте ҳуқықый мәдениятты жоқарылатыў Миллий дәстүри” қабыл етилип, турмысқа енгизилди. Мәмлекетимиз 2008-жыл 7-июлде БМШниң жоқарыда көрсетип өтилген БМШниң Бас Ассамблеясы тәрепинен қабыл етилген Коррупцияға қарсы конвенциясына ағза болды.

Мәмлекетимиз 2010-жыл март айында Экономикалық бирге ислесиў ҳәм раўажланыў шөлкеми шеңберинде қабыл етилген коррупцияға қарсы гүресиўдиң Стамбул режесине (2003-жыл 10-сентябрь) қосылған. Сондай-ақ, Жынайый дәраматларды легалластырыўға ҳәмде терроризмди қаржыландырыўға қарсы гүресиў бойынша Евроазия топары ҳаққындағы питими (Москва, 2011-жыл 16-июнь) Олий Мажлис тәрепинен 2011-жыл 13-декабрде ратификация етилген.

Мәмлекетлик органларда коррупцияға қарсы гүресте шөлкемлестириў ислери бойынша жумыслар әмелге асырылған. Өзбекстан Республикасы Бас прокуратурасы ҳәм Ишки ислер министрлиги қурамында коррупцияға қарсы арнаўлы дүзилмелер (басқарма ҳәм бөлимлер) шөлкемлестирилип, қатар министрлик ҳәм ведомстволарда ишки қәўипсизлик инспекциялары дүзилген. Олардың жумысын еледе жанландырыў, ҳуқықый тәрбияны күшейтиў, ҳуқық қорғаў органларының жәмийетшилик пенен байланысларын беккемлеў мақсетинде интернет ҳәм ғалаба хабар қураллары имканиятларынан кең пайдаланылмақта.

Коррупцияға қарсы гүресте мәмлекетимизде соңғы жыллары бирқатар норматив-ҳуқықый ҳүжжетлер қабыл етилген. Өзбекстан Республикасының 2017-жыл 3-январындағы «Коррупцияға қарсы гүресиў ҳаққында»ғы ЎРҚ-

419-санлы ҳәм Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2019-жыл 27-майдағы «Өзбекстан Республикасында коррупцияға қарсы гүресиў системасын жәнеде жетилистириў ис-илажлары ҳаққында»ғы ПФ-5729-санлы Пәрманлары тараўда әҳмийетли болған ҳүжжетлер саналады.

Соның менен бирге, Өзбекстан Республикасының 2014-жыл 14-май күнги “Өзбекстан Республикасының айырым нызам ҳүжжетлерине өзгерис ҳәм қосымшалар киргизиў, сондай-ақ, айырым нызам ҳүжжетлерин өз күшин жоғалтқан деп табыў ҳаққында”ғы ЎРҚ-372-санлы нызамы қабыл етилди. Нызам мәмлекетимизде коррупцияның ҳәр қандай көриниси соның ишинде, пара берген яки пара алыў-бериўде дәлдалшылық еткен шахсларға қарата жынайый жуўапкершиликти жәнеде күшейттириўди нәзерде тутады. Өзбекстан Республикасы жынаят кодексиниң 211- ҳәм 212-статьялары (пара бергенлиги ҳәм пара алыў-бериўде дәлдалшылық қылғанлығы) биринши ҳәм үшинши бөлимлери санкциялары өзгерттирилип, усы топардағы жынаятлар ушын жаза пара алыў жынаяты ушын белгиленген жазаға теңлестирилди.

Әдебиятлар

1. Шамсуддинов Б. С. Коррупциявий жиноятлар учун жавобгарлик // Масъул муҳаррир: Д.Б.Бозорова, ю.ф.н., проф. в.б. – Т.: ТДЮУ, 2020.

2. Абдурасулова Қ., Қурбонов О. Коррупция: Асосий тушунча ва шакллар (рисола). – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009.

Giyasov Dilshod Fazliddinovich — *O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi boshlig‘i polkovnik*

Tolipov Kamoliddin Tursunboevich — *Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi "Huquqiy fanlar" sikli boshlig‘i podpolkovnik*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH JAMIYAT VA DAVLAT RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA: MAXALLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Annotatsiya: Maqolada xozirgi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda xorijiy tajribalar yoritilgan.

Annotatsiya: V state opisыvayutsya borba s korrupsiey kak vajnыy faktor razvitiya obщestva i gosudarstva: osveщena tema otechestvennogo i zarubejnogo opыta.

Abstact: The fight against corruption as an important factor in the development of society and the state: the topic of domestic and foreign experience is covered.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, chora-tadbirlar, huquq, xorijiy tajriba, nazorat funksiyalari, islohotlar.

Klyuchevыe slova: коррупция, меры, право, зарубежный опыт, функции контроля, реформы.

Keywords: corruption, measures, law, foreign experience, control functions, reforms.

Bugun O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurash olib borilmoqda. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturining tasdiqlanishi mamlakatda korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni samarali amalga oshirilishini ta’minladi. Misol uchun, qisqa vaqt ichida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid beshta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Davlat rahbarining bir qator Farmonlari qabul qilindi.

Shuni alohida qayd etish joiz, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishni bosh maqsad qilgan alohida davlat organini tashkil etish yuzasidan Prezident Farmoni loyihasini tayyorlash bo‘yicha faol sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Loyihada mazkur organning tashkil etilishi va faoliyat yurtishining huquqiy

asoslari, maqsad va vazifalari, huquq hamda majburiyatlari, shuningdek, mamlakat Prezidenti va parlamentiga hisobdorlik belgilanishi nazarda tutilishi kerak. Shu munosabat bilan, ushbu sohadagi ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, ayniqsa, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda xorijiy tajriba

Biz olib borgan tahlillar korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga institutsional yondashuv bir qator ijobiy jihatlarga ega bo‘lishini ko‘rsatdi. Mazkur muammoga kompleks yondashuvni amalga oshirish, jamiyatda mavjud korrupsiya darajasini pasaytirish borasidagi vazifalarni samarali hal etish imkonini beradi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organlarning muvaffaqiyat qozongan uchta asosiy faoliyatini misol tariqasida keltirib o‘tish mumkin:

1) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi chora-tadbirlarni olib borish;

2) tergov vakolatlari, nazorat funksiyalari;

3) boshqa idoralardan mustaqil ravishda o‘z faoliyatini olib borish, faqat davlat hokimiyatining oliy organlariga hisobdor bo‘lish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tavsiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha yetakchi xalqaro tuzilma – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tadqiqotiga ko‘ra, huquqni muhofaza qilish organlari vakolatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘p maqsadli idoralarning modeli kompleks yondashuvning eng yorqin namunasidir. Ushbu turga tegishli bo‘lgan idoralar quyidagi:

– tergov faoliyatini olib borish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘ziga xos siyosatni ishlab chiqish, tahliliy faoliyat, jinoyatlarning oldini olishda ko‘maklashish, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilish, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilishini monitoring qilib borish kabi vazifalarni bajaradi.

Bunday modelni Gonkongning korrupsiyaga qarshi kurashish Mustaqil komissiyasi va Singapurning korrupsiya faoliyati bo‘yicha tergov Byurosi bilan tenglashtirish mumkin. Singapur Byurosi o‘z ichiga – tergov, ma’lumot va axborot, ko‘maklashish bo‘limlarini oladi. Bo‘limlar ichida eng kattasi Tergov bo‘lib, u Byuro tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun mas’ul sanaladi. Singapur tajribasi bir qator mamlakatlarda joriy etildi. Jumladan, 2005 yilning dekabr oyida Polsha politsiya (jinoyatni fosh qilish) hamda axborot-tahliliy funksiyalarni bajaruvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish markaziy byurosini tashkil etish to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi. Byuro faoliyati Polsha maxsus organlari ishlari bo‘yicha Seyma komissiyasi tomonidan nazorat qilinadi. Bu haqda ma’lumot maxfiy xarakterga ega.

E’tirof etish kerakki, shunga o‘xshash tajriba Latviya, Litva va Ukraina kabi sobiq ittifoq mamlakatlarida ham qo‘llanilgan. Xususan, Latviyada korrupsiyaning

oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha Byuro mavjud. Bunda qonun chiqaruvchilar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunchilikka qat’iy rioya qilish hamda Byuro faoliyati ustidan parlament nazoratining g‘oyatda samarali mexanizmi nazarda tutilgan. Shuningdek, bunda deputatlik so‘rovlarining umume’tirof etilgan amaliyoti, yuqorida qayd etilgan huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarini maxsus parlament qo‘mitalariga taklif qilish, maxsus ad hoc komissiyalarini tuzish va boshqalar qo‘llanilib kelinmoqda.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organning korrupsiyaning oldini olish borasidagi vazifalari ham faoliyatning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organlar faoliyatini yuritishda katta tajribaga ega bo‘lgan Fransiya, Ruminiya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Finlyandiya, Norvegiya, Daniya kabi qator mamlakatlar mavjud. Masalan, bunga Fransiyada Fransiya Adliya vazirligi shafeligida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha idoralararo organ bo‘lgan Markaziy xizmatning tashkil etilishi mantiqiy javob bo‘ladi. Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan Adliya ombudsmani shug‘ullanadi, u Finlyandiya Prezidenti tomonidan tayinlanadi va boshqa davlat organlaridan mutlaqo mustaqil hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish organining samarali faoliyatida mahalliy bo‘linmalarning roli muhim ahamiyatga ega. Xususan, Germaniya va Avstriya tajribasi ham korrupsiyaga qarshi kurashishda mahalliy tuzilmalarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Germaniyaning davlat apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy bo‘g‘ini, bu, federal va yer vazirliklari, idoralaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus bo‘linmalar (odatda bo‘limlar)dir. Avstriyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan maxsus prokuratura shug‘ullanadi. Uning shtab-kvartirasi Vena shahrida bo‘lib, Avstriyaning barcha yirik shaharlarida o‘z filiallariga ega.

Umuman olganda, shuni ta’kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan organ vakolat, hokimiyat organlari tuzilmasidagi qoidalar, muassasa rahbarini tayinlash va olib tashlash tartibi, ichki tashkiliy tuzilma, vazifalar, yurisdiksiya, huquq va majburiyatlar, budjet, kadrlar tarkibini shakllantirish qoidalari (xodimlarni tanlash qoidalari, ayrim hollarda ularning immunitetlari to‘g‘risidagi qoidalar va boshqalar), boshqa institutlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish (ayniqsa, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari), hisobdorlik hamda hisobot berish tizimi va hokazolar aniq belgilab berilgan qonunchilik bazasiga ega bo‘lishi zarur.

Korrupsiya deb ataluvchi ushbu illatga qarshi nafaqat bizning mamlakat balki dunyodagi barcha mamlakatlar kurashib kelmoqda. Shuningdek, respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurash doirasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, dasturlar qabul qilindi va ular bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.



Xususan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi “Transparency International” xalqaro tashkilotining reytingida o‘z o‘rnini 7 pog‘onaga yaxshilab, 2020 yil 180 ta davlat orasida 146-o‘rinni egalladi[1].

Ma’lumot uchun: *Korrupsiyani qabul qilish indeksida sobiq Sovet ittifoqi tarkibiga kirgan davlatlar ichida Gruziya, Armaniston va Belorus sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa, Turmaniston va Tojikiston reytingdan ohirgi o‘rinlarni egallagan.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etildi va Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vazifa va vakolatlari belgilab berildi.

Respublikamizda 2020 yil davomida korrupsiyaga oid sodir etilgan jinoyatlarga doir statistika quyidagi ko‘rinishga ega. Jumladan, Agentlikning ma’lumotiga ko‘ra sudlar tomonidan 2020 yil davomida korrupsiya bilan bog‘liq (JK 205-214, 243-moddalari) jami 2 270 nafar shaxsga nisbatan 1 502 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqilgan. Korrupsiya jinoyati bilan bog‘liq masalalar yuzasidan aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish quyidagi diagrammada aks ettirilgan.



Ushbu diagrammadan shuni ko‘rish mumkinki, 2020 yilda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar yuzasidan 610 ta shaxsga axloq tuzatish ishlari, 539 ta shaxsga ozodlikni cheklash, 403 ta shaxsga jarima, 300 ta shaxsga ozodlikdan mahrum qilish, 13 ta shaxsga muayyan huquqdan mahrum qilish va 4 ta shaxsga nisbatan majburiy jamoat ishlari kabi jazolar qo‘llangan. Shuningdek, 47 ta shaxs shartli hukm qilingan, 151 shaxsga jazo qo‘llanilmagan, 56 ta shaxs esa jazodan ozod qilingan.

Shuningdek, ushbu illatga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakillantirishga qaratilgan targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Shunga qaramasdan, hozirgi kunda ham ko‘pgina sohalarda korrupsiyaning ildizi saqlanib qolmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqqiyatga erishgan mamlakatlar mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadida, “Transparency International” xalqaro tashkilotining 2020 yilgi reytingida eng yuqori o‘rin egallagan 7 ta mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

1. Daniya qirolligi davlati korrupsiyaning minimal darajasi bo‘yicha dunyodagi eng yaxshi uchta reytingdan birini egallagan bo‘lib, davlat va tijorat sektorining o‘zaro ta’siri orqali korrupsiyaga qarshi kurashishda eng katta yutuqlarga 2000 yillardan boshlab erishgan.

Natijada vazirlar va mansabdor shaxslar o‘zlarining mavqeyidan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishlarining oldini olish maqsadida chet el kompaniyalaridagi o‘z aksiyalarini sotishga majbur bo‘ldilar.

Biroq, o‘tkazilgan bir qancha islohotlarga qaramay mamlakatda korrupsiya holati oz bo‘lsa ham saqlanib qolmoqda. Bu holatlar ko‘proq Daniya

kompaniyalarining xorijiy maydondagi faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, davlat va biznes o‘rtasidagi korrupsiyaga qarshi hamkorlikning asosiy ahamiyati xalqaro savdo muammolariga qaratilgan.***Ma’lumot uchun:*** *2020 yilda Jahon banki va Forbs jurnali tomonidan Daniya Yevropada biznes uchun eng yaxshi joy sifatida etirof etilgan. E’tiborli tomoni shundaki, Daniya davlatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha alohida tashkilot“agentlik” mavjud emas.*

2. Gruziyaning korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasi noyob va muvaffaqiyatli bo‘lib, uning ko‘p jihatlari boshqa mamlakatlarda moslashtirilishi va qo‘llanilishi mumkin[1].

Ma’lumot uchun: *Gruziya, korrupsiyani qabul qilish indeksida 2004 yilda 85-o‘rinni, 2014 yilda esa 50 o‘rinni egallagan. Bu davr (10 yil) Gruziya uchun korrupsiya holatlarini kamaytirishdagi eng ahamiyatli davr hisoblanadi[2].*

Gruziyada davlat boshqaruvi tuzilmasini isloh qilish va korrupsiya darajasini pasaytirishda Amerika, Italiya, Yangi Zelandiya va Buyuk Britaniyaning tajribasi asos bo‘ldi. Shu bilan birga, ushbu vazifalarni amalga oshirishda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va USAID kabi xalqaro tashkilotlarning maslahatchilari va ekspertlari jalb qilindi.

Gruziyaning korrupsiyaga qarshi kurash modelining o‘ziga xos xususiyati shundaki mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha alohida organ mavjud emas. Gruziyada 2008 yilda korrupsiyaga qarshi kurashni muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo‘yicha maxsus Kengash tuzilgan, unga Adliya vaziri rahbarlik qiladi va adliya vazirligining Analitik bo‘limi kengash kotibiyati vazifasini bajaradi.

Kengash 16 ta a’zodan tashkil topgan, biroq Kengashning o‘ziga xos xususiyati shundaki u o‘zining shaxsiy tarkibiga va budjetiga ega emas, Kengash a’zolarining vakolatlari hukumat tomonidan tugatilishi mumkin.

Malumot uchun: *Gruziyaning korrupsiyaga qarshi siyosati korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi, harakatlar rejasi va jinoyat kodeksi asosida amalga oshiriladi. Har bir vazir o‘z vazirligiga korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida alohida hisobot beradi.*

Gruziyaning korrupsiyaga qarshi strategiyasi quyidagi oltita ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan:

– samarali va korrupsiyadan holi davlat sektori;

– raqobatdosh va korrupsiyadan holi xususiy sektor;

– adolat tizimini takomillashtirish;

– korrupsiyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirish;

– korrupsiyaning oldini olish va siyosiy partiyalar faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish. Gruziyada amalga oshirilgan islohotlarning asosiy natijalari:

a) Ichki ishlar organlarining yo‘l patrul xizmati inspektorlari 85 foizga yangilandi va ular soni bir necha bor qisqartirildi. Shuningdek, korrupsiya holatlariga aloqador barcha xodimlar ishdan bo‘shatildi va ularning aksariyati

qamoq jazosiga hukm qilindi. Shu bilan bir qatorda Ichki ishlar organlari rolini kuchaytirish dasturi joriy etildi.

b) Mamlakatda olib boriladigan islohotlar natijasida haydovchilik guvohnomasini olish bayram va dam olish kunlarisiz 24 soat ishlaydigan xizmat ko‘rsatish agentligi tomonidan amalga oshiriladi, avtomototransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish 15 daqiqa ichida amalga oshiriladi.

v) Davlat xizmatiga kadrlarni qabul qilish meritokratiya prinsipiga muvofiq amalga oshirildi (bir-birlari bilan hech qanday aloqasi, jumladan oilaviy aloqalari bo‘lmagan, bitta universitetda o‘qimagan va hk).

g) Soliq tizimida esa 25 ta soliq organlari qisqartirilib, faqatgina 6 ta soliq bo‘yicha organ qodirildi. Shuningdek, 2008 yilda bojxona to‘lovlari qisqartirildi va deyarli butunlay bekor qilindi, shuningdek qishloq xo‘jaligi yerlarini xususiylashtirishga ruxsat berish to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

d) Korrupsiyaga qarshi kurashishda juda qattiq choralar ko‘rildi. Masalan, nafaqat korrupsiya huquqbuzarligi uchun, balki pora talab qilgan yoki taklif qilayotgan shaxslar uchun ham jinoiy jazo kuchaytirildi. Bundan tashqari, ayb prezumpsiyasi joriy qilindi, bunda mansabdor shaxs o‘z mol-mulkini qanday qilib qo‘lga kiritganligini tushuntirishi lozimligi belgilandi.

j) Korrupsiyaga qarshi strategiyani amalga oshirishda aholini keng doirada xabardor qilish, televidenieda maxsus videofilmlarni namoyish qilish va fuqarolarni korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirok etishga jalb qilindi.

3. Janubiy Koreyada 2020 yil 15 iyulda “Yuqori martabali mansabdor shaxslar o‘rtasida korrupsiyani tergov qilish boshqarmasini tashkil etish va uning faoliyati to‘g‘risida”gi 16863-son qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunga asosan, yuqori lavozimda ishlab keladigan amaldorlarga qarshi shikoyatlarni tekshirish yuzasidan Korrupsiyaga qarshi tergov boshqarmasi (**Corruption Investigation Office – CIO**) tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi tergov boshqarmasi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar tergovini amalga oshiradi.

Boshqarma quyidagi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar yuzasidan tergov harakatlarini olib boradi:

– Prezident;

– milliy yig‘ilish raisi va uning a’zolari;

– bosh vazir;

– Oliy sud, Konstitutsiyaviy sud raislari;

– bosh prokuror;

– sudyalar va prokurorlar;

– ichki ishlar organlari mansabdor shaxslari;

– milliy xavfsizlik boshqarmasi, Prezident xavfsizlik xizmati va boshqalar (to‘liq ro‘yhat qonunning 2-moddasida ko‘rsatilgan).

Shuningdek, boshqarma quyidagilar yuzasidan surishtiruvni amalga oshiradi:

– Koreya JKning 122-133 moddalarida nazarda tutilgan, mansabdor shaxslarning vazifalarini bajarish bilan bog‘liq jinoyatlar (pora olish, mansab vakolatini suiste’mol qilish, rasmiy sirlarni xususiy kompaniyalarga oshkor qilish);

– JKning 144, 225, 227, 227-2, 229 moddalarida nazarda tutilgan mansab sohtakorligi hamda hujjatlarni qalbakilashtirish bilan bog‘liq jinoyatlar;

– JKning 355, 357, 359 moddalarida nazarda tutilgan o‘g‘irlik va mansabga sovuqqonlik bilan qarash jinoyatlar;

– “Advokatlar to‘g‘risida”gi qonunda nazarda tutilgan vositachilik uchun pora olish va boshqa jinoyatlar.

Boshqarma nafaqat ushbu jinoyatlarni sodir etganlikda gumon qilingan yuqori lavozimli mansabdor shaxslarni, balki quyidagilarni ham tekshirishi mumkin:

– yuqori lavozimli mansabdor shaxslarga pora bergan shaxslarni;

– yuqori lavozimli mansabdor shaxslarning oila a’zolariga pora bergan shaxslarni; – yuqori lavozimli mansabdor shaxs yoki uning oila a’zosi tomonidan sodir etgan jinoyat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yashirgan shaxslarni (masalan, jinoyatchiga boshpana berish, qochish, yolg‘on guvohlik berish, dalillarni yo‘q qilish);

– yuqori lavozimli mansabdor shaxslarni yuqorida sanab o‘tilgan jinoyatlarni sodir etganlikda yolg‘on ayblagan shaxslarni.

Korrupsiyaga qarshi tergov boshqarmasi faqat tergov olib boradi va to‘plangan ma’lumotlarni prokuratura organlariga yuboradi.

Korrupsiyaga qarshi tergov boshqarmasi boshlig‘i Prezident tomonidan tayinlanadi va uning tarkibiga 25 prokuror hamda 40 tadan ko‘p bo‘lmagan tergovchilar kiradi.

Ma’lumot uchun:*Janubiy Koreyada korrupsiyaga qarshi tergov boshqarmasini yaratish jarayoni 20 yildan ortiq davom etgan. Bunday organni tashkil etish bo‘yicha birinchi qonunchilik tashabbusi 1996 yilda paydo bo‘lgan.*

Braziliyada 2013 yilda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi 12.846-son qonuni qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonun yuridik shaxslarni (kompaniyalar, korxonalar) ularning hodimlarini korrupsiyaga oid xatti-harakatlarni sodir etganligi uchun jazolashni nazarda tutadi.

Ushbu qonunga binoan kompaniya xodimlari korrupsiyada aybdor deb topilganda kompaniyaga nisbatan quyidagi choralar qo‘llaniladi:

– kompaniyaning yillik yalpi daromadining 0,1 foizidan 20 foizigacha miqdorda jarima (agar bunday daromad miqdorini belgilashni iloji bo‘lmasa, sudya 6 ming realdan 60 million realgacha bo‘lgan miqdorda jarima solishga haqlidir);

– korrupsiyaviy faoliyat natijasida yetkazilgan zararni undirish;

– korrupsiyada aybdor deb topilgan kompaniya hodimining qilmishlarini sudning kuchga kirgan qarori asosida ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;

– davlat moliya institutlaridan resurslarni (kreditlar, subsidiyalar, imtiyozlar) olish huquqini 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatga cheklash;

– jazo muddati davomida shartnomalar tuzishni taqiqlash;

– kompaniya faoliyatini vaqtincha taqiqlash va boshqalar;

4. Gollandiyada ham Daniyada bo‘lgani kabi korrupsiyaga qarshi kurash samarali yo‘lga qo‘yilgan. Mamlakatda korrupsiya holatlarini aniqlash bo‘yicha muhim vakolatlarga ega “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat xavfsizligi” tizimi yaratilgan .

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– har yili aniqlangan korrupsiya faktlari va korrupsiyaga aloqador shaxslarni jazolash bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida parlamentga hisobot taqdim etish;

– korrupsiya harakatini sodir etganlik uchun asosiy jazo turi sifatida ijtimoiy nafaqalarni to‘xtatgan holda davlat tashkilotlarida ishlashni ta’qiqlash;

– korrupsiya harakatini sodir etganlik uchun jarima to‘lash

va vaqtinchalik hizmatdan chetlashtirish;

– korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo‘lgan lavozimlarga shaxslarni tanlashni tashkil etish;

– korrupsiya jinoyatlariga oid barcha materiallarni jamoatchilik muhokamasiga yetkazish (milliy xavfsizlik tizimiga ta’sir qiluvchi holatlar bundan mustasno);

– mansabdor shaxslarni korrupsiyaning zararini tushuntirish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarida o‘qitish;

Ma’lumot uchun: *2020 yilgi korrupsiyani qabul qilish reytingida Gollandiya dunyo bo‘yicha 9-o‘rinni egallagan.*

5. Germaniya Federativ Respublikasida ko‘p yillardan buyon davlat organlarida korrupsiyani oldini olish uchun rotatsiya amalga oshirilmoqda. Germaniya qonunchiligida korrupsiyaga moyil bo‘lgan lavozimlarda ishlaydigan davlat xizmatchilarini rotatsiya qilish nazarda tutilgan. Bunday lavozimlarda xizmat muddati 5 yil qilib belgilangan. Mamlakatda nazorat guruhlari ishtirokida rotatsiya joriy etilishi bilan korrupsiya darajasi kamayganligini tasdiqlagan tajriba o‘tkazildi. Germaniya olimlarining fikriga ko‘ra, korrupsiya darajasi pasayishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi: jismoniy shaxs va davlat xizmatchisining qayta uchrashish ehtimoli kamligi; pora taklif qilishi mumkin bo‘lgan shaxs kelajakda berilgan sovg‘alar yangi xodimlar tomonidan inobatga olinishiga ishonmasligi; va bundan tashqari, pora taklifiga yangi tayinlangan davlat xizmatchisi qanday munosabat bildirishini jismoniy shaxs bilmaydi.

6. Rossiya Federatsiyasida “Tasodifiy korrupsiya” haqidagi qonun loyihasi birinchi o‘qishda maqullandi.

Ushbu qonun loyihasida, agar korrupsiyaga qarshi normalar inson nazorati ostida bo‘lmagan tashqi holatlar natijasida buzilgan bo‘lsa, u holda shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin deb belgilandi. Jumladan, loyihada mansabdor shaxslarni, prokurorlarni, harbiy xizmatchilarni va boshqa toifadagi fuqarolarni korrupsiyaga qarshi

normalarni buzganlik uchun, agar bu davlat xizmatchilariga bog‘liq bo‘lmagan holatlar tufayli sodir etilgan bo‘lsa jazodan ozod qilinishi belgilandi.

Shuningdek, “Rossiya Federatsiyasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini takomillashtirish bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 1078992-7-son qonuni birinchi o‘qishda ma’qullandi[1].

Ushbu normativ-huquqiy hujjatga berilgan tushintirish xatida:

Agar cheklashlar va taqiqlarga rioya qilmaslik unga bog‘liq bo‘lmagan holatlar oqibati deb tan olinsa, korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunlarni buzganligi uchun jismoniy shaxslar javobgarlikdan ozod qilinishi ko‘rsatildi.

Shuningdek, belgilangan cheklovlarga rioya qilishga to‘sqinlik qiladigan, unga bog‘liq bo‘lmagan holatlar tugatilgan kundan boshlab, qonunbuzarliklarni bartaraf etish uchun shaxslarga bir oy muddat beriladi.

Ma’lumot uchun: *“Transparency International”(Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish tashkiloti)ning 2020 yilgi ma’lumotiga ko‘ra Rossiya Federatsiyasi korrupsiyani qabul qilish indeksida 180 mamlakat ichida 129-o‘rinni egalagan.*

7. Shvesiya davlati esakorrupsiyaga qarshi kurashda davlat xizmatchilariga yuqori ish haqi to‘lash hamda samarali jamoatchilik nazorati asosida yuqori natijalarga erishgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida quyidagilar taklif etiladi:

– amaldorlarning shaxsiy daromadlari va mol-mulklari to‘g‘risida axborotlar ochiqlash majburiyatini yuklash;

– korrupsiyaga qarshi kurashda aniq bir organga bog‘liq bo‘lib qolmay, barcha davlat organlarini jalb qilish;

– sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar yuzasidan yuridik shaxslarning javobgarligini belgilash;

– korrupsiya holatlarini sodir etgan va jazo tayinlangan shaxslarga jazoni o‘tash muddati davomida davlat moliya institutlaridan resurslarni (kreditlar, subsidiyalar, imtiyozlar) olishga 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatga cheklash va shartnomalar tuzishni taqiqlash;

– korrupsiya bilan bog‘liq cheklashlar va taqiqlarga rioya qilmaslik unga bog‘liq bo‘lmagan holatlar oqibati deb tan olinsa, jismoniy shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish;

– korrupsiya harakatini sodir etganlik uchun ijtimoiy nafaqalarni to‘xtatgan holda davlat tashkilotlarida ishlashni ta’qiqlash.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytganda, 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid 2020 yilga mo‘ljallangan Davlat dasturining Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ikkinchi ustuvor yo‘nalishi, 53-bandida nazarda tutilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha alohida davlat organini tashkil etish, bu boradagi Prezident farmonida mazkur organ faoliyatining huquqiy asoslarini, vazifa va funksiyalarini, huquq va majburiyatlarini belgilashda xalqaro tajribani atroflicha o‘rganish va uning eng maqbul jihatlarini aks ettirish muhim ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi.

Aysanam Abibullayeva — *Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali, "Telekommunikatsiya injiniringi" kafedrasi assistent o'qituvchisi*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH JAMIYAT VA DAVLAT RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA.

Annotatsiya: Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, xalqaro miqyosda, transmilliy jinoyat, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, xalqaro huquqiy normalarda.

Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;
- 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida" gi Konvensiyasi;
- 1999 yil 4 noyabrdagi "Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida" gi Konvensiyalari va boshqalar.

O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-

tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta’minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

- 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”) ni bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;
- korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta’minotni joriy etish.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi muhim vositalardan biri o‘z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash va chek qo‘yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o‘zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Qayd etish lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020 yil 4 fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo‘lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan bugungi kunda:

– Ombudsmanning “10-96” ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;

– fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo‘yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to‘g‘risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig‘ilishlarida muhokama qilinadi.

– Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo‘l-yo‘riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo‘yiladigan asosiy majburiyatlar, ta’qiqlar, cheklovlar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kunidan kechiktirmay tushuntiriladi.

– Vakilga korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan murojaatlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2020 yilning 6 oy davomida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Ombudsman tomonidan Bosh prokuraturaga 17 ta murojaat yuborilgan (2019 yil – 21 ta). Ushbu murojaatlardan 2 tasi o‘z tasdig‘ini topgan.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida **Transparency International** xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e’lon qilib boriladigan **“Korrupsiyani qabul qilish indeksi” da** O‘zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o‘rin, 2018 yilda esa 158-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o‘rinni egallab, 5 pog‘onaga ko‘tarildi.

Bundan tashqari, **Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatorida** O‘zbekiston 2019 yilda 0,38 ball bilan 95-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2020 yil bo‘yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o‘rinni egallab, 6 pog‘onaga ko‘tarilganligi malakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, huquqni qo‘llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017–2019 yillar davomida 6127 nafar

mansabdor shaxsning pora olishi bilan bog‘liq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, 2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiya bilan bog‘liq 590 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilganligi, korrupsiyaga qo‘l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxona va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta’lim, davlat xizmati ko‘rsatish, xususan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog‘liq sohalarda hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab davlatlarda, xususan **Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH** kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmati to‘g‘risida” gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me’yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo‘lib, unga ko‘ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg‘alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg‘alar, vazirlikka o‘tkaziladigan tartib joriy qilindi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ilg‘or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo‘llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda **150 dan ortiq mamlakatda** qo‘llanilmoqda

Ta’kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e’lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e’tirof etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi.
2. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlari.
3. Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatori

Djumabekova Ayzada Ilyasovna — *Nukus shahar 2-son kasb-hunar maktabi maxsus fan o‘qituvchisi*

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA XALQARO TAJRIBA

O‘zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko‘tarish, zamonaviy, samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat xizmatchilarida korrupsiyaviy holatlarning barcha ko‘rinishlariga nisbatan qat’iy murosasizlik ruhiyatini shakllantirish, xalq manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash kabi yuksak g‘oyalarga tayanmoqda.

Prezidentimizning 2020-yil 29-iyunda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Yangi agentlikning asosiy vazifalari belgilandi. Xususan, 2020-2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy nazorat tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish shular jumlasidandir.

Albatta, korrupsiyaga qarshi samarali kurashda dunyoning taraqqiy etgan davlatlarining ilg‘or tajribasini o‘rganish va milliy amaliyotga tatbiq etish muhim o‘rin tutadi [1].

Ma’lumki, Niderlandiya dunyoda korrupsiya darajasi eng past davlatlar qatoriga kiradi. Mazkur davlatda korrupsiyaga qarshi kurash tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Korrupsiya holati aniqlangach, korrupsiyaviy harakatning oqibatlari muhokama qilinadi va ularga qo‘llangan jazolar muntazam ravishda e’lon qilib boriladi. Ichki ishlar vaziri har yili korrupsiya faktlari va korrupsiyaga aloqador shaxslarni jazolash choralari to‘g‘risida parlamentga hisobot beradi.

Shuningdek, rasmiy axloq qoidalarining buzilishi uchun javobgar mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari tizimi yaratilgan.

Korrupsiyaviy harakatlar uchun asosiy jazo-davlat tashkilotlarida ishlash huquqidan va barcha ijtimoiy imtiyozlardan mahrum bo‘lishdir. Shuningdek, jarima va o‘z vazifasidan vaqtincha chetlatish jazosi ham qo‘llaniladi.

Singapurda esa, korrupsiyaga qarshi kurash asosiy yo‘nalishi bo‘lgan maxsus organ mavjud. U Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha tergov byurosi deb ataladi. Ushbu mustaqil organ Singapur iqtisodiyotining davlat va xususiy sektorida korrupsiyaning oldi olinishini o‘rganadi.

Byuro hukumat amaldorlari mansabini suiiste’mol qilgan holatlarni tekshiradi va tegishli organlarga zarur choralarni ko‘rish uchun xabar qiladi. Byuro bosh-qaruv tizimidagi kamchiliklarni aniqlash uchun davlat organlari ish uslublarini o‘rganadi.

Singapur davlati korrupsiyaga qarshi siyosatining asosiy g‘oyasi «insonni korrupsiyaga undaydigan holatlarni bartaraf qilish»dan iborat. Bunga bir qator tamoyillar orqali erishiladi:

1) davlat xizmatchilarining ish haqini xususiy sektorda muvaffaqiyatli ishlayotgan shaxslarning o‘rtacha oylik ish haqi bilan tenglashtirish;

2) davlat organlari mansabdorlarining mulki, aktivlari va qarzlari bo‘yicha yillik hisobotlarini nazorat qilish. Xususan, prokuror korrupsiyaga qarshi qonunchilikni buzganlikda gumon qilingan shaxslarning har qanday bank hisob raqamlarini, aksiyalarini tekshirishga haqli;

3) yuqori lavozimdagi mansabdorlarning ma’naviy yuksakligini ta’minlash;

4) iqtisodiy rivojlanishda duch kelinadigan ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish.

Korrupsiya, eng avvalo, har qanday mamlakatda davlat apparatining xalq oldidagi minimal majburiyatlarini bajarishda ojizligini anglatadi [2]. Bu Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyoning ko‘pgina rivojlanayotgan davlatlarini ham qamrab olgan va mazkur mamlakatlar uchun jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatlarning barchasida korrupsiya xalqning qashshoqligi, mamlakatning qoloqligiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, Gonkongda tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi mustaqil komissiya mazkur faoliyatda muvaffaqiyatli va keskin choralarni amalga oshira oluvchi institutlarga namuna bo‘lishi mumkin. Hokimiyat idoralari faoliyatini sinchkovlik bilan rasmiy institutlar, alohida fuqarolar tomonidan monitoring qilib borish, shuningdek, aybdorlarni sud ta’qibi Gonkongdagi korrupsiyaga qarshi kurashning asosi sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, shuni ta’kidlash lozimki, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan organ vakolat, hokimiyat organlari tuzilmasidagi qoidalar, muassasa rahbarini tayinlash va olib tashlash tartibi, ichki tashkiliy tuzilma, vazifalar, yurisdiksiya, huquq va majburiyatlar, byudjet, kadrlar tarkibini shakllantirish qoidalari (xodimlarni tanlash qoidalari, ayrim hollarda ularning immunitetlari to‘g‘risidagi qoidalar va boshqalar), boshqa institutlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish (ayniqsa, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari), hisobdorlik hamda hisobot berish tizimi va hokazolar aniq belgilab berilgan qonunchilik bazasiga ega bo‘lishi zarur [3].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish har bir davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etish bu borada keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish hamda unga tanqidiy yondoshgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. B. Yusupov. Jinoyat ishlari bo‘yicha Sergeli tumani sudining sudyasi. https://sud.uz/korrupsiyaga-qarshi-kurashda-xalqaro-tajriba/

2. X.Meliev, Adliya vazirligi boshqarma boshlig‘i https://jizzax.adliya.uz/main/uz/publikatsii/detail.php?ID=31226
3. N.Nodirxonova, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi bo‘lim boshlig‘i, 03.07.2020 y. "Taraqqiyot Ctrategiyasi" markazi https://strategy.uz/index.php?news=967

Хожаназаров Алламурат — ***Исследователь Каракалпакского филиала Научно-педагогического института Узбекистана***

Оразимбетова Злиха — ***Научный руководитель доктор филологических наук, профессор***

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Культура речи является практическим предметом изучения языка как науки и учит правильному и вежливому говорению на основе теоретических знаний. Культура речи заключается в решении всевозможных речевых упражнений с практической точки зрения. Поэтому в науке о культуре речи существует мнение о закономерностях, тайнах, языке, языковых нормах, словах, характеристиках слов, стилях речи, ошибках и дефектах, которые могут встречаться в речи, речевых нормах, упражнениях, связанных с произношение слов. У него есть свой объект проверки и обязанности. Объектом его рассмотрения является языковая структура слова, нормы литературного языка и коммуникативные свойства слова, которые не одинаковы в каждом слове. Именно поэтому слова разных людей воспринимаются и понимаются слушателями по-разному. Даже речь одного человека на разные темы может быть разной [1].

В теории культуры речи релевантным понятием считается языковая норма. Понимание языковой нормы рассматривается как многомерное, объективное историко-культурное, социологическое и языковое явление. Таким образом, носители речевой культуры наблюдают за нормами литературного языка, его историей, развитием существующих элементов, появлением вместо них новых нормативных элементов общества.

Каждая эпоха имеет свои нормы литературного языка. Некоторые хадисы могут использоваться в качестве нормы в течение длительного периода времени. Например, узбекский литературный язык имел свои нормы в XV веке, когда его автором был Алишер Навои. У них были свои измерения использования фонетики, грамматики и стилистики языка. Эти литературные стандарты не подвергались серьезным изменениям и

применялись до конца XIX века. Особыми в этом отношении были заслуги таких людей, как Фурхат, Мукимий, Хамза, А.Кадирий, А.Авлоний, Мирмухсин Мирмухамедов, Фитрат, Чулпон, Суфизада и др.

В наше время нормы литературного языка несколько раз обновлялись: словоупотребление, грамматика, речевые нормы менялись по отношению к особенностям языка народа. Тем не менее, некоторые исторически сложившиеся традиционные черты реализуются до сих пор.

Культура речи все больше предлагает нормы литературного языка во всех отраслях языка. Даются рекомендации по закреплению наиболее благоприятных событий в качестве литературных норм. Однако литературные нормы не созданы и некоторые хадисы не включены в качестве норм. При этом ведется наблюдение за развитием службы национального литературного языка, выявляются объективные закономерности и даются лишь рекомендации относительно них [2].

В каждом слове находят свое выражение все стороны языка, пусть даже немного. Нельзя сказать, что не задействовано ни одно слово языка. Поэтому в каждом слове задействована фонетика, синтаксис и стилистика языка. Правильно, культура речи, являющаяся предметом речи, тесно связана со всеми отраслями языкового знания. Следует особо отметить, что говорящая культура не изучает соответствующие хадисы этих наук. Причем проверяется в зависимости от положительного или отрицательного влияния на соответствующие признаки слова. Например, из каких звуков состоят звуки речи, как они произносятся и как эти слова доходят до слушателя. Это сближает культуру речи с фонетикой языкового образования [3]. Также грамматика литературного языка считается основной основой культуры речи. Это потому, что правильность слова является его характеристикой, и хотя она основана на грамматических знаниях, но отличается от них в зависимости от соотношения языковых материалов.

Культура речи также связана с соответствием языковых данных норме. Вот почему по характеру правил, направленных на практическую цель, речь идет об уточнении ненормативных правил языковой структуры и даче рекомендаций по усилению правильных правил. При этом он изучает систему грамматических норм, условия, усиливающие или ослабляющие эту систему. Однако он не усваивает грамматические категории по норме.

Культура речи тесно связана с лексикологией и семасиологией. Это потому, что ясность, правильность, являющиеся родственными свойствами слова, относятся к содержательным отношениям значения слова.

Культура речи основана на логике и психологии. Это потому, что логика определяет понятия, которые могут быть получены из слов и полного предложения. Логика проверяет связь между значением слов и выражаемым смыслом. Логика связывает слова и значения между словами. Однако культура речи не создает литературных норм, не навязывает в качестве норм

какие-то хадисы. И он внимательно наблюдает за службой литературного языка, за его развитием, выявляет объективные закономерности и дает рекомендации по ним.

Что такое культура языка? Культура языка означает его словарный запас, развитость и богатство синтаксиса, ясность значений слов, красочность словесных ритмов. Культура слова – это система его коммуникативных свойств, которые связаны с культурой языка, содержанием текста на службе языка и возможностью.

Языковая культура состоит из богатства и разнообразия языковых средств и создается в сознании тех, кто использует этот язык. Однако распределение этого богатства у каждого человека разное. Если человек овладел средствами, связанными с языковой культурой, и использовал их в своей речи, то речь этого человека будет в той же мере культурной. Следовательно, речь есть способность человека, и его культура зависит от того, насколько он овладел языковыми возможностями и умелым использованием их в соответствии с ситуацией говорения [4].

Исследования доказывают, что овладение языковыми возможностями языка происходит двумя путями. Первым шагом является знание средствами языка. Когда слушаете это слово, можете понять значение и назначение языковых средств, используемых в нем. То есть слушатель понимает, что он слушает и что читает. Такой человек хорошо понимает слова других. Однако собственные слова в известной степени богаты красочными возможностями языка. Второй шаг состоит в овладении большей частью возможностей, предлагаемых языковой системой, и преобразовании их в скорость речи. Речь этого зрелого человека будет образной и уместной. Непрерывное говорение слов, понятых на первом этапе, будучи надежным для их запоминания, превращает эти возможности в скорость речи.

Речь человека осуществляется тремя способами. Это говорение, чтение и слушание. Говорить означает давать информацию, давать советы, приказывать и спрашивать о неизвестных вещах. При говорении реализуются знания, культура и поведение говорящего [5].

Речь может быть двух видов: монолог и диалог. Монолог – высказывание мнения одного человека без встречных вопросов и ответов. Он не разделен по способу связи. В диалоге говорящие по очереди слушают и говорят.

Читатель – это автор письменного произведения, основанного на словах, образах и сообщениях. Благодаря чтению читатель становится в курсе событий, которые появляются в написанном слове, какие изменения в его характере происходят под их влиянием. Чтение – важнейший способ получения информации, и через чтение человек достигает духовной зрелости.

Обучение состоит из формального чтения и научного чтения (чтение с выделением необходимого, копирование и запись отрывков, составление краткого конспекта, чтение во время размышления над произведением). При чтении целью является ознакомление с содержанием написанного текста. В научном исследовании, прочитав произведение, он стремится проанализировать его, использовать по другому назначению, пересказать его содержание.

В заключение можно сказать, что культура речи как наука имеет большое общественное значение, а овладение ею служит для передачи мыслей ясно, кратко, понятно и изящно. Культура речи особенно важна для военнослужащих.

Используемые литературы:

1. Аннушкин В.И. Риторика Экспресс-курс. Учебное пособие. – М.: 2007.

2. Безменова Н. А. Очерки по истории и теории риторики. М., 1991.

3. Михальская А. К. Основы риторики: Мысль и слово. – М., 1996.

4. Мурашов А.А. Педагогическая риторика. – М.: Педагогическое общество России, 2001. – 480 с.

5. Введенская Л.А., Павлова Л.Г. Риторика и культура речи. – Изд. 12-е, стер. – Ростов н/Д: Феникс, 2012.

Мамбеткаримов Сапарнияз Мейрманович

Режалаштириш, мувофиқлаштириш ва ҳамкорлик бўлими бошлиғи Қорақалпоғистон Республикаси бўйича Миллий гвардия бошқармаси.
saparniazmambetkarimov@gmail.com

ЯШИРИН ИҚТИСОДИЁТНИНГ ҲУДУДНИНГ МОЛИЯВИЙ САЛОҲИЯТИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ УЧУН АСОСИЙ УСЛУБИЙ ЁНДАШУВЛАР

Ҳудудий иқтисодиётнинг яширин иқтисодиётини ўрганишда авваламбор, объектив иқтисодий қонуниятларнинг бузилиши, криминоген омилларнинг макроиқтисодий механизмларга, молиявий-иқтисодий тизимларга таъсири шароитида давлатларнинг ривожланиш босқичларини таснифлаб олиш лозим. Бу борада мамлакатнинг яширин иқтисодиёти генезиси схемасининг биринчи босқичида, бир томондан, объектив иқтисодий қонунларни сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий механизмларнинг фаолият юритиши ҳамда ўзаро таъсири қонунчилик майдони доирасида амалга оширилиши, қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятларнинг ўзаро ҳамкорлиги, барқарор иқтисодий фаолият, сиёсий ва ижтимоий механизмларнинг ўзаро таъсирини эътиборга олиш керак.

Бошқа томондан, ҳокимият тузилмаларида коррупциянинг мавжудлиги, ижтимоий мувозанатни бузилишини юзага келтириб, иқтисодий маконнинг давлат бошқаруви тизимларида қонун чиқарувчи манфаатларига зид бўлган яширин иқтисодиётга бўлинишига олиб келади. Иқтисодий маконнинг ҳуқуқий ва яширин иқтисодиётга бўлиниши иқтисодий ҳуқуқбузарликлар тизимини яратиш ҳамда яширин секторининг туғилиши йўлидаги дастлабки қадамлардан биридир.

Иккинчи босқичда объектив иқтисодий қонунларнинг таъсири ва қонунчилик соҳаси доирасида сиёсий, иқтисодий ҳамда ижтимоий механизмлар ўртасидаги боғлиқлик яширин иқтисодиётнинг иқтисодий тизимнинг таркибий ва функционал элементларига таъсирининг кучайиши билан бирга келади, бу эса ўз навбатида инқирозли иқтисодиётнинг ижтимоий сифатига таъсир қилади ва яширин иқтисодиётнинг мавжудлиги, ижтимоий қарама-қаршиликни кучайиб, икки антагонистик иқтисодий механизмнинг ўзаро таъсири содир бўлади. Бу босқичда давлат ҳокимияти бошқарув аппарати ва иқтисодий жиноий гуруҳлар ўртасидаги ҳамкорлик жараёни учун шароитлар яратилади.

Учинчи босқичда қонунчилик соҳаси доирасида сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий механизмларнинг мавжудлиги ва ўзаро таъсири етарли даражада бўлмайди. Қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимият органларининг ўзаро ҳамкорлиги қарама-қаршиликлар ва зиддиятлар билан кечади, умуман

ҳокимият органларида коррупциянинг йўқлиги алоҳида мансабдор шахсларнинг коррупцияси билан кечади. Асосий иқтисодий қонунларнинг бузилиши натижасида иқтисодий тизимда яширин фаолиятнинг кучайиши фойдасига ўзгаришлар юз беради. Учинчи босқич давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари ўртасидаги муносабатлар тизимидаги асосий тартибга солиш бошқарув жараёнларининг номутаносиблиги билан тавсифланади.

Тўртинчи босқичда объектив иқтисодий қонунлар тўғри ишламайди, қонунчилик соҳаси доирасида сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий механизмларнинг самарали ўзаро таъсири бўлмайди. Қисман давлат молиявий номутаносиблик қонунлари асосий бўлган механизмга айлантирилади, бу эса жиноий иқтисодиётнинг шаклланишига сабаб бўлади.

Бешинчи босқичда давлат институтлари молиявий-кредит коррупциясининг чуқурлашишига самарали қарши тура олмайди. Охирги босқичда уюшган жиноятчиликнинг унсурлари умуммиллий муҳитда яратилади. Объектив иқтисодий қонунларнинг амал қилиши йўқолиб боради, сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий механизмларнинг қонунчилик соҳаси доирасидаги ўзаро таъсири сустлашади, иқтисодий жиноятларнинг трансмиллийлашуви содир бўлади.

Ҳудудий хавфсизлик сиёсати Ўзбекистон Республикаси иқтисодий маконининг бир хил бўлмаган тенденцияларини ҳисобга олиши керак, бу инқироз даврида ва иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришларда ҳудудлараро номутаносибликларнинг ўсишига олиб келади. Бизнингча бу борада, иқтисодий хавфсизликни оширишга қаратилган ҳудудий сиёсатнинг қуйидаги устувор вазифаларини келтириш ўринли:

- иқтисодиётни стратегик тармоқларни устувор ривожлантириш билан қайта қуриш;
- ўз ривожланиш манбаларини амалга ошириш ёки фаоллаштириш;
- ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуалари ва кластерларини шакллантириш;
- ҳудудни тўғри ифодалаган ҳолда ҳудудлараро инфратузилмаларни ривожлантириш;
- алоҳида ҳудудларни маҳаллийлаштириш ва тушкунлик ҳолатини бартараф этиш, зарурат туғилганда уларга алоҳида ёрдам бериш.

Мезоиқтисодий тизимларнинг ўз хавфсизлигини таъминлаш қобилияти даражаси уларнинг бутун таҳдидлар мажмуасидан ҳимояланиши билан белгиланади. Бутун давлат хавфсизлиги учун эндоген бўлган ҳудудий хавфсизликнинг ташқи омилларини маъмурий-ҳуқуқий, ижтимоий-демографик ва молиявий-иқтисодий йўналишларга бўлиш мумкин. Ушбу омилларни жойлаштириш тартиби тасодифан танланмаган, чунки у ҳар бир гуруҳ таъсирининг устуворлигини ва минтақавий хавфсизликнинг ташқи макро омилларига бўйсунишини кўрсатади. Ижтимоий-демографик

омилларнинг молиявий-иқтисодий омиллардан устунлиги қуйидаги ҳолатлар билан боғлиқ:

- ҳаётнинг барча жабҳаларида хавфсиз шароитларнинг асосий "истеъмолчиси" бўлган инсон ва жамиятга эътибор кучайиши;

- макродаражада ялпи талабни шакллантиришда инсон имтиёзларининг муҳим роли. Ялпи талаб мамлакат фуқароларининг эҳтиёжларини белгилайди ва бу макроиқтисодий кўрсаткичдаги кичик ўзгаришлар ҳам миллий иқтисодиётнинг барча иерархик даражаларида тубдан ва баъзан қайтариб бўлмайдиган силжишларни келтириб чиқаради, бу эса мамлакатнинг барча ҳудудлари хавфсизлик даражасига сезиларли таъсир қилади;

- меҳнат омили ёки мавжуд инсон капитали салоҳияти. Аҳолининг миграцияси натижасида меҳнатга сарфланадиган харажатлар, ишсизлар сони, меҳнат ресурслари миқдори ва сифатининг ўзгариши ялпи миллий маҳсулотда ҳам, ҳудудий маҳсулотда ҳам салмоқли ўрингга эга бўлиб, уларнинг ҳар қандай ижтимоий-иқтисодий соҳага нисбатан сезувчанлигини оширади. Ҳудудий хавфсизликнинг экзоген макроиқтисодий омилларига келсак, ижтимоий-демографик омилларнинг маъмурий-ҳуқуқий омиллардан устунлигини белгилаш мумкин.

Бироқ, бир томондан, қонунчиликнинг номукаммаллиги, иккинчидан, унинг ўзгарувчанлиги аҳолининг етарли даражада кўп бўлган айрим гуруҳларини ижтимоий ва иқтисодий таъминлаш шартларига зид бўлиши мумкин. Бу гуруҳлар ўз эҳтиёжларини қондириш учун яширин иқтисодий муносабатлар тизимига жалб қилинган. Бошқа томондан, ҳудуд аҳолисининг аксарияти жазодан қочиш учун ҳуқуқий хулқ-атвор нормаларига риоя қилиш зарурати билан боғлиқ ҳолда ўз эҳтиёжларига мослашишлари ва беришлари керак.

Яширин иқтисодиётнинг ҳудудий кўрсаткичини минтақа ҳисобидан тўлиқ шакллантириш мумкин эмас, чунки унинг муҳим қисми пайдо бўлиш таъсири билан боғлиқ ва ҳудудий яширин иқтисодиёт кўрсаткичида пайдо бўлган компонентнинг улуши ҳам ижобий, ҳам салбий бўлиши мумкин. Ушбу келтирилган фикр-мулоҳазаларни умумлаштирган ҳолда яширин иқтисодиёт даражасини баҳолаш унинг табиати бўйича ягона нуқтаи назарнинг, унинг даражасини ва ҳудуднинг молиявий салоҳиятига таъсирини баҳолашнинг ягона усулининг йўқлиги билан тавсифланади.

Сўнгги беш йил ичида яширин иқтисодиёт даражасининг энг барқарор баҳолари олинган усулга устунлик берилади. Яширин иқтисодиёт даражасини назарий жиҳатдан ҳисоблашнинг тавсия этилган усулларини баҳолагандан сўнг, биз яширин пул оқимларининг табиатини аниқлаймиз.

Илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, Ўзбекистон Республикасига хос бўлган яширин жараёнларининг намоён бўлишининг асосий шакллари: аҳолининг яширин бандлиги, мулк ва табиий ресурсларни

оммавий ўғирлаш, интеллектуал мулк савдоси, корхоналарнинг реал даромадларини ва аҳоли даромадларини яшириш, ноқонуний ишлаб чиқариш ва яширин баҳони шакллантиришдир. Ўз навбатида, яширин иқтисодиётнинг ривожланишига ҳисса қўшадиган ва келажакда ҳудуднинг молиявий салоҳиятига таъсир қилувчи асосий омиллар иқтисодий омиллардир, жумладан: солиқ омили (солиқ тизимининг мураккаблиги, солиқ юки ва солиқ йўқотишлари даражаси, асоссиз солиқ имтиёзлари), инфляция жараёнлари, иқтисодиётнинг турли тармоқлари ўртасидаги номутаносиблик даражаси.

Таҳлиллар яширин иқтисодиёт мамлакат иқтисодий ҳаётининг ажралмас қисми эканлигини кўрсатди. Расмий равишда мавжуд бўлмаган, аммо ҳақиқатан ҳам мавжуд бўлган молиявий оқимларни ҳисобга олмасдан туриб, молиявий салоҳиятни объектив ва аниқ баҳолаш мумкин эмас. Аниқланганидек, яширин секторнинг мавжудлиги маълум чегара бажарилган тақдирдагина ижобий таъсир кўрсатиши мумкин, агар у ошиб кетган бўлса, миллий хавфсизликка таҳдидлар пайдо бўлади. Яширин иқтисодиётни баҳолашнинг турли методлари мавжудлигига қарамай, яширин оқимларининг ҳудудларнинг молиявий салоҳиятини ривожлантиришга таъсирини баҳолаш учун яхлит кўрсаткичлар тизимини шакллантириш зарур.

Казакбаев Баходир Малимович ***Старший преподаватель Региональный учебный центр Республики Каракалпакстан Национальной гвардии Республики Узбекистан***

СИЛА КАК ФИЗИЧЕСКОЕ КАЧЕСТВО СПОРТСМЕНОВ

Аннотация *В статье рассматриваются особенности силы как физическое качество спортсменов. Сила — это способность преодолевать внешнее сопротивление или противодействовать ему посредством мышечных напряжений. Развитие силы сопровождается утолщением и ростом мышечных волокон.*

Ключевые слова*: мышца, волокна, сопротивление, навык, абсолютная сила, относительная сила*.

Физические качества — это отдельные, качественно определённые стороны двигательных возможностей человека. Двигательные возможности определяются наличием соответствующих двигательных навыков, умений и физических качеств [1].

Сила — это способность преодолевать внешнее сопротивление или противодействовать ему посредством мышечных напряжений. Развитие силы сопровождается утолщением и ростом мышечных волокон [2].

Оценивая величину усилия в том или ином упражнении или простом движении, применяют термины «абсолютная» и «относительная» сила.

Абсолютная сила — предельное, максимальное усилие, которое спортсмен может развить в динамическом или статическом режиме. Примером проявления абсолютной силы в динамическом режиме является поднимание штанги или приседание со штангой предельного веса [3].

Относительная сила — величина силы, приходящаяся на 1 кг веса спортсмена. Этот показатель применяется в основном для того, чтобы объективно сравнить силовую подготовленность различных спортсменов.

Мышечная сила зависит от нескольких факторов. Основной из них — физиологический поперечник мышц. Практически это означает, что чем мышца толще, тем большее напряжение она может развить (принцип Вебера). Однако не всегда бывает так, поскольку сила мышцы зависит и от другого фактора — нервной регуляции, осуществляемой соответствующими отделами коры больших полушарий головного мозга [8].

Средствами развития силы являются физические упражнения с повышенным отягощением (сопротивлением):

✓ упражнения с весом внешних предметов, например, как: гири, гантели, штанга и т.д.);

✓ упражнения с преодолением собственного веса тела (подтягивание в висе, отжимание в упоре, удержание равновесия в упоре, в висе и т.д.);

✓ упражнения с использованием спортивных тренажеров; бег и прыжки по рыхлому песку, бег и прыжки в гору, бег против ветра и т.д.);

✓ упражнения с использованием сопротивления упругих предметов

(эспандеры, резиновые жгуты, фитомячи и т.д.).

По своему характеру все упражнения, способствующие развитию силы, подразделяются на основные группы: общего, регионального и локального воздействия на мышечные массивы. К упражнениям общего воздействия относятся те, при выполнении которых в работе участвуют не менее 2/3 общего объёма мышц, регионального от 1/3 до 2/3, локального менее 1/3 всех мышц [5].

Направленность воздействий силовых упражнений в основном определяется:

- видом и характером упражнений;
- величиной отягощения или сопротивления;
- количеством повторения упражнений;
- скоростью выполнения преодолевающих или уступающих движений;
- темпом выполнения упражнений;
- характером и продолжительностью интервалов отдыха между подходами. Силовые упражнения хорошо сочетаются с упражнениями на

растягивание и расслабление. Для развития силы применяют различные методы.

- ✓ Метод максимальных усилий - выполнение упражнений с предельными и околопредельными отягощениями.
- ✓ Метод динамических усилий способствует созданию максимального силового напряжения посредством работы с непредельным отягощением с максимальной скоростью.
- ✓ Метод повторных (непредельных) усилий предусматривает использование непредельных отягощений с предельным числом повторений ("до отказа"). Метод круговой тренировки обеспечивает комплексное воздействие на различные мышечные группы [6,7].

Таким образом, сила — это одно из важнейших физических качеств в абсолютном большинстве видов спорта. Поэтому ее развитию спортсмены должны уделять исключительно много внимания.

Использованные источники:

1. Воронов Н.А. Развитие силовых способностей у человека _// Аллея Науки - №: 6 (22) .- 2018.- С. 992-995.
2. Гизатулина А. А., Лисовол В. В. Основы развития и совершенствования основных физических качеств // Физическая культура. Спорт. Туризм.

Двигательная рекреация. - 2017. -Т. 2, № 22.- 2 С.22-29.-29.
3. Двигательное качество – сила// https://multiurok.ru/blog/dvigatelnoekachestvo-sila.html
4. Методы развития силы// https://mydocx.ru/11-61799.html
5. Методы развития силовых способностей// https://studopedia.org/673818.html
6. Основы обучения движениям// https://helpiks.org/5-68799.html
7. Основы обучения движениям// https://stydopedia.ru/5x72f.html
8. Физические качества и двигательные способности спортсмена

https://101hairtips.com/fitnes/sila-v-fizkulture-cto-eto-takoe-opredelenie-vidyabsolutnaa-otnositelnaa-razvitie-sily-i-mysc-upraznenia.html

Полат Өтениязов

Өзбекстан Илимлер академиясы Қарақалпақстан Бөлими, Қарақалпақ гуманитар илимлер илим изертлеў институты үлкен илимий хызметкеры, Филология илимлери бойынша философия докторы (PhD)
E-mail: polatniyaz1985@mail.ru.

ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛЫҚ ЕРТЕКЛЕРИНДЕ ҲҮЖДАН, ПӘКЛИК, ӘДИЛЛИК МӘСЕЛЕЛЕРИ

Жасыратуғыны жоқ, дүньяның қәлеген ноқатында, қәлеген орынларында таныс-билислик, өз-ара келисимлик (коррупция) сыяқлы унамсыз иллетлер ушырасып атыр. Ең ашынарлы тәрепи, бул жаман иллетлер бурында да болған, еле де даўам етип атыр. Жәмийет, ел-журт бар екен, онда ҳәр түрли түсиниктеги, ҳәр қыйлы сана-сезимдеги адамлар жасайды. Көпшилиги ҳадал мийнет етип, тер төгип шаңарағын бақса, айырымлары жеңил жол менен табысларға ерисиўди гөзлейди.

Әййемги заманлардан ҳәзирги күнимизге шекем адамлар не бир қыйын-қыстаў, машақатлы өмир тәшўишлерин жеңип, ойлы-бәлент жолларды басып өтип келди. Усындай тиришилик ушын гүрес халық аўызеки дөретпелеринде өз сәўлелениўин тапты. Әсиресе, халық ертеклеринде ҳүждан, пәклик, мийнеткешлик, садықлық, әдиллик сыяқлы мәселелер кең орынды ийелейди. Мысалы, «Күнликши» [Қарақалпақ фольклоры: 244-245] атлы қарақалпақ халық ертегинде мийнеткешлик, ҳүжданлық, шүкиршилик сыяқлы ағла пазыйлетлер жоқары баҳаланады. Патша әпиўайы жарлы халықтың кийимин кийип халықты аралайды. Ол бир күнликшиге дус келеди. Күнликшиден қанша пулға жумыс ислеп атырғанын сорайды. Бир теңгеге ислеп атырған болады. Бир теңге төрт шайы болады екен. Күнликши биринши шайыны қарызына (ата-анасына), екиншисин қарызға (перзентлерине), үшиншисин ҳаялы екеўине, төртиншисин суўға «таслайтуғынын» (дуз алыўға жумсаўын) айтады. Патша усы гәплерден соң халықтың жағдайы менен санасып, әдил басқарады. Әлбетте, бул халықтың арзыў-әрманларынан туўылған. Шынында да, мийнет етип тиришилик етиў бул ҳадаллықтың белгиси.

«Ақ кеўиллиниң аты азбайды, тоны тозбайды» [Қарақалпақ фольклоры: 300-301] атлы ертекте де ҳадаллық, мийнеткешлик, ҳүжданлылық мәселелери сөз етилген. Бир бай үш баласына мынадай нәсият айтады: «Қумарпаз болмаң, кисиниң ҳақын жемең, дурыслы болың».

Ертеклердеги усындай үгит-нәсиятлар халықтың ҳәр тәреплеме жетилискен инсанлар болып тәрбияланыўында үлкен әҳмийетке ийе. Халық дөретпелериндеги усы сыяқлы социаллық мотивлер, сюжетлер этикалық-эстетикалық жақтан тәсирли.

Қарақалпақ фольклористи, филология илимлериниң кандидаты Қ.Мәмбетназаров өзиниң бир қатар илимий жумысларында халық ертеклериниң тәлим-тәрбиялық әҳмийетине кең түрде тоқтады. Әсиресе, ертеклерде сөз етилетуғын ҳадаллық, пәклик, әдиллик ушын гүрес мәселелерин илимпаз илимий жумысларында айрықша атап өтти [Мамбетназаров Қ.: 12]. Шынында да, ата-бабаларымыздан бизлерге мийрас болып киятырған халық аўызеки дөретпелеринде социаллық теңлик, әдиллик машқалалары орайлық планға шығады. Ерте дәўирлердеги байлардың жарлы халықты эксплуатация етиўи, мийнет ҳақын бермеўи, қазылардың байлардың гәпин сөйлеп, әдалатсызлық етиўи, қулласы, усы сыяқлы теңсизлик мәселелер турмыслық ертеклерде кеңирек сәўлеленген. Қазылар бай-дәўлетли адамлардың гәпин сөйлеп, бийгүнә пуқараларды жазалаўы, зинданға таслатыўы, хорлаўы – барлығы ертеклерде шебер сүўретленген. Ертеклерде кимниң тилласы (парасы) көп, кимниң мал-дүньясы артық болса даўды соның пайдасына шешкен қазылардың жеркенишли келбети, характери.литоталар менен ашып бериледи [Қарақалпақ фольклоры: 520].

Тилекке қарсы, бүгинги күнде де усындай таныс-билислик, пара алып, бай-дәўлетли адамлардың тәрепин алып, әдилсизлик ететуғын кимселер де табылады. Усындай жат иллетлер, наҳақлық, теңсизлик, таныс-билислик қатнасықлары заманагөй тилде коррупция деп аталады. Бул унамсыз иллетке қарсы гүресиў мәселеси оғада актуал саналады. Себеби, коррупция мәмлекеттиң, жәмийеттиң раўажланыўына кери тәсир ететуғын иллет. Бул машқалалар фольклорлық дөретпелерде кең орынды ийелеген ҳәм халықтың арзыў-әрманларын, умтылысларын сәўлелендиреди.

Пайдаланылған әдебиятлар

1. Қарақалпақ фольклоры. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977. Том 1. – 364 б.
2. Қарақалпақ фольклоры. – Нөкис: Илим, 2014. Том 67-76. – 520 б.
3. Мәмбетназаров Қ. Қарақалпақ ертеклери ҳаққында. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1981. – 120 б.

Aytmuratov Bakbergen Sharibaevich ***Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali t.f.n., dots.,***

Keńesbaev Azizbek ***Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU 2-kurs talabasi***

AKTDA SUN`IY INTELLEKT

Kalit sozi: robotlar, mobil qurilma, google-tarjimon, suniy intelekt SI,

Odatda, robotlar deganda, ko‘pchilikning ko‘z oldiga insonlardek gaplasha oladigan, ularning o‘rniga barcha yumushlarni bajara oladigan yordamchilar keladi. Ammo bu nisbatan kengroq tushuncha. Aslida, mobil qurilmangizdagi dasturlar: google-tarjimon, lug‘atlar, turli xil o‘yinlar va hokazolar ham sun’iy intellektga yaqqol misol bo‘la oladi. Faqat ularning qamrovi kichikroq bo‘lib, ma’lum bir yo‘nalishdagina sizga yordam bera oladi. Ya’ni, bajarmoqchi bo‘lgan amallaringiz turiga qarab tegishli dasturdan foydalanasiz.

Sun`iy intellekt nima? Sun'iy intellekt (SI) kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. SIni amalga oshirishning ko'p holatlarida - kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha - chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin.

Sun'iy intellektning rivojlanish tarixi". Sun'iy intellekt" atamasi 1956-yilda paydo bo'lgan, ammo bugungi kunda SI texnologiyasi ma'lumotlar hajmini ko'paytirish, algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash quvvatini va ma'lumotlarni saqlash vositalarini optimallashtirish fonida haqiqiy mashhurlikka erishdi.

O'tgan asrning 50-yillarida boshlangan SI sohasidagi birinchi tadqiqot muammolarni hal qilish va ramziy hisoblash tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. 60-yillarda bu sohada AQSh Mudofaa vazirligi qiziqish uyg'otdi: AQSh harbiylari insonning aqliy faoliyatini simulyatsiya qilish uchun kompyuterlarni o'qitishni boshladi.

Masalan, mudofaa vazirligining Ilg'or tadqiqot loyihalari agentligi (DARPA) 1970-yillarda bir qator virtual ko'cha xaritalarini loyihalarini yakunladi. Va DARPA mutaxassislari Siri, Alexa va Cortana paydo bo'lishidan ancha oldin 2003 yilda aqlli shaxsiy yordamchilarni yaratishga muvaffaq bo'lishdi.Ushbu ishlar zamonaviy kompyuterlarda, xususan, qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarida va inson imkoniyatlarini kengaytirish uchun ishlab chiqilgan aqlli qidiruv tizimlarida qo'llaniladigan avtomatlashtirish va rasmiy mantiqiy tamoyillar uchun asos bo'ldi.Garchi SI ko'pincha ilmiy fantastika filmlari va romanlarida ilmiy qudratli robotlar sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, dunyo miqyosida o'z kuchini egallagan, SI

texnologiyasini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, SIlar unchalik qo'rqinchli va aqlli emaslar. Aksincha, sun'iy intellektni rivojlantirish ushbu texnologiyalarga iqtisodiyotning barcha sohalarida haqiqiy foyda keltiradi. Sog'liqni saqlash, chakana savdo va boshqa sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish misollari quyida keltirilgan.

Sababi hozir bilasiz butun Yer yuziga “koronavirus” infeksiyasi tarqalgan. Yurtimizda hali ham bu virus avj olib bormoqda. Qanchadan-qancha shifokorlarimiz bu virus bilan kasallangan bemorlarimizni davolash maqsadida o`zlari ham shu kasalga chalinishmoqda. Lekin buni yechimi bor. Hozir texnologiya asri. Biz bu virusga qarshi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz kerak. Ya`ni “Sun`iy intellekt”dan.

G`oya shundan iboratki, biz o`z shifokorlarimizni bu bema`ni virusdan omon saqlashimiz uchun ularning o`rniga sun`iy intellekt kiritilgan robotni bemorlarga qarash uchun har bitta kasalxonaga bittadan qo`yish kerak. Ular tezlik bilan har bir kasalning oldiga borib uning issig`ini o`lchab, kerakli dori-darmonlar berib, boshqa kasalning oldiga yetib borishi kerak.

Shifokorlarning o`rniga robot qo`yishning asosiy sabablari:

• Virus yuqush xavfi tug`ilmaydi(sababi u robot)

Robot o`z nomi bilan robot, u tezlik bilan bir bemorga qarab ikkinchi bemor tomon tez harakatlanadi

• Ish haqi olmaydi

Lekin bunday robotlardan hech qayerda yo`q deb aytolmaymiz. Sababi, ko`plab rivojlangan davlatlarda shu sun`iy intellektga asoslangan robotlar kasalxonalarda bemorlarga g`amxo`lik qilmoqdalar.

Saratonni aniqlash uchun foydalanib kelingan sun’iy intellekt endi COVID-19 koronavirusini topishda ham ishlatiladi. Dasturiy ta’minotdan Xitoyning 34 ta gospitalida foydalanildi va uning yordamida 32 mingdan ortiq holat bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazildi, deb xabar bermoqda Neowin.

Yaqinda Qashqadayo viloyati G`uzor tumanidan ham bir yurtdoshimiz bunday sun`iy intellektga asoslangan robotlar yaratdi.Bu robotlar dezinfeksiyaga mo`ljallangan.Biz bu yurtdoshimizga katta rahmat aytib qolamiz yurtimizga shunday robotlarni taqdim qilyotgani uchun. Endi biz yanda ko`p funksiyali robotlarni taqdim etishlarini ulardan kutib qolamiz.Sun'iy intellekt (SI), raqamli kompyuter yoki kompyuter tomonidan boshqariladigan robotning odatda aqlli mavjudotlar bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni bajarish qobiliyati. Ushbu atama odamlarga xos bo'lgan intellektual jarayonlarga ega bo'lgan rivojlanayotgan tizimlar loyihasiga, masalan, mulohaza yuritish, ma'noni kashf etish, umumlashtirish yoki o'tmish tajribasini o'rganish qobiliyatiga nisbatan tez-tez qo'llaniladi. 1940-yillarda raqamli kompyuter ishlab chiqilganidan beri kompyuterlar juda murakkab vazifalarni bajarish uchun dasturlashtirilishi mumkinligi, masalan, matematik teoremalar uchun dalillarni kashf etish yoki

shaxmat o'ynash kabi juda yaxshi mahorat bilan namoyish etilishi isbotlangan. Buning hammasi sun'iy intellekt.

Sun’iy intellekt xaqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar — «aqliy mashinalar» ishlab chiqarishga ilmiy yondoshish birinchi bo’lib Stanford universitetining(AQSH) professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956-yili tashkil topgan ilmiy to’garakda paydo bo’ldi. Bu to'garak tarkibiga Massachuset (AQSH) texnologiya oliygohi "Elektronika va xisoblash texnikasi" fakultetining faxriy professori Marvin Minskiy, "masalalarni universal xal qiluvchi" va "mantiqiy nazariyotchi" intellektual (aqliy) programmalar bunyodkori — kibernetik Allen Nyuell va Karnegi-Mellen dorilfununining (AQSH) mashxur psixologi Gerbert Seyman, xisoblash texnikasining ko'zga ko’ringan mutaxassislari Artur Semuel, Oliver Selfridj, Manshenon va boshqalar kirar edilar. Aynan shu to’garakda "Sun’iy intellekt" tushunchasi paydo bo’ldi.

Sun'iy intellekt (SI) texnologik sohalarda keskin o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, bu tizimni yanada samaradorlik va ishlash uchun avtomatlashtirish uchun amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi kunda sun'iy intellekt oddiygina uyali telefoningizdan kasalliklarni aniqlashga qadar yuqori samarali va aniq tizim ishini samaradorligini ta'minlaydigan bir qancha sohalarda foydalanilmoqda. Bugungi kunda SI qayerda ishlatiladi? Quyidagi sohalarda sun'iy intellektdan foydalanamiz.

1. Virtual yordamchi yoki chat-botlar
2. Chakana savdo
3. Xavfsizlik va kuzatuv
4. O'z-o'zini boshqaradigan avtomashinalar
5. Sog'liqni saqlash
6. Harbiy sohada

Xulosa qilib aytganda: Sun'iy intellekt va texnologiyalar hayotning bir tomoni bo'lib, bizni doimo yangi g'oyalar, mavzular, yangiliklar, mahsulotlar va boshqalar bilan qiziqtiradi va hayratga soladi.Oxir-oqibat, biz ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt ta'riflari, qisqacha tarixi, sun'iy intellektning ommaviy joylarda qo'llanilishi, harbiy sohada sun'iy intellektning qo'llanilishi, sun'iy intellekt etikasi va robototexnikaning uchta qoidalari orqali qatnashdik. Bu sun'iy intellektning oxiri emas, bundan ko'p narsa kutilmoqda, kim kelajakda sun'iy intellekt biz uchun nima qilishi mumkinligini biladi, ehtimol bu butun robotlar jamiyati bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Пантелеева Т.А., Арустамов Э.А., Максаев А.А. Возможности искусственного интеллекта в управлении кадровыми ресурсами в условиях свободного предпринимательства // Интернет-журнал «Отходы и ресурсы», 2019 №3,

2. Камилова Р.Ш. Абдулатипова М.А. ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ // Опубликовано в 2013, Выпуск Май 2013, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Abdullayev Bektemir Abdulla o'g'li — ***O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Magistraturasi tinglovchisi, kapitan***

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLOVCHI SUBYEKTLAR VAKOLATLARINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI HOLATI

Annotatsiya: Mazkur tezisda jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar vakolatlarining huquqiy tartibga solinishi holati yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, subyektlar, qonun, konsepsiya, davlat, vakolat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.[7]

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat. Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat. Boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlarga kiradi.[7]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi asosida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida, ko'plab vakolatlari mavjud. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risidagi qonunning 18-moddasi (Vazirlar Mahkamasining jamoat tartibini saqlash, davlat xavfsizligini va mudofaa qobiliyatini ta'minlash sohasidagi vakolatlari)da "davlat xavfsizligini va mudofaa qobiliyatini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo'riqlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga

ko‘maklashadi”[5] deyilgan, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida, “jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi; jamoat xavfsizligini ta’minlash, jumladan huquqbuzarlik, ijtimoiy va millatlararo nizolarning oldini olishga qaratilgan kompleks maqsadli davlat dasturlari ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi va amalga oshirilishini ta’minlaydi; jamoat xavfsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha barcha davlat organlari va tashkilotlari, jamoat birlashmalari, xalqaro tashkilotlar hamda fuqarolar bilan samarali hamkorligini ta’minlaydi; jamoat xavfsizligini bevosita ta’minlovchi subyektlarning moddiy-texnik ta’minotini, shuningdek, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi; jamoat xavfsizligini ta’minlashda faol ishtirok etgan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi”[7] deya takidlanadi.

Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonunning 4-moddasida “jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash”[3] Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko’rsatilgan bo’lsa, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga asosan, Ichki ishlar vazirligining, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida, quyidagi vakolatlari mavjud: “jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi; jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi; jamoat joylarida, shu jumladan yo‘llarda, transport va turizm infratuzilmasi obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan barcha kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi; jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarlik va jinoyatlarning kompleks, tizimli tahlilini olib boradi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish yuzasidan takliflar, ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar va tavsiyalar kiritadi; jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlar yuzasidan umumiy boshqaruv tizimini ta’minlaydi; jamoat xavfsizligini ta’minlash holati haqida keng jamoatchilikni muntazam xabardor qilib boradi, bu borada jamoatchilik fikrini o‘rganadi; jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi”.[7]

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi qonunning 3-moddasida “jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash”,[6] Milliy gvardiyaning asosiy vazifalaridan biriligi belgilangan, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida, vakolatlari quydagilardan iborat: “jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va

amalga oshiradi; jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo‘yish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi; o‘ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etadi; vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e’lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlaydi; jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshiradi”.[7]

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risidagi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi asosida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatiga, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida, quyidagi vakolatlar berilgan: “jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, etnik va diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish choralarini ko‘radi; terrorchilikka qarshi operatsiya hududlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etilgan kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, nazorat qiladi hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi; davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida va qonunchilikda belgilangan boshqa joylarda jamoat xavfsizligini ta’minlaydi; jamoat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan shaxslar, muomalada bo‘lishi cheklangan yoki taqiqlangan ashyolar hamda moddalarning davlat chegarasidan noqonuniy olib o‘tilishining oldini oladi, aniqlaydi va ularga barham berish choralarini ko‘radi; davlat va jamiyatga, jumladan jamoat xavfsizligiga terrorchilik, qo‘poruvchilik va buzg‘unchilik orqali tahdid soluvchi, milliy, etnik, diniy adovatni targ‘ib etishga qaratilgan salbiy harakatlar haqida tezkor ma’lumotlarni to‘playdi, tahlil qiladi va bunday harakatlarning oldini olish hamda bartaraf etish choralarini ko‘radi”.[7]

Prokuratura to‘g‘risidagi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi asosida, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida, quyidagi vakolatlar berilgan: “jamoat xavfsizligini ta’minlashga vakolatli davlat organlarining qonunlarni aniq va bir xilda bajarishlari ustidan prokuror nazoratini amalga oshiradi hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi; jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan profilaktik va maxsus chora-tadbirlarning samaradorligini o‘rganadi hamda vakolatli davlat organlarining qo‘shma yig‘ilishlarida muhokama qiladi; jamoat xavfsizligi sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning kelib chiqish omillari, sabablari va shart-sharoitlari yuzasidan tizimli va ilmiy tahlillarni amalga oshiradi, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkillashtiradi; jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar yuzasidan prokuror nazorati hujjatlarini qo‘llaydi va ularning bartaraf etilishini ta’minlaydi; jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va mavjud vositalarni yagona axborot

platformasiga integratsiya qilishda tegishli davlat organlari bilan hamkorlik qiladi”.[7]

Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi asosida, Mahalliy davlat hokimiyati organlariga, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida, quyidagi vakolatlar berilgan: “jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog‘liq chora-tadbirlar ko‘radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etadi;[1] jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi; jamoat xavfsizligini bevosita ta’minlovchi subyektlarni moddiy-texnik ta’minlash, ularning xodimlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi”.[7]

Yuqoridagilardan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to‘g‘risidagi nizom, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi to‘g‘risida nizom, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi to‘g‘risida nizom va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi to‘g‘risida nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi asosida, O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirliklariga, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida ko’plab vakolatlar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabr kunidagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgust kunidagi “Prokuratura to‘g‘risida” (yangi tahrirda)gi 257-II-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi O‘RQ-407-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 5-aprel kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-471-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.

5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida” (yangi tahrirda)gi O‘RQ-591-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-sonli Qonuni. lex.uz/uz/pdfs.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-27-son. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2021 yil 29 noyabr. lex.uz/uz/pdfs/5749291.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-aprel kunidagi “Favqulodda vaziyatlar tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4276-sonli Qarori. lex.uz/uz/pdfs.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 12-sentabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 714-sonli Qarori. lex.uz/uz/pdfs.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-may kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha inspeksiya to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 318-sonli Qarori. lex.uz/uz/pdfs.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-aprel kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 228-sonli Qarori. lex.uz/uz/pdfs.

12. https://www.lex.uz.

Қазақбаев Тууелбай Керимбаевич Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети докторанти
tolikkazakbaev0@gmail.com

КОРПОРАТИВ ШАРТНОМА МОҲИЯТИ: ИЛМИЙ НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА УЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ

Корпоратив муносабатларни ривожлантириш учун уларни норматив-ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш зарур. Корпоратив шартнома ҳуқуқий тизимимизда корпоратив муносабатлар институтидаги янгиликлардан биридир. Шу боис, корпоратив шартнома ҳам илмий таҳлил ва тадқиқотларни талаб қилади, бу унинг корпоратив муносабатлар субъектлари томонидан корпоратив муносабатларни ҳуқуқий тартибга солинишини такомиллаштиришга ва ундан фаол фойдаланишга ёрдам беради.

Корпоратив шартноманинг ҳуқуқий моҳиятини ўрганишда унинг фуқаролик-ҳуқуқий шартномалар тизимидаги ўрнини аниқлаш жуда муҳимдир. Корпоратив шартнома юридик адабиётларда янги ва етарли даражада ўрганилмаган ҳодиса бўлишига ва амалдаги ички қонунчиликда унинг тузилишининг ҳуқуқий тартибга солинмаганига қарамай, биз бугунги кунда фуқаролик-ҳуқуқий шартномалар тизимида корпоратив шартноманинг мустақил ўрни ҳақида гаплашишимиз мумкин.

Агар корпоратив шартнома ҳақида гапирадиган бўлсак, унда унинг фуқаролик - ҳуқуқий шартномалар тизимидаги мустақил ўрни қуйидаги омиллар билан белгиланади:

1) шартноманинг ўзига хос предмети (нарсаси) мавжуд бўлиб, бу ташкилий (номулкий) хусусиятдаги корпоратив ҳуқуқларни бошқариш ҳисобланади;

2) муайян субъектлар таркиби - фақат бизнес компаниясининг иштирокчилари - компанияни бошқариш ҳуқуқидан фойдаланадиган корпоратив ҳуқуқ эгалари;

3) шартнома иштирокчилари учун умумий натижага эришишга қаратилган - корпоратив ҳуқуқларни самарали бошқариш.

В.В. Луц томонидан ўтказилган ҳуқуқий натижа йўналиши мезонига асосланган фуқаролик-ҳуқуқий шартномаларнинг таснифини ҳисобга олиб, биз корпоратив шартнома қайси турдаги шартномалар гуруҳига тегишли эканлигини аниқлашга ҳаракат қиламиз. Корпоратив шартноманинг ўрнини аниқлаш катта назарий ва амалий аҳамиятга эга, чунки у олимларнинг бундай шартномавий тузилманинг мустақиллиги тўғрисидаги баҳсларида "мен" ни белгилашга имкон беради ва ниҳоят ФКда белгиланган шартномавий конструкциялар даражасида корпоратив шартнома тузишни ҳуқуқий тартибга солиш зарурлигини асослайди.

О.С.Иоффе фикрига кўра, шартноманинг фуқаролик-ҳуқуқий шартномалар тизимидаги мустақил ўрни, уни алоҳида шартнома турига ажратиш шартнома воситасида моддий муносабатларнинг ўзига хос хусусиятлари ёки ушбу шартнома мажбурияти учун объектив зарур бўлган ҳуқуқий шартлар доираси билан белгиланади.

Шартномаларнинг биринчи таснифлаш гуруҳига яъни мулкни бошқага ўтказиш, тўлиқ иқтисодий бошқариш ёки оператив бошқариш шартномаларига ва мол-мулкни вақтинча фойдаланишга топшириш шартномаларига киради, корпоратив шартномани мазкур гуруҳга киритиш эса тўғри бўлмайди. Улардан фарқли ўлароқ, корпоратив шартнома ташкилий (номулкий) характерга эга. Бошқача айтганда, бу шартнома орқали корпоратив турдаги юридик шахс иштирокчилари ўзларининг ўрталарида юзага келадиган корпорацияни бошқаришга оид ички ташкилий-ҳуқуқий муносабатларни тартибга соладилар.

Ишларни бажариш бўйича шартномалар учун ишни бажариш жараёнида пудратчининг ўзи эмас, балки ушбу ҳаракатлар натижасида яратилган натижа, яъни моддий дунёнинг ҳосил қилинган объектига нисбатан фуқаролик ҳуқуқлари ва мажбуриятлари пайдо бўлади. Иш бажаришга оид мажбуриятларнинг моҳияти ҳақида моддий неъматни яратиш ёки унга ишлов бериш бўлиб ҳисобланади. Чунки пудрат шартномалари маълум бир нарса кўринишидаги моддий натижа билан тавсифланади, у пудратчи томонидан яратилгандан сўнг буюртмачига, қоида тариқасида, мулкка ўтказилади.

Ўз навбатида, корпоратив шартнома асосида юзага келган мажбурият, бир неча бор таъкидланганидек, ташкилий характерга эга ҳисобланади. Бу бизнес-компания иштирокчиларининг корпоратив ҳуқуқларидан келиб чиқадиган ваколатларнинг ташкилий жиҳатларини амалга ошириш тўғрисидаги келишуви билан юзага келади. Корпоратив шартнома мажбуриятларини бажариш, шунингдек, маълум бир натижани келтириб чиқариши ҳам мумкин, масалан, корпоратив турдаги юридик шахсни бошқариш учун муайян мураккаб вазиятларни ҳал қилиш, компания даромадларини тақсимлаш тартибини аниқлаш, аммо бундай натижа моддий бўлмайди ва асосан ташкилий табиат касб этади. Корпоратив шартнома моддий дунёнинг янги нарсаларини яратишда ва уларни бошқа шахсларга топширишда вазифасини ҳал этмайди. Шунинг учун унинг ўзига хослиги бундай шартномавий конструкция ишларни бажариш шартномаларига боғлашга имкон бермайди.

Корпоратив шартноманинг барча шартларини бажариш жараёнида унинг томонлари биргаликда ҳаракат қилишади, шу билан хизмат шартномаларидан фарқли ўлароқ, ўзларининг корпоратив ҳуқуқларини бошқариш фаолиятини мувофиқлаштирадилар, бунда мажбуриятнинг

керакли натижасига, қоида тариқасида, фақат етказиб беришдан кейин амалга оширилади.

Бундан ташқари, хизмат кўрсатувчи ва истеъмолчи ўртасидаги ҳуқуқий муносабатлар "қарздор - кредитор" характерига ега, корпоратив шартнома тарафлари ўртасидаги муносабатлар эса расмий шериклик характерга эгадир.

Шунинг учун, бизнинг фикримизча, корпоратив шартнома ўзининг ҳуқуқий табиатига кўра биргаликдаги фаолият тўғрисидаги шартномаларни англатади. Ушбу нуқтаи назар юқорида айтиб ўтилган шартномавий тузилмаларнинг умумий хусусиятлари мавжудлиги билан тасдиқланади, яъни:

- кўп қирралилик;
- барча иштирокчилар учун келишувнинг умумий мақсадининг мавжудлиги;
- шартнома шартларини бажариш жараёнида иштирокчиларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш;
- шартнома мажбуриятининг эркин табиати;
- шартнома асосида юзага келадиган муносабатларнинг коррексион табиати.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, бизнинг фикримизча, корпоратив шартнома ва тегишли шартномавий тузилмаларни қиёсий ҳуқуқий таҳлил қилиш масалаларига тўхталиш керак, уларнинг натижалари корпоратив шартноманинг моҳияти ва ҳуқуқий моҳиятини чуқурроқ тушунишга ёрдам беради.

Корпоратив шартнома корпоратив муносабатларни тартибга солишнинг ўзига хос шартнома механизми сифатида Англия-Америка ҳуқуқий тизимининг давлатлари ҳуқуқи билан боғлиқдир. Айрим олимларнинг фикрича, Англия-Америка ҳуқуқида корпоратив шартномаларни ҳуқуқий тартибга солишнинг ўзига хослиги юридик шахснинг шартномавий концепцияси тушунчаси билан боғлиқ [1]. Бироқ, бизнинг фикримизча, Англия-Америка ҳуқуқида корпоратив шартномаларни ҳуқуқий тартибга солишнинг ўзига хос хусусиятларини юқоридаги тушунчадан мантиқий равишда чиқариб бўлмайди. Бу ўрганилаётган ҳуқуқий ҳодисанинг узоқ, кўпинча қарама-қарши ва чизиқли бўлмаган эволюция жараёнининг натижаси бўлиб, уни чуқурроқ ўрганишни тақозо этади.

Ҳатто етарлича катта миқдордаги акцияларга эга бўлган акциядор (30 фоиздан ортиқ) бундай акциядор учун ноқулай қарорлар қабул қилиб, унинг "бизнес шериклари" томонидан алданиб қолиши мумкин бўлган вазият ва баъзан амалдаги қонунчиликни очиқчасига бузиш жуда кенг тарқалган.

Кўпгина корпоратив соҳаси мутахассислари учун корпоратив шартномалар terra incognita эмас, чунки корпоратив шартномалар узоқ вақт давомида мамлакатимизда фаолият юритаётган компаниялари эгалари томонидан қўлланилиб келинади. Бугунги кунда корпоратив фаолиятни

амалга ошираётган компаниялар хорижий давлатларда тузилган (Масалан, Кипр давлатида рўйхатдан ўтказилган) бўлиб, уларнинг аксарияти, масалан Британия Виргиния оролларидаги бошқа компанияга тегишли бўлиши мумкин. Агар мазкур тартибда фаолият юритаётган корпоратив тузилма бир нечта шахсларга тегишли бўлса, шериклар ўзаро чет эл ҳуқуқига бўйсунадиган (одатда англия ҳуқуқига) корпоратив битимни тузишади (shareholders' agreement)[2].

Ҳуқуқшунос олимлар ҳам корпоратив шартноманинг тушунчаси ва ҳуқуқий табиати борасида якдил фикрда эмаслар. Фикрларнинг бундай хилма-хиллиги эса юридик адабиётлар қизғин мунозаралар келтириб чиқармоқда. Айрим тадқиқотчилар мазкур шартномани кенг маънода талқин этишади ва унинг предмети таркибига кенг доирадаги масалаларни киритишса, бошқалари корпоратив шартномани фақат корпоратив ҳуқуқларни бошқаришга оид битим сифатида талқин этишади. Шу жиҳатдан корпоратив шартноманинг ҳуқуқий табиати борасида ҳам фикрлар турличадир. Айрим олимлар корпоратив шартномани биргаликдаги фаолият шартномаси сифатида кўришади ва корпоратив ҳуқуқлар эгалари келишуви чегараси уставда, шунингдек таъсис шартномасида ўрнатилган умумий тартибни ўзгартириш имконияти йўқлиги билан изоҳлашади [3]. Мазкур фикр корпоратив шартномалар предметини таҳлилига асосланади ва ушбу шартнома иштирокчиларининг ўзаро мувофиқлаштирилган биргаликда фаолият юритишлари, яъни корпоратив ҳуқуқларини биргалик бошқаришлари билан изоҳланади[4].

Ҳозирги пайтда корпоратив шартноманинг хўжалик, фуқаролик ёки корпоратив ҳуқуқий муносабатлар доирасига киритиш масаласи мунозарлигича қолмоқда. Ушбу масала юзасидан муносабат билдиришдан олдин ҳар қандай ҳуқуқий институтнинг ҳуқуқий табиатини аниқлашга ёрдам берувчи қўйидаги жиҳатларга эътибор қаратиш лозим: 1) ҳуқуқий институтни тартибга солиш фақат битта ҳуқуқ соҳаси доирасида амалга ошириладими ёки бу ҳолатда соҳалараро тартибга солиш ҳам намоён бўладими; 2) ҳуқуқий институт мустақилми ёки бошқа институтларнинг белгиларини ифодаловчи комплекс инситутми; 3) ҳуқуқий институтнинг ўзига хос жиҳатлари нимада.

Биринчи саволга жавоб беришда ҳуқуқшунос олимларнинг фикрлари турли хилдадир. Баъзи муаллифларнинг фикрича, корпоратив шартнома фуқаролик-ҳуқуқий шартнома ҳисобланади ва шартномавий мажбуриятни вужудга келтиради, ўз навбатида, корпоратив шартнома фақат фуқаролик ҳуқуқи нормалари билан тартибга солинади. Бошқа муаллифлар эса, корпоратив шартнома бу – шартнома шаклидаги корпоратив ҳужжатдир, чунки бу шартнома бошқарув ва корпорациялардаги органлари тузилмасига тааллуқлидир ва шу сабабли мазкур нуқтаи назар тарафдорлари корпоратив

шартнома мазмуни бўйича эмас, балки шакл бўйича шартномадир, деган хулосани илгари суришади[5].

Корпоратив шартнома қоида тариқасида фақат корпоратив муносабатлар доирасида мавжуд бўлади ва корпоратив ҳуқуқларни амалга ошириш билан боғлиқ ҳисобланади. Корпоратив муносабатлар корпоратив типидаги юридик шахс иштирокчилари ўртасида вужудга келади. Корпоратив шартнома аънавий мажбуриятлар учун хос бўлган кредитор ва қарздорнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари ўзаролигини юзага келтирмайди. Шу билан бирга корпоратив шартнома доирасида муайян бир иштирокчи учун фақат ҳуқуқ ёки фақат мажбурият вужудга келиши мумкин. Албатта, бу вазиятда корпоратив шартнома тарафларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари амалга ошириладиган шахс мавжуд бўлади. Бундай шахс бўлиб шартнома тарафлари эмас, балки юридик шахснинг ўзи намоён бўлади. Бу корпоратив муносабатлар назариясига тўлиқ мос келади. Мазкур назарияга кўра корпорация иштирокчилари бир-бирларига нисбатан эмас, балки ўзлари иштирокчиси ҳисобланган юридик шахсга нисбатан ҳуқуқларга эга бўладилар [6].

Фикримизча, корпоратив ҳуқуқни мустақил ҳуқуқ соҳаси сифатида эътироф этиш мунозаралидир. Айни пайтда корпоратив муносабатларнинг бошқа ҳуқуқ соҳаларидан таъсирдан холи бўлган "соф" ҳолда мавжуд бўлиши ҳам мумкин эмас. Шу боис корпоратив шартномаларнинг хўжалик ёки фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларга алоқадор шартномалар тизимига киритиш мақсадга мувофиқдир. Бунда субъектив таркибга кўра, корпоратив муносабатларнинг у ёки бу ҳуқуқ соҳасига алоқадорлигини фарқлаш мумкин. Агар корпоратив муносабат тарафлари бўлиб хўжалик юритувчи субъектлар иштирок этса, бундай ҳуқуқий муносабатни хўжалик-ҳуқуқий муносабат сифатида, тарафлардан бири жисмоний шахс бўлганда эса фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар жумласига киритиш ўринлидир.

Корпоратив шартнома ўзининг табиатига кўра кўп томонламадир[7]. Юридик адабиётларда бундай шартномаларга нисбатан оммавий оферта қўллаш имконияти борасидаги масала кўтарилган.

Корпоратив шартноманинг хўжалик-ҳуқуқий ва фуқаролик-ҳуқуқий шартномалар тизимидаги мустақил ўрни қуйидаги омиллар билан белгиланади: 1) шартноманинг ўзига хос предмети – хўжалик жамият иштирокчиларининг ташкилий (номулкий) тусдаги корпоратив ҳуқуқларни бошқариш бўйича келишилган ҳаракатлари; 2) ўзига субъектив таркиб – фақат жамиятни бошқариш бўйича ўзларининг ваколатларини амалга оширайтган корпоратив ҳуқуқ эгалари – хўжалик жамияти иштирокчилари; 3) қўлланилиш соҳаси – корпоратив типдаги юридик шахс доирасида; 4) акцессорлик характер – корпоратив шартнромани хўжалик жамияти таъсис ҳужжатларининг қоидалар асосида тузилиши; 5) шартноманинг

иштирокчилар учун умумий натижа – корпоратив ҳуқуқларни бошқаришга эришишга қаратилганлиги[8].

Юқоридаги фикрларни таҳлил қилган ҳолда хулоса қилиш мумкинки, Иқтисодиётнинг ривожланиши билан фақат тадбиркорлик субьекти ҳисобланган фирмалар, корхоналар ва ташкилотлар орасидаги эмас, балки шу ташкилотлар иштирокчилари орасидаги муносабатларни ҳам тартибга солиш долзарб масалага айланмоқда. Субьектлари ўртасидаги тенгликни таьминлаш мақсадида корпоратив шартнома тушунчаси кириб келди. корпоратив шартномалар фақат жамиятлар (масъулияти чекланган ёки қўшимча масъулиятли) иштирокчилари ўртасида, акциядорлик жамиятларида эса акциядорлар ўртасида тузилади. Корпоратив шартномалар шериклар турли вазиятларда қандай ҳаракат қилишлари кераклиги ҳақида келишиб олишга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ломакин Д.В. Договоры об осуществлении прав участников хозяйственных обществ как новелла корпоративного законодательства // Вестник ВАС РФ. 2009. № 8. С. 22.

2. Загороднюк Г. Международный опыт: корпоративные договоры по английскому праву. – № 10. – 2018 [Электронный ресурс] / – Режим доступа: https://www.dlapiper.com/.../gzagorodniukinternational- exp...

3. Сигидин М. Корпоративнийдоговір в системіцивільно-правовихдоговорів [Електронний ресурс] / М. Сигидин. – Режим доступу:www.irbis-nbuv.gov.ua/.../cgiirbis_64.exe

4. Квят А. Корпоративный договор – новелла корпоративного законодательства Украины // Юридическая газета онлайн [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://yur gazeta.com/publications/practice/ korporativno-pravo-ma/korporativniy-dogovir-- ново-корпоративно-законодательстваукрайини. Html

5. Руденко Е. Правовая природа корпоративного договора в российском праве // Научный журнал КубГАУ. – 2016. – № 118(04)[Електронний ресурс] / Е. Руденко, А. Усенко. –Режим доступу: http://ej.kubagro.ru/2016/04/pdf/21.pdf

6. Руденко Е. Правовая природа корпоративного договора в российском праве // Научный журнал КубГАУ. – 2016. – № 118(04)[Електронний ресурс] / Е. Руденко, А. Усенко. –Режим доступу: http://ej.kubagro.ru/2016/04/pdf/21.pdf

7. Сигидин М. Особенности заключения корпоративного договора//Юридический научный юридический журнал. – 2016. – № 3. – С. 61-64.

8. Сигидин М. Корпоративный договор в системе гражданско-правовых договоров [Электронный ресурс]. – Режим доступа: www.irbis-nbuv.gov.ua/.../cgiirbis_64.exe?

Hakimov Shaxboz — *Qaraqalpaq mámleketlik universiteti Mamleket basqarıw huqıqı qanigeligi 2-kurs magistanti*

Shamuratova Dilnoza — *Qaraqalpaq mámleketlik universiteti Mamleket basqarıw huqıqı qanigeligi 2-kurs magistanti*

JÁMIYETSHILIK QADAĠALAWI JÁNE ONI ÁMELGE ASIRIWDIŃ KONSTITUCIYALIQ HUQIQIY KEPILLIKLERI

Annotatsiya: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning konstitutsiyaviy asoslarini shakllantirish va davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.

Kalt so‘zlar: fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, huquqiy mexanizm, konstitutsiyaviy norma

JAMOATCHILIK NAZORATI VA UNI AMALGA OSHIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI

Annotatsiya : mámleket hákimiyatı hám basqarıwı shólkemleri tárepinen nızam húJjetleriniń atqarıw etiliwi ústinen jámiyetshilik qadaġalawın ámelge asırıwdıń konstituciyalıq tiykarların qáliplestiriw hám mámleket shólkemleriniń iskerligi ústinen jámiyetshilik qadaġalawın ámelge asırıw mexanizmlerin rawajlandırıw.

Gilt sózler: puqaralıq jámiyeti institutları, mámleketlik emes kommerciyalıq bolmaġan shólkemleri, huqıqıy mexanizm, konstituciyalıq norma.

Mámleketimizde demokratiyalıq qádiriyatlar, insan huqıqları hám erkinlikleri hám de nızamlı máplerin qorġawda puqaralıq jámiyeti institutları, mámleketlik emes noti-jorat shólkemleri zárúrli omilga aylanıp atır. Puqaralardıń óz potenciallerin ámelge asırıwda, olardıń social, social ekonomikalıq iskerligi hám huqıqıy mádeniyatın asırıw ushın sharayat jaratıwda, jámiyette máples teń salmaqlılıqın támiyinlewge kómeklesiwde hám de mámleket hám jámiyet basqarıwında jámiyetshilik qadaġalawın ámelge asırıwdıń tásirli hám ámeliy mexanizmlerin engiziwde usı institutlardıń áhmiyeti júdá úlken. Mámleket shólkemlerine júkletilgen wazıypalardı orınlaw natiyjeliligin asırıw, olar tárepinen insan huqıqları, erkinlikleri hám máplerine ámel etiw ústinen jámiyetshilik qadaġalawın ornatıwda Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh. M. Mirziyoev basshılıġında islep shıġılġan 2022-2026 jilarda mámleketı rawajlandırıwdıń jetı ústin turatuġın baġdarı boyınsha Rawajlaniw stategiyası zárúrli orın tutadı.[1].

Mámleketimiz basshısı Sh. M. Mirziyoev Murajatnamasında durıs sın pikir etkeni sıyaqlı, Búgingi kunge shekem mámleket shólkemleri iskerligi ústinen nátiyjeli jámiyetshilik qadaġalawın ámelge asırıwdıń anıq huqıqıy mexanizmleri jaratılmaġan. Bul bolsa mámleketlik emes kommerciyalıq bolmaġan shólkemleri

tárepinen mámleket shólkemleri hám lawazımlı shaxslar iskerligin qalıs bahalawǵa irkinish berip atır. Sonnan kelip shıǵıp, mámleket hám jámiyet basqarıwında jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıwdıń tásirli hám ámeliy mexanizmlerin engiziw maqsetinde “Jámiyetshilik qadaǵalawı haqqında”ǵı nızamdı qabıllaw zárúr. Sol munasábet menen barlıq mámleket shólkemleri qasında iskerlik alıp baratuǵın jámiyetshilik keńesleri shólkemlestiriwdi usınıs etemen. Usı jámiyetshilik keńesleri mámleket shólkemleri iskerliginiń ashıqlıǵın támiyinleytuǵın, olardı xalıq menen tikkeley baylanıstıratuǵın kópir wazıypasın orınlawı kerek”.[2]. Atap ótiw kerek, búgingi kúnde puqaralıq jámiyeti institutları jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıw arqalı puqaralardıń mámleket menen óz-ara nátiyjeli baylanısın támiyinlew, adamlardıń keyipin, mámlekette kesheip atırǵan ózgerislerge munasábetin anıqlawdıń zárúrli qurallarından birine aylanıp atır. Ótken dáwir dawamında mámleketimizdi demokratiyalıq jańalaw processinde puqaralıq jámiyeti institutlarınıń roli hám áhmiyetin kúsheytiwge, puqaralardıń eń zárúrli sotsial-ekonomikalıq máselelerin sheshiwge qaratılǵan 200 den artıq nızam húJjetleri qabıl etilgeni de bul tarawdıń rawajlanıwına bolǵan úlken itibardı kórsetedi. Sońǵı jıllarda “Mámleketlik emes kommerciyalıq bolmaǵan shólkemleri iskerliginiń kepillikleri haqqında”ǵi, “Jámiyetlik fondlari haqqında”ǵı, “Qáwenderlik haqqında”ǵi, jańa tahrirdagi “Puqaralardıń ózin ózi basqarıw shólkemleri haqqında”ǵi, “Ekologiyalıq qadaǵalaw haqqında”ǵi hám de “Social seriklik haqqinda”ǵi nızamlar, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2003- jıl 27-iyundaǵı PF-1796 -sanlı “Puqaralıq jámiyetin úyreniw institutın mámleket tárepinen qollap-quwatlaw haqqında”ǵı pármanı, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2011- jıl 12-iyuldagi PQ-1576 -sanlı “Puqaralıq jámiyeti qáliplesiwin monıtorıń qılıw ǵárezsiz institutın qollap-quwatlaw ilajları haqqında”ǵi qararı [3], 2013-jıl 12-dekabrdegi PQ-2085-sanlı “Puqaralıq jámiyeti institutların rawajlandırıwǵa kómeklesiw boyınsha qosımsha is-ilajler haqqında”gı sheshimi, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017- jıl fevraldaǵı PF-4944-sanlı “Máhelle institutın jáne de jetilistiriw ilajları haqqında”gi pármanı [4] hám basqa qatar húJjetler qabıllandı, olar puqaralıq jámiyeti institutları social aktivligin kúsheytiwde zárúrli faktor wazıypasın orınlap atır. Mámleketimizde puqaralıq jámiyeti institutlarınıń huqıqıy tiykarların jetilistiriw boyınsha qatar is-ilajler ámelge asırıldı. Atap aytqanda, Ózbekstan Respublikasınıń jańa tahrirdagi “Puqaralardıń ózin ózi basqarıw shólkemleri haqqında”gi nızamı qabıl etilip, 2013-jıldıń 23-aprel kúni baspa sózde daǵaza etildi hám sol kúnnen baslap kúshke kirdi.[5]. Usı nızamda jámiyetshilik qadaǵalawı puqaralardıń ózin ózi basqarıw shólkemleri tárepinen tiyisli aymaqta nızamlar hám basqa nızam húJjetleriniń atqarıw etiliwi jaǵdayın úyreniw; tiyisli sharalar kóriliwi ushın mámleket shólkemlerine shaqırıq etiw; mámleket shólkemleri kepillikine kiretuǵın jáne social áhmiyetke iyelik etiw máseleler boyınsha sorawlar jiberiw hám de nızam húJjetlerine muwapıq basqa sırtqı kórinislerde de ámelge asırılıwı múmkinligi aytildi . Búgingi kúnde puqaralıq jámiyeti institutları, atap aytqanda puqaralardıń

ózin ózi basqarıw shólkemleri jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıwshı sub'ekt retinde puqaralardıń mámleket menen óz-ara nátiyjeli baylanısın támiyinlew, mámlekette kesheip atırǵan ózgerislerge munasábetin anıqlawdıń zárúrli qurallarından birine aylanıp atırǵan Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017- jıl 3-fevraldaǵı PF-4944-sanlı "Máhelle institutın jáne de jetilistiriw ilajları haqqında"gi pármanı tiykarǵı derek bolıp tabıladı. Jámiyet hám mámleketlik jumısların basqarıwda jámiyetshilik qadaǵalawı jáne onı ámelge asırıwdıń taǵı bir zárúrli huqıqıy tiykarlarınan biri - Ózbekstan Respublikasınıń "Ekologiyalıq qadaǵalaw haqqında"gi nızamı esaplanadı. Ózbekstan Respublikası Oliy Majlısı Nızamshılıq palatası tárepinen 2013-jıl 12-noyabrde qabıl etilgen, Senat tárepinen 2013-jıl 12-dekabrde maqullangan hám de 2013- jıl 28 -dekabrde baspa sózde jariyalanip, kúshke kirgen "Ekologiyalıq qadaǵalaw haqqında"gi nızamda puqaralar ekologiyalıq qadaǵalaw sub'ektleri retinde belgilenip , átirap -ortalıqtı qorǵaw hám tábiy resurslardan aqılǵa say paydalanıwdı támiyinlew sistemasında huqıq hám minnetlemeleri bekkemlendi .[6] Bul Nızamnıń 9 -statyasına karay, jámiyetshilik ekologiyalıq qadaǵalawı ekologiyalıq qadaǵalawdıń bólek túri retinde belgilendi. Puqaralıq jámiyeti institutlarına ekologiyalıq qadaǵalawdıń jámiyetshil inspektorları sistemasın qáliplestiriw hám de olardıń iskerligin muwapıqlastırıw sıyaqlı kepillikler berildi. Jámiyetshi inspektorlar yuridikalıq hám fizikalıq adamlardıń átirap tábiy ortalıqtı qorǵaw hám tábiy resurslardan aqılǵa say paydalanıw salasındaǵı nızam hújjetine ámel etiliwin gúzetip barıw, jámiyetshilik ekologiyalıq ekspertiza-sini ótkeriwde qatnasıw hám basqa qatar kepilliklerge iye boldı . Bunday jámiyetshi inspektorlar institutı házirgi kúnde AQSh, Ullı Britaniya, Germaniya, Koreya sıyaqlı mámleketlerdiń tábiyattı qorǵawǵa tiyisli ámeliyatında keń qollanilib kelinip atır. Atap ótiw kerek, mámleketimizde mámleket hákimiyatı hám basqarıwı shólkemleri tárepinen nızam hújjetleriniń atqarıw etiliwi ústinen jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıwdıń konstituciyalıq tiykarların qáliplestiriw hám mámleket shólkemleriniń iskerligi ústinen jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıw mexanizmlerin rawajlandırıwǵa bólek itibar berilip atır. Haqıyqattan da, Ózbekstan Respublikası Oliy Majlısı Senatiniń 2014- jıl 10- apreldegi XIV jalpı májilisinde maqullangan hám de Ózbekstan Respublikası Prezidenti tárepinen imzalanip, 2014 -jıldıń 17 -aprelide baspa sózde jarayalanip, kúshke kirgen "Ózbekstan Respublikası Konstituciyasiniń ayırım statiyalarına ózgertish hám qosımshalar kirgiziw haqqında (32, 78, 93, 98, 103 hám 117-statiyalarına)" ǵi Ózbekstan Respublikası Nızamınıń qabıl etiliwi puqaralardıń mámleket hákimiyatı iskerligi ústinen jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıw daǵı rolin jáne de kúsheytiw, húkimetler bóliniwi konstituciyalıq principin turmısqa izbe-iz qollanıw hám reformalardı jáne de tereńlestiriwge qaratılǵan. Atap aytqanda, Ózbekstan Respublikası Konstituciyasiniń 32-statyasına Ózbekstan Respublikasınıń puqaraları jámiyet hám mámleketlik jumısların basqarıwdaǵı qatnasıwı mámleket shólkemleriniń iskerligi ústinen jámiyetshilik qadaǵalawın rawajlandırıw hám jetilistiriw jolı menen ámelge asırılıwın názerde

tutatuǵın norma kirgizildi. Óz gezeginde usı konstituciyalıq norma puqaralardıń jámiyet hám mámleketlik jumısların basqarıw dağı qatnasıwınıń zárúrli forması bolǵan jámiyetshilik qadaǵalawınıń konstituciyalıq tiykarların qáliplestiriwge xızmet etedi. Sonıń menen birge, Ózbekstan Respublikası Konstituciyasiniń 32-statyası ekinshi bólegi “Mámleket shólkemleriniń iskerligi ústinen jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıw tártibi nızam menen belgilenedi” degen mazmundagi norma menen toldırildi. Bul normanıń Tiykarǵı Nızamımızǵa kiritiliwi mámleketimizde mámleket shólkemleriniń iskerligi ústinen jámiyetshilik qadaǵalawın ámelge asırıwdıń nızamshılıq tiykarların rawajlandırıwǵa xızmet etedi.

Paydalanǵan ádebiyatlar

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2018 yil

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, 6-son, 69-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi qonuni

5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013, 17-son, 219-modda.

6.O'zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to'g'risida”gi qonuni.

Amaniyazova Dilafruza Baxadır qızı — *Qaraqalpaq mámleketlik universiteti magistrantı*

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI JERGILIKLI WÁKILLIKLI UYIMLAR ISKERLIGINIŃ HUQIQIY TIYKARLARI

Mámleketlik hákimiyattıń wákillikli uyımı sıpatında Xalıq deputatları rayonlıq hám qalalıq Keńesleri jergilikli wákillikli uyımlar bolıp tabıladı.

Hár qanday mámleketlik organlar sıyaqlı olardıń iskerligin huqıqıy tártipke salıwshı bir qatar nızam húJjetleri bar bolıp, olar tiykarınan:

- Ózbekstan Respublikasınıń hám Qaraqalpaqstan Respublikasınıń Konstituciyaları;
- Saylaw Kodeksi;
- Ózbekstan Respublikasınıń hám Qaraqalpaqstan Respublikasınıń «Jergilikli mámleketlik hákimiyat haqqında»ǵı Nızamları;
- Ózbekstan Respublikasınıń hám Qaraqalpaqstan Respublikasınıń «Xalıq deputatları rayonlıq hám qalalıq Keńesi deputatınıń statusı haqqında»ǵı Nızamları nızamları;
- Qaraqalpaqstan Respublikası Joqarǵı Keńesi qararları;
- Jergilikli Keńesler Reglamentlerin, atap aytqanda Ózbekstan Respublikası Oliy Majlisi Senatınıń 2021 jıl 31 iyoldaǵı SQ-360-IV-sanlı Qararı menen tastıyıqlanǵan «Xalıq deputatları wálayat, rayon, qala Keńesleriniń Reglamenti" hám Qaraqalpaqstan Respublikası Joqarǵı Keńesi Prezidiumınıń 2021-jıl 14-oktyabrdegi 488-sanlı Qararı menen tastıyıqlanǵan "Xalıq deputatları rayonlıq, qalalıq keńesiniń úlgili reglamenti»leri;
- Ózbekstan Respublikası Oliy Majlisi Senatınıń 2021 jıl 31 iyoldaǵı SQ-360-IV-sanlı Qararı menen tastıyıqlanǵan «Xalıq deputatları wálayat, rayon, qala Keńesleriniń turaqlı komissiyaları haqqında"ǵı úlgi Rejesi hám Qaraqalpaqstan Respublikası Joqarǵı Keńesi Prezidiumınıń 2021-jıl 14-oktyabrdegi 488-sanlı Qararı menen tastıyıqlanǵan "Xalıq deputatları rayonlıq, qalalıq keńesiniń turaqlı komissiyaları haqqında» ǵı úlgi rejesi.

Tiykarınan jergilikli Keńesler iskerligi jámáát bolıp ámelge asırıladı hám bunda erkin dodalaw, járiyalılıq, jámiyetshilik pikirin esapqa alıwǵa tiykarlanıwı menen áhmiyetli.

Sonı aytıp ótiw kerek, jergilikli Keńestiń sessiyasında is rejesi tastıyıqlanıp alınadı hám sol rejede tiykarınan jergilikli Keńes jumıs alıp barıwınıń ınıń tiykarǵı baǵdarları belgilep beriledi.

Al, usı jergilikli Keńes jumısınıń tiykarǵı baǵdarların óz ishine alatuǵın is rejesi tiykarında bolsa jergilikli Keńes turaqlı komissiyalarınıń is rejeleri islep shıǵılıwı nızamshılıqta belgilengen.

Jergilikli Keńestiń is rejeleri islep shıǵılıwda tiykarınan jergilikli Keńes deputatları, turaqlı komissiyalar, jergilikli hákimiyattıń bólimleri, basqarmaları hám basqa quramlı bólimleri, aymaqta jaylasqan kárxana, shólkem hám mekemeler, mámleketlik emes kommerciyalıq emes shólkemler, puqaralardıń ózin-ózi basqarıw uyımları usınısları, sonday-aq, aymaqlıq wákillik uyımı sıpatında Qaraqalpaqstan Respublikası Joqarǵı Keńesi usınısları inabatqa alınadı.

Is reje jergilikli Keńestiń sessiyasında qabıl etiledi hám ǵalaba xabar qurallarında járiyalanıwı shárt etip belgilengen.

Al, Jergilikli Keńes is rejesiniń orınlanıwı bolsa onıń sessiyalarında, sessiyalar aralıǵında bolsa turaqlı komissiyalar májilislerinde dodalanadı.

Sol menen birge, jergilikli Keńestiń is rejesine ózgerisler hám qosımshalarda kirgiziliwi múmkin. Bul ózgeris kirgiziw haqqındaǵı másele hákim – jergilikli Keńestiń baslıǵı, turaqlı komissiyalar hám deputatlardıń usınısı boyınsha sessiyada qarap shıǵıladı. Jergilikli Keńestiń reglamentinde belgilengen tártipte usı másele boyınsha qarar qabıl etiledi.

Is rejeniń orınlanıw barısı haqqında aytatuǵın bolsaq, jergilikli Keńestiń is rejesi orınlanıwın shólkemlestiriw, sonday-aq. turaqlı komissiyalardıń is rejeleri turaqlı komissiyalar tárepinen óz waqtında orınlanıwı ushın hákim - jergilikli Keńes baslıǵı juwapker esaplanadı.

Jergilikli Keńestiń baslıǵı sıpatında hákim jergilikli Keńes jumısın shólkemlestiredi, jergilikli Keńeske qarap shıǵıw ushın kirgiziletuǵın máselelerdi tayarlawǵa ulıwma basshılıq etedi, onıń sessiyalarında basshılıq etiwi nızamshılıqta belgilengen.

Sonı aytıp ótiw kerek, hákim óz jumısları haqqında jergilikli Keńes aldında esabat beredi. Basqa wákillikli uyımlar sıyaqlı jergilikli Keńeslerdiń wákillik múddeti bes jıl.

Hámmemizge belgili, jergilikli Keńesler saylawlar tiykarında qáliplestiriledi. Usı orında, saylawlar haqqında aytıp ótetuǵın bolsaq, Sh.Xolbaev pikirinshe, saylaw - dawıs beriw arqalı mámleket shólkemleri, jergilikli ózin ózi basqarıw shólkemleri hám basqa strukturalardı shólkemlestiriw quralı esaplanadı. Puqaralardıń óz saylaw huqıqın ámelge asırıwı - olardıń mámleketti basqarıwda qatnasıwınıń eń zárúrli formalarınan biri bolıp tabıladı [1].

Nemis alımı Vinrix Kuxne buǵan baylanıslı «Saylaw jámiyette turaqlılıqtı támiyinlew hám de mámleket siyasiy ómirin demokratiyalastırıwdıń bas faktorı bolıp, saylawlar járdeminde wákillikli hákimiyat hám xalıq erk-ıqıraru, siyasiy turaqlılıq hám teń salmaqlılıqtı támiyinlenedi» [2], dep jazadı.

Akademik A.X.Saidovtıń atap ótiwinshe, saylaw sisteması – jámiyette mámlekettiń wákillik organların saylaw jolı menen júzege keliwshi mámleketlik-siyasiy múnásibetleri sisteması bolıp tabıladı [3].

Demek, alımlardıń pikirine qosılǵan halda aytıwımız múmkin, jergilikli keńeslerdiń saylawlar arqalı qáliplestiriliwi demokratiyalıq mámlekette puqaralardıń huqıq hám erkinliklerińiń támiynleniwinen derek beredi.

Saylaw procesin huqıqıy tártipke salıwdı jetilistiriwge jóneltirilgen 10 ǵa jaqın nızamlardıń analizin inabatqa alǵan halda birden-bir Saylaw kodeksi qabıl etildi. Bul nızamlar, bul 2007-jıl 11-apreldegi «Mámleketlik basqarıwdı jańalaw hám jáne de demokratiyalastırıw hám de mámleketti modernizaciyalawda siyasiy partiyalardıń rólin kúsheytiw haqqında»ǵı [4], 2012-jıl 23-martdaǵı «Mámleket hákimiyatınıń wákillik organlarına hám Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń náwbettegi saylawı haqqında»ǵı [5] konstituciyalıq nızamlar, 2004-jıl 2-dekabrdegi «Xalıq deputatları jergilikli keńesi deputatın, Ózbekstan Respublikası Oliy Majlisınıń Nızamshılıq palatası deputatın hám Senati aǵzasın shaqırıp alıw haqqında»ǵı, 2008-jıl 25-dekabrdegi «Saylaw haqqındaǵı nızam húJjetleri rawajlandırılıwı múnásibeti menen Ózbekstan Respublikasınıń ayırım nızam húJjetlerine ózgeris hám qosımshalar kirgiziw haqqında»ǵı, 2013-jıl 22-apreldegi jańa redakciyadagi «Puqaralar jıyını baslıǵı (aqsaqalı) jáne onıń máslahátshileri saylawı haqqında»ǵı nızamlar usılar qatarına kiredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi:

1. Ш.Холбаев. Мамлакатимизда сайлов қонунчилиги ва эркинлиги масаласи. // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 3 (2021) / ISSN 2181-1415. 70 б.

2. Winrich Kühne. The Role of Elections in Emerging Democracies and Post-Conflict Countries (http://www.fes.de/GPol/)

3. Winrich Kühne. The Role of Elections in Emerging Democracies and Post-Conflict Countries (http://www.fes.de/GPol/)

4. Саидов А. “Сайлов-2021”: сайлов қонунчилигининг ривожланиш босқичлари. // Халқ сўзи газетаси. https://xs.uz/uzkr/post/cajlov-2021-sajlov-qonunchiligining-rivozhlanish-bosqichlari?ysclid=l3ah7iid1

5. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. 2007. №4. 161-модда.

Даўлетмуратов Султан Рустемович *Қарақалпақстан Республикасы суды судясы. Юридика илимлери докторы (PhD)*

КОНСТИТУЦИЯ ПУҚАРАЛЫҚ ЖӘМИЙЕТ ҲӘМ ДЕМОКРАТИЯЛЫҚ МӘМЛЕКЕТТИ ҚУРЫЎДЫҢ ҲУҚЫҚЫЙ ТИЙКАРЫ.

Өзбекстан Республикасының дүнья жүзинде сиясий майданда мәмлекет сыпатында өз орнына ийе болыўы, өзиниң раўажланыў жолын белгилеп алыўы, жылдан-жылға өзиниң абырайын көтерип барыўы ҳәм халықтың абаданлығын асырып, дүньяның раўажланған мәмлекетлер қатарынан орын алыўында-Конституцияның орны ҳәм әҳмийети шексиз.

Ҳәммемизге белгили, Конституция мәмлекеттиң тийкарғы нызамы болып, ҳәр бир мәмлекеттиң келбети ҳәм келешегин белгилейди. Сол өзгешеликтен келип шығып айтыў мүмкин, 1992-жыл 8-декабрьде қабыл етилген Өзбекстан Республикасы Конституциясы мәмлекетимизди дуньяға танытқан, ҳалықаралық қатнасықлардың тең ҳуқықлы субъекти сыпатында жедел ҳәрекет етиўге ҳуқықый тийкар жаратқан әҳмийетли ҳуқықый ҳүжжет болып есапланады.

Конституция ҳәм нызамлар бир тәрептен жәмийетлик ҳуқықый ой-пикир, ҳуқықый идеология ҳәм мәдениятының өними сыпатында жүзеге келеди, екинши тәрептен болса,-халықтың ҳуқықый ой-пикири, идеологиясы ҳәм мәдениятын қәлиплестириў, бағдарлаў ҳәм жетилистириўдиң әҳмийетли усылы болып хызмет қылады.

Өзбекстан Республикасының Биринши Президенти айтқанындай, Тийкарғы нызамымыз халқымыздың ишки сезимин, руўхыятын, жәмийетлик ой-пикири ҳәм мәдениятын сәўленедиреди. Конституциямыз толық мәнисте алғанда халқымыз раўажланыўы ҳәм дөретиўшилигиниң өними болып табылады.[1.185]

Ғәрезсизлик декларациясының қабыл қылыныўының даўамы сыпатында Олий Кенгашининг 1990-жыл 20-июндағы II-сессиясында Өзбекстан Республикасы жаңа Конституциясының жойбарын таярлаў лазымлығы ҳаққында қарар қабыл қылынды. Жаңа Конституция жойбарын ислеп шығыў ушын Олий Кенгаштиң 64 депутатдан ибарат Конституциялық комиссия дүзилди. Бул комиссия баслығы етип Өзбекстан Республикасының Биринши Президенти И.А.Каримов тастыйықланды. Конституция жойбарын жаратыў менен байланыслы барлық шөлкемлестириўшилик ҳәм дөретиўшилик процессин муўапықластырып барыў ушын Конституциялық комиссия ағзалары ҳәм де жетекши қәнигелер ҳәм алымлардан ибарат 32 адамлық исши топар дүзилди. Конституция жойбарының ҳәр бир бөлимлерин таярлаў ушын 6 киши топар дүзилди. Киши топардың курамына 50 адамнан ибарат илимий хызметкер ҳәм қәнигелер киргизилди. Конституциялық комиссия

баслығы усы исши топар алдына конституциялық раўажланыўдың дүнья жүзи тәжрийбесин үйрениў, басқа мәмлекетлердиң инсан ҳуқықлары бойынша, демократия ҳәм нызамлылық тараўында қолға киргизилген жемислерди есапқа алып, халыққа жақын ҳәм түсиникли болған сиясий юридикалық ҳүжжетти жаратыў ўазыйпасын қойды.[2.39] Усы көрсетилген ўазыйпаға муўапық ҳәр бир топар барлық мәмлекетлердиң конституцияларын үйренип шықты.

Конституция жойбарының дәслепки варианты 1991-жыл октябрь-ноябрьге шекем таярлап болынды. Ол алғы сөз, 6 бөлим ҳәм 158 статьядан ибарат еди. 1992-жылдың бәҳәринде жойбардың 149-статьядан ибарат екинши варианты ислеп шығылды.Үшинши вариант 137-статьядан ибарат еди. Жойбарды кең халық массасына додалаў ушын жәрилаўдан алдын Конституциялық комиссия ҳәм оның баслығы және бир рет үйренип шықты ҳәм жойбар 127 статьяға келтирилди.

Өзбекстан Республикасы Конституциялық комиссиясының 1992-жыл 5-сентябрде болып өткен мәжилисинде Конституция жойбарлары ҳәр түрли усылда додаланды. Усы Комиссияның қарарына муўапық жойбар 1992-жыл 26-сентябрьде улыўма халықлық даўыс бериў ушын ғалаба хабар қуралларында конституция жойбары жәрияланды. Улыўма халықлық додаланыў сентябрдиң ақырларынан баслап декабрдиң басларына шекем даўам етти.

1992-жыл 21-ноябрде улыўма халықлық даўыс бериў ушын ғалаба хабар қуралларында екинши мәрте конституция жойбары жәрияланды.[3.55] Улыўма халықлық додалаў даўамында Конституция жойбары бойынша 6 мыңнан аслам усыныс ҳәм пикирлер билдирилди. Жәмийет ҳәм мәмлекет өмириниң ең зәрүрли мәселелери халық талқылаўына усыныс етиледи, улыўма даўысқа (референдумға) қойылады. Референдум өткериў тәртиби нызам менен белгиленеди.[3.9-статья] Өзбекстан Республикасы Олий Кенгашиниң он екинши шақырық он биринши сессиясында, 1992-жыл 8-декабрде Өзбекстан Республикасы Конституциясын қабыл етти. Өзбекстан Республикасы Конституциясы дүньядағы ең демократиялық конституциялардан бири болып табылады.

Конституциямыздың ҳәр бир нормасы тийкарынан өз мазмуны менен халқымыздың бурынғы бай мәденияты ҳәм руўхыятына тиккелей байланыслы болып есапланады.

Конституция нормаларының әҳмийетли мәселелеринен бири инсан ҳәм мәмлекет арасындағы қатнасық мәселеси болып табылады. Бунда тийкарғы дыққат-итибар инсанның ерки, ден-саўлығы, өмири, мүлки сыяқлы ҳуқықларының тәмийинленгенлигине ҳәм кепиллениўине қаратылады.

Конституцияда инсанның тәбийий ҳуқықлары, яғный жасаў, мийнет етиў, еркин кәсип таңлаў, меншик ийеси болыў ҳәм де ҳәмменің нызам алдында теңлиги сыяқлы ҳуқықларының муқаддеслиги ҳәм қол

қатылмаслығы анық белгилеп қойылады. Конституцияда көрсетилген инсан ҳуқықлары халықаралық ҳүжжетлерге ҳәм ең алды менен БМШ ҳүжжетлерине, Инсан ҳуқықлары дүнья жүзлик декларациясына тийкарланған. Конституцияның тийкарғы әҳмийети сонда ол инсан ҳуқықлары ҳәм еркинликлерине тийкарғы итибарды қаратады.

Конституциямыздың және бир өзине тән өзгешелиги сонда, Конституциямызда “Шаңарақ” деген бабының бар екенлиги. Бул бап сырт ел мәмлекетлери тажрийбесинде ҳеш қайсы мәмлекетте көзге тасланбайды. Айрым мәмлекетлерде бир ғана статья арқалы шаңарақлық қатнасықлар тәртипке салынады. Бизиң Конституциямызда болса шаңараққа жәмийеттиң тийкарғы буўыны сыпатында қаралып, жәмийет ҳәм мәмлекет қорғаўында болыў ҳуқықы белгиленген.

Конституция мәмлекеттиң ерк-ықрарын көрсетиўши, мәмлекет дүзилиси ҳәм басқарыў формасы тийкарларын белгилеўши, инсан ҳуқықлары ҳәм еркинликлерин тәмийинлеўши, ҳәкимият уйымлары хызметиниң шөлкемлестириў тәртиби ҳәм принциплерин белгилеўши тийкарғы нызам.

Конституцияның тийкарғы *абзаллықлары* мазмуны:

Конституцияның тийкар болыў сыпаты соннан ибарат ол барлық жәмийетлик қатнасықларды емес, ал ең әҳмийетли, негизги жәмийетлик қатнасықларды ретлестиреди ҳәм солай етип улыўмаластырыў сыпатына ийе болады.

Конституция нормалардың ең аз көлеминде ҳәм муғдары шеклеринде жәмийет ҳәм мәмлекетлик дүзилистеги ең тийкарғы нәрселерди көрсетиўи тийис. Жәмийетлик қатнасықларды кең түрде тәртиплестириў басқа нормативлик-ҳуқықый актлерде әмелге асырылыўы тийис, олар Конституцияны тиккелей басшылыққа алыўы зәрүр.

Конституцияның халықлығы соннан ибарат, ол халықтың мәплерин билдириўи, атап айтқанда, тутас алғанда адамлардың ҳәм халықтың хызметиниң нәтийжеси болып табылатуғын социаллық қатнасықларды анықлаўы, сондай-ақ халық тәрепинен ямаса өзиниң ўәкиллери арқалы, яки тиккелей дүзилиўи ҳәм қабыл етилиўи тийис.

Конституцияның шынлығы бул ҳүжжеттиң жәмийеттеги ҳақыйқый жағдайын сәўлелендириўи тийислилигин аңлатады. Бундай болмаған жағдайда конституция қәлбеки ҳүжжет болады ҳәм халық арасында абырайға ийе болмайды, демек сақланбайтуғын болады.

Турақлылық - конституцияның ең әҳмийетли сыпаты. Конституция – узақ ҳәрекет ететуғын ҳүжжет. Ол сол ўақыттағы жағдайға байланыслы өзгерислерге ушырай бермеўи ҳәм белгили бир ўақыт ишинде орын алған тәртиптиң беккемлигин тәмийинлеўи тийис. Бирақ, басқа да ҳәдден тыс кетиўшиликке жол қойыўға болмайды, яғный Конституцияны бәрҳама турақлы болған ҳәм ҳеш қашан өзгермейтуғын «мәңги» ҳүжжет сыпатында қабыл етиўге жол қойылмаў керек. Әмелиятта бул мүмкин емес, себеби

жәмийет өзгерип турады ҳәм тийисли өзгерислер киргизилмесе, Конституция жәмийетлик раўажланыўдан «изде қалады» ҳәм өзиниң әҳмийетлилигин жойтады. Демек, Конституцияның турақлылығы ҳәм ўақты-ўақты оны жаңаланыўдың зәрүрлиги керек болады.

Елимизде болып атырған өзгерислердиң демократиялық ҳуқықый мәмлекет қурыў, әдил пуқаралық жәмийетти дүзиў жолында ерисип атырған жетискенликлеримиздиң барлығы Конституцияда көрсетилген ҳуқық ҳәм имканиятларды, тийкарғы принциплерди турмыста толық пайдаланып билиў менен байланыслы.

Жуўмақлап айтқанымызда: Конституцияны оқыў, үйрениў, мазмунын оның мәнисин терең түсиниў, оған бойсыныў, көрсетилген ҳуқықлардан сапалы пайдаланыў ҳәм оны орынлаў, ол бойынша үгит-нәсият жумысларын жүргизиў ҳәр биримиздиң ўазыйпасы деп ойлайман. Себеби, Конституция шахс, жәмийет ҳәм мәмлекет мәплерин қорғаўшы нызам.

Пайдаланыған әдебиятлар

1. И.А.Каримов. Биздан озод ва обод ватан колсин. Т., Узбекистон, 1994, 185-6

2. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.3. - T.: Sharq. 2000. - 39-bet

3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent: H-89 Adolat, 2013. - 552 b.

4. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ КОНСТИТУЦИЯСИ.1992 йил 8 декабрда ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида қабул қилинган. 9-модда.

Шагилова Гульхатиша Коптлеуовна ***Докторант кафедры «Права человека, государственного права и управления» Каракалпакского государственного университета***
shagilovag@gmail.com

ЭЛЕКТРОННОЕ ПРАВИТЕЛЬСТВО КАК МЕХАНИЗМ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ

Как известно из истории Э-правительства, начало процессу развития электронного правительства положило появление web-технологий: простота их использования привела к тому, что к сети Интернет смог подключиться самый массовый пользователь — рядовые граждане.

Система «Электронное правительство» — это единый механизм взаимодействия государства, граждан и бизнеса, а также самих государственных органов между собой. В этом механизме активно используются информационно-коммуникационные технологии: веб-сайты, информационные системы, базы данных, интегрированные между собой.

Концептуальные моменты электронного правительства отражены в методологии ООН и представлены в *докладах Организации Объединенных Наций (ООП*). С 2001 года Департамент Организации Объединенных Наций по экономическим и социальным вопросам (ДЭСВ ООН) проводит исследование, которое служит единственным глобальным отчетом, предоставляющим оценку уровня развития электронного правительства всех государств-членов ООН. Исследование в основном предназначено для представителей правительственных структур, государственных чиновников, представителей науки, гражданского общества, частного сектора и других специалистов-практиков и экспертов в области государственного управления, электронного правительства и использования ИКТ в целях развития.

В исследовании оценивается эффективность электронного государственного управления при оказании государственных услуг; выявляются модели развития и эффективности электронного государственного управления, определяются страны и области, в которых потенциал информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и электронного государственного управления еще не используется в полной мере и где поддержка в области развития потенциала может оказаться полезной. При этом прогресс в развитии электронного правительства отслеживается через Индекс развития электронного правительства (EGDI), который показывает уровень развития электронного правительства на национальном уровне, представляет собой сводный индекс, основанный на средневзвешенном значении трех стандартных индексов. Рейтинг

электронного правительства ООН является одним из ключевых индикаторов развития информационного общества в странах мира.

Сегодня мы можем представить предварительные результаты нашего исследования опыта передовых стран и стран с успешной реализацией национальных программ по развитию ЭП, а именно опыт *Дании.*

Прежде всего стоит отметить, что Дания была одной из первых стран Евросоюза, начавшей реализацию в 2001 г. проекта «электронное правительство». Уже в 2016 г. она находилась на 9 позиции, а спустя 2 года, в 2018 г. у нее оказался самый высокий рейтинг по развитию инфосферы, оставив позади Австралию, Республику Корея и лидера 2016 г. Великобританию.

В истории развития цифровизации государственного сектора Дании было 4 основных этапа развития [1]. *Первым* из них является внедрение цифровой подписи в 2001 году. Начиная с того года, все служащие госорганов были обязаны работать посредством электронной почты и пользоваться межведомственными электронными системами в рабочей деятельности. Были автоматизированы технологические операции внутри государственного сектора. Результатом работы стало внедрение электронного портала borger.dk, сервисов электронной подписи и электронного предоставления счетов (Nem Handel) [2].

Согласно статье 3 закона Республики Узбекистан «Об электронном правительстве» дается определение понятию электронного правительства, т.е это система организационно-правовых мер и технических средств, направленная на обеспечение деятельности государственных органов по оказанию государственных услуг физическим и юридическим лицам путем применения информационно-коммуникационных технологий, а также межведомственного электронного взаимодействия. Говоря проще, э-правительство облегчает связь с государственными органами, способствует сокращению очередей, упрощает процесс получения справок, свидетельств, лицензий и других документов, помогая всем сторонам — и государственным органам, и предпринимателям, и обычным гражданам — работать более эффективно. Есть прямая взаимосвязь между уровнем развития э-правительства и государства в целом. Когда все процессы в системе государственного управления отлажены, ежедневные отношения между гражданами и государством становятся прозрачными, доверие граждан к госорганам повышается. Время и затраты на получение государственных услуг сокращаются, улучшаются предпосылки к развитию бизнеса, что приводит к росту экономики. Более конкретно можно сказать, что процесс развития электронного правительства в то же время минимизирует взаимоотношения граждан с должностными лицами, что является одним из методов и механизмов предотвращения коррупции.

Особенно актуально оно в свете реализации правительственных задач, в частности таких, как развитие системы электронного правительства, предусмотрев доведение доли электронных государственных услуг к 2022 году до 60%; ускоренное формирование цифровой экономики, предусмотрев увеличение ее доли в валовом внутреннем продукте страны к 2023 году в 2 раза; широкое внедрение цифровых технологий на всех этапах системы образования, повышение уровня цифровых знаний, необходимых для современной экономики, совершенствование инфраструктуры образования. А также открытие до 2022 года во всех регионах республики центров обучения цифровым знаниям в рамках реализации проекта «Пять инициатив»[3], определенных в целом ряде принятых нормативно-правовых, законодательных актов в сфере цифровизации и главной ее составляющей – электронного правительства.

Список использованной литературы

1. Digital Leaders. ‘How Denmark Made It to the Top in E-Government’, 1 April 2019. https://digileaders.com/how-denmark-made-it-to-the-top-in-e-government/.
2. Denmark Is at the Top in Several Studies When It Comes to Digitisation’. Accessed 19 March 2021. https://blog.e-boks.com/denmark-is-at-the-top-in-several-studies-when-it-comes-to-digitization
3. Шавкат Мирзиёев подписал документ о развитии цифровой экономики/Электронный ресурс: https://www.spot.uz/ru/2020/04/28/digital/
4. Шагилова, Гулхатиша Коптлеуовна (2023). ПОНЯТИЕ, ЦЕЛИ И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (1), 508-516.

Садыков Рашид Қошкарбаевич ***Бас прокуратура жанындағы Департаменттиң Қарақалпақстан Республикасы басқармасы бөлим баслығы***

КОРРУПЦИЯҒА ҚАРСЫ ГҮРЕС АЛЫП БАРЫУДАҒЫ ШЕТ ЕЛ МӘМЛЕКЕТЛЕРИНИҢ ТӘЖРИЙБЕСИ

Аннотация: Уси мақалада шет ел мәмлекетлериниң коррупцияға қарсы гүрес тәжрийбесин үйрениў, олардың өзине тән өзгешеликлери ҳаққында, олар қандай принциплерге сүйенген ҳалда ис алып барыўы ҳаққында, Дания, Сингапур, Финляндия, Қытай сыяқлы мәмлекетлердеги коррупцияға қарсы гүресиў бойынша ҳәр қыйлы нәтийжели тәжрийбелери ҳаққында сөз етиледи.

Коррупция - бул мәмлекеттиң раўажланыўына кери тәсир ететуғын қорқынышлы иллет. Данияда коррупцияның түри де, оған берилетуғын сыпатламада көп. Жер жүзинде ҳәр бир мәмлекет өз имканиятларынан келип шыққан ҳалда өзине тән усыллар менен коррупцияға қарсы гүрес алып бармақта.Коррупцияға қарсы гүрес алып барыўдың барлық мәмлекетлер ушын тән болған бирдей усыллар жоқ.

Ҳәр бир мәмлекет коррупцияға қарсы гүресиў бойынша өз тәжрийбесине ийе. Мәмлекеттиң коррупцияға қарсы алып барған гүресиў ислери нәтийжелерине қарап унамлы йәки унамсыз деген пикирге келсек болады. Шет ел мәмлекети тәжрийбесин үйрениў, анализлеў коррупцияға қарсы гүрес алып барыў искерлигин жеделлестириў, нәтийжелигин арттырыў әҳмийети есапланады. Бүгинги күнде коррупцияға қарсы мақсетли сиясаттың алып барылыўы нәтийжесинде коррупцияның белгили дәрежеде сезилерли кемейиўине себеп болды. Коррупцияға қарсы гүресиўдиң шет ел тәжрийбеси мәмлекетлерде коррупция дәрежесин ең кем муғдарға кемейтиўге болатынын көрсетти.

Коррупция көплеген шет ел мәмлекетлерде турмыстың барлық тараўларына унамсыз тәсир етеди ҳәм оның халық аралық характердеги жынаят екенлиги тән алынады. Дүнья жүзлик жәмийет коррупцияны болдырмаў ҳәм оның алдын алыў бойынша күшлерди бирлестириўге урынып келмекте.

Европа Аўқамында коррупция ушын тек ғана жынайый жуўапкершилик емес, ал пуқаралиқ-ҳуқықый тәртипте де жуўапкершиликке тартылыўы мүмкинлигин нәзерде тутылады. Нызамда коррупция нәтийжесинде жәбир көрген шахс көрген зыянын қаплаў ушын пуқаралық даўа қозғатыўы мүмкин. 2019-жыл "Транспаренс Интернационал"дың берген есабы бойынша коррупция төмендеги мәмлекетлерде дерлик жоқ: Дания ҳәм Жаңа Зеландия, Финляндия, Сингапур, Швеция ҳәм Швейцария.

Данияда коррупцияның мәмлекетлик дәрежеде жоқ болыўы пуқараларының жоқары дәрежеде санасы ҳәм жуўапкершилиги менен де

байланыслы, сол себепли даниялықлар коррупция машқаласы менен басқа европа еллерине салыстырғанда 8 мәрте кем дусласады. Данияда коррупция дәрежеси төменлигиниң баслы себеплериниң бири, коррупцияны тек ғана мәмлекетлик ҳәмелдарлар емес, бәлки әпиўайы пуқаралар арасында қаралаў дәстурге айланған. Мәмлекетлик әдеп-икрамлық кодекси, ҳәмелдарлардың ар-намыс кодекси, ҳүкимет дәрежесинде әшкаралық ҳәм ашықлық ҳүким сүреди. Сол себепли, кимдур коррупцияда гүман етилген жағдайда, кәсиплик мәртебесиниң асыўы менен хошласыўы мүмкин.

Даниялылар арасында парахорлық дәрежесиниң төмен болыўына ўақты-ўақты менен коррупция ҳаққындағы нызамның қаталластырып барылыўы да тәсир көрсетеди. Кейинги жыллары мәмлекетлик органлардағы коррупция ушын үш жылдан алты жылға дейин, жеке секторда болса, бир жылдан төрт жылға дейин еркинен айырыў жазасының муғдары көбейди.

Данияда коррупцияның алдын алыўдың ең нәтийжели шарасы 2002-жыл қабыл етилген Данияның коррупция ҳаққындағы нызамы есапланады. Нызамға көре, Дания ҳүкимети ўәкиллери ҳәр жылы өз мүлки ҳәм жеке дәраматлары ҳаққындағы мағлыўматларды дағаза етиўи талап етиледи. Буннан тысқары, лаўазымлы шахслар хызмет лаўазымынан жеке мақсетлерде пайдаланыўына жол қоймаў ушын олар өз акцияларын шет ел кәрханаларына сатыўы керек. Данияда коррупцияға қарсы гүресиўдеги ең үлкен көмек бериўши бул ғалаба хабар қураллары болып есапланады.

Коррупцияға қарсы унамлы тәжирийбеси менен халық аралық көлемде тән алынған тағы бир мәмлекет *Сингапур* болып, ол ҳәзирде дүнядағы ең кем коррупцияласқан мәмлекетлерден бири есапланады. Сингапурда коррупцияға қарсы кампанияның нәтийжели енгизилиўине 70-жылларда Сингапур премьер-министри Ли Куан Ю тийкар салады, оның арқасында мәмлекет үшинши дүньядан бириншиге көтериле алды.1999-жылы ноябрде ол өзине исеним менен « Ҳадал, дақ тиймеген, нәтийжели ҳүкимет үстинлик етиўши партияның ҳәм Сингапурдың баслы баҳалығы болып қалады»

Сингапурдағы коррупцияға қарсы гүресиўдиң тийкарғы бағдары коррупцион искерликти тергеўдиң автономиялық Бюросы болып, ол 1970-жылдан баслап, бас министрдиң канцеляриясына бойсынды. Пуқараларға бюроға мәмлекетлик хызметкетлерден шағым етип мүрәжат етиў ҳәм зыянды талап етиў имканияты берилди.

Сингапурдың коррупцияға қарсы стратегиясы " коррупцияның алдын алыў акты" тийкарланған болып, шахстың коррупцион ҳәрекетлерди ислеўине ийтермелейтуғын шәраятларди кемейтиў яки жоқ етиў" сондай-ақ, принципиаллық ҳәм избе-излик.

Сингапур дүнья жүзи бойынша бүгинги күнде коррупцияның жоқ екенлиги, экономикалық еркинлик ҳәм раўажланыўы бойынша жетекши орында турады.

Швецияның коррупцияға қарсы гүресиў тәжрийбесине итибар беретуғын болсақ, XX-әсир орталарына шекем бул мәмлекетте коррупция оғада раўажланған еди. Мәмлекетти модернизациялаўдың нәтийжелериниң бири меркантилизмди жоқ етиўге қаратылған иләжлар комплекси болды. Мәмлекетлик ретлестириў хошаметлеўлерге тийкарланды (салықлардан жеңилликлер бериў, льгота, субсидиялар). Ишки мәмлекетлик ҳүжжетлеринен пайдаланыў мүмкиншилиги ашылып, бийғәрез әдил судлаў системасы енгизилди. Усылардың қатарында, Швеция парламенти ҳәм ҳүкимети басшылары ушын жоқары әдеп-икрамлық стандартларды орнатылды ҳәм оған бойсыныўға киристи. Тек бир неше жылдан кейин, ҳадаллық социаллық нормаға айланды. Дәслеп, жоқары лаўазымлы ҳәмелдарлардың ис ҳақылары жумысшылар табысынан 12-15 ретке асып кетти, бирақ ўақыт өтиўи менен бул парық еки ретке кемейди. Бүгинги күнде, Швеция еле дүньяда коррупция бойынша ең төмен дәрежеде турған мәмлекетлерден бири.

Халық аралық дәрежеде *Қытай*дың коррупцияға қарсы гүреиў тәжрийбе усылын үйрениў жүда қызықлы.

Қытайда коррупцияға қарсы гүресиў сиясаты коррупция жынаятларында айыплы деп табылған шахсларға қарата жүдә қатал жынйыйы жаза қолланылғанлығы менен белгили. Қытайда коррупцияға қарсы гүресиўдиң нәтийжелиги лаўазымлы шахслардың искерлигин баҳалаўдың жолға қойылғанлығы еаспланады. Ол лаўазымлы шахс басқаратуғын йәки қадағалаў йәки бақлаў алып баратуғын аймақтың йәки тараўдың раўажланыў көрсеткишлери менен белгиленеди. Қытай мәмлекетлик органларда қандайда бир таныс-билислери, байланыслары бар болғанлығы ушын емес, ал ҳадал базар бәсеки арқалы табысларға ерискенлиги ҳаққында мағлыўматларды тарқатыў ҳәр тәреплеме қоллап қуўатланды.

Қытайда барлық мәмлекетлик ҳәкимият ҳәм басқарыў органларында турақлы әмелге асырылатуғын кадрлар ротациясы коррупцияға қарсы гүресиўде унамлы нәтийже саналады. Кадрлар ротациясы ҳәмелдарлардың қәлиплескен хызмет, ағайын-туўысқан, дос-яран ҳәм басқада байланысларынан пайдаланыўын кемейтеди.

Коррупцияға қарсы тийкарлар Финляндия мәмлекети Конституциясында белгиленген: барлық мәмлекетлик ҳәкимиятларда нызам үстинлигин тәмийинлеў; мәмлекетлик хизметкерлерди кәсиплик уқыплығы, тексерилген пуқаралық әдеплилиги тийкарында лаўазымға белгилеў. « Мәмлекетлик хызметкерлер (лаўазымлы шахслар) ҳаққында»ғы беккемленген көрсетпелерге муўапық, лаўазымлы шахсларға олар тәсир етиўи мүмкин болған мәпдар шахслар есабынан сыйлықлар ямаса кеўилашар хызметлерден пайдаланыўы қадаған етиледи.

Финляндияда коррупцияға қарсы гүресиў ҳаққында арнаўлы нызам жоқ, коррупцияға қарсы гүериўши арнаўлы орган да шөлкемлестирилмеген.

Коррупцияға улыўма жынаятшылықтың бир бөлеги сыпатында гүрес алып барылады. Финляндия Конституциясы, Жынаят кодекси, Пуқаралық хызмети ҳаққында нызам, ҳәкимшилик басқарыўға тийисли көрсетпелер ҳәм басқа да нызам асты ҳүжжетлери коррупцияның алдын алыўға қаратылға ҳүжжетлер есапланады. Булардың арасында ең әҳмийетлиси әдеп-икрамлық қағыйдалары есапланады.

Коррупцияға қарсы гүресиў тараўындағы жақсы нәтийжеге ерискен Дания, Сингапур, Қытай, Финляндия, Швесия ҳәм тағы басқада шет ел мәмлекетлериң тәжрийбелерин үйрениў биз ушын әҳмийетли. Әлбетте, Өзбекстан Республикасының раўажланыў тарийхын, менталитетин есапқа алып жоқарыдағы мәмлекетлердиң унамлы тәжрийбесин енгизиў зәрүр.

MUNDARIJA

U.T.Bektemirov	Seminar ochilishidagi nutqi.....	3
М.Б.Юсупов А.Ф.Жолдасов	Коррупция давлат ва жамият ривожланишининг кушандаси.....	5
U.T.Bektemirov M.J.Munnazarov	Korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi va mazmuni.....	8
B.A.Yermekbayev A.M.Ametova N.S.Urazov	Korrupsiya taraqqiyot kushandasi.....	11
S.B.Amaniyazova	Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari……	15
X.I.Xidirov	Korrupsiyaga qarshi kurashning britancha modeli	20
Х.У.Убенов	Ўзбекстан Республикасында коррупцияға қарсы гуресиўдин ҳуқуқый асаслары…….	23
R.N.Nazimov	O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishniing huquqiy asoslari.....	27
А.С.Исмоилов	Коррупцион муҳитдаги салбий тендециялар ва уларга қарши туришнинг сиёсий ва ҳуқуқий асослари.....	32
M.T.Kalmuratov	O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari.....	37
R.K.Jalalov	Korrupsiyaga qarshi kurash davlat va jamiyat taraqiyotning muhim omili	39
Ш.У.Салиева А.Ж.Давлетов	Совершенствование административно-правовых механизмов профилактики и противодействия коррупции при оказании государственных услуг……	43
P.K.Shagilov K.R.Babanazarov	Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazorati.....	48
А.Т.Ачилов	Ташқи иқтисодий фаолиятда коррупциявий жиноятлар ва жавобгарлик масалалари...	52
R.A.Bauetdinov	Korrupciya - mámleket hám jámiyet rawajlaniwina tosqinliq etiwshi illet.....	59

F.Qutlımuratov Z.Shamshetova	Korrupciya jinayatshiliǵiniń aldin aliw.....	63
А.Қ.Рейимбаев	Коррупция жиноятини яшириш ёки у ҳақда хабар бермаслик ҳолатига оид жавобгарлик..	67
Н.Дж.Бабабеков	Ўзбекистонда коррупцияга қарши кураш соҳасида олиб борилаётган ислоҳотлар…..	70
Sh.A.Sharipov	O’g’irlik va korrupsiyaning farqi nimada.....	74
T.Y.Ochilov Sh.Sh.Azizov	Korrupsiyaga qarshi kurashish – barchamizning fuqorolik burchimiz…….	78
Э.М.Султанов	Коррупцияга қарши кураш – фуқаролик жамиятининг асосий шарти…….	81
F.R.Anorboyev S.U.To‘yichiyev	Korrupsiyaga qarshi kurashishga har birimiz mas’ulmiz……..	87
Sh.M.Sarimsokov V.E.Achilov	Korrupsiya – mamlakat taraqqiyotiga to’siq bo’ladigan illat……..	90
Y.Y.Turanov	Korrupsiyaga qarshi kurashish – vatan taraqqiyotining kafolatidir…….	94
S.S.Yormatov Q.S.Ibragimov	O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olishda yuzaga kelayotgan ayrim muammolar.....	99
A.A.Jamolov	Korrupsiya jamiyatning “Qorason” illatidir....	102
B.U.Pulatov Q.S.Ibragimov	Korrupsiyaga qarshi kurashda o’z–o’zini tushinish…….	107
X.Y.Soriyev B.Sh.Axmedov	Korrupsiya va unga qarshi kurashishning ba’zi uslublari…….	110
G.B.Azamatova	Jamiyat hayotida korrupsiya holatini yuzaga keltiruvchi salbiy omillar va uni bartaraf qilish yo‘llari……	113
A.R.Abdurasulov	Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq tizimida korrupsiyaning oldini olish.....	118
A.Sh.Shrazov O.B.Saparov	Elektron húkimet sistemasin rawajlandiriw - korrupciyaǵa qarsi gúrestiń ahmiyetli bo'legi...	125

B.Q.Yusupov	Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning burchimiz……..	129
P.O.Qlichbaev	Korrupsiya-kelajakka xavf……	131
H.O‘.Akramova	Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat va davlat rivojining muhim omili……..	134
Sh.B.Turatov	Abu Nasr Forobiy asarlarida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari…….	137
A.M.Sultanbayev	Korrupsiyaga qarshi kurashishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish-ning oziga xos xususiyatlari……	141
L.A.Navruzov	Fuqarolik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashda yordam beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining 4 ta texnologiyasi……..	144
S.B.Amaniyazova M.M.Saparniyazov	Korrupciyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati: xorijiy tajriba.....	149
F.Qutlımuratov Z.Shamshetova	Korrupciyaǵa qarsi gúres alip bariwdaǵi shet el mámleketleriniń tájriybesi…….	153
Э.М.Мунназарова	Коррупция билан курашнинг чет эл тажрибаси: муаммолар ва ечимлар……	156
Т.Ш.Қаллибеков	Коррупцияға қарсы гүресиўши халық аралық ҳүжжетлер ҳәм де сырт ел тәжирийбелери…	160
С.С.Валиев	Коррупцияга қарши курашнинг хорижий тажрибаси…….	165
И.А.Матжанов	Коррупцияға қарсы гүресте халықаралық ҳүжжетлердиң тутқан орны……..	171
D.F.Giyasov K.T.Tolipov	Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat va davlat rivojining muhim omili sifatida: maxalliy va xorijiy tajriba……..	174
A.Abibullayeva	Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat va davlat rivojining muhim omili sifatida: mahalliy va xorijiy tajriba……..	184
A.I.Djumabekova	Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajriba…	188

А.Хожаназаров З.Оразимбетова	Теоретические аспекты культуры речи и ее значение для военнослужащих……..	190
С.М.Мамбеткаримов	Яширин иқтисодиётнинг ҳудуднинг молиявий салоҳиятига таъсирини баҳолаш учун асосий услубий ёндашувлар……	194
Б.М.Казахбаев	Сила как физическое качество спортсменов…	197
П.Өтениязов	Қарақалпақ халық ертеклеринде ҳүждан, пәклик, әдиллик мәселелери……...	200
B.Sh.Aytmuratov A.Keńesbayev	AKTda sun`iy intellect…….	202
A.B.Abdullayev	Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar vakolatlarining huquqiy tartibga solinishi holati…	205
К.Т.Қазақбаев	Корпоратив шартнома моҳияти: илмий назарий ёндашувлар ва уларни таҳлил қилиш…….	210
Sh.Hakimov D.Shomuratova	Jámiyetshilik qadaǵalawi jáne oni ámelge asiriwdiń konstituciyaliq huqiqiy kepillikleri…	216
D.B.Amaniyazova	Qaraqalpaqstan Respublikasi jergilikli wákillikli uyimlar iskerliginiń huqiqiy tiykarlari.....	220
С.Р.Даўлетмуратов	Конституция пуқаралық жәмийет ҳәм демократиялық мәмлекетти қурыўдың ҳуқықый тийкары.....	223
Г.К.Шагилова	Электронное правительство как механизм противодействия коррупции.....	227
Р.Қ.Садыков	Коррупцияға қарсы гүрес алып барыудағы шет ел мәмлекетлериниң тәжрийбеси….	230

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH JAMIYAT VA DAVLAT RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazining
2023 o‘quv yili birinchi yarim yillik uchun ish rejasiga asosan o‘tkazilgan

Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

(2023 yil 03 mart)
«NUR TURAN PRINT»

Bosmaga ruxsat berilgan 2023 yil "01" mart. Buyurtma № 6-23
Bichimi-60x84 1/16 kegil 12 garniturasi «Times New Roman » Hajmi-14.875 b/t
Offset usulida. «Nur Turan Print» bosmaxonasida bosildi
Nukus Ziyoli №40

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy o‘quv markazi